

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

1 МАХСУС СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART  
SPECIAL ISSUE 1



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-SI-1>

**Бош муҳаррир:**

**Тўхтасинов Илҳом**

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**

**Тўхтасинов Илҳом**

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**

**Tuhtasinov Ilhom**

DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**

академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўгли**

ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**

ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**

к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**

Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддикова Ирода**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**

ф.ф.д. (Грузия)

**Джамалова Дилдора**

доцент, пед.ф.н., Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими

**Туробов Бекпулат**

масъул котиб, PhD, доцент

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**

академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умар оглы**

д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**

д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**

д.ф.н., профессор (Россия)

**Джўраев Маматкул**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахыммамед**

к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Джеймс Форт**

Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Балтабаев Ҳамидулла**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддикова Ирода**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**

д.ф.н. (Грузия)

**Джамалова Дилдора**

доцент, к.пед.н, заслуженный работник культуры Узбекистана

**Туробов Бекпулат**

отв. секретарь, PhD, доцент

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**

academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**

University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**

Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Djamalova Dildora**

Ass.Prof., Cand.Ped.Sc, Honored Cultural Worker of Uzbekistan

**Turobov Bekpulat**

PhD Ass. prof. Senior Secretary

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хўршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

|                                                                                                                                                             |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>1. Ахрор Адилов</b><br>ДЕКОРАЦИЯ ВА СЦЕНОГРАФИЯНИНГ СПЕКТАКЛЬ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ.....                                                                      | 5   |
| <b>2. Nasimov Fotih Hilol o'g'li</b><br>O'ZBEK KINOSIDA TARIXIY BADIY FILMLARNING SHAKLLANISHI.....                                                         | 10  |
| <b>3. Yoqub Osotonoyev</b><br>OMMAVIY BAYRAM, TOMOSHALARNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI, ROLI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI.....                                      | 14  |
| <b>4. Гули Шукурова</b><br>АДАБИЙ ПОРТРЕТЛАРДА БАДИЙ ВА ПУБЛИЦИСТИК ТАЛҚИН УЙЎУНЛИГИ.....                                                                   | 19  |
| <b>5. Djalilov Ergash Kenjayevich</b><br>SAMARQAND TEATRI VA KONSERT SAN'ATINING RIVOJLANISHI.....                                                          | 25  |
| <b>6. Суванкулов Илхомжон Шахобиддинович</b><br>ТАСВИРИЙ САЊАТДА СИРТЛАРНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ ВА УЛАРНИ<br>ГЕОМЕТРИК ЭЛЕМЕНТЛАРИ.....                            | 30  |
| <b>7. Суванкулов Илхомжон Шахобиддинович</b><br>ИККИ ҚАТЛАМЛИ ПАНЖАРАЛИ СИРТЛАРНИ БОШҚАРИШ УСЛУБЛАРИ.....                                                   | 36  |
| <b>8. Djalilov Ergash Kenjayevich</b><br>MUSIQIY VA BADIY SAN'ATNING RIVOJLANISH YO'LLARI SAMARQANDDAGI HAVASKORLAR<br>CHIQISHLARI.....                     | 43  |
| <b>9. Xaydarov A.</b><br>ASARDA DRAMATIK KURASHNING MOHIYATI.....                                                                                           | 47  |
| <b>10. Ijodbek Jo'rayev</b><br>OVOZ HOSIL BO'LISH JARAYONI.....                                                                                             | 51  |
| <b>11. Munojatxon Asqarova Xusanovna</b><br>HOMIL YOQUBOV O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING YETUK TADQIQOTCHISI.....                                              | 54  |
| <b>12. Mirodil Jo'rayevich Hakimov</b><br>CHOLG'U IJROCHILIGI VOSITASIDA ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH.....                                          | 62  |
| <b>13. Shuhrat Toxtasimov</b><br>O'ZBEK BOLALAR FOLKLOR RAQSLARI ESTETIK –<br>MA'RIFIY TARBIYA MEZONI SIFATIDA.....                                         | 67  |
| <b>14. Shuhrat Toxtasimov</b><br>QASHQADARYO – SURXONDARYO BOLALAR PREDMETLI<br>RAQSLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....                                      | 72  |
| <b>15. Achilova Nurxon Normammedovna</b><br>QADIMGI XITOIY MIFOLOGIYASIDA AJDARHOLAR VA ULARNING TURLARI.....                                               | 78  |
| <b>16. Gulyamova Shahnoza Qahramonovna, Xudoyberdiyeva Filura Ziyadinovna</b><br>NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA EVFEMIZMLARNING AHAMIYAT.....           | 83  |
| <b>17. Башарова Лайла</b><br>ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО КОНТЕКСТА В ИСКУССТВЕ ПЕТРОГЛИФОВ<br>ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....                                         | 88  |
| <b>18. Mirodil Jo'rayevich Hakimov</b><br>CHOLG'U IJROCHILIGI VOSITASIDA ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH.....                                          | 93  |
| <b>19. Умида Хушвактова</b><br>ПЕРСОНАЖЛАР РУҲИЙ ҲОЛАТИНИНГ ЛИНГВОКОГНИТИВ ТАДҚИҚИ<br>(Зулфия Куролбой кизининг “Машаққатлар гирдоби” романи мисолида)..... | 98  |
| <b>20. Минхожиддин Хожиматов</b><br>ШУКУРЛЮ ШЕЪРИЯТИДА ПОЭТИК МАЗМУН ВА МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ТУЙҒУСИНИНГ УЙЎУНЛИГИ.....                                             | 104 |
| <b>21. Abdullayeva Fotima Sagdullayevna</b><br>XXI ASR MODA SOHASI RIVOJINING ASOSIY TENDENSIYALARI.....                                                    | 110 |
| <b>22. Shomahmud Shorahmetov</b><br>SHASHMAQOM NASR BO'LIMI RUBOB CHOLG'U IJROCHILIGIDA.....                                                                | 117 |

|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>23. Хулкар Ҳамроева, Нокисбай Абдираманов</b><br>ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚ РАҚСЛАРИДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЭСТЕТИК ТАЛҚИНИ (“АЙҚУЛАШ” РАҚСИ МИСОЛИДА)..... | 122 |
| <b>24. Хулкар Ҳамроева, Тўмарис Аъзам Бутунбаева</b><br>“ХОРАЗМ ЛАЗГИ РАҚСИ”: ТАРИХ, ТАФАККУР, ТАСАВВУР ВА ТУЙҒУ ФАЛСАФАСИ.....                      | 131 |
| <b>25. Liza Urazmbetova, Qazaqbaeva Ramuza</b><br>REJISSYOR-NAJIMATDIN ANSATBAEV.....                                                                | 140 |
| <b>26. Кари-Якубова Елена Анатольевна</b><br>«РАЗВИТИЕ ТАНЦЕВАЛЬНОГО ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА В РАБОТАХ АРХЕОЛОГОВ, УЧЁНЫХ, ИСКУССТВОВЕДОВ».....        | 144 |
| <b>27. Лизахан Уразмбетова</b><br>СПЕКТАКЛЬДИҢ ДӨРЕЛИҰИ<br>(диплом спектакльлерин сахналастырыў процессинен).....                                    | 151 |
| <b>28. Лизахан Уразмбетова</b><br>АКТЁРЛЫҚ ШЕБЕРЛИГИН ӨЗЛЕСТИРИҰДЕ ГҮЗЕТИҰ ШЫНЫҒЫҰЛАРЫ.....                                                          | 157 |
| <b>29. Шоирахон Умарова</b><br>ИНСОН ПСИХОЛОГИК ҲОЛАТИНИ ИФОДАЛОВЧИ<br>ТИЛ БИРЛИКЛАРИ (Ш.Исахонова романлари мисолида).....                          | 161 |
| <b>30. Ikhbol Shamsudinova</b><br>YORDAMCHI SO‘ZLAR BAZASINING KORPUS TUZISHDAGI AHAMIYATI.....                                                      | 168 |
| <b>31. Kultayeva Fazilat Baxtiyarovna</b><br>ERGONIMLAR HOSIL BO‘LISHINING LEKSIK-SEMANTIK USULI (METONIMIK ONIMIZATSIYA).....                       | 173 |
| <b>32. Botirova Maxliyo</b><br>REKLAMADA NUTQIY AKTLAR IFODASI.....                                                                                  | 178 |
| <b>33. Zakirova Madina Damirovna</b><br>MAIN TASKS OF COGNITIVE - PRAGMATIC STYLISTICS.....                                                          | 182 |



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Ахрор Адилов,**  
Ўзбекистон давлат хореография  
академияси тадқиқотчиси

## ДЕКОРАЦИЯ ВА СЦЕНОГРАФИЯНИНГ СПЕКТАКЛЬ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада бугунги кунда театр санъати декорацияси ва сценография асарнинг мавзу ва ғоясини очиб беришда, режиссёрнинг ўз олдига қўйган мақсадини томошабинларга тўлақонли етказиб беришида муҳим компонент сифатида қаратилаётгани ҳақида сўз боради. Театр декорацион санъатининг ўрганиш, таҳлил этиш, спектакль саҳналаштириш жараёнларида тасвирий санъатнинг тур ва жанрлари тараққиёти, замонавий ютуқларидан кенг фойдаланишга, саҳнада томошабинлар учун янги, концептуал тасвирий-ифодавий воситалар орқали бадиий атмосферани яратиш долзарб масала экани таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** театр, сўз санъати, рақс, мусиқа, актёрлик, рассомлик, меъморлик, сценография.

**Ахрор Адилов,**  
соискатель Государственной  
академии хореографии Узбекистана

## ВЛИЯНИЕ ДЕКОРАЦИИ И СЦЕНОГРАФИИ НА УСЛОВИЯ СПЕКТАКЛЯ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается важный аспект современного искусства театральной декорации и сценографии, а именно, освещается вопрос о цели, которую режиссер ставит перед собой, представляя тему и концепцию произведения искусства в области декораций и сценографии. Исследуется сущность театрального декоративного искусства, его развитие в процессе анализа и организации спектакльных сцен, использование различных жанров и стилей изобразительного искусства, широкое применение современных тенденций и инноваций в создании новых, концептуальных визуальных средств для создания атмосферы, занимающей важное место в восприятии зрителя.

**Ключевые слова:** театр, искусство речи, танец, музыка, актерское мастерство, живопись, архитектура, сценография.

**Akhror Adilov,**  
Applicant at the State Academy  
of Choreography of Uzbekistan

## THE INFLUENCE OF DECORATION AND SCENOGRAPHY ON THE CONDITIONS OF THE PERFORMANCE

### ABSTRACT

This article explores a crucial aspect of contemporary theatrical art – the theme and purpose set by the director in the creation of stage design and scenography. It delves into the essence of theatrical decorative art, analyzing its evolution in the processes of staging and organizing performances. The study emphasizes the use of various genres and styles of visual arts, drawing on modern trends and innovations to craft new, conceptual visual elements that contribute to the creation of a significant atmosphere for the audience's perception. The director's intentions in conveying the subject and concept of the artistic work in the realm of set design and scenography are discussed as a vital component of the theatrical experience.

**Key words:** theater, art of speech, dance, music, acting, painting, architecture, scenography.

Театр санъатининг инсон маънавий оламида бойитишдаги ўрни ва аҳамияти катта. Шу боисдан давлат ва жамият ҳаётида мазкур санъат тараққиётига алоҳида эътибор қаратилиб келинади.

Театр синтетик санъат бўлиб, унда драматургия, мусиқа, тасвирий санъат, рақс ва меъморчилик ажралмас бирликти ташкил этади. Мазкур санъат ютуқларининг бир вақтда бир маконда ўзига хос равишда ансамбллашуви спектакль таъсир доирасини белгилайди. Бу театр пайдо бўлган илк даврлардан оқ англаган ҳақиқат бўлиб, мазкур компонентларсиз бадиий томоша мавжуд бўлмайди. Аниқроқ қилиб айтганда театр санъатида ўзаро мустақил санъатлар (сўз санъати, рақс, мусиқа, актёрлик, рассомлик, меъморлик) драматик асар ғоясини режиссёр ечимида сахнада бадиий акс эттиришда иштирок этади. Бунда барча компонентлар мустақил санъат тури сифатида намоён бўлсада, театр таркибида яхлит – спектаклнинг маълум компонентини ташкил этади. Спектакль воқеалари ривожда ҳар бир компонент ўзгариб, спектакль давомида ўзининг маълум бир бадиий йўлини босиб ўтади. Агар бу тизимга амал қилинмаса спектакль бадиий эстетик қиймати тушиб, асар мавзу ва ғояси етарлича очилмайди. Шу боисдан театр санъати тарихининг энг қадимги даврларидан оқ барча компонентлар уйғунлигига алоҳида эътибор берилган.

Томоша тури ва жанрига боғлиқ ҳолда компонентлар турли вазифани бажаради: Масалан, мусиқа дараматик спектаклларда бадиий таъсирчанликни оширишга хизмат қилувчи ёрдамчи восита бўлса, опереттада, мусикали драмада сўз билан баробар ҳуқуққа эга. Мусиқа опера ва балетда эса, ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Сахна асарларининг яратилишида театр рассомлари (сценографияси) нинг ҳиссаси катта. Рассом асар мазмуни, ғояси ва режиссёр мақсадидан келиб чиқиб, ўзига хос ва сахна кўринишларига мос декорация яратади.

Ҳар бир санъатда бўлгани сингари театр санъатида ҳам вақт ўтиши, илмий-техникавий жараёнлар кечиши сабабли ўзига хос бадиий-эстетик тамойиллар шаклланиб, ривожланиб, маълум бир вақт ўтгандан сўнг йўқолиб боради. Айрим тамойиллар эса кўп асрлик танаффусдан сўнг мустақил ёки қайсидир санъат таъсирида қайтадан пайдо бўлади ва ўзининг янги мазмун-моҳиятини намоён этади.

Сценография санъати кўп минг йиллик тарихга эга бўлсада, театр соҳасининг энг кам тадқиқ этилган компоненти ҳисобланади. Шу маънода ўзбек миллий балет санъатида ҳам сценография ўрганилмаган.

Бугунги кунда театр санъати декорацияси ва сценография асарнинг мавзу ва ғоясини очиб беришда, режиссёрнинг ўз олдига қўйган мақсадини томошабинларга тўлақонли етказиб беришида муҳим компонент сифатида қаралмоқда. Шу боис театр декорацион санъатини ўрганиш, таҳлил этиш, спектакль сахналаштириш жараёнларида тасвирий санъатнинг тур ва жанрлари тараққиёти, замонавий ютуқларидан кенг фойдаланишга, сахнада томошабинлар учун янги, концептуал тасвирий-ифодавий воситалар орқали бадиий атмосферани яратиш долзарб масала сифатида ўртага чиқмоқда. Мазкур масаланинг тадқиқ этилиши ҳамда ўзбек балет санъатида хореография ва декорация уйғунлигини, асарнинг бадиий яхлитлигини

таъминлашга, тарих, замонавий жараёнлар, назария ва амалиёт орасидаги мавжуд бўшлиқларни, юзага келган муаммоларни бартараф этишга имкон беради. Натижада сахна маданиятини, томошабиннинг бадиий асарни ҳис этиш, англаш қобилиятини янада ўстиришга эришиш мумкин [3;15].

Шунингдек, олинган натижалар ва хулосалар театр санъати режиссёрлари, балетмейстерлари, композиторлари ва рассомларининг ўзаро ижодий ансамбллашувида, бадиий асар савиясини ошишига хизмат қилиши мумкин. Театрлар, хусусан, балет театрлари асарларини ва мазкур асрларда декорацион ечим масаласини ўрганишни мақсад қилган ёш санъатшунослар, тадқиқотчилар учун диссертация материаллари қўшимча манба сифатида фойдали бўлиши мумкин.

Томошабин театрға келар экан, икки-уч соат давомида спектакль қаҳрамонлари билан бирга хурсанд бўлади, қайғуга ботади, ўйга толади. Сахнада ўзгалар тақдири кўрсатилаётгани унутилади ҳатто. Бу албатта актёр, режиссёр ва пьеса муаллифининг ютуғи. Лекин жамоани бирлаштириб турувчи яна шундай соҳа вакили борки, унинг меҳнатисиз воқеа содир бўладиган жой, вақт мавҳумлашади. Бу – театр рассомидир. Умумий тушунчалардан ташқари у махсус декоратив рангтасвир воситалари ёрдамида сахна муҳитини ярата олиш қобилияти, декоратив материаллар хусусиятини тушуниш каби билимга эга бўлиши лозим.

Спектаклга тайёргарлик кўришда шундай рассом жалб қилинадики, унинг шахсий ижоди пьеса мазмунига якин бўлсин. Ишга кириша туриб, асарнинг мазмун ва шаклини, драматург дунёқараши, ижодий усули ва хусусиятини ўрганади.

Содир бўлаётган давр ва муҳитни ифодалаш учун мусаввир тегишли тарихий, адабий ва этнографик материал билан чуқур танишишда ва режиссёр билан ҳамфикрликда аллегорик, шартли равишда акс эттиради.

Бунга мисол қилиб, Ўзбек Миллий академик театрида сахналаштирилган “Алишер Навоий” (Иззат Султон) спектаклини келтириш мумкин. Рассом Б.Тўраев манбаларни жиддий ўрганиш натижасида ишни эскиз чизишдан бошлади, макет ясади, тарихий либосларни кўздан кечирди ва ўзидан янгиликлар киритди [5;15]. Спектакль тўрт сахнадан: сарой, жанг майдони, боғ ва кутубхонадан иборат. Б.Тўраев сахнада даврни тасвирлайдиган элементларни, тахт, курси, жихозлар, тақинчоқлар, қуроллар, китоб жавонларини кўрсатган. Сарой сахнасида ижодкор меъморлик тамойилига таяниб, ҳаракатчан ва монументал декорация тайёрлади. Марказда Ҳусайн Бойқаро тахти, саройни ёритиб турувчи шамчироқлар, шунингдек, икки томонда сарой эшиклари мавжуд (актёрлар шу эшиклар орқали кириб чиқишади). Бундан ташқари минорасимон қурилма гирих, мадохил ва панжарасимон нақшлар билан безатилган. Панжарасимон нақшлар рамзий маънода саройдаги биқик ҳаётни англатади. Сахнадаги баланд безакдор қурилма уч томонли бўлиб, спектакль воқеаларига мос тарзда айланиб, юқорида санаб ўтилган тўрт сахнани намоён этади. Рассом жанг сахнасида аянчли уруш талофатларини томошабин тасаввурида шакллантириш учун қизғиш нурлардан, турли шовқинли товушлардан, миниатюралардан фойдаланган. Боғ сахнасида Алишер Навоий ва Гулининг бир бирига бўлган оташин севгиси кўркем пейзаж орқали ифодаланган ва унинг устидан майин оқ мато туширилган. Рассом либослар хусусида ўйлар экан, уларнинг ҳам тарихий даврга монанд бўлиши, ҳам умумий сахнавий ечимга мос келиши, ҳам персонажнинг характерини кўрсатишига ҳаракат қилган. Ҳар бир безак рамзий маънога эга. Кутубхона кўринишида тоқчалар, уларнинг ичида китоблар жой олган. Бир сўз билан айтганда, Б.Тўраев асарга монанд композиция яратган. Театр рассомлари бир-бирини такрорламайди. Турлича тасаввур ва турлича ечимга эга. Битта спектаклни икки рассом ўзгача талқин қилади.

Балет спектакли яратилиш жараёнида безатувчи рассомдан ўзгача ёндшув талаб этилди, чунки балет спектклида мусиқа ва либретто етакловчи омил ҳисобланади. Бироқ, балет сахналаштиришда, умуман спектаклни яратишда ягона принципаол асос мавжуд. Балет спектакли учун сахнада эркинлик талаб қилинади, бунда сахнада ҳеч қандай маҳобатли декорация унсурлидан вос кечган ҳолда, маконнинг енгиллиги ва соддалиги, қайсики балет артистининг ҳар бир ҳаракатини аниқлик билан кўриниши учун асос бўла олиши талаб этилди.

Бу ерда рассомнинг асосий вазифаси мавзу ва ғояга ҳамоҳанг бўлган ижодий макон яратишдир.

Балет костюмига ҳам алоҳид этибор бериш керак, бунда костюмдан соддалик ва балет артистлари ҳаракатини чекламаслик талаб қилинади. Чунки, кўпгина ҳолларда, сахнада артист умумий воқеа ривожини тасвирловчи декорацион ечим фонида якка ўзи ижро қилди, унинг либосининг ранглар уйғунлиги рассом палитрасининг асосий куч бериши лозим бўлган жабҳаси ҳисобланади. бунда рассомдан юқори малака, илғор ғоялар ва ўткир эстетик табга эга бўлиши талаб этилади.

Балет спектаклида рассомнинг вазифаси асарнинг ғоясини тасвирининг бадиий ечими орқали ифода этиш. Сахнада хореографик образни талқин этувчиташқи кўриниш муҳитини яратиш бир қаторда асарнинг таъсир кучини йўқотмаслик. Бундай ҳолда спектаклнинг бадиий яхлитлиги, мусиқа ва хореографиянинг уйғунлиги йўқолмаган ҳолда, тасвирий ечим орқали эришилади. Тарихга назар солиб, балет спектакллари таҳлил қилган жараёнда, сценография масаласи драма ва опера театрларидан балет спектакллари сезиларли даражада фарқ қилишини кўриш мумкин. Балет спектакллари безашда опера ва драма театрларидан фарқли ўлароқ, рақс учун қулай ва кенг, катта ҳажмга эга бўлмаган декорация элеменлари билан ажралиб туради. Шундай қилиб, театр санъатидаги алоҳида ёндашув талаб этиладиган санъат тури ҳисобланади. Балет спектакллари ўз талабларига мос келадиган сценография ва декорация санъатларидан унумли фойдаланади.

Драма ва балет спектаклларидаги декорация масалалар нимада, деган саволга шундай жавоб бериш мумкин. Саволга жавоб балет санъати биринчи навбатда воқеалар ривожини бевоқифа хореография орқали томошабин эътиборига етказилади. Балет артистига кенг майдон керак, чунки у бор маҳоратини ишга солиб, хореография қонуниятларига асосланган пластика, мимика ифода воситаси ҳисобланади. Драма театрида еса, аксинча актёр кичкина йўлакча бўйлаб ҳаракатланиб маълум бир образни гавдалантириши мумкин [3;20].

Замонавий балет спектаклларидаги сахна безаги отрикча ва кераксиз бўлган дабдама ва хашатли тасвирий воситалар талаб қилинмайди, чунки томошабинни чалғитувчи декорациялардан вос кечган ҳолда, асосий сақсад воқеа ривожланаётган муҳитни акс эттириш лозим.

Опера ва балет спектакллари безаш учун одатда тасвирий декорациялар: пейзаж, интерьер, шартли орнаментлар, абстракт манзаралар ишлатилади. Сабаби, рақс ва оммавий чиқишлар ҳисобга олиниб сахнани эгалловчи отрикча нарсалар бўлмаслиги жоиз. Томошабин балетдан эстетик завқ олиши, ўтмиш даврни яхши ҳис этиши учун декорацияда тарихийликка эътибор қаратилган.

Рассом ва режиссёр иши чамбарчас боғлиқ келадиган жараён. Қачонки, режиссёр кўримларини рассом тўғри тушуниб, талқинга мос сахна декорациялари ярата олса, спектакль мазмунан бойийди. Бу борада сахнадаги ҳар бир деталь асар ғоясини очиб беришга хизмат қилиши керак. Режиссёр ва рассомнинг ўзаро муносабати ўта муҳимдир.

Рассом тасвирий ечимга икки йўл орқили еришиши мумкин: биринчиси фақатгина декорация теккис юза яъни задник орқали, бунда сахнадаги умумий копозиция бир текисликда бўлади. Иккинчи усул: бунда бадиий безак воситаларини сахнанинг имкониятларидан кенг кўламда фойдаланган ҳолда, яъни декорацияларининг сахна планшети бўйлаб кенг жойлаштириш орқали.


Декорациянинг асосий элементларидан яна бири – бу чироқ. Авваллари театрда чироқдан шунчаки ёритиш воситаси сифатида фойдаланилган бўлса, ҳозирга келиб, ёритиш ускуналари муҳим бадиий аҳамият касб этади. Чунки давр ва маконни кўрсатиш, актёр руҳий ҳолатини ифодадашда чироқлар ҳал қилувчи ўринга эга. Асар мазмуни, воқеалар руҳиятига номувофиқ деталлар қўлланиши, театрнинг техник имкониятларидан тўла фойдаланмаслик, ижодий ҳамкорлик сустилиги кўп ҳолларда спектакль савиясини туширмоқда. Ўйлаймизки, бугун сценография соҳасида анъанавий қолипларни четга суриб, жаҳон сахналарида келадиган янги жараёнларни, замонавий тенденцияларни таҳлилий ўрганиш ва амалда қўллаш олиш бугунги театрнинг зарурий шартларидан биридир

Рассомнинг спектаклни безашда чироқ операторлаининг хиссаси катта бўлиб, сахнада чироқ рассомнинг баддий ижодига кулминацион нуқта қўювчи асосий компонентдир. Айнан чироқ ёрдамида рангтасвир тушурилган холстри юмшоқ ва қиммат баҳо матога, тахта доскасини темирга, фолгани олтин ёки кумушга, оддий шишани эса чиннига айлантириш имконин беради. Чироқ устасининг зиммасида макон ва муҳит масаласини хал қилиш вазифаси юкланади. Бунда ёритиш техникаси орқали ранглар ўйини билан фойдаланиб спектаклдаги совуқ қиш, тун ярими ёки кўклам шукуҳини тасвирлаш мумкин.

Декорация санъати ва сценография санъатини тарихий босқичларини ўрганишда, инсон тафаккури шаклланган даврдан бошлаб, санъатга, гўзалликка ва илохий кучга бўлган интилишларини кўриш мумкин. Даврлар ўтиши билан санъатга бўлган эътибор ўзгариши, янги ғоялар, янги санъатдаги оқимлар пайдо бўлиши, буларнинг барчаси умумий мақсад санъатнинг ривожланиши, ўсиши ва такомиллашиб бизнинг давргача энг гўзал ҳолатларда етиб келишга олиб келди. Бу бевосита тадқиқотнинг асосини ташкил этувчи театр ва балет санъатларга қарата айтилган сўзлар, балет санъати қисқа фурсат ичида, барча санъат турлари учуда ўз ўрнида эна бўлиши беъжиз эмас. Яна шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, театрда сахна рассомининг ўрни, унинг вазифаси алоҳида аҳамият касб этади. Рассом, аввало, актёрга кўмаклашиши, яъни воқеа бўлиб ўтаётган жой, муҳитни ярата билиши керак. Спектаклнинг умумий маъноси, фалсафаси алоҳида катта ечим, унинг ичида актёрларнинг ҳар бир ҳаракатига декорация, реквизит ёрдам бериши шарт. Бу театр рассоми учун жуда муҳим. Режиссёрнинг спектакль қурилмасига, ечимига рассом туртки бериши лозим. Сахна рассомининг зиммасида мана шундай вазифалар мужассам. Ҳар бир асарни ўқиб, режиссёр каби таҳлил қилиши, ролларни актёрдек ўйнаб чиқиши керак, шундагина тўлиқ ечимга эга сахна безаги яралади.

### Фойдаланилган адабиётлар

- Сосновская А.Г. Узбекская сценография XX века. – Т.: 1989
- Сосновская А.Г. “Пути развития театрально-декоративного искусство Узбекистана 50-х – 70-х годов” номзодлик диссертацияси.
- Қодирова Д.М. XX аср ўзбек сценографияси. – Т.: 2010
- Ғофуров Т. Сахна техникаси ва технологияси. –Т.: “Мусиқа” нашриёти 2010.
- Турсунов Т. Ўзбек театр тарихи, Санъат институтлари бакалавр ихтисосини олувчилар, аспирантлар, магистрантлар шунингдек коллеж талабалари учун дарслик Тошкент 2008 йил
- Туляходжаева М.Т., Юлдашев Т.И. Узбекская драматургия на сцене театра 60-80 гг. - Т.: Фан, 1990.
- Узбекский советский театр. В 2-х т. - Т.: Наука, Т.1. 1966. .
- Узбекистан санъатшунослиги. Сб.статей. ~ Т.: 2003.
- Эренграсс Б. Художник в театре. -М.: ВТО, 1962.
- Брим Г. Художник Б. Тураев. Каталог. -Т: Искусство, 1998.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Nasimov Fotih Hilol o'g'li**

O'zDSMI "Kino san'ati, televideniye"

ixtisosligi tayanch doktorant Phd

## O'ZBEK KINOSIDA TARIXIY BADIY FILMLARNING SHAKLLANISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

O'zbek kino san'atida tarixiy filmlarni yaratish jarayonlarini o'rganish, tahlil qilish, tarixiy janrlarni va voqe'likni mohiyatini teran anglash va filmda aks ettirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** kinematografiya, operator, rejissyor, estetik, badiiy, texnik.

**Nasimov Fatih Hilal ugli**

Uzbek State Institute of Arts and Culture

Basic doctoral student "The art of cinema.

"Television" specialty, Uzbekistan, Tashkent

## FORMATION OF HISTORICAL ART FILMS IN UZBEK CINEMA

### ABSTRACT

In Uzbek cinematography, attention is focused on the issues of studying and analyzing the processes of creating historical films, deeply understanding the essence of historical genres and reality, and reflecting them in the film.

**Keywords:** cinematography, cinematographer, director, aesthetic, artistic, technical.

**Насимов Фатиха Хилал угли**

докторант направления

«Искусство кино. Телевидение»

Государственного института

искусств и культуры Узбекистана

## ФОРМИРОВАНИЕ ИСТОРИКО-ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ФИЛЬМОВ В УЗБЕКСКОМ КИНО

### АННОТАЦИЯ

В узбекском кинематографе внимание сосредоточено на вопросах изучения и анализа процессов создания исторических фильмов, глубокого понимания сущности исторических жанров и действительности, отражения их в фильме.

**Ключевые слова:** кинематография, оператор, режиссер, эстетическое, художественное, техническое.

Mamlakatimizda kino sohasi o'tgan yuz yillikda uzoq yo'lni bosib o'tdi. Ammo mustaqillik yurtimiz rivojining barcha jabhalari qatori kino san'atimizga ham o'zining haqiqiy bo'y-bastini ko'rsatishga imkon berdi. O'tgan asrning 90 yillaridan boshlab, ma'naviy-madaniy o'zligimizni anglash, san'atimizning o'ziga xosligini saqlab qolgan holda umuminsoniy g'oyalarni ilgari surish, tarixiy haqiqatlarni yuzaga chiqarish va jahon andozalariga xos badiiy asarlar yaratish uchun barcha imkoniyatlar yaratila boshlandi. Endilikda, filmlarimiz o'zligimiz, o'z madaniyatimiz, urf-odat, an'analarimizni keng miqyosda, hech qanday to'siqsiz, erkin ravishda namoyish eta boshladi. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan dramaturg va rejissyorlar o'z ijod namunalari bilan jahon ekranlarida ham nom qozona boshladi.

Kino yillar mobaynida ko'plab bosqichlarni bosib o'tgani haqida butun dunyo, xususan, o'zbek kinoshunos olimlari tomonidan batafsil o'rganilgan va turli adabiyotlar orqali bayon qilingan. Kino yaralishidan boshlab, dastlabki davridagi ovozsiz, keyinchalik ovozli, rangsiz, rangli filmlarning o'rganilganlik darajasi yetarlicha. Shuningdek, bugungi kunga kelib, uning bir-biridan farqli turlari hamda janrlari ham shakllanib bormoqda. Biroq kinoning shunday turi borki, u alohida mehnat va so'ngsiz mashaqqatlarga to'la, ham katarsis, ham bilim beruvchi tarixiy kinodir.

Tarixiy filmlar – o'tmishdagi o'ziga xos tarixiy davrlar, voqealar va shaxslar hayotini aks ettiruvchi badiiy filmlar janri. Dunyo miqyosida bu turdagi filmlarning o'rni va ahamiyati yuqori. Shu xususda, tarixiy filmlar ko'pincha sarguzasht va jangovar ko'rinishda bo'ladi, chunki ko'pincha keskin dramatik voqealar, urushlar, to'ntarishlar va shunga o'xshash voqe'liklar filmning mavzusiga aylanadi.

1925-yil "O'zbekkino" korxonalar idorasi tashkil etildi va "Sharq yulduzi" kinofabrikasi ochildi (Ushbu kinofabrika 1958-yildan boshlab "O'zbekfilm" deb yuritila boshlagan). Huddi shu yili bir qator xujjatli, ilmiy-ommabop filmlar va "Paxta-Orol" badiiy filmi suratga olingan. 30-yillarning birinchi yarmida ilk tarixiy film – "Tong oldidan" (1933-yil, rejissyor: S.Xo'jayev) filmi suratga olinadi. Shundan so'ng, tarixiy film yaratish bo'yicha o'ziga xos tajribalar davri boshlandi.

XX asrning 40 yillaridan mustaqillik davrigacha yaratilgan tarixiy filmlarda asosan tarixiy shaxslarning hayot yo'liga, xalq qahramonlari va tarixiy ertaklardagi motivlarga hamda tarixiy adabiy asarlarga murojaat qilingan. Xususan, tarixiy shaxslar haqidagi filmlar sirasiga "Alisher Navoiy" (1947-yil, rejissyor: K.Yormatov), "Ibn Sino" (1956-yil, rejissyor: K.Yormatov), "Furqat" (1959-yil, Y.A'zamov), "Hamza" (1960-yil, rejissyor: Z.Sabitov), "Ulug'bek yulduzi" (1964-yil, rejissyor: L.Fayziyev), "Abu Rayhon Beruniy" (1974-yil, rejissyor: Sh.Abbosov) kabilarni kiritish mumkin. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, xalqning tarixiy qahramonlarini kinotasmalarda jonlantirish istagi kino san'ati paydo bo'lgan yillardan boshlangan. Yuqorida sanab o'tilgan filmlar tarixiy voqe'lik asosida film holiga keltirilgan. Badiiy voqealar bilan boyitilsa-da, tarixiy haqiqatlardan uzoqlashilmagan. Mana shu yillarda xayoliy qahramonlar va tarixiy ertaklar motivlariga ham murojaat qilingan. Xususan, "Nasriddin Buxoroda" (1943 yil, rejissyor: N.G'aniyev), "Tohir va Zuhra" (1945-yil, rejissyor: N.G'aniyev), "Semurg'" (1971-yil, rejissyor: X.Fayziyev), "Yettinchi jin" (rejissyor: M.Aga-mirzayev), "Ali Bobo va qirq qaroqchi" (1970-yil, Hindiston bilan hamkorlikda, rejissyorlar: L.Fayziyev, U.Mehra) kabi filmlar bizga tanish va o'z syujetlarida qaysidir tarixiy davr elementlaridan foydalanilgan. Qahramonlar va voqealar o'ylab topilgan yoki ertakoni motivlardan olingan.

Shuningdek, yirik badiiy asarlar asosida ham filmlar suratga olingan. Romannavis Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari asosida ikkita film ishlangan. Ularning biri 1969-yilda rejissyor Yo'ldosh A'zamov tomonidan ishlangan film. Filmida bosh rollarni O'lmas Alixo'jayev, Gulchehra Jamilova hamda Gulchehra Sa'dullayevalar ijro etishgan. Filmning ikkinchi varianti esa mustaqillik yillarida 1998-yil rejissyor Melis Abzalov tomonidan suratga olingan. Bu filmida bosh rollarni Behzod Muhammadkarimov, Shahrizoda Dilmurod qizi va Lola Eltoyevalar ijro etishgan. Ushbu filmlarda O'zbekistonning qora kunlari bo'lgan "xon zamonlari" haqida hikoya qilinadi. Shuningdek, bosh qahramonlar hayoti orqali oila va qadriyatlar borasida bahsli masalalar o'rtaga tashlanadi. Har bir tomoshabinning mazkur filmlar yuzasidan o'z fikri va qarashi bor. Kimlardir mukammal badiiy asarni film talqinlarini qoralagan holda bu ikki variantga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Shunday

bo'lsada, ikki film badiiy asarning yanada sevimli bo'lishiga o'z xissasini qo'sha oldi, deb ayta olamiz. Xalqimiz esa filmlarning birinchi variantini ko'proq qadrlaydi.

1973-yilda rejissyor Y.A'zamov A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani asosida "Zulmatni tark etib" badiiy filmi ham suratga oldi. Albatta, bu filmni o'sha davr tomoshabinlari qizg'in kutib olgan edi. Biroq oradan bir necha yil o'tib asarga rejissyor M.Muhammedov qayta murojaat qildi. Rejissyor o'z qaydnomalarining birida bu xususda quyidagi fikrlarni bildirgan "Yo'ldosh A'zamov tomonidan suratga olingan "Mehrobdan chayon" filmi ko'rganimdan keyin romanni qayta o'qib chiqdim. Tushundimki, film sho'rolar mafkurasi talablari bo'yicha suratga olingan. Fikrlarimni yozuvchi Xayriddin Sultonov bilan o'rtoqlashdim va undan ssenariy yozib berishni iltimos qildim. Oradan xiyla vaqt o'tib, adib har bir seriyasi qirq besh daqiqali, o'n besh seriyadan iborat ssenariy yozib berdi. Shundan so'ng "Mehrobdan chayon" videofilmi tasvirga tushirildi, tomoshabinlar e'tiborini qozondi".

Mustaqillikning dastlabki yillarida tarixiy filmlarni yaratish bo'yicha harakatlar biroz sustlashdi. Buning boisi, balki tarixni qayta o'rganish va talqin qilishda mustaqillik g'oyalarini singdirish uchun vaqt ko'p ketgandir. Balki, mablag' yoki kadrlar siyosati bo'yicha muammolar yuzaga kelgandir...

Aniq sababni keltirish qiyin. 1998-yilda yozuvchi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asari asosida suratga olingan film katta tarixiy voqeaga aylandi. Film rejissyori Sh.Abbosov chin ma'noda o'zbek kinosida revolyusioner maqomiga munosib. Bu film mustabid tuzum, uning eng og'riqli siyosati, "paxta ishi", xalqning mehnat ortidan chekkan a'zimatlari, inson qadri va huquqlarining ochiqdan ochiq poymol qilinishi borasidagi haqiqatlarni o'rta tashlaydi.

Professional rejissyor film suratga olish uchun avvalo, mazmun, g'oya, mavzu, shuningdek, asardagi mantiqiylik va haqqoniylikka e'tibor qaratadi. Mantiq filmidagi asosiy zanjir bo'lib, aynan u asarning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Haqqoniylik esa tomoshabinlarning filmga nisbatan shunchaki e'tiborini tortmay, kino orqali aytilajak fikrni to'laonlik tushunishga undaydi. Zero, haqiqat gohida achchiq bo'lsa ham, insonlarni faqat u to'g'ri yo'lga sola biladi.


Tasavvur qilib ko'raylik, yaxshi rejissyor yaxshi filmni suratga oladi, lekin hamma yaxshi rejissyor ham tarixiy filmni suratga olishi qiyin. Chunki badiiyat va tarixiy haqiqatlarni bir mezonda tutib, ham tomoshaviyligi, ham realligi bilan namunali film yaratish katta salohiyat talab qiladi. Besh-olti kitob o'qish bilan tarixiy film yaratib bo'lmaydi. Rejissyor go'yoki vaqt tuynugidan o'tib, moziyda yashay boshlashi kerak. Keyin esa ijodiy guruh a'zolarini birma-bir zamonasidan uzib, qadim o'tmish bag'riga ko'chirishi zarur. Ana shundagina tomoshabinni kartinadagi voqealarga ishonitirish mumkin. Milliy kinemotografiyamiz tarixida o'ziga xos ijodiy pozitsiyasiga ega, tarixiy filmlar yaratishda yutuqlarga erishgan rejissyorlar yo'q emas. Lekin ularni ko'p deya olmaymiz. Avvalgi mavzuda keltirganimizdek, dastlabki yillarda bu janrda ijod qilgan ijodkorlar safiga N.G'aniyev, K.Yormatov, Y.A'zamov, Z.Sobitov, L.Fayziyev, X.Fayziyev, Sh.Abbosov, M.Aga-mirzayev, M.Abzalovlarni kiritish mumkin. Ularning har biri o'z imkoniyati va davr qarashlari nuqtai nazarida o'z asarlarini yaratganlar. Mustaqillik yillarida esa "Yodgor", "Afandi va Azroil", "Faqat g'alaba", "Meros" kabi tarixiy badiiy filmlarni H.Nasimov, "Vatan", "Qo'rg'oshin" – Z.Musoqov, "Nazira", "Ibrat" – J.Qosimov, "Islomxo'ja", "Ilhaq" – J.Ahmedov, "Faridaning ikki ming qo'shig'i" – Y.To'ychiyev, "Avloniy" M.Erkinov, "Imom Abu Iso Muhammad At-Termiziy" – A.Mingnorov, "Oyqiz ertagi" – A.Bekturdiyev, "Qo'qon shamoli" – D.Masaidov, "Elparvar" – A.G'aniyevlar tarixiy janrda filmlar yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Bu sanab o'tilgan rejissyorlarning har birida o'ziga xos pozitsiya mavjud. Ularning biri shaxsiy xotiralari asosida filmga yondashsalar, biri manbalarga tayanadilar. Biri tajriba uchun o'z imkoniyatini sinovdan o'tkazadi. Aslini olganda, har bir film qaysidir uzoq yoki yaqin moziyni o'zida aks ettiradi. Lekin davrlar talqini nuqtai nazaridan tarixiy filmlardagi haqiqatlar bugungi kun haqiqatlariga mos kelmaydi.

Xalqimiz va ijodkorlar qarashlarida tarix insonni tarbiyalaydi degan haqiqat mavjud. Biz ajdodlari va tarixi bilan faxrlanadigan millatmiz. Boisi, maqtanishga arzigulik qadriyatlarimiz va oltin merosimiz adoqsiz. Ajdodlarimizning faoliyati va katta maktabi bizni doim ilhomlantirgan. Shunday ekan, tarixsiz va tarixiy haqiqatlarsiz milliy kino san'atini tasavvur etish qiyin. Umid qilamizki, zamonaviy o'zbek kinosida ham tarixiy filmlar yaratish an'anasi yuqori saviya va katta qizg'inlik bilan davom etaveradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

---

- Abdusamatov H. Drama nazariyasi. -T.: G‘afur G‘ulom, 2000.  
 Akbarov H. Kino san’ati tarixi. -T.: 2002  
 Muhammedov M. Rejissura asoslari. -T.: 2007  
 Abulqosimova H. Kinoteleradio tarixi va nazariyasi. -T.: 2008.  
 Rizayev Sh. Iztirob san’ati, T.: Yangi asr avlodi, 2013.  
 X.Абулкасимова. Рождение узбекского кино. -Т.: 1965.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Yoqub Osotonoyev,**  
O'zbekiston davlat xoreografiya  
akademiyasi tadqiqotchisi

## OMMAVIY BAYRAM, TOMOSHALARNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI, ROLI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ommaviy bayramlarning kelib chiqishi, ilk ommaviy bayramlar, tantana va shodiyonalar haqida so'z boradi. Ayniqsa, ommaviy bayramlar tarixi juda ham kam o'rganilgan. Bu sohada birinchilardan bo'lib falsafa fanlar doktori, professor U.X.Qoraboyev ilmiy izlanishlarida O'zbekiston bayramlari fani rivojiga o'zining katta hissasini qo'shdi. Uning «O'zbekiston bayramlari», «O'zbekiston bayramlari tarixi» kitoblarida bu mavzuga chuqur, ilmiy yondashilib, bayramlarning kelib chiqish tarixiga oid fikrlar tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** bayram, shodiyona, tantana, tarix, Navro'z, o'zbek bayramlari, ommaviy sayl, karnaval.

**Якуб Остоноев,**  
научный сотрудник Государственной  
академии хореографии Узбекистана

## ОБЩЕСТВЕННЫЙ ПРАЗДНИК, МЕСТО ЗРИТЕЛЯ В ОБЩЕСТВЕ, РОЛЬ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о зарождении государственных праздников, первых государственных праздниках, торжествах и торжествах. В частности, редко изучается история государственных праздников. Доктор философских наук, профессор У.Х.Карабоев, один из первых в этой области, своими научными исследованиями внес большой вклад в развитие науки о праздниках Узбекистана. В его книгах «Праздники Узбекистана» и «История праздников Узбекистана» осуществлен глубокий, научный подход к этой теме, исследованы идеи, связанные с историей возникновения праздников.

**Ключевые слова:** праздник, торжество, торжество, история, Навруз, узбекские праздники, массовый парад, карнавал.

**Yakub Ostonoev,**  
researcher at the State Academy  
of Choreography of Uzbekistan

## PUBLIC HOLIDAY, PLACE OF THE SPECTATOR IN SOCIETY, ROLE AND EDUCATIONAL VALUE

## ANNOTATION

This article talks about the origins of public holidays, the first public holidays, celebrations and celebrations. In particular, the history of public holidays is rarely studied. Doctor of Philosophy, Professor U.H. Karaboev, one of the first in this field, made a great contribution to the development of science about the holidays of Uzbekistan with his scientific research. His books “Holidays of Uzbekistan” and “History of Holidays of Uzbekistan” take a deep, scientific approach to this topic and explore ideas related to the history of the holidays.

**Key words:** holiday, celebration, triumph, history, Navruz, Uzbek holidays, mass parade, carnival.

Bayramlar eng qadimgi davrdan boshlab inson hayotining eng muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ularsiz insoniyat hayotini mutlaqo tasavur qilib bo'lmaydi. Bayramlar xalq hayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. «Bayram xalqning shodlik va xursandchilik kuni», - degan edi XI asr Sharqning buyuk olimi Mahmud Koshg'ariy. Darhaqiqat, inson hayotini bayramlarsiz tasavur qilish juda ham qiyin. Hayotimizdagi yutuqlar, xursandchiliklar, tantana va shodiyonalar, muhim sanalar oilada, mahallada, shaharda, umummilliy davlat miqyosida nishonlanadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgach bayramlarga bo'lgan ehtiyoj yanada o'sdi. Azaldan do'stparvar o'zbek xalqining bayramlari qonqarindosh xalqlarning tarixiy-madaniy aloqalari jarayonida shakllangan va rivoj topgan, boshqa xalqlar bayramlariga ta'sir etgan va o'z navbatida, ular ta'sirida boyigan» [7;3] Ijtimoiy zarurat asosida rivoj topgan o'zbek bayramlari katta to'siq va qarama-qarshiliklarga duch kelgan.

Bayramlarda hamma narsa o'zgacha, dekoratsiya va figuralarning kattaligi, shaxs bilan obyektning muloqoti ham o'zgacha. Ayniqsa, teatrdan farqli o'laroq tomoshabin ijrochilarning atrofida, orasida bo'lishi yoki aktyorlar tomoshabinning tepasida (kran yoki vertolyot yordamida) yoki pastda tomoshabinning oyoqlari oldida (amfiteatr shakllari joylashgan tomoshabin uchun) rollarni ijro etishlari mumkin. Bunday tomoshalarda tomoshabin o'tirishi, turishi, hatto yotishi (masalan, plyajda o'tkazilayotgan tomosha), bir sah'nadan ikkinchisiga o'tishi mumkin. Bundan tashqari, tomoshabinlarning o'zlari tadbir qatnashchisiga aylanishlari (ommaviy sayl, karnaval va h.k) mumkin. Xullas, ommaviy bayramlarda an'anaviy teatrlarning asosiy komponentlari: biz bilgan dramaturgiyadagi dialog va monolog, replika, remarka, asar qahramonlarining psixologik kechinmalari, xarakterlarni chuqur ochib berishga urg'u berilmaydi. Bundan tashqari, aktyorning chuqur obrazga kirishishi talab qilinmaydi. Teatr spektaklidan farqli o'laroq bayram tomoshasi boryo'g'i bir marotaba namoyish etiladi.

«Bayram» — turkcha so'zdan olingan bo'lib, to'y, marosim, xursandchilik degan ma'nolarni bildiradi. Bayram so'zining turli talqinlari bor. Bizningcha, falsafiy ensiklopediyada berilgan Bayram — insonlar xursandchiligining yig'indisi», — degan talqin eng tog'risi deb hisoblanadi. Bayram ijtimoiy mahalliy hayotning eng muhim qismlaridan bo'lib, shodiyona, xursandchilikni vujudga keltiradigan voqealarni nishonlaydi. Ommaviy bayramlarning ommabopligi shundaki, birinchi navbatda, u amaliy namoyish etilganda, opining chuqur ijtimoiy- psixologik ildiziga ega ekanligi namoyon bo'lib, sahnalashtirish jarayonida tasodifiy hoi va elementlarga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy bayramlar ba'zi bir tashkilotchi yoki tashkilotning xohishiga qarab o'tkazilmasdan, balki keng xalq ommasining bayramga bo'lgan ma'naviy ehtiyoji tug'ilganda o'tkazilsa, haqiqiy bayram tomoshasi yuzaga keladi. Mustaqillik g'oyalarini keng xalq ommasiga singdirish, ulardagi yuksak fuqarolik tushunchalarini tarbiyalashda ommaviy bayramlarning tutgan o'rnini beqiyosdir. Hech qaysi teatr, hatto eng kattasi ham ommaviy bayramlar insonga ta'sir qilgandek ko'plab xalq ommasiga ta'sir qila olmaydi. Shuning uchun ham ommaviy bayramlar rejissyorining jamiyat oldidagi mas'uliyati juda ham katta.

Shuni aytib o'tish joizki, ommaviy bayramlar tarixi, ayniqsa, O'zbekiston bayramlari tarixining kelib chiqish genezisi, uning turlari to'liq o'rganilmagan. Tarix shunday fanki, qanchalik chuqur o'rgansak, shunchalik kam bilishimizga ishonchimiz komil bo'ladi. Ayniqsa, ommaviy bayramlar tarixi juda ham kam o'rganilgan. Bu sohada birinchilardan bo'lib faisafa fanlar doktori, professor U.X.Qoraboyev ilmiy izlanishlarida O'zbekiston bayramlari fani rivojiga o'zining katta hissasini qo'shdi. Uning «O'zbekiston bayramlari», «O'zbekiston bayramlari tarixi» kitoblarida bu mavzuga

chuqur, ilmiy yondashilib, bayramlarning kelib chiqish tarixi to'liq yoritishga harakat qilingan. Yaqin davrlargacha bayramlar tarixi umumiy san'at tarixi sifatida (adabiyot va teatr) o'rganilib kelingan edi. Lekin ommaviy bayram va tomoshalar har bir tarixiy davrda tarbiya va ma'rifatning asosiy o'giti sifatida yuqori o'rinlardan birini egallab kelgan. Ommaviy bayramlar tarixi zarvaraqlariga qisqacha nazar solsak, o'zining g'oyaviy jihatdan kompozitsion butun bo'Mgan qadimgi Yunoniston va Rim davridagi bayramlardan boshlasak bo'ladi. Albatta, qadimgi Yunoniston va Rim bayramlarigacha ham insoniyat paydo bo'Mganidan keyingi davrda bayramlar vujudga kelib, shakllangan. Lekin bu bayramlar o'zining ma'naviy, intellektual darajasi, ifodaviy shakllari jihatidan primitiv xususiyatga ega bo'lib, kompozitsion yaxlitlikka ega bo'lmagan.

Qadimgi Yunoniston va Rim davrida lashkil qilinib, o'tkazilgan xalq bayramlarida ommaviy bayramlar dram aturgiyasi va rejissurasining elementlari vujudga kelgan. Qadimgi yunonlarda bayram o'ziga xos mustaqil bo'sh vaqt va dam olishning bir shakli bo'lib, hatto doimiy jihatdan ham uzviy, faol mashg'ulot turiga aylangan. Bizga ma'lumki, Delfe, Pifiy, Nemeysk va Panfin o'yinlari juda ham ommabop bo'lgan. Lekin bu o'yinlarning ichida eng mashhuri Olimp o'yinlari bo'lgan. Olimp o'yinlari maxsus qurilgan Olimp shahrida 4 yilda bir marotaba o'tkazilgan. Lekin turli urushlar oqibatida bu o'yinlar yo'q bo'lib ketdi. Olimpiya o'yinlari 776-yildan to eramizdan avvalgi 394-yilgacha 1000 yil o'tkazi!gan bo'lsa, XIX asming oxirida Per de Kuverton tomonidan tiklanib, hozirgi hayotimizning eng go'zal va nufuzli sport bayramiga aylandi. Yunonistonning ko'p sonli bayramlari ichida, eng yorqin, har tomonlama tashkil qilingan bog'dorchilik xudosi Dionisga bag'ishlangan bayramlar alohida o'rinni egallaydi. Bu bayramlarda elladaliklar hayotidagi miflar (afsonalar) va real hayot bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shu davrdan boshlab, bayramlar tarixiga «tomosha»- (maxsus toshdan qurilgan teatrlardagi tomosha) va «kamaval»-«karrus navalis»-«kema charxpalagi» (Diontsning rangbarang bayramona kelishi) iboralari kirib kelgan D.P.Kallistov O'zining ilmiy izlanishlarida «Dionis bayramlari oddiy bayram kuni emas, balki bayram qilish kuni bo'lgan»—deb ta'kidlaydi. Bu bayramlarda turli urf-odat va marosimlar bir-birini to'Mdirib, xalq ommasi faol ishtirok etib, har bir qatnashchiga musiqa, sport, xor va dramatik musobaqalarda to'liq, erkin qatnashish huquqi berilgan edi

Jumladan, O'zbekistonda tabiat bayramlaridan keng nishonlanganlaridan biri bu — «Navro'z» bayramidir. Bu bayramlar haqida X -X I asrlarda yashagan buyuk qomuschi olim Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida batafsil to'xtalib, uning mohiyatini ochib, «Navro'zning kelib chiqishi haqida turli afsonalar mavjud, lekin bu masalaga ilmiy yondashilsa, «Navro'z»ning paydo bo'lishi har tomonlama ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, kecha va kunduzning vaqt jihatidan barobar bo'lishi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi, bahorning kelishi sabab bo'Mgan. «Navro'z»ning chuqur ildiziga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o'tganidan so'ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o'tkaziladigan bahor bayramlariga borib taqaladi»<sup>1</sup>. Vaqtlar o'tib bu bayram rivojlanib, unga mos kun aniqlanib «yil boshi» vazifasini o'tay boshlagan. «Navro'z» bayramini nishonlash bir oyga cho'zilgan. Bu haqida Beruniy quyidagicha yozadi: «Keyingi podshohlar bu oy, ya'ni farvardin mohning barchasi (kunlarini)ni hayitga aylantirib, ulami oltiga taqsim etadilar. Birinchi besh kun podshohlar uchun, ikkinchisi ulug' kishilar uchun, uchinchisi podshohlarning g'ulomlari uchun, to'rtinchisi xizmatkorlar uchun, beshinchisi xalq ommasi uchun, oltinchisi cho'ponlar uchun»<sup>[7;15]</sup>

«Navro'z»ga tayyorgarlik ko'rish odatlari orasida bug'doy yoki arpa donini yog'och idishda o'stirib, bahor darakhchisi sifatida dasturxonning markaziga qo'yishgan. «Navro'z» asrlar davomida yanada rivojlanib, ommaviy tus olib, bizning davrimizgacha o'zining yana yaxshi urfodatiari bilan yetib keldi. «Navro'z»da tabiat jonlanibgina qolmay, inson tabiati ham uyg'onar edi»,—deydi Sadriddin Ayniy. Ayniqsa, «Sumalak sayli» «Navro'z» bayramining eng asosiy an'anasi hisoblanadi. «Sumalak sayli» asosan ikki qismdan: Sumalak tayyorlash va sumalakxo'rlikdan iborat bo'lgan. Sumalakni asosan ayollar tayyorlab, tayyorlash jarayonida o'yin-ku!gi. xursandchilik qilingan. Sumalak sayli qadimdan insonlarda birdamlik, ahillik hissini tarbiyalab kelgan. Tabiat bayramlaridan yana bin «Mehrjon» — kuz mavsumida nishonlanadigan bayramdir. «Mehrjon» so'zining ma'nosi, birinchisi-«jon sevgisi», ikkinchisi,«quyosh» demakdir». «Navro'z» bahorda kun bilan tunning

baravar kelishida nishonlansa, «Mehrjon»—kuzdagi bu holatni nishonlaydigan bayramdir. «Mehrjon» kuni o'suvchi narsalarning (yetilishi) chegarasiga yetib, o'sish moddalarining undan uzilishi va hayvonlam ing nasllanishdan to 'xtalishi sodir bo'lgan"[8;199]. Beruniy bergan ma'lumotga qaraganda, "sug'diylarning Ashixida oyining 18-kuni "Boboxvara" ("Bomixvora") nomli hayiti bo'lib, uning ma'nosi, uzumdan siqib olingan xolis.

Shu oyning 26-kuni «Garm-Xvara\*— uzum yeyish hayiti bo'lgan. Yettinchi oyning 15-kuni yana uzumga bag'ishlangan ko'p kunli bayram boshlanib, u navbatdagi oyning 9-kuni yakunlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, bog'dorchilik keng tarqalgan sug'diylarda uzumga va uzum sharbatidan tayyorlangan musallasga bag'ishlangan butun birsistemali hayitlar bo'Mgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda—«Qurbon hayit», «Ramazon hayit», «Suv sayli», «Gul sayli», «Qovun sayli», «Xirmon to'yi» kabi bayramlar juda ham ommabop bolgan. Darhaqiqat, bayram inson hayotidagi shunday ruhiyemotsional kayfiyatini vujudga keltiradiki, bu kun barcha hamma tashvishlarni unutib, shod, xursand, baxtiyor boladi.

«Bayram—deb yozadi A.I. Mazayev, —bu ma'lum vaqtdagi ideal hayotdir»2. Bayramlarning inson hayotida tutgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik o'rni juda ham katta. Bayram hamma uchun, bu kuni hamma dam oladi, xursandchilik qiladi. Qadimdan, insoniyat paydo bo'lgan zamondan boshlab, bayramlar shaxsning hayotdagi muvaffaqiyatlari, orzu-umidi, voqea, hodisalar, mehnatdagi va boshqa sohalardagi yutuqlari, bosib o'tgan yollarini chuqur anglash, g'alabalardan faxrlanish, ertangi kunga umid bilan yashash, bayram arafasida bir-birini qutlash, kelajak hayot uchun yaxshi istaklar bildirish, ishlariga omad, baxt tilash, o'zligini, millatini anglash, milliy mafkurasiga ega bo'Mishdek g'oyalarni ilgari surgan. Bayramlar vaqt qadriga yetish, uni e'zozlash uchun sharoit yaratadi.

Bayram va tomoshalarining asosini milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmat, ehtirom egallab, insonlarga badiiylik, san'at orqali estetik zavq bag'ishlashdek vazifalar ustuvor turadi. Bayram tashkilotchilari, ayniqsa, ssenariychi, rejissyor ishlatilayotgan materiallarning dolzarbligi, hujjatlar, faktlarning aniqligi va ularning badiiy uslublari yordamida sintezlash kabi vazifalar ulardan juda ham katta javobgarlikni talab qiladi. Bunday tadbirlar insonlarning ijtimoiy-psixologik talablariga javob berib, mayda guruhlardan ommaviylikka oktib, shaxslarning ommaviy harakatidagi faolliklarini oshirib, bayramona dam olishdek sharoitni yaratishga turtki bo'Madi. Stadionlarda, maydonlarda, bog'larda, ko'chalarda o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlar nafaqat ommaviy xatti-harakatni yiizaga keltiradi, balki karnavallar, sayillar, festivallarda estetik zavq bag'ishlab, tomoshalarining tomoshaviyligini oshirib. bayramona kayfiyatni vujudga keltiradi. Chunonchi, bayramlarda insonlar yangi, go'zal kiyimlar kiyishadi, lazzatli taom lar tayyorlashadi, hamma ko'tarinki kayfiyatda bo'ladi. Bayram kuni yomonlar-yaxshi, xasislarsaxiy, xunuklar-go'zal bo'Madi. Bayramlarning afzalliklari haqida qancha gapirsak oz, u keng xalq ommasini o'ziga jalb qilib, madaniy. m a'naviy ozuqa berib, hayotimizning barcha jabhalarini keng namoyish qiladi. Professor E.V. Sokolov bayramlarning ahamiyati haqida quyidagilarni yozadi: «Bayramning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u muhim an'analami qo'llab, insoniyat madaniyatining yutuqlarini mustahkamlaydi»[10;85]. Darhaqiqat, bayramlar millatning> jamiyatning moddiy va madaniy sohalaridagi eng yaxshi tomonlarini ko'rsatib beradi.

“Rejissyorlik san'atining elementlarini asosi deganda spektakldagi barcha elementlarni ijodiy tashkil etib, garmonik jihatdan bir butun, badiiy asami vujudga keltirish tushuniladi”. Bu maqsadga, asarning sahnaviy talqiniga rejissyor o'zining ijodiy fikr qilishi, ijodiy kollektivining barcha qatnashchilarini tog'ri boshqara olishi natijasida erishiladi. Rejissyor so'zi (fransuz tilidan olingan bo'Mib) yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, boshqaruvchi degan m a'noni anglatadi, ya'ni rejissyor dramatik materialni aktyor orqali yo'naltiruvchi, boshqaruvchi insondir. Rejissyorlik san'ati kasb sifatida XIX asming oxiri XX asming boshlaridagina shakllanadi. Shu davr ichida teatr tarixidan o'rin oigan mashhur rejissyorlar: Germaniyada Kronek va Reyngardt, Fransiyada Antuan, Angliyada Kreg, Rossiyada Lenskiy yetishib chiqdilar. Bu davrgacha rejissyor funksiyasiga «Badiiy-ijodiy ishlar emas, balki «ma'muriy texnik» xarakterdagi ishlarni bajarish yuklatilgan edi. Bunday xarakterdagi ish hozirgi rejissyor yordamchisining vazifalaridan iborat.

S.Stanislavskiy spektakl elementlarining birligiga erishishdagi zarurat borasida quyidagicha yozadi: “Bu birlashgan, yaxshi qurollangan armiya, teatr tomoshabinlari ommasiga birlashib do‘stona birgalikda kurashishga majbur qilib, minglab tomoshabinlarni o‘ziga jalb qiladi”. Haqiqatda rejissyor bajaradigan funksiyalar beqiyosdir. Rejissyor kasbida, u bajaradigan juda ham mas’uliyatli vazifalar turadi. Teatr rejissurasidan farqli o‘laroq ommaviy bayramlar rejissyori keng masshtabdagi omma bilan ishlaydi. Ommaviy bayramlar rejissyori rejissuradan tashqari tashkilotchilik, pedagoglik, psixologlik fikr qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak. Agar omma bilan ishlayotgan rejissyorda mana shu qobiliyatlar mujassamlashmasa, rejissyor o‘ylagan g‘oyasini amalga oshira olmaydi. Bayram yoki tomoshaning oliy maqsadini, g‘oyasini tomoshabinga yetkazib bera olmaydi.

Masalan: teatr rejissyori o‘zi sahnalashtirgan spektaklning premyerasidan so‘ng, kamchiliklarini qayta ishlab, bartaraf qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ommaviy bayram va tomoshalar rejissyorida bunday imkoniyat yo‘q. U o‘z postanovkasini faqatgina bir marotaba ko‘rsatadi. Shuning uchun ommaviy bayramlar rejissyoridan katta tashkilotchilik energiyasi talab qilinadi. Ommaviy bayramlar rejissyori har doim minglab kishilar qalbiga yo‘l topa olishi, ularni umumiy ishga qiziqitira olishi kerak. Bundan tashqari, kishilarning xohishlari, qiziqishlari ko‘proq nimaga, qaysi mavzuda ekanligini ham aniqlay olishi kerak. Rejissyor tashkilotchigina bo‘lmib qolmay, u universal ham bo‘lishi lozim. U m a'm uriy ishlarni bajarishda jamoatchilik tashkilotlari bilan bog‘lanib, ish olib borishi, moliyaviy masalalarni hal qila olishi va boshqa masalalarni rejalashtira olishi lozim. Rejissyor fikr yurituvchi sifatida o‘zi qo‘yayotgan tomoshaning mavzusi va g‘oyasini yaxshi bilib, tomoshabinga va qatnashchilarga o‘zi ilgari surgan g‘oyasini va oliy maqsadini yetkazib bera olishi kerak va mana shu tomoshaning tarbiyaviy va axloqiy tomonlarini aniq ko‘rsata bilishi lozim. Rejissyor pedagog sifatida, pedagogikaning xususiyatini yaxshi bilishi kerak, u o‘z tomoshalari bilan kishilarni faqatgina dam olishlarinigina uyushtirmay, balki ularni o‘rgatadi, o‘qitadi va tarbiyalaydi. Rejissyor psixolog sifatida kishilar psixologiyasini yaxshi bilishi kerak. Kishilarning kasbini, yoshini, qiziqishlarini hisobga olishi shart.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

Beruniy A.R. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar». Tanlangan asarlar. I-to m ., “ T.: «Fan», 1968.

Бенифанд А.В. «Праздник, сущность — история - современность» К., «Красноярский университет», 1986.

Ал Д.Н. «Учебно-методические материалы и рекомендации по основам драматургии и сценарного мастерства», Л., 1991.

Бенифанд А.В. «Праздник, сущность — история - современность» К., «Красноярский университет», 1986.

Вахтангов Е.Б. «Материалы и статьи». —М.: Просвещение, 1975.


Вановская Е. «Литературная композиция и монтаж на самодеятельной сцене», —Л.: 1989

U.X. Qoraboyev. «O‘zbekiston bayramlari», T., « O‘qituvchi», 1991. 3-b.

S. Ayniy. Asarlar. 8 tomlik. —T.: 1966 7-tom , 199-b

U.X.Qoraboyev. O‘zbekiston bayramlari. —T.: 1991. 18-b

Соколов Э.В. С вободное врем я и культура досуга. —Л.: 1977, С .85.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Гули Шукурова,**

Ўзбекистон журналистика ва  
оммавий коммуникациялар университети  
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси  
доцент вазифасини бажарувчиси

## АДАБИЙ ПОРТРЕТЛАРДА БАДИЙ ВА ПУБЛИЦИСТИК ТАЛҚИН УЙЎНЛИГИ

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Матёқуб Қўшжонов “Дийдор” “Армон” каби хотира китобларига жамланган эссе-хотира, хотира-хикоя, адабий портрет ва публицистик мақолаларда ўзбек илм-фани, ўзбек маданиятига бемисл хизмат кўрсатган ўнлаб йирик шахслар: академиклар, олимлар, шифокор, рассом, ёзувчи-шоирлар, давлат арболари ҳақида ибратли хотиралар ёзади; бу ёдномаларда адиб қаламга олган шахсларнинг инсоний қиёфаси, шахсияти ва дунёқараши, раҳбарлик ва олимлик салоҳияти, ижодкорлик истеъдоди бевосита ўзи кўп бора кузатган, дўст бўлган одамлар ҳаёти ва қисмати таҳлил қилинади.

**Калит сўзлар:** эссе, портрет, эсдалик, ёдномалар, илмий услуб, хотира.

**Гули Шукурова,**

Исполняющий обязанности доцента  
кафедры узбекского языка и литературы Университет  
Журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

## ГАРМОНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ И ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПОРТРЕТАХ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье собраны очерки, воспоминания, рассказы, литературные портреты и публицистические статьи Матякуба Кошжанова, собранные в мемуарах «Дийдор», «Армон» и десятков великих людей, оказавших огромную услугу узбекской науке и культуре: академиков, ученых, врачей, художники, писатели - пишет образцовые мемуары о поэтах и государственных деятелях; В этих воспоминаниях писатель анализирует человеческий облик, личность и мировоззрение, лидерский и научный потенциал, творческий талант, жизнь и судьбы людей, с которыми он неоднократно наблюдал и с которыми дружил.

**Ключевые слова:** эссе, портрет, мемуары, мемуары, научный метод, память.

**Guli Shukurova,**

Acting Associate Professor  
Department of Uzbek language and literature  
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

## HARMONY OF ARTISTIC AND PUBLICIST INTERPRETATION IN ARTISTIC PORTRAITS

## ABSTRACT

This article contains essays, memoirs, stories, literary portraits and journalistic articles by Matyakub Koshzhanov, collected in the memoirs “Diydor”, “Armon” and dozens of great people who have rendered great service to Uzbek science and culture: academicians, scientists, doctors, artists, writers - writes exemplary memoirs about poets and statesmen; In these memoirs, the writer analyzes the human appearance, personality and worldview, leadership and scientific potential, creative talent, life and destinies of people with whom he repeatedly observed and with whom he was friends.

**Key words:** essay, portrait, memoirs, memoirs, scientific method, memory.

Академик М.Қўшжоновнинг Ойбек, Абдулла Қаҳҳор, Асқад Мухтор, Пиримкул Қодиров, Одил Ёқубов, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов сингари замонавий ўзбек адабиётининг истеъдодли ижодкорлари ҳақида қатор монографиялари, мақолалари, тақризлари ўз вақтида чоп этилган. М.Қўшжонов мазкур ижодкорларнинг ҳаёти ва ижодини йиллар давомида ишлади, мустақиллик йилларида олим илмий-академик услубини публицистик-оммабоп услуб билан янгилаб, шу инсонлар ҳақида бир-биридан баркамол адабий портретлар, эсдалик ва ёднома мақолалар ёзди. Бу публицистик оммабоп мақолаларда муаллифнинг илмий, публицистик, тарихий, тадқиқий, ҳаётий кузатишлари тез-тез алмашиб туради. Яъни муаллиф бу публицистик асарлар услубида соф илмий-академик услубдан чекиниб, ниҳоятда содда ва тушунарли тилда инжа эсдаликларини яратади. Аслида академик олим яратган ўнлаб илмий монографиялар тилида ҳам мураккаб илмий истилоҳлар йўқ. Аксинча, уларни бемалол ўқиб, тушуниш мумкин.

Хотиранавис ижодкор “Унутилмас воқеа” (Ғафур Ғулом), “Замонасининг фаол фарзанди” (Абдулла Қаҳҳор), “Улуғ адиб, улуғвор инсон” (Ойбек), “Бўронлардан излаб ҳаловат” (Асқад Мухтор), “Ўтдан ҳам, сувдан ҳам” (Шухрат), “Ўткир қаламли адиб” (Пиримкул Қодиров), “Азим дарёнинг боши – ирмоқ” (Одил Ёқубов), “Шеърят майдонида” (Абдулла Орипов), “Мен – ўзбек ўғлониман” (Эркин Воҳидов) каби адабий портрет ва эсдаликларида XX аср ўзбек адабиётининг йирик дарғалари билан кечган ҳаёт лаҳзаларидан, ширин суҳбат ва гурунглاردан бизни огоҳ этади.

Мазкур ўринда XX аср замонавий адабиётининг уч йирик истеъдодли ижодкори Абдулла Қаҳҳор, Ойбек, Асқад Мухтор ҳақида Матёқуб Қўшжоновнинг уч адабий портрет мақоласини таҳлилга тортамыз. Аввало шуни айтиш лозим, олим бу ижодкорларнинг бадиий ижодини ўрганиб, йирик ҳажмли фундаментал монографиялар ҳам яратган. Маҳоратли публицист бу адиблар ҳаёти ва ижоди ҳақидаги ярим асрлик кузатишларини энди оддий ва жўн тилда ёзилган адабий портретларида янада тиниклаштириб, ҳам публицистик, ҳам илмий услубни уйғунлаштириб, гўзал хотиралар битади. Хотиранавис ўзи кўрган ва кўп бора суҳбатлар қилган, ижодий мулоқотлар олиб борган бу улуғ инсонларнинг ташқи портрети, характери, руҳий олами, ижодий меҳнати, ҳаёти ва қисматига доир фожиавий нуқталар ҳақида ҳам авлодларга ёзиб қолдирди. Масалан, Матёқуб Қўшжоновнинг Ойбек ҳақидаги “Улуғ адиб, улуғвор инсон” мақоласи “Дийдор” китобидаги энг самимий ва муфассал хотиралардан биридир. Биз мақолани ўқиб Ойбекни ҳам буюк истеъдод соҳиби, ҳам бағрикенг дўлвор инсон сифатида кашф этамыз. Шунингдек, мақола муаллифининг шахсияти ва унинг илмий-ижодий лабораториясини ҳам чуқурроқ тушуниб оламыз. Муаллиф Ойбек портретини қуйидагича чизади: “Ойбекнинг ўша вақтлардаги жонли қиёфаси ҳамон кўз олдимда: бўйлари узун, елкалари кенг, дўппининг тагига яширишга қанчалик уринмасин, сочларининг қарийб ярми жингалак бўлиб чиқиб турар, юзларида ёшига нисбатан ажин кўпроқ, кўзлари катта, аксарият ҳолларда ҳорғин, фақат бирор нарсага эътибор қилган кезлардагина улар қандайдир илғаб бўлмас даражада тез ҳаракатга келар ва қовоқлар ҳар томонга тортилиб, қандайдир жозибали нур таралаётгандек бўларди” [1;96].

Ойбек сиймоси тасвирланган ушбу портрет билан танишар эканмиз, Матёқуб Қўшжоновнинг синчковлиги ва маҳоратига тан бермай иложимиз йўқ. Зеро, кейинги тафсилотларда айнан шу

портретда чизилган адиб юзидаги ажинларга урғу қаратади ва фикрини давом эттириб, нега ёшига нисбатан юзидаги ажинлар бунча кўп, деб ўзига ўзи савол беради ва ёзувчи бошидан ўтказган сон-саноксиз азобу уқубатлар бунга сабаб бўлган бўлса керак, деган хулосага келдим, деб ёзади.

Муаллифнинг “Замонасининг фаол фарзанди” мақоласида Абдулла Қаҳҳорнинг ташқи ва рухий портретига шундай чизгилар беради: “У ёшига нисбатан анча улуг кўринади: устида бекасам тўн, анча сийраклашиб қолган сочлари ок, бироқ ўзига жуда ярашган, чехраси очиқ, кўзлари маъноли ва деярли доим кулимсираб боқадиган одам эди. Нигоҳида ўзига ишонч, қараган одамда ҳам шу кайфиятни уйғотувчи куч барқ уради. Бир вақтнинг ўзида бу тушунчаларга зид иккинчи бир хислат – енгил истехзога мойиллик сезилиб туради” [1;190].

Муаллиф Ойбек ва Абдулла Қаҳҳорнинг энг муҳим ташқи портрет деталларини хотирасига суяниб, адиблар портретини сўз воситасида жонли ифодалаб беради. Ваҳоланки, бу адибларнинг ташқи кўриниши ва рухий портрет деталлари ҳақида замондошларининг ёзиб қолдирган “Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида”, “Адабиётимиз фаҳри” ҳамда “Ойбек замондошлари хотирасида” китобларида ўнлаб ижодкорлар томонидан ҳам эътироф этилган. Моҳир публицист М.Қўшжонов ҳар икки адибнинг ташқи кўриниши: юз тузилиши, сочи, кўзлари, қоғоғи, гавдаси, бўйи ҳақида, қолаверса, уларнинг руҳиятидаги муҳим нуқталар ҳақида аниқ чизгилар беради. Хусусан, Ойбекнинг катта-катта кўзлари, жингалак сочлари, кенг елкаси, баланд бўйи бошқа замондошлари ва рассомлар тасвирида ҳам айнан шундай ифодаланган. Ёинки, Абдулла Қаҳҳорнинг 50 йиллик юбилеи арафасидаги адибнинг ёшига нисбатан анча катта кўриниши, сочларининг қордек оппоқлиги, кўзларининг маънодор боқиши, руҳиятидаги қатъият, ҳар бир нарсага истехзо билан қараши Матёқуб Қўшжонов томонидан тўғри илғанади ва уларга бағишланган публицистик мақолаларда бу деталлар ниҳоятда моҳир қалам билан тарихга муҳрланган.

Хотиранавис бу улуг адиблар ҳақидаги мақолаларда улар билан қандай танишганию уларнинг ижодини қачондан бошлаб ўргангани айни пайтда уларнинг М.Қўшжонов ижодига муносабати ва ҳоказолар ҳақида жуда самимий ҳаётий воқеаларни, кези келган ўринларда илмий таҳлиллар билан ижодкорларнинг ҳаёти ва ижодига муфассал ихчамгина чизгилар беришга уринади. Матёқуб Қўшжонов Абдулла Қаҳҳорнинг гапни жойига қўйиб гапириши, ўзига хос нотиклик маҳоратига ҳам алоҳида тўхталади: “Абдулла ака шахс сифатида кўп жиҳатдан мукамалликка эришган эди, дея оламан. У қандай гўзал ёзса, шундай чиройли гапиришни ҳам қойиллатар эди, дея оламан. Қай вазиятда ва қандай савиядаги китобхонлар, суҳбатдошлар, тингловчилар даврасида бўлмасин, ўз фикрларини аниқ ва маънодор қилиб, лўнда ифодалаш устаси эди: сўзларни моҳирона териб, чертиб-чертиб ишлата биларди. Қайси мажлис бўлмасин, ҳар гал бирор янги гап айтар, бу гап мақол, матал сингари анча вақтгача оғиздан оғизга ўтиб юрарди. Ҳатто баъзи йиғилишларда бирор сабаб билан Абдулла Қаҳҳор нутқ сўзламаса, мажлис файзсиз ўтгандек туюларди. Хуллас, ёзувчининг асарларига хос қандайдир сеҳрли жозиба унинг нутқида ҳам хос эди. Бу хислати билан у ўз даврнинг тенги йўқ нотиғи эди” [3;197].

М.Қўшжоновнинг “Бўронлардан излаб ҳаловат” номли мақоласида атоқли адиб Асқад Мухторнинг ташқи портретига эмас, асосан, ижодий портретига чизгилар берилади: “Эстетик диди, ижоддаги фаҳм-фаросатининг юксаклиги жиҳатдан Асқад Мухтор сафдошлари орасида ўз ўрнига эга эди. У мураккаб даврда яшаб, ижод қилди. Ижодини шеър ёзишдан бошлаган санъаткор, умрининг охиригача шу жанрдан узоқлашгани йўқ. Асқад Мухтор фақат ўз ижоди билангина эмас, ташкилотчилик фаолияти билан ҳам адабиётимиз тараққиётига сезиларли ҳисса қўшган ижодкорлардан ҳисобланади” [4;72].

Асқад Мухторнинг “Туғилиш” романи ҳақидаги олимнинг қуйидаги сатрлари адиб ижодини нақадар чуқур ўқиб-ўрганганини кўрсатади: “Асқад Мухтор бадиий ижодга бир эрмак деб ёки шон-шухрат манбаи сифатида қарайдиган ёзувчи эмасди. У ижодий ишга жиддий муносабатда бўларди. Менга маълумки, ёзувчи “Туғилиш” романини яратишга сарф қилган вақтнинг ярмидан кўпини Олмаликдаги қурилиш майдонларида меҳнат жараёнида, ҳатто ишчилар ётоқхоналарида ўтказди. Шу туфайли тасвирлаган характерларининг асл хислатларигина

эмас, балки курилиш ишларига оид манзаралар ҳам тиниқ ва жозибали ифодасини топган. Тўғри, романда халқимизга хос миллий урф-одатлардан чекиниш бир оз кўзга ташланади. Бироқ бу катта ҳақиқатни акс эттиришга кўп путур етказмаган” [4;74].

Шунингдек, муаллиф Асқад Мухторнинг сиёсий ва мафкуравий ўзгаришларни тез илғайдиган, хушёр ёзувчилардан эканлигини таъкидлайди. Унинг 50-йилларда ёзган “Опа-сингиллар” асарини янги услубда ёзилган роман сифатида баҳолайди. Асарнинг инқилобий мавзудалигини қайд этар экан, айти пайтда асар қаҳрамонлари опа-сингил Жўраҳон ва Онахоннинг ҳаёти ва фаолияти реалистик акс эттирилганига эътиборимизни қаратади.

Муаллиф қайд этганидек, 80-йиллар бошида Матёқуб Қўшжонов Тил ва адабиёт институтида директор лавозимида ишлаётган пайтда институтда кетма-кет махсус тузилган комиссиялар орқали тафтишлар уюштирила бошлайди. Адабиёт олампидан узоқ бўлган комиссия аъзолари Тил ва адабиёт институти ходимларига Чўлпон, Фитрат каби миллатчи ижодкор ижодини ўрганиб, мафкуравий хатоликларга йўл қўйяпти, унинг бошида эса институт раҳбари Матёқуб Қўшжонов турибди, деган айбларни қўйишади. Мазкур комиссия ҳисоботи Ёзувчилар уюшмасида кўрилатган пайтда йиғилишда иштирок этаётган икки кишидан Матёқуб Қўшжонов қўлига руҳан қўллаб-қувватловчи нома келиб тушади. Улардан бири Асқад Мухтор томонидан ёзилган бўлиб, “Дадил туринг! Булар ҳам ўтиб кетади”, деб битилган эди. Бу кичик эпизод китобхонларга Асқад Мухтор шахсиятини кўрсатувчи ҳаётий далилдир. Шу асосда муаллиф ўз мақоласини адибни “Бўронларда бордек ҳаловат” асари қаҳрамонига қиёслаб, шоир ҳаловат билмайдиган, бўронларга басма-бас ёниб яшайдиган фаол инсон сифатидаги хулосаси билан якунлайди.

Матёқуб Қўшжонов Ойбек ҳақидаги “Улуғ адиб, улуғвор инсон” мақоласида адиб билан унинг уйида юзма-юз учрашиб, номзодлик диссертацияси асосида чоп этилган китобини тақдим қилгани хусусидаги таассуротларини ҳаяжон билан эслайди: “Истикболимга чиққан йигит адибнинг Омон исмли ўғли эканини кейин англадим. У йўлкадан кираверишда ўнг томондаги эшикни очди. Креслода ўтирган Ойбек акага кўзим тушди. Кутилмаганда у мени ўрнидан туриб, очиқ чеҳра билан қўл чўзиб кутиб олди. Унча катта бўлмаган, лекин замонавий мебеллар билан жиҳозланган хонада ўтирарканмиз, Ойбек акада хуш кайфият борлигини сездим. Ўзига ярашган алпозда у тишларини кўрсатиб кулар, бир оз дудуқланган ҳолда “Ҳа. Ҳа, келинг, келинг!” – деб столга таклиф қиларди. Бу муаммоларнинг барчасидан “биз сиз билан шу кўчаларда кўп учрашганмиз, мен сизни биламан”, деётгандек кўринар эди менга.

Ҳол-аҳвол сўрашгач, газетага ўраб олиб келган китобимни очиб, Ойбек акага узатдим. Ёзувчи китобни бир топилдикни қўлга киритгандек қизиқиш билан олиб, варақлай бошлади. Ўзимда тушунишим қийин бўлган ноаниқ бир кайфият сезардим ўша дақиқаларда” [3;103-104]. Хотиранавис ўзининг шахсий ҳиссиётларини ошкора-очиқ ёзиш билан ҳам адабий портрет мақолада ўзига хос ҳиссий таъсирчан услуб яратади.

Матёқуб Қўшжонов ўз асарларида замондош олим ва ёзувчилар ҳақида яна кўплаб қизиқарли хотираларни ёзиб қолдирган. Чунончи кўп йиллар бирга ишлаган, ҳаммаслақ бўлган академик Иззат Султонов, Ҳабиб Абдуллаев, Обид Содиқов, Абдулла Қаҳҳор, Озод Шарофиддинов, Пиримкул Қодиров, Одил Ёкубов сингари олим ва ёзувчилар, шоирлар ҳақидаги хотираларида характерли ҳаётий воқеалар орқали улар ижоди ва фаолияти ҳақида қимматли маълумотларни баён этади. У хотира ёзадими ёки илмий мақолами, бундан қатъи назар, албатта, бадий асарларда бўлганидек тугун, воқеалар ривож, ечим каби композицион бутунликка риоя қилади. Тасвирилатган қаҳрамони ҳаёти билан боғлиқ бир воқеа ёдга олинади-да, шу асосда аста-секин воқеалар ривожига, қаҳрамон характерини очувчи янги-янги фактларга ўтилади ва пировард натижада ечим сари боради. Буни биз, Иззат Султон ҳақидаги асарларидан ташқари Озод Шарафиддинов, Абдулла Қаҳҳор, Пиримкул Қодиров, Одил Ёкубов, Эркин Воҳидов ва Абдулла Орипов ҳаёти ва ижодига бағишланган хотираларида ҳам кузатамиз.

Муаллиф ўзига замондош ижодкорлардан, айниқса, Шухрат ва Абдулла Қаҳҳор ҳақидаги хотираларини алоҳида эҳтиром билан битган. Бунинг ўзига хос сабаблари бор, албатта. Маълумки, Шухрат 50-йилларда қатағонга дучор бўлиб, узоқ муддатга қамалган ва Сталин

шахсига сиғиниш қоралангандан кейин оқланган адиблардан бири. Бошига тушган шундай кулфатларга қарамасдан, у ўзининг ҳаётининг принципларини сақлаб қолган ва адабий муҳитдаги турли ўйинларга қўшилмай, Абдулла Қаҳҳорнинг садоқатли шогирдларидан бири сифатида танилган. М.Қўшжонови Шухрат ҳақида ёзилган адабий портрет асари “Ўтдан ҳам, сувдан ҳам” деб номланган. Мазкур мақолада муаллиф Шухрат шахсияти ва ижоди ҳақида шундай ёзади: “Шоир Шухрат ижодини маълум даражада билсам ҳам, кўринишидан хушбичим, бўйдор, нигоҳи ўткир бу одамнинг ўзи билан кейинроқ, эллигинчи йилларнинг охирларида “Шарқ юлдузи” журналининг муҳарририятида танишдим. Биринчи учрашувдаёқ ўзига тортадиган хислат бор эди унда. Муҳарририятга бориб қолганимда у билан учрашмасдан, озгина бўлса ҳам суҳбат қурмасдан кета олмайдиган бўлдим. Суҳбат мавзуининг доираси ҳам кенг бўларди – оддий ҳаёт ташвишларидан тортиб катта ижод муаммоларигача. Ҳақиқат учун ўтдан ҳам, сувдан ҳам қайтмайдиган одам бўлиб кўринар эди у менга суҳбатлар жараёнида. Унинг ўзига ишонадиган, ўз кучи, қобилятини билиб иш тутадиган, майда иғволарга учавермайдиган инсон эканини англадим” [4;186].

Назаримизда, Матёкуб Қўшжонов билан Шухратни бир-бирига яқинлаштирган, умумий рухий яқинлик, бу уларнинг собиқ жангчилар экани сабаб бўлса керак: ҳар иккиси Иккинчи жаҳон урушида жанг майдонларида қўлида ҳам қурол, ҳам қалам кўтариб, қон кечиб келган уруш иштирокчиларидир. Хотиранавис “Олтин зангламас” романи туфайли Шухратнинг бошига тушган кулфатларнинг чексиз бўлгани, аммо бадиияти бутун мазкур асар ўзбек насри тараққиётида катта воқеа бўлганини ҳам эътироф этиб, шундай ёзади: “Роман катта шов-шувларга сабаб бўлди. “Наҳотки, бу сирли муаммони очикдан-очик баён қилиш мумкин бўлса”, деб ўйладилар баъзилар. Шухрат қисмати қай йўсинда бораркан, дегувчилар ҳам бўлди. Эндиликда шу нарса аён бўляптики, “Олтин зангламас” романининг яратилиши фақат Шухратнинг эмас, балки китобхон, адабиёт, қолаверса, умумижодкорлар ютуғи эди” [4;188]. Академик Матёкуб Қўшжоновни Шухрат шахсиятига сингиб кетган ҳақиқатпарастлик ва миллий урф-одатларни чуқур биладиган эътиқодли инсон сифатида ҳурмат қилишини қайд этиб шундай ёзади: “Ҳа, Шухрат ўтдан ҳам, сувдан ҳам қайтмас шахс, катта шоир, улкан адиб эди! Унинг учун дилидагини ёзиш ҳам қарз, ҳам фарз ҳисобланарди. Бу унинг шахсиятидаги муқаддас хислат эди. Уни бу йўлдан ҳеч ким – на рағбату муқофот, на бошида қилич ўйнатиб турган мустабид мафкура қайтара олмасди” [4;189].

Ўнлаб эссе-хотираларда публицист адиб ўз замонасининг етук адиблари ва мунаққидлари бўлган Абдулла Қаҳҳор, Ойбек, Ғафур Ғулом, Асқад Мухтор, Шухрат, Одил Ёқубов, Пиримкул Қодиров, Абдулла Орипов, Озод Шарафиддиновларнинг инсоний ва ижодий қиёфаларини, замондошларининг бетакрор адабий ва ижодий қиёфасини ўзига хос кузатишлар орқали теран талқин этади; “Армон” тўпламига кирган хотираларнинг аксарияти Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тил ва адабиёт институти билан боғлиқ бўлиб, бу муқаддас даргоҳда кечган илмий муҳит ва илм одамларининг жасоратли курашлари ҳикоя этилади.


Адибнинг “Кўнгилда қолиб кетган гаплар” публицистик қайдларида Ойбек ҳақидаги кузатишлари ва тадқиқотларининг яратилиш тарихига, унинг олим сифатида шаклланиш йилларига саёҳат уюштирилади; Матёкуб Қўшжоновнинг “Армон” ҳамда “Кўнгилда қолиб кетган гаплар” хотира ва ён дафтар қайдларини ўрганиш мунаққиднинг ижтимоий биографияси билан бир қаторда илмий ижодий биографиясини теранроқ тадқиқ этишга йўл очади; Публицистик асарлар тадқиқи мунаққид ижодий лабораториясини ўрганишда, энг ишончли ҳужжатли материал ҳисобланади.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

Қўшжонов М. Дийдор. Т.: Шарқ, 2004. – Б.96.

Қўшжонов М. Замонасининг фаол фарзанди / Дийдор. Т.: Шарқ, 2004. – Б.197.

- Қўшжонов М. Бўронлардан излаб ҳаловат / Дийдор. Т.: Шарқ, 2004. – Б. 72.
- Қўшжонов М. Ўтдан ҳам, сувдан ҳам / Дийдор. Т.: Шарқ, 2004. – Б. 186.
- Норматов У. Бугунги насримиз тамойиллари // Жаҳон адабиёти. – Т.: 1997. №3.
- Стоун И. Биографик қисса ҳақида // Жаҳон адабиёти. –Т.: 2000. №8. –147-156-бб.
- Султон И. Олимнинг жасорати // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1998 йил, 12 июнь.
- Турдиева К. Асар сюжети ва композицияси ҳақида // Тил ва адабиёт таълими. –Т.: 2001. №3.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Djalilov Ergash Kenjayevich**O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
professor v.b.

## SAMARQAND TEATRI VA KONSERT SAN'ATINING RIVOJLANISHI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Samarqand teatri va konsert san'atining rivojlanishi, konsert va san'at rivoji uchun shu sohada faoliyat olib borayotgan shaxslarning izlanishlari va mehnatlari orqali qo'shgan hissalari, Samarqandda konsert va teatr hayotida ro'y bergan tub o'zgarishlar hamda Samarqand shahrida tashkil topgan ilk konsert guruhlar va teatr jamoalari, ilk dramatik teatrlar faoliyati haqida fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** teatr, konsert, spektakl, komediya, simfonik orkestr, musiqali dramatik to'garaklar, opera, Samarqand teatri.

**Джалилов Эргаш Кенжаевич**Узбекско-Финляндский педагогический  
институт и.о.профессор

## РАЗВИТИЕ САМАРКАНДСКОГО ТЕАТРАЛЬНОГО И КОНЦЕРТНОГО ИСКУССТВА

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются развитие самаркандского театрально-концертного искусства, вклад людей, работающих в этой области, в развитие концертного искусства и искусства своими исследованиями и трудом, коренные изменения в концертно-театральной жизни Самарканда, а также организация г. Самарканд Речь шла о первых концертных коллективах и театральных коллективах, первых драматических театрах.

**Ключевые слова:** театр, концерт, спектакль, комедия, симфонический оркестр, музыкально-драматические кружки, опера, Самаркандский театр.

**Djalilov Ergash Kenjaevich**Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute  
professor etc.

## DEVELOPMENT OF SAMARKAND THEATER AND CONCERT ART

### ANNOTATION

In this article, the development of Samarkand theater and concert art, the contributions of people working in this field to the development of concerts and art through their research and work,

fundamental changes in the life of concerts and theater in Samarkand, and the organization of the city of Samarkand The first concert groups and theater groups, the first dramatic theaters, were discussed

**Key words:** theater, concert, performance, comedy, symphony orchestra, musical dramatic circles, opera, Samarkand theater.

Vatanimizning barcha go'shalarida bo'lgani kabi Turkistonda ham sotsialistik qurilishning dastlabki yillarida musiqa va ijtimoiy hayotda tub burilish kuzatildi. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon shaharlarida sayyor teatr truppalari tashkil etilib, dramatik musiqali spektakllar sahnalashtirila boshlandi.

Turkistonning boshqa shaharlari singari Samarqand musiqa madaniyati ham oktyabr inqilobining birinchi yillarida havaskorlik va professional jamoalar ijodining bir-biri bilan chambarchas bog'langanligi, havaskorlar jamoalari tubidan ularning tug'ilishi bilan ajralib turardi. Samarqanddagi birinchi sovet o'zbek teatri "Xalq teatri" bo'lib, uning tarkibi asosan havaskorlardan tuzilgan. Bu teatrning rasmiy ochilish sanasi 1920-yil 10-fevral deb hisoblansa-da, 1917-1918-yillarda milliy teatr jamoasi tashkil etilgan. Musulmon teatri kabi o'sha davr hujjatlarida tilga olingan Oktyabr inqilobidan keyingi dastlabki yillarda musiqa, kontsert va teatr hayotining chambarchas bog'liqligi o'sha davr gazetalarida chop etilgan ko'plab maqolalarda o'z aksini topgan. Mana, ulardan birining parchasi (musulmonlar markaziy qishlog'i faoliyati haqida, u yerga osilib qo'lgandan so'ng atrofdagi qishloqlardan aholi oqib keladi. Spektakl qo'yilishidan oldin orkestr o'ynab, notiqlar chiqish qiladi. Musulmonlar spektakl va rasmlarga juda qiziqishadi, ular katta e'tibor bilan tomosha qilishadi ... " 29 va 30 noyabr kunlari musulmon teatrida qizil armiya askarlari uchun "Farg'ona fojiasi" va "Mehnat mehnatkashlari" spektakllari namoyish etildi. Kecha so'ngida A.Badriddinov va L.Seyfulina inqilobiy qo'shiqlar, Naziraxonim, Saraxonim, Rafoat kechalarni sharqona an'anaviy xalq qo'shiqlari bilan bezatdi. "Eski shahar maorif bo'limi Behbudiy boshchiligidagi musiqali teatrni mustahkamlash maqsadida yangi spektakllar va orkestrni kengaytirish uchun 50 ming rubl miqdorida mablag' ajratdi". Musulmon teatr jamoasi bilan bir qatorda Lenin nomidagi Garnizon teatri rus rassomlari va musiqachilarining kuchiga tayanib, teatr va kontsert hayotini tashkil etishga katta hissa qo'shadi. Uning repertuarini «Samarqand ovozi» gazetasining 1919-yil 12-apreldagi yozuvlaridan biriga qarab baholash mumkin. Garnizon teatrining ochilishi, inqilobdan keyingi birinchi yillarning muhim xususiyati, bir tomondan, teatr va kontsert ishining allaqachon qayd etilgan o'zaro bog'liqligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, musiqiy-teatr va dramatik yo'nalishlarning farqlanmaganligi edi. Ular bir xil ijodiy guruhlar bilan chambarchas birga yashagan. dramatik pyesalari ham, musiqali komediyalari ham bor edi. 1918-yil 5-avgustdan muntazam o'tkazib kelinayotgan musulmon va rus truppalarning qo'shma spektakllarida dramatik spektakllar bilan bir qatorda, asosan, ozarbayjon mualliflari, xususan, Uzeyir Hojibeyovning musiqali komediyalari ham bor edi. O'sha yillarda uning "Arshin malalan" musiqiy komediyasi mashhurlikka erishdi. Musiqiy iste'dodli ijrochilarni talab qiladigan bunday repertuarining mahorati o'zbek san'atining musiqa va teatr kuchlarining muttasil yuksalishiga xizmat qildi. Samarqand musulmon xalq truppasida Shonazar Sohibov, Akbar Mo'minov, Hayot Mo'minov, Said Ali Oxunzoda, Ruhulla Xusainov va boshqa mashhur xonanda va san'atkorlar shakllandi. Asta-sekin kichik ijrochi guruhlar ijodiy uyushmaga - Xalq teatriga birlashdilar. Samarqand viloyat arxivida uyushma – Xalq teatrini aks ettiruvchi hayajonli hujjatlar jamlangan. Samarqand viloyati arxivida yangi madaniyat namoyandalarining milliy va xalqaro qarashlari kengligini aks ettiruvchi hayajonli hujjatlar jamlangan. Buni hatto Xalq teatri jamoasiga qo'shilgan teatr truppalari ro'yxati ham tasdiqlaydi: Rus, ukrain, musulmon, yahudiy, venger, arman va nemis. Shubhasiz, ko'plab konsert dasturlari uslubiy xilma-xilligi, siljishi bilan ajralib turardi. Xalq teatri jamoasi tarkibida xor va simfonik orkestr ham bor edi. Bu shahar xalq ta'limi boshqarmasi hay'atining 1920-yil 10-fevraldagi qarori edi.

Xalq teatri va alohida musiqa mutaxassislari tomonidan tashkil etilgan kontsert kechalari dasturlari ham xuddi shunday keng ko'lamli xalqaro aloqalar yo'nalishini aks ettiradi. 1923-yil yanvarida Samarqandda bo'lib o'tgan konsertlardan biri haqidagi taqriz eskesini eslash mumkin. Unda arman xalq qo'shiqlarining ijrosi qayd etilgan. Sarkisyans, Tatar-Vichchengeev, shuningdek, pianinochi F.N.Kastalskaya va skripkachi G.V.Bauerning Grig sonatasi. Sovet hokimiyatining dastlabki

yillaridanoq Samarqand partiya rahbariyati qiziquvchan tinglovchilarni tashkil etish bo'yicha aniq maqsadli ishlarni amalga oshira boshladi. Xususan, Partiya klubida musiqa to'garagi tashkil etilib, unga professional va havaskor sozandalarni taklif etib, muntazam ravishda konsertlar berib borildi. Bunday uchrashuvlarda rus mumtoz asarlarining fortepiano aranjirovkasida simfonik kompozitsiyalar tez-tez ijro etilardi. Bunda o'sha davrda O'zbekistonda mashhur bo'lgan pianinochi F.N.Kastalskaya faol ishtirok etdi. O'sha yillarda havaskorlar to'garaklari negizida professional jamoani shakllantirish yoki qayta tashkil etish jarayoni juda simptomatik kechdi. "Lenin yo'li" musiqali drama teatrining tug'ilishi shundan dalolat beradi. Keyinchalik X.Olimjon nomini olgan. Dastavval "Moviy bluzka" havaskorlar to'garagi mavjud edi. Dastlab u asosan rus yoshlarini o'z ichiga olgan bo'lsa, tez orada o'zbek yoshlari, keyinroq qizlar ham qo'shildi. To'garakning birinchi rahbari A.Ter-Gevorkov, yigirmanchi yillarning ikkinchi yarmida xoreograf Ali-Ardobus bo'ldi. Ular to'garak a'zolarini birlashtirib, ularni keng tarbiyaviy ishlarga qiziqtirishga muvaffaq bo'ldilar. Oktyabr inqilobining dastlabki yillarida mamlakatda vujudga kelgan ta'sirchan, targ'ibot-tashviqot san'ati Samarqand musiqa va ijtimoiy hayotining qa'riga tobora chuqur kirib bordi. Moviy qonlilar barcha tantanali sanalarni, shuningdek, xotira va qayg'u kunlarini nishonladilar. Ma'lumki, o'lim sifatida qabul qilingan V.I.Lenin xotirasiga bag'ishlangan mohirona tashkil etilgan memorial instalyatsiya shahar yoshlari uchun qanday katta tarbiyaviy rol o'ynagan. umummilliy qayg'u. To'garak a'zolari zavod, fabrika, harbiy qismlarda chiqish qildilar. To'garak a'zolari orasida aktyorlar A.Ahmedjonov, A.Jurayev, R.Fayziev, X.Narziqulov, opera xonandasi, hozirgi Tojikiston xalq artisti B.To'rayev kabi keyinchalik mashhur fan va san'at namoyandalari ham bor edi. 1964-yilda Samarqandda opera va balet teatri tashkil etilgandan keyin X.Olimjon nomidagi musiqali drama teatri drama va komediya teatriga aylantirildi. Uning tarixi inqilobdan oldingi davrlarga borib taqaladi. 1914-yil 25-yanvardan 23-iyungacha milliy teatr va musiqa ixlosmandlaridan "Samarqand musulmonlari truppasi" tashkil etilib, keyinchalik "Samarqand musiqali-dramatik" to'garagiga aylandi. Birinchi musiqali-dramatik tomoshalar, turli konsertlar, va faol ommaviy tadbirlarda qatnashib, jamoa samarqandliklar orasida keng shuhrat qozondi. 20-yillarning oxirida ko'kko'ylakchilar Farg'ona vodiysini kezib chiqishdi. Boshqa havaskor jamoalar singari ular ham viloyatning olis tumanlariga: Xatirchi, Ziyatdin, Narpayga muntazam ravishda kontsertlar bilan borishardi. Musiqa jihatidan ko'plab iqtidorli yosh xonanda va cholg'uchilarni o'ziga singdirgan teatr, guvohlarning aytishicha, tez orada Hamza teatri nomini olgan va Toshkentga ko'chib kelgan O'zbek Davlat drama teatridan ham birmuncha kuchliroq edi.

1930-1931 yillarda Lenin yo'li teatri orkestri tarkibida o'zbek va tojik san'ati faxriga aylangan sozandalar: Tolibjon Sodiqov, Doni Zokirov, Sharif Babakalanov, Qobiljon Israilov, Nabijon Xasanov va boshqalar bor edi. O'zbek davlat teatrining tarixi ham Samarqandga borib taqaladi. U 1927 yil 1 yanvarda birinchi musiqali drama teatrini qayta tashkil etish asosida tashkil etilgan. 1926 yilda allaqachon yangi jamoaga yo'l ochib, qiziqarli badiiy spektakllar amalga oshirildi. Musiqiy rahbar o'zbek musiqasining ajoyib bilimdoni Yunus Rajabiy edi. O'zbek davlat drama teatrining ilk san'atkorlari orasida buxorolik G'ulom Sattarov, Toshkentlik Shukur Burxonovlar bor edi. Obid Jalilov, Yusuf Komilov, Fatxulla Umarov, Sa'dulla Tabibullaev, Sora Ishanto'raeva, Maryam Yoqubova va boshqa hozirda mashhur sahna ustalari yetakchi san'atkorlar qatorida edi. Teatrning 52 kishidan iborat ijodiy jamoasida musiqachilar salmoqli ulush egalladi. Yigirma olti dramatik aktyor, o'n to'rt musiqachi, olti balet raqqosasi, olti xor raqqosalari edi. Repertuar aralash bo'lgani uchun ya'ni, dramatik spektakllarni ham, ilk musiqali dramalarni ham o'z ichiga olgan, ko'pchilik san'atkorlar yaxshi ovoz qobiliyatiga ega tanlangan, rejissyor Xoja Mo'yin Shukurullo edi. Xoja Mo'yin Shukurullo iste'dodli san'atkor, muhtasham san'atkor va xonanda bo'lib, u inqilobdan oldin ham Behbudiy boshchiligidagi mahalliy milliy teatr jamoalaridan birida a'zo bo'lib, ko'pchilikka mashhur edi.

Xoji Mo'yin "Eski maktab yo'ki yangi maktab", "Juvonbozlik qurboni", "Mazluma xotin", "Isloh va maktab xaqida kengash majlisi" kabi bir qancha pyesalar muallifi. 1930 yil may oyida bo'lib o'tgan Butunittifoq drama teatri olimpiadasida drama teatri jamoasi ikkita spektaklni: K. Yashinning "Ikki kommunist" va "Xudjum" spektaklini namoyish etdi. Bundan tashqari, o'sha yili Moskvada o'z san'atini muvaffaqiyatli namoyish etgan teatrdagi musiqa va kontsert brigadasi tashkil etildi.

Ko'plab konsert dasturlari bilan ishtirok etgan O'zbekiston davlat konsert ansambli Samarqandda keng tanidi. Uning 1928-yil 17-dekabrda Moskvada bo'lib o'tgan nutqi, ayniqsa, keng ko'lamli javob oldi. Ansambl rahbari, xonanda va san'atkor Qori Yoqubov O'zbekiston Maorif xalq komissarligiga yo'llagan maxsus murojaatida shunday yozadi: "So'nggi oylarda matbuotda O'zbek Davlat musiqa ansambli faoliyati to'g'risida ko'tarilgan muhokamalar, shuningdek O'zbekiston SSRning yirik shaharlaridagi ko'pchilik mehnatkashlarning ansambl ijrosi yuzasidan bildirgan fikrlari, u faqat konsert raqamlari ijrosi bilan cheklanib, opera va musiqali komediyalarning badiiy, g'oyaviy jihatdan izchil spektakllarini tashkil etishini talab qiladi. Omma yangi zamonaviy badiiy dasturlar, dolzarb asarlarni talab qilmoqda.

1929-yil 1-mayda "O'zbek davlat musiqa eksperimental" nomini olgan ansambl U.Hojibekovning "Arshin mal-alan" (o'zbek tiliga vakolatli tarjimasi K.Yashin bilan) va "Rezovarchi" (Lotoshnik) S. Kamerdinskiy tomonidan. Spektakllarning birinchisini A.A.Eyzenvald, ikkinchisini yosh o'zbek rejissyori Z.Kabulov sahnalashtirgan. Tez orada o'zbek dramaturgi G'ulom Zafariyning "Halima" spektakli premyerasi bo'lib o'tdi. Uning mazmuni fojiali, yosh oshiqlar Halima va Nig'mat hikoyasiga bag'ishlangan. Ijtimoiy tengsizlik ularning o'limiga sababdir. Feodal qonunbuzarliklarini, hokimiyat tepasida turganlarning qoramag'izligini fosh etish mavzusi bu asarga asos bo'ldi va tez orada barcha o'zbek dramatik va musiqali dramatik asarlarida yetakchi mavzulardan biriga aylandi. Qahramonlarning musiqiy xayoliy xususiyatlari o'ziga xos milliy kuylar yordamida amalga oshirildi. Chunonchi, Nig'mat obrazi mashhur "Iroq" kuyi bilan, Halima obrazi esa farg'onalik "Qanchalar" qo'shig'i bilan bog'langan. Ritual xarakterdagi rasmda (to'y) tegishli musiqa yangradi.

Samarqand madaniy hayotida A.Navoiyning ajoyib g'azaliga asoslangan "Farhod va Shirin" musiqali-dramatik spektaklining O'zbekistonda ikkinchi marta sahnalashtirilgani muhim voqea bo'ldi. (Birinchi ishlab chiqarish avvalroq 1922 yilda Toshkentda amalga oshirilgan). Samarqand spektaklida taniqli o'zbek vokal va cholg'u musiqasi bo'yicha mutaxassis, o'shanda hali juda yosh Yunus Rajabiy ishtirok etgan. U spektaklning musiqiy dizayni uchun xalq kuylarini muvaffaqiyatli tanladi.


Shirin rolini O'zbekistonning birinchi aktrisalardan biri Mariya Kuznetsova ijro etgan. Samarqand spektakli milliy teatr san'atida zamonaviylikka jiddiy burilish bilan bog'liq. Birinchi marta Shirin obrazini ayol aktrisa yaratgan (1922 yil Toshkent spektaklida Shirin rolini Sharqda o'rnatilgan an'anaga ko'ra erkak aktyor Saidazim Usmonov ijro etgan). "Farhod va Shirin" dramasi keyingi barcha premyeralarida qahramon obrazini ilk o'zbek aktrisalari yaratgan.

Samarqand truppasi san'atkorlari ortidan "Farhod va Shirin" Qo'qonda sahnalashtirilgan bo'lib, unda Shirin rolini hozirda SSSR xalq artisti Tamaraxonim ajoyib ijro etgan. 20-30-yillar oxiri va 30-yillardagi milliy spektakllarning mavzularida qahramon-vatanparvarlik syujetlari yoki inqilob va fuqarolar urushi mavzulari ustunlik qilgan. K. Yashinning "Ikki kommunist", "Ichkarida", "O'rtoqlar", "Yonamiz", "Varoat", "Shon-sharaf va muhabbat" spektakllari eng muvaffaqiyatli bo'ldi. "Halima", G.Zafariy, "Paxta zararkunandalari", U.Ismoilovning "Rustam", Ziyo Said va N.Safarovlarning "Tarix gapirdi". Samarqandning kontsert hayotida ham teatrdan bo'lgani kabi muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lsa-da, katta xatoliklar ham uchrab turibdi. Ijobiy narsa, umuman olganda, guruh hayotining intensivligi, turli xil sayohat guruhlarining ko'pligi. Bu jihatdan Samarqand respublika poytaxti Toshkentdan bir oz pastroq bo'lib, mohiyatan O'zbekistonning ikkinchi yirik musiqa va madaniyat markazi sifatida namoyon bo'ladi. Opera va balet teatrining keskin ijodiy o'sishi professionallikning doimiy ravishda takomillashib borishi, repertuarning doimiy yangilanishi, 1978 yilda filarmoniyaning ochilishi va turli profildagi musiqachilar sonining sezilarli darajada ko'payishi bilan namoyon bo'ladi. Samarqandning musiqa, teatr va kontsert hayotining kelajakka katta ishonchi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

- O.A.Ibrohimov, G'.M. Xudoyev Musiqa tarixi Toshkent 2018 y.  
 Lola Urmanova, Rus musiqa tarixi Toshkent 2011 y.  
 A.X.Trigulova Chet el musiqa tarixi Toshkent 2008 y.

- Rajabov I. “Maqomlar”. «SAN,AT» nashriyoti T., 2006 y.
- Salixov B. Matyoqubov B «O'zbekistonda damli va zarbli cholg'ular Ijrochiligi tarixi” T., «Musiq» 2007 y.
- M.Matyakubov “An'anaviy ijrochilik uslubi” Toshkent. 2015 y.
- R. Qodirov. Chet el musiqa tarixi. Toshkent. 2008 y.
- L. O'rmanova. Musiq tarixi. Toshkent. 2009 y.
- Z. Nazarova. Mustaqillik yillarida musiqa san'atining rivojlanishi. Uslubiy ko'rsatma.Samarqand.2015 y.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Суванкулов Илхомжон Шахобиддинович**  
Ўзбекистон-Финляндия педагогика институти  
«Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси»  
кафедраси профессори в.в.б.

## ТАСВИРИЙ САНЪАТДА СИРТЛАРНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ ВА УЛАРНИ ГЕОМЕТРИК ЭЛЕМЕНТЛАРИ

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада чизиқли каркас билан берилган сиртларни моделлаштириш берилган. Устки ва пастки қатламлари синиқ чизиқлар тўпламларидан ташкил топган икки қатламли панжарали тузилмаларнинг геометрик элементлари ҳақида маълумотлар келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** Статика, каркас сиртлар, моделлаштириш, нукта, чизиқ, панжарали тузилма.

**Суванкулов Илхомжон Шахобиддинович**

в.и.о. профессор кафедры

«Изобразительного искусства и инженерной  
графики» Узбекско-Финляндского педагогического института

## МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЕРХНОСТЕЙ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ И ИХ ГЕОМЕТРИЧЕСКИЕ ЭЛЕМЕНТЫ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье представлено моделирование заданных поверхностей с помощью линейного каркаса. Приведены сведения о геометрических элементах двухпоясных решетчатых конструкций, верхний и нижний пояса которых состоят из наборов ломаных линий.

**Ключевые слова:** Статика, каркасные поверхности, моделирование, точка, линия, сетчатая структура.

**Suvankulov Ilkhomzhon Shakhobiddinovich**

Professor of the Department of Fine Arts and

Engineering Graphics of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

## MODELING SURFACES IN FINE ARTS AND THEIR GEOMETRIC ELEMENTS

### ANNOTATION

This article presents the modeling of given surfaces using a linear frame. Information is provided on the geometric elements of two-lane lattice structures, the upper and lower chords of which consist of sets of broken lines.

**Key words:** Statics, frame surfaces, modeling, point, line, mesh structure.


Каркасли сиртлар, нукта ва чизиқларнинг дискрет кўплиги билан берилди . Нукталар каркаси деб, сиртда жойлашган ва у ҳақида тўлиқ тасаввур бера оладиган нукталар тўпламига айтилади. Сиртнинг нуктали каркасида нукталар ўзаро тўғри чизиқлар билан туташтирилиб панжаралар ҳосил қилинади. Икки қатламли нукталар тўпламидан ҳосил бўлган сиртлар геометрик ўзгармаслик ва мустаҳкамлик афзалликларига эгадир.

Сиртларни чизиқли каркас билан берилиши, моделлаштириш жараенини осонлаштиради. Берилган каркас чексиз кўп бошқа сиртларни ҳам ҳосил қилиши мумкин.


Икки қатламли панжарали тузилмаларнинг устки ва пастки қатламлари синиқ чизиқлар тўпламларидан ташкил топган бўлиб, уларнинг кесишган нукталарини тугунлар деб юритамиз. Иккита тугунни туташтирувчи синиқ чизиқ кесмасини боғловчи деб атаймиз. Тузилма тугунлари ва катакларининг сонли тавсифига: бир тугунда туташувчи боғловчилар сони ва ихтиёрий катакчани чегараловчи боғловчилар киради. Икки қатламли тузилма сиртларидаги катаклар турли шакллардан ташкил топиши мумкин. Агар пастки ва устки қатламлардаги тугунлар ва катаклар маълум бир қонуният асосида жойлашган бўлса, бундай тузилмалар тартибга олинган дейилади. Тартибга олинган тузилманинг битта хусусий ҳолати сифатида четкиларидан ташқари барча тугунлари бир хил сонли тавсифга эга бўлиши мумкин. Икки қатламли тузилмаларнинг мумкин бўлган топологик туташмалари 1-шаклда тасвирланган.

2-шаклда икки қатламли панжарали тузулмаларни режаси ва яққол тасвирлари кўрсатилган. Яққоллик учун устки қатлам боғловчилари узлуксиз чизиқлар, пастки қатлам боғловчилари эса штрих чизиқ билан берилган. Шу мақсадда қатламлараро боғловчилар тўлиқсиз кўрсатилган.


Икки қатламли панжарали тузилмалари элементларини  $i$  ва  $j$  санок чизиқлари тизимида боғланган ҳолда таҳлил қилинади.




1-шакл. Икки қатламли тузулмани элементлари.



2-шакл. Икки қатламли панжарали тузулмалар.



2-шакл.Давоми.



2-шакл. Давоми.

### Фойдаланилган адабиётлар

Мирзиёев Ш.М. Еркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2016. - 56 б.

Михайленко В.Е., Ковалев С.Н., Тукаев С.К. Особенности конструирования стержневых покрытий // Прикладная геометрия и инж. графика. – Киев:, 1979. – Высшая школа. 28. - С. 3 – 6.

Суванкулов И.Ш. Об одном способе формирования двухпоясного мембранного покрытия и управления ее формой // Прикл. геометрия и инж. графика. – Киев: Будівельник, 1988. – Вып. 46. – с. 96-98.

Суванкулов И.Ш., Номозова Г.Р. Approximate Method for Forming Double Belt Lattice Structures. Middle European Scientific Bulletin (MESB). ISSN: 2694-9970. Table of Content - Volume 27 (Aug 2022)

Суванкулов И.Ш., Номозова Г.Р. “Приближенный способ управления геометрическими параметрами решетчатых структур” CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES Vol. 4 No. 04 (2023): CAJOTAS. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/V68GT>. DIRECTORY OF OPEN ACCESS JOURNALS



**Суванкулов Илхомжон Шахобиддинович**  
Ўзбекистон-Финляндия педагогика институти  
«Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси»  
кафедраси профессори в.в.б.

## ИККИ ҚАТЛАМЛИ ПАНЖАРАЛИ СИРТЛАРНИ БОШҚАРИШ УСЛУБЛАРИ

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада чизиқли каркас билан берилган сиртларни четки контур тугунлари параметрларини ўзгартириш орқали бошқариш, қатламлараро боғловчилар шакл ва жойлашиш параметрларини ўзгартириш эвазига бошқариш ва унга таъсир қиладиган ташқи кучлар параметрларини ўзгартириш эвазига бошқариш кўриб чиқилган.

**Калит сўзлар:** Нуқта, чизиқ, статика, каркас сиртлар, моделлаштириш, панжарали тузилма.

**Суванкулов Илхомжон Шахобиддинович**  
в.и.о. профессора кафедры «Изобразительного  
искусства и инженерной графики»  
Узбекско-Финляндского педагогического института

## СПОСОБЫ УПРАВЛЕНИЯ ДВУХПОЯСНЫХ РЕШЕТЧАТЫХ ПОВЕРХНОСТЕЙ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены управление поверхностями, заданными линейным каркасом, путем изменения параметров узлов краевого контура, управление путем изменения параметров формы и расположения межпоясных связей, а также управление путем изменения параметров внешней нагрузки, действующие на него.

**Ключевые слова:** Точка, линия, статика, каркас поверхности, моделирование, решетчатая структура.

**Suvankulov Ilkhomzhon Shakhobiddinovich**  
Professor of the Department of Fine Arts and  
Engineering Graphics of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

## METHODS FOR CONTROLLING TWO-ZONE LATTICE SURFACES

## ANNOTATION

This article discusses the control of surfaces defined by a linear frame by changing the parameters of the edge contour nodes, control by changing the parameters of the shape and location of inter-belt connections, as well as control by changing the parameters of the external load acting on it.

**Key words:** Point, line, statics, surface frame, modeling, lattice structure.

Diafragma nafasi texnikasini egallash qo'shiq aytayotganda nafasni bir tekis, yaxshi bosim bilan chiqarish imkonini beradi, shu bilan tovush jarangli va silliq bo'lishiga erishiladi. Havoni asta-sekin chiqarish uning to'la tovush to'lqiniga aylanishiga imkon beradi. Nafasni to'la tovushga aylantira olish qo'shiqchilik nafasini boshqara olish mahoratidan darak beradi. Nafasni boshqara olmaydigan qo'shiqchilar odatda o'pkasini to'latib nafas oladi-da, qo'shiqning boshidayoq uni chiqarib yuboradi. Nafas tovushni qo'llaydi, u tovushda takomillashmaydi va bunda qarama-qarshiliklar yo'q, negaki bu o'zaro muvofiq ravishda takomillashuvchi jarayondir. Tovushsiz qo'shiqchilik nafasini rivojlantirish mumkin emas va aksincha, bo'lishi ham mumkin. Maxsus mashqlar mushaklarni mustahkamlaydi, rivojlantiradi, qo'shiqchilik nafasi haqida tasavvur beradi. Qo'shiqchilik nafasini otilib chiqayotgan favvora oqimiga o'xshatiladi, u tinimsiz otilib turganligi tufayli ustidagi yengil to'pni tushirmay, ushlab turadi. Shu asnoda tovush ham uzluksiz chiqayotgan nafas yordamida ushlab turish lozim. Agar matn uzunroq bo'lsa, qorin pastidan siqiladi, shu asnoda nafasning qolgani ham chiqariladi va matn oxiriga yetkaziladi. Qo'shiq aytishni o'rganayotganda nafasni ko'rsatishdan osoni yo'q, nafasga tayanish va chiqarishni tushuntirish qiyinroq. Ba'zi qo'shiqchilar umrining oxirigacha ham "nafasda qo'shiq aytish" nimaligini bilmaydi. Boshlovchi hamda qo'shiqchilar nafasni matnning oxirigacha yetkazishni bilmaydi. Nafas chiqarishni takomillashtirish uchun vokal mashqlari juda sodda, osoyishta bo'lishi kerak. Ularni tekis tovushlar ishtirokida kuylash lozim. Bu paytda eshitish va mushaklarni nazorat qilish muhimdir. Qo'llar bilan jarayonning to'g'riligi nazorat qilib boriladi. Sodda nafas mashqlari vokal bilar uyg'unlashtiriladi. Talaba tovushlar talaffuzini tamomlashi bilanoq, ko'krak yoki diafragma qismidagi butun havoni chiqarib yubormasligi kerak. Bunga erishish ancha qiyin, lekin bu mukammal kuylashning yagona yo'lidir. Qo'shiq shaklini saqlash ustidan nazorat va pauza paytida avval sarflangan nafasni to'xtatish texnikasi silliq, ixtisoslik tovushi kafolatidir. Qo'shiq jarayonida vokal shaklini saqlash uchun musiqa istilohi va tovush tugaganidan keyin ham nafas zahirasi saqlanib qolishi kerak. Bunda har bir yangi nafas avvalgisi ustidan qatlam hosil qiladi va qo'shiq aytish chog'ida yangi nafasni tez olish imkoni yaratiladi.

## XULOSA

Boshlovchi hamda qo'shiqchilarda nafas sust yoki jadal bo'ladi. Sust nafas esa yetarli rivojlanmagan mushaklardan darak beradi. Jadal nafas esa mushaklarning faollashuvini ko'rsatadi, ortiqcha qayta-qayta nafas olinadi, tovush shovqiniga qorishib ketadi. Shovqinga kelsak, u ovoz a'zolari qatlamini yetarli takomillashmaganidan, traxeya va bronxlardan ovozni me'yordaoqib chiqmayotganligidan kelib chiqadi. Shovqindan qutilish uchun qo'shiqchi e'tiborini nafas olish chog'ida shovqinga qaratadi. Yaxshi esnash va chuqur, osoyishta nafas shovqinsiz nafas olishga yordam beradi.

Yuqoridagi mashqlar natijasida ovoz shakllanib sayqallanib boradi natijada aktyor va xonanda ijodi o'sib boradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. М.Эрматов. Анъанавий хонандалик. -Т., 2003.
2. Ҳ.Исроилова. Анъанавий ҳофизлик санъати. -Т., 2007.
3. Ў.Расулов. Анъанавий хонандаликдан ўқитиш методикаси. -Т., 2007.
4. С.Бегматов. Ҳофизлик санъати. -Т., «Муסיқа», 2007.
5. Talaboyev, A. N., & Azizov, S. S. O. G. L. (2023). OPERA JANRINI PAYDO BO'LISHI BOSQICHLARI VA UNI JAXON MUSIQIY IJROCHILIGIDAGI TARIXIY AHAMIYAI. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 449-456.

6. O'G'Li, U. B. A., & Talaboyev, A. N. (2023). MUSIQA MAKTABLARINING OVOZ SOZLASH DARSLARIDA MAQOM PARDALARI VA NAMUDLARDAN FOYDALANISH. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 344-347.
7. Ҳайдаров, А. (2023). ОВОЗ ҲОСИЛ БЎЛИШ АНАТОМИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 4(6), 517-521.
8. Haydarov, A. (2023). X. SOBIROVA SAN'AT TA'LIMI JONKUYAR USTOZI. *Oriental Art and Culture*, 4(4), 71-74.
9. Kurbanova, M., Ismoilova, M., & Ahmedov, R. (2022). The Past And Present Of Women's Art. *Journal of Positive School Psychology*, 2526-2529.
10. Yunusov, G. O. Y. (2023). "TANOVAR" ASHULASINI IJRO ETGAN USTOZ SAN'ATKORLAR. *Oriental Art and Culture*, 4(6), 449-453.
11. Yunusov, G., & Mirzaev, A. (2022). A Look at the History of Uzbek Music. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 1(5), 50-58.
12. Akbarov, T. (2023). VOKAL FANINING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI. *Oriental Art and Culture*, 4(3), 446-449.
13. Juraev, I. (2022). Development Factors of the Art of Singing in Uzbek and World Scenes. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 1(6), 162-164.
14. Ismoilova, M. (2022). The Importance of Fret in Uzbek Folk Music. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(5), 39-43.



**Munojatzon Asqarova Xusanovna**

asqarova.munojatzon19@gmail.com

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining  
Farg'ona mintaqaviy filiali o'qituvchisi

## **HOMIL YOQUBOV O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING YETUK TADQIQOTCHISI**

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### **ANNOTATSIYA**

Adabiy tanqidning paydo bo'lishi va rivojlanishida kitobxonning ijtimoiy estetik ehtiyojlarining o'rni katta. Badiiy asarning paydo bo'lishi bilan unga baho berilishi uning qimmatini belgilagan. Ilmiy-estetik tafakkur mahsuli sanaluvchi adabiy tanqid so'z san'ati sifatida dunyoga kelib, shakllanish va rivojlanish jarayoniga kirgan hodisadir. Adabiy tanqid harakatdagi estetik tafakkur tarzida adabiy jarayon mohiyatini tahlil qilish va baholash xususiyatini kasb etgan. San'at qanchalik ichki xilmaxillikka ega bo'lsa, tanqid ham o'sha sohalarga tegishlilik kasb etadi. Aslida adabiy tanqidga, badiiy asarni tahlil va talqin etishga hamma zamonlarda zarurat bo'lgan. Mazkur maqolada adabiyotshunos olim va munaqqid Homil Yuqubovning mumtoz adabiyotdagi ijodiy ishlari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** munaqqid, adabiyotshunos, proza, lirika, dramaturgiya, adabiy-tanqid, aruz, qofiya, adabiyot nazariyasi, mumtoz adabiyot

## **ХАМИЛЬ ЯКУБОВ ПЕРЕДОВОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**

### **АННОТАЦИЯ**

В возникновении и развитии литературной критики большую роль играют социальные эстетические потребности читателя. Ценность произведения искусства определяется его творением. Литературная критика, считающаяся продуктом научно-эстетического мышления, представляет собой явление, пришедшее в мир как искусство слова и вошедшее в процесс становления и развития. Литературная критика приобрела особенность анализа и оценки сущности литературного процесса в форме эстетического мышления в действии. Поскольку искусство обладает внутренним разнообразием, критика также принадлежит к этим областям. Литературная критика, анализ и интерпретация произведений искусства всегда были необходимы. В данной статье рассматривается творчество литературоведа и критика Хамиля Якубова в классической литературе.

**Ключевые слова:** критик, литературовед, проза, лирика, драматургия, литературная критика, аллегория, рифма, теория литературы, классическая литература

**KHAMIL YAKUBOV ADVANCED RESEARCHER OF UZBEK CLASSICAL LITERATURE****ABSTRACT**

In the emergence and development of literary criticism, the reader's social aesthetic needs have a great role. The value of a work of art is determined by its creation. Literary criticism, which is considered a product of scientific and aesthetic thinking, is a phenomenon that came into the world as an art of words and entered the process of formation and development. Literary criticism acquired the characteristic of analyzing and evaluating the essence of the literary process in the form of aesthetic thinking in action. To the extent that art has internal diversity, criticism also belongs to those areas. Literary criticism, analysis and interpretation of works of art have always been necessary. This article discusses the creative works of literary scholar and critic Hamil Yuqubov in classical literature.

**Key words:** critic, literary critic, prose, lyric, dramaturgy, literary criticism, allegory, rhyme, literary theory, classical literature

**KIRISH**

Zamonaning har bir davrida adabiy jarayonda o'zining original tahlil usullariga, xos dunyoqarashi va uslubiga ega munaqqidlarga ehtiyoj bo'lgan. Bosilib chiqayotgan har qanday kitobga taqriz yozish, ora - orada uyushtiriladigan yubiley anjumanlarida umumqarsakbozlikka jo'r bo'lish bilan adabiyotshunos munaqqid bu ijod sohasida o'z qalbi va qiyofasini yaqqol ko'rsata olmaydi. Adabiy tanqid murakkab ijoddur. Zero, adabiy tanqidchining ijodini o'qigan kitobxon badiiy asar mohiyatini, adabiy haqiqatni anglashi kerak. Aslida adabiy tanqidga, badiiy asarni tahlil va talqin etishga hamma zamonlarda zarurat bo'lgan. Bejizga Bahodir Karimov "Ijod ahli o'zi yozgan badiiy asar bahosi bilan qiziqadi; munosabat kutadi. Yozgani to'g'risida mulohaza - ko'proq maqto'v yoki tanqidlar eshitish - bu o'jizona tuyg'u har qanday soha ijodkori tabiatiga xosdir", deb e'tirof etmagan.

**USULLAR**

Homil Yoqubov o'zbek mumtoz adabiyotining yetuk tadqiqotchisi mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, adabiyotlar tahlili, ma'lumotlar yig'ish va qayta ishlash metodologiyalaridan foydalanildi.

**NATIJALAR**

Chin munaqqid yoki adabiyotshunos bo'lish uchun ilm va izlanish, iste'dod, estetik did, tushunish, saralash qobiliyati kerak. Badiiy asarni o'qish uchun vaqt, baho berish uchun keng qamrovli dunyoqarash, nazariy bilim, hayotiy tajriba lozim. Ushbu talablarning barchasi Homil Yoqubov shaxsiyatida jamdir. Munaqqid haqida og'iz juftlashdan avval shuni ta'kidlab o'tish kerakki, uning ilmiy salohiyati qanchalar keng va muhokamabop bo'lsa, shaxsiy hayoti, inson ehtiyojlari, orzu-maqsadlari haqidagi ma'lumotlar ko'lam shunchalik tordir. O'zbekiston(SSSR)da xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Homil Yoqubovning ham hayot yo'li ko'p jihatdan adiblarnikiga o'xshashdir. U 1907-yilning sentabr oyida Toshkentda o'rtahol dehqon oilasida tavallud topgan. Savodini o'sha davrning oldi maktabi hisoblangan yangi usuldagi "Rahimiya" maskanida chiqargan. Keyinroq "Namuna" maktabiga o'qishga kiradi. O'sha yillari mamlakatimizda "Oktabr inqilobi" ro'y berib, hokimiyat sovetlar qo'liga o'tadi. O'z-o'zidan ta'lim-tarbiya va o'qitish metodikasida katta o'zgarishlar yuzaga keladi. Ushbu jarayonlar jonli sahnasida bo'lajak munaqqid ulg'ayadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, inqilob natijasida "Namuna" maktabi "Navoiy" nomidagi ta'lim-tarbiya texnikumiga aylantiriladi. Ayni shu texnikumda Oybek, ko'plab tarixiy-biografik asarlar muallifi Mirkarim Osim, texnika fanlari doktori G'afur Rahimov, geograf olim Muhit Qoriyevlar ta'lim olgan. Ana shunday ulkan salohiyati bor texnikum muhiti Homil Yoqubov dunyoqarashi rivojlanishiga ta'sir qilmasdan qolmagan. Olim haqida mavjud ma'lumotlardan shuni ko'ramizki, u 1924-yilda "Lenin komsomoli" safiga qabul qilingan. Aslini olib qaraganda ushbu harakat o'sha davr siyosiy qiyofasini ko'rsatishning o'ziga xos shaklan milliy, mazmunan sotsiologik, ruhan baynalminal harakati bo'lgan xolos.

Homil Yoqubov hayot va ijod yo'liga nazar solar ekanmiz uning ongini ikki soha zabt etganiga guvoh bo'lamiz. Birinchisi aniq fanlar bo'lsa, ikkinchisi adabiyotdir. Ammo umrining eng

gashtli onlarini bezab, hayot yo'lida muhim iz qoldirgan shubxasiz adabiyot bo'lgan deb aytilish mumkin. Ammo uning adabiyot maydonida munaqqid sifatida o'z o'rniga ega bo'lishi oson kechmagan. Bu haqida uning yaqin do'stlaridan biri Mamarasul Boboyev quyidagicha xotirlagan: "Adabiy tanqidchiga menimcha hamma narsalardan ham oldin, chuqur bilim, keng mushohada va xolislik kerakdir. Homil Islamovichda zehn ham, bilim ham-hammasi mavjud... ijodi ko'p qirralidir... Uni ko'pgina tanqidchi va adabiyotshunoslardan o'z fikridan chalg'itish mumkin emasligi fazilati ajratib turadi. U o'zining "Adabiy tanqidchi" degan sharaflı kasbini oshna-og'aynichilikka yoki xushomadgo'ylikka, hatto moddiy manfaatga hech qachon qurbon qilmagan. Bu sobit tanqidchi shiddatli hujumlarga uchraganida ham, ba'zi kamsitishlarga duchor bo'lib yurgan paytlarda ham tog'day chidam bilan turishini bir necha bor ko'rganman" - deydi. Adabiyot olami vakillariga shunday muammoli va murakkab yo'lni bosib o'tish tom ma'noda tabiiy jarayondir. Ijodkor sinovlarda toblanib, uning quroli bo'lgan mashaqqatlarda sayqal topadi. Homil Yoqubov ijodi ham bundan mustasno emas. Dastavval bo'lajak munaqqidni adabiyotning sehirli olami, jo'shqinligi, tabiiyligi o'ziga oshufta qilgan bo'lsa ne ajab. Uning ta'sirida Homil Yoqubov bir qator she'rlar, ba'zan yozuvchilarga taqlidan poemalar qoralagani unga yaqin bo'lgan odam borki, barchasiga ma'lum. Balki shularning ta'siri, qonidagi ijodiy jo'shqinlik ham uning adabiy tanqidchilik faoliyatining muvaffaqiyati kaliti bo'lgandir. Uning ilk yutuqlaridan biri, yuqorida ta'kidlaganimiz maktabdoshi, do'sti Oybekning ikkinchi kitobi - "Ko'ngil naylari"ga yozgan taqrizi bo'lgan. Ushbu voqeaga tanqidchining ilk ammo dadil va jiddiy qadami sifatida qaralishi lozim bo'lgan o'sha taqriz "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1927-yil 16-avgustdagi sonida "Oybek va uning she'rlari" nomi bilan chop etilgan.

O'zining ilk qadamlaridan ruhlangan munaqqid yangidan yangi maqolalarini yozishga kirishib ketadi ammo noma'lum sabablarga ko'ra ularning chop etilishi cho'zilib ketadi, yoki qog'ozlarda qoladi. Ammo ba'zi munaqqidlar va olimlarning qator ishlariga nazar soladigan bo'lsak, 1932-yilda sovet hukumatining nashriyot ishlari va adabiy-ijodiy jarayon ishini yaxshilash, tanqidchilikka e'tibor berish to'g'risidagi ko'rsatmasi berilgan. Balki shu sababdan ushbu yillardan keyingi gazeta va jurnallarni varaqlasak qator adabiy-tanqidiy maqolalarga ko'zimiz tushadi. Huddi shunday Homil Yoqubov ishlariga ham. Bunga misol qilib uning ilk tanqidiy-ijodiy faoliyatini xarakterlovchi Mirkarim Osim bilan hamkorlikda yozilgan "G'afur G'ulom hikoyalari" (1932), "Zafar nishoni (1932)" taqrizlarini keltirish mumkin.

Homil Yoqubov ilmiy-ijodiy faoliyatini bosqichma-bosqich belgilab oladigan bo'lsak, uning birinchi davrini taqrizlarga, ikkinchi davrini maqolalar, uchinchi bosqichni ilmiy tadqiqotlarga bo'lish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki u o'z faoliyatini oddiydan murakkabga puxta ishlab olib chiqqan. Har bir ijodkor faoliyatini noldan yuzgacha tadqiq etgan, o'rgangan, ta'bir joiz bo'lsa xis qilgan, har bir qahramon obrazida yashagan. Uning bu bosqichdagi faoliyatini Berdiali Imomov asosan o'tgan asrning o'ttizinchi yillari birinchi yarmi bilan chegaralanadi deb hisoblaydi. Munaqqidning 1936-yili nashr etilgan "Ijodiy o'sish yo'lida" kitobidagi "Uyg'un ijodiyoti", "G'afur G'ulom ijodiyoti", "Hamid Olimjonning ijodiy yo'li" ilmiy maqolalari yosh tadqiqotchi ijodining jiddiy burilish nuqtasi deb belgilaydi. Bizningcha esa bu jarayonga boshqa rakursdan qarash qulayroq. Sababi munaqqid ijodiy o'sish nuqtasi mavzular ko'lami va tadqiqot obyektining davr va vaqt nuqtayi nazaridan belgilandi. Misol uchun Homil Yoqubovning faqat o'z zamonasi yozuvchilari asarlariga yozgan taqriz va maqolasining o'zigina uning faoliyatining perepitiyasini yasab bermaydi. Uning ijodiy kulminatsiyasi ham bo'la olmaydi. Sababi Homil Yoqubov ilmiy - ijodiy faoliyat doirasi, tadqiqotchilik ko'lami g'oyat keng va rang - barang. O'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan bironta yirik namoyandasi yo'qki, ular to'g'risida yoki ularning asarlari haqida Homil Yoqubov o'z fikr - mulohazalarini bildirib asar yozmagan bo'lsa! Olimning Hamza, Abdulla Qodiriy, Sadridin Ayniy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Uyg'un, Nazir Safarov, Sharof Rashidov, Mamarasul Boboyev, Asqad Muxtor va boshqa bir qator adiblarimiz ijodi, ularning muayyan asarlari hususidagi o'nlab maqola, taqriz va monografiyalari masalaga nazariy fikrlash va dalillash kuchining asosligi, kuzatishlarning sinchkov va originalligi, qisqasi, ilmiy - nazariy saviyasining yuksakligi bilan diqqatga sazovordir. Homil Yoqubov tadqiqotchilik faoliyati g'oyat ko'p qirrali ekanini o'zbek adabiyoti vakillariga, turli janr namunalariiga bag'ishlangan asarlaridagina emas, balki ilmiy - ijodiy

faoliyati davomida o'zbek klassik shoirlari, rus va Yevropa adabiyoti namoyandalari V.Shekspir, M.Servantes, A.S.Pushkin, V.G.Belinskiy, N.V.Gogol va boshqalar haqida yozgan maqolalaridan ham bilsa bo'ladi.

Uning eng salmoqli ishlari mumtoz adabiyot tadqiqida ko'zga tashlanadi. Jumladan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobir, Muqumiy, Turdi Farog'iy kabi katta potensial egalarining munozarali ijodiy yo'lini o'ziga xos tadqiq eta olgani uning faoliyati negizini va munaqqidlik cho'qqisini belgilaydi. Olimning faoliyatida klassik adabiyot masalalari yoritilgan boshqa talay asarlari ham borki, ular mamlakat filologiya ilmini boyitish ishiga munosib hissa qo'shgan. Jumladan, "Alisher Navoiyning "Xamsa"si", "O'zbek adabiyotining faxri", "Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni", "Sab'ai sayyor"da shahar qatlamlarining obrazi" kabi mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodiga bag'ishlangan maxsus maqola va risolalari yaratilgan. Navoiy ijodiga bag'ishlangan ko'lami katta qator ilmiy tadqiqotlarni ham yaratgan. Olimning "Saylanma" kitobida berilgan Davr va siyosat nuqtayi nazarini ham inobatga olib, tarixiy haqiqatlarni bor bo'yicha ko'rsata olish, jimjimador va yuzaki so'zlardan foydalanmay ijodkorlar ruhiyatiga nazar solgani uning mumtoz adabiyotning ham tom ma'nodagi muxlisi, mutaxassisi egasi ekanini ko'rsatadi.

Badiiy adabiyot o'zida hayotning hamma jabhalarini aks ettirishi bilan go'zal va mukammaldir. Uning sarchashmasidan adabiyot ixlosmadlari suv ichsa, yosh ijodkorlar ma'naviy ozuqa oladi. Atoqli shoir va nosirlardan tortib, yosh qalamkashlarning ijodiy o'ziga xosligini xalqqa ko'rsatib beruvchi, ta'bir joiz bo'lsa yetkazib beruvchi bu - adabiy tanqidchidir. Adabiy tanqidchilik kasbining ikki muhim qirrasini bor: bugungi adabiyot masalalari bilan qiziqadi va adabiyotshunos sifatida klassik me'ros javohirlari xazinasini ochishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Homil Yoqubov har ikkala sohada ham shuhrat topgan olimdir. Uning bir qator buyuk ijodkorlarning adabiy me'rosini tadqiq etgan materiallari bugungi kun adabiy tanqidchiligining negizi bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotchi mahoratini ko'rsatish borasida, badiiy so'z seyrining serqirra jilosini, san'atkorona bezagining boyligini nafis ochish jihatidan olimning Bobur ijodiga bag'ishlangan tadqiqoti ko'pchilik kasbdosh va adabiyot ixlosmandlari og'ziga tushganida ham ko'p gap bor. Odatda iste'dod bilan yozilgan badiiy asar, katta - kichikligi va muallifining yozishidan, janridan qat'iy nazar, bir umrga o'lmas, original, hamisha ardoqli, demakki, klassik namuna bo'lib qoladi. Ana shunday mohiyatga molik namunalar badiiy so'z san'ati borasidagina emas, ilmiy kashfiyot bobida ham, fan bilan badiiy ijodni bir - biriga payvand etgan adabiyotshunoslik olamida ham uchraydi. Yuqorida keltirilgan adabiyot muhitida o'sgan, ularning ajoyib asarlari taftida kamolga yetgan Homil Yoqubovning dastlab alohida kitobcha shaklida nashr etilgan "Zahiriddin Muhammad Bobur" nomli tadqiqotini shunday asarlar jumlasiga kiritish mumkin.

Tanqidchi bu asarda XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashagan shoh va so'z san'atkori Bobur ijodini asosan uchta aspektga tadqiq etadi: shoirning hayoti, mashhur "Boburnoma" asari hamda lirikasining tahlili. O'z qismatining murakkabligi va ijodining ahamiyatiga ko'ra adabiyotimizda alohida ajralib turadigan Bobur shaxsining o'rnini, tarixdagi mehnatini belgilashda, unga baho berishda H.Yoqubov adabiyot qoidalari va ta'limotlariga qat'iy suyanadi. Tadqiqotda "feodalizm davrida o'zaro urushlarni tugatishga intilgan maorifparvar podshohning amaliy ishi ham tarixiy nuqtayi nazardan progressiv harakat" bo'lishini asos qilib oladi. Homil Yoqubov yozuvchi biografiyasini yoritishda eng avvalo Bobur asarlaridagi asosli faktik materiallar bilan birga ilm ahli o'rtasida katta mavqega molik mo'tabar manbalarga, xususan, mashhur tarixnavis Xondamir, jahon miqyosidagi olimlardan G.Vamberi, V.Bertold ham Yakubovskiy asarlariga murojaat etadi. Tadqiqotchi shu vaqtgacha yaratilgan ko'pgina ishlardan ijodiy foydalanish, manbalarni sinchkovlik bilan o'rganish va ularni mohirona o'zlashtirish natijasida Bobur hayotining shoh va shoir sifatidagi butun murakkab qirralarini ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Tadqiqotda ta'kidlanganidek, Boburning ijodkor sifatida ulug' shoir Lutfiyning ajoyib jo'shqin lirikasi, Sakkokiyning go'zal she'rlari, Atoyining durdona satrlari, buyuk Navoiyning genial asarlari bilan bezalgan juda boy va uzoq asrli adabiy tradisiyaga ega bo'lgan benazir me'ros negizida qad ko'tardi. U o'zining eng yirik asari "Boburnoma" bilan o'zbek adabiyoti xazinasiga bebaho hissa qo'shgan. Jahonning juda ko'p tillariga, xususan, rus, ingliz, fors, fransuz va golland tillariga to'la, shuningdek, yana boshqa bir qancha tillarga qisman tarjima qilingan bu asar olim tomonidan qunt bilan tahlil qilingan. Muallif

asardan olingan aniq misol va dalillar vositasida “Boburnoma” ensiklopedik, memuar xarakterdagi asar sifatida XV asrning oxiri, XVI asr boshlaridagi Oʻrta Osiyo tarixini tekshiruvchilar uchun hozirgacha eng qimmatli material boʻlib kelganligini taʼkidlab oʻtadi. Homil Yoqubov unda zamonaning turli - tuman va murakkab hodisalari, ilmiy yutuqlari, maishiy lavhalar, esdaliklar sanʼatkorona xususiyatlar bilan chatishib ketishi orqali maroqli, sodda va maʼnodor qissalar shaklini olganini, kishilar xarakteriga xos sifatlarning chizib berilishini, bu bilan uning klassik oʻzbek prozasi tarixida yuqori oʻrin olishini asosli ravishda koʻrsatib bergan. Shuningdek u asar tilining aniq, sodda, ravon, tabiiy, loʻnda, ixcham va goʻzal, oʻsha vaqtdagi ilgʻor shevalarga xos leksika bilan aloqadorligi hayratda qoldirishini ilhom va idrok kuchi vositasida ochadi, ilmiy ruhda izohlaydi. Tanqidchi “Boburnoma”ni, manbalarga asoslanib, jahonshumul Sezarning “Galliya urushlari haqidagi maktublari” nomli kommentariylari bilan dadil tenglashtiradi va oʻz mulohazalarini quyidagicha yakunlaydi: “Boburnoma” ham oddiy material boʻlish darajasidan oʻzib ketdi. Uning adabiy - badiiy saviyasining baland boʻlishi - butun jahon adabiyoti tarixi xazinasiga uni tarixiy va badiiy jihatdan mislsiz goʻzal haykal, oʻlmas meʼros qilib qoʻshib qoʻydi”.

Homil Yoqubovni mohir adabiyotshunos sifatida xarakterlovchi xususiyatlardan biri mulohazalarining uygʻunligida, asoslash va ishonirish mantiqining kuchliligida, talqinda tildan mahorat bilan foydalana olishida koʻrinadi. Ayniqsa, muallif dastxatiga xos uslubdagi ravonlikni, tilida obrazli ifodalardan oʻz oʻrnida, meʼyorida, ilm - fanga mansub etika doirasida chechan foydalanishini qoʻshsak, uning tadqiqotlari oʻqishli boʻlib, kitobxonni ergashtirishi oʻz - oʻzidan anglashiladi. Olimning aksar yuqori saviyali tadqiqotlariga mansub bunday xususiyatlar uning Bobur haqidagi ishida ham shundoqqina barq urib turibdi. Tadqiqotchi barcha janrlar namunalari xususidagi fikrlarini maroqli, ravon va yuqori ilmiy saviyada bayon etadi. Ammo u poeziya, xususan, lirik asarlar ustida bahs ochganida tili yanada ravonlik, joʻshqinlik kasb etadi, goʻyo u butun vujudi, fikri hayoli bilan berilib, joʻshib mashq chalayotgan sozanda misol sheʼriyat pardalarini adashmay mohirona bosadi, yayrab - yashnab ketayotgandek tuyiladi kishiga. U Bobur lirikasining sanʼatkorona xususiyatlarini ham ana shunday nozik did va ulkan bilim sohibi boʻlib talqin etadi. Bunda tadqiqotchi Bobur lirikasining nafosatini, oʻziga xos badiiy sodda, yoqimtoy, dillarga moydek quyiluvchi, ravon sheʼrlarining ijtimoiy - gʻoyaviy oʻzagiga, ulardagi real - hayotiy mazmun mohiyatiga - muallif tuygʻu va fikrlarining koʻzgusi ekanini ochishga birinchi darajali ahamiyat beradi. Shu nuqtayi nazar oynasida shoir lirikasi motivlaridagi shikasta, cheklangan va ziddiyatli tomonlar birma - bir, obyektiv, borligicha koʻrsatiladi: yuksak sheʼriy madaniyatga erishgan Boburning ajoyib lirikasidagi yor-u vatanga muhabbat, vatanparvarlik tuygʻulari cheklanganligi, yakka, adolatli hukmdorlikni feodal muhiti doirasida tiklash orzusida boʻlishdek maʼlum progressiv mayllar bilan birga taqdir yaratuvchiga ishonish, shu bilan birga taqdirdan norozilik kabi mayllar mavjudligi butun tadqiqot ruhidan sizib oʻtadi. Shu tariqa adabiyotshunos olim turli metodologiyaga asoslanib, ulugʻ yozuvchi haqida chuqur ilmiy saviyasi bilan ibrat boʻlarli ish yaratgan. Bu haqida respublikada xizmat koʻrsatgan fan arbobi N.Mallayev oʻz soʻzida X.Yoqubovning Boburga bagʻishlangan ishiga alohida toʻxtalib oʻtib: “Men Homil Yoqubovning Boburga bagʻishlangan asarini ilmiy saviyaga koʻra nihoyatda yuqori baholayman va qadrlayman. Bu asar bilan “Oʻzbek adabiyoti tarixi” darsligini yoza turib, chinakam muloqotda boʻldim. Gap shundaki, darslikda Bobur haqida material aqalli Homil Yoqubov ishi darajasiga yaqinlashishi kerak edi. Bunga erishish nihoyatda mahol boʻldi. Olimning asarini qayta - qayta oʻqidim, yana boshqa olam - jahon manbalarni koʻzdan kechirdim. Bari bir, koʻz oʻngimda, qarshimda haligi ish oʻz saviyasining yuqoriligi va salobati bilan koʻngdalang boʻlib, shu darajadagi ish yozishga daʼvat etib turardi, deya eʼtirof etadi.


### **HULOSA VA MUHOKAMA**

Adabiyotshunos olim klassik adabiyotimiz vakillari ijodidagi xalqchilik, demokratizm, realizm prinsiplarini, badiiy mahoratini ular yashagan davrning tarixiy, adabiy voqealari bilan uzviy bogʻliq ravishda tekshira borib, umumlashma xulosalar chiqaradi. Oʻtmishdagi shoirlarimizning buyukligi sirlari, xalq manfaatlarini koʻzlab ijod etganliklari, ularning ustoz - shogirdlikkacha bosib oʻtgan murakkab yoʻllari, shu murakkab jarayonlarni taʼminlagan omillar qiziqarli ifodalarga boy, shirali, ilmiy tilda ochib berilgan.

Ayni holatda qator ijodkorlarning ishlarini tahlil qilgan Homil Yoqubovning ham salmoqli mehnatlarini e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Chunki aynan tanqidchining to'g'ri yondashuvi sabab bugun tabiiy ijod nafasi zamonaviy adabiyotshunoslik, transformatsiya bo'lgan o'zbek tanqidchiligining negizi bo'lib qolmoqda.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бахриев. К. “Озод ватан саодати (Адабий танқид)” 5-том, Адиб нашриёти, 2013-йил. 329-бет.
2. Имомов.В. “Ҳомил Ёқубов(адабий портрет)”. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1978-йил. 7-бет
3. Мамарасул Бобоев. “Умрим қўшиқлари”. “Ёш гвардия” нашриёти. Тошкент. 1974-йил. 38-39-бетлар.
4. Ш. Турдиев, Б.Қориев(Олтой). “Ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилиги библиографияси (1900-1941)”. Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти. 2010-йил. 79-86-бетлар.
5. Бердиали Имомов. “Ҳомил Ёқубов(адабий портрет)”. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1978-йил. 10-бет
6. Yoqubov. H. “Saylanma 2”. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1984-yil.
7. Ёқубов.Х Адабий мақолалар. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент - 1970-йил, 273-йил.
8. Askarova, M. (2020). Homil yakubov's views on navoi studies. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 10(12), 788-792.
9. Asqarova, M. (2023). HOMIL YOQUBOV O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING YETUK TADQIQOTCHISI. World of Philology, 1(1), 22-30.
10. Asqarova, M. (2023). HOMIL YOQUBOV TADQIQIDA NAVOIY IJODI. World of Philology, 2(1), 27-30.
11. Asqarova, M. (2022). ADABIY TANQIDDA UMUMLASHTIRUVCHI TADQIQOTLARNING AHAMIYATI. Oriental Art and Culture, 3(4), 527-531.
12. Askarova, M. (2021). Homil Yakubov's views on Oybek lyrics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2412-2415.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Mirodil Jo'rayevich Hakimov**  
Andijon davlat universiteti

## CHOLG'U IJROCHILIGI VOSITASIDA ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqoladi o'quvchilarda musiqani idrok qilish va uni eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha mutafakkir olim va tadqiqotchilar nazariyalari taxlil qilib o'rganilgan. Shu bilan bir musiqani xotira va musiqiy qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar berib o'tilgan. Cholg'u ijrochiligi vositasida o'quvchilarni tarbiya qilishdan maqsad ularni ma'naviy tarbiya qilish, ma'nan yetuk shaxs bo'lib yetishishlarida musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini anglab, hayotda tadbqiq qilish kabi omillarni ochib berishda mutafakkir olimlar nazariyalari yoritib o'tilgan. Maqolaning ahamiyatli jihati ijrochilik san'ati ya'ni musiqa san'ati dunyo bo'ylab inson qalbini tushunishda vositachi bo'lib xizmat qilishi, insonlar qalbini musiqa birlashtirib turishini ham anglatadi.

**Kalit so'zlar:** tovush, tarbiya, cholg'u asbobi, idrok, kuy, qo'shiq, qobiliyat.

**Миродил Жураевич Хакимов**  
Андижанский государственный университет

## РАЗВИТИЕ СЛУХА ПРИ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОМ ИСПОЛНЕНИИ

### АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу теорий ученых-мыслителей и исследователей по развитию у читателей способности воспринимать музыку и слышать ее. При этом даются методические рекомендации по развитию музыкальной памяти и музыкальных способностей. В раскрытии таких факторов, как цель воспитания учащихся средствами инструментального исполнительства, их духовное воспитание, осознание воспитательного значения музыки в их становлении духовно зрелыми людьми и ее применение в жизни, освещаются теории ученых-мыслителей. Важный аспект статьи исполнительское искусство то есть то, что музыкальное искусство может служить посредником в понимании человеческого сердца во всем мире, также подразумевая, что музыка объединяет сердца людей.

**Ключевые слова:** звук, воспитание, инструмент, восприятие, мелодия, песня, способности.

**Mirodil Jo'rayevich Hakimov**  
Andijan State University

## DEVELOPMENT OF HEARING THROUGH INSTRUMENTAL PERFORMANCE

### ANNOTATION

In this article, the theories of the thinker scientist and researchers on the perception of music in readers and the development of its hearing have been studied. With this, one music was mentioned by giving

methodological recommendations for the development of memory and musical abilities. Theories of thinker scientists have been highlighted in revealing factors such as the purpose of educating students through instrumental performance, spiritual education of them, awareness of the educational importance of music in their development as a spiritually mature person, and implementation in life. A notable aspect of the article is the performing arts-that is, the art of music serves as an intermediary in understanding the human heart around the world, and also means that the hearts of human beings are held together by music.

**Keywords:** sound, upbringing, instrument, perception, melody, song, ability.

**Kirish.** Musiqa olami cheksiz ummon kabi inson qalbini o‘z qamroviga olish kuchiga ega ilohiy mo‘jizadir, u insonlarni yig‘latish va qalbiga shodlik olib kiruvchi vositadir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev musiqa san'atini rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan islohatlari buning yaqqol dalilidir. Haqiqiy san'atni, sof va boqiy musiqani faqat Parvardigori olamning marhamati bilan hazrati Inson yaratadi[1.1].

Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tamonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashhur tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” kitobida Amir Temur davrida o‘tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to‘xtalib “Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g‘azal-u naqsh aytur erdilar. Va turk-u mo‘g‘ul, xitoy-u arab va ajamdin har kim o‘z rasmi bilan nag‘ma aytur erdi”, degan ma'lumotlarni keltiradi.

Mutafakkir olimlarimizdan Farobiyning (873-950) “Katta musiqa kitobi”, Ibn Sino (980-1037) “Davolash kitobi”da “Musiqa haqida risola”, Al-Xorazmiyning (X asr) “Bilimlar kaliti”, Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) “Oliyjanoblik haqida kitob”, Jomiyning (1414-1492) “Musiqa haqida risola” kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg‘ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan.

Musiqaning inson tarbiyasiga ta'siri uni o‘zini tutish madaniyatiga qarab ham belgilanadi. Har bir inson ichki olamini go‘zal qilishi uchun mumtoz musiqalarni tinglashi, tovushlarning tebranish ohanglarida ruhiy hordiq olishi tavsiyaya etiladi. Har bir oilada musiqa sozini ijro etuvchi shaxsni bo‘lishi, uni musiqa ohanglarida ruxan va qalban pok qilib tarbiya qilish oldimizda turgan vazaflardan biri hisoblanadi. Shunday ekan mazkur ma'suliyatli vazifani bajarishda mutafakkir olimlarimiz ta'limotlarni ilgari surgan xolda ta'lim tarbiya berish samaralidir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O.Toshmatovanning “Ijrochilik san'ati tarixi” darsligida qadimiy cholg‘ularning yaratilish tarixi arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to‘liq cholg‘u sifatida yetib kelmagan bo‘lsa-da, ilmiy manbalarda tasviri tushirilgan bu cholg‘ular paleolit davriga to‘g‘ri kelishi, shuningdek, ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat berishi haqida mu'lumotlar berib o‘tilgan[2.8].

Musiqashunos olimlarning aniqlashicha Sharqning birinchi kasbiy musiqashunos, bastakor, hofiz va shoir Borbad ixtiro etgan barbat musiqa asbobi, «Zefarqand», «Nuhft», «Rost», «Navro‘z», «Oromishi jon», «Darg‘am», «Gulno‘sh» kabi kuy va taronalari arab hamda usmoniy turk sozandalarining orkestr va ansambllari repertuaridan hamon mustahkam o‘rin egallab kelmoqda. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarining natijasida Barbat o‘rdak ko‘ksiga o‘xshagan kalta gardanli cholg‘u asbobi bo‘lib, bam, musallas, mussano, zer deb ataluvchi to‘rt tordan iborat bo‘lgan. Keyinchalik Zalzal Roziy, Is‘hoq Mavsiliy (VIII-IX asrlar) Iso Barbatiy (XI asr) va boshqa sozanda, bastakor, musiqashunoslar barbatning tor va pardalarini, usul va shaklini takomillashtirganlar. Ustoz bastakor Borbadning arab mamlakatlarida Bahlbat, Pahlapaz va Fahlbaz, Borid taxalluslari bilan keng shuhrat qozonishi ham shundan dalolat beradi[3.4].

Iroda G‘anievaning “Sharq xalqlari musiqa tarixi” darsligida ta'kidlanishicha R.G.Kizevetter “Arab musiqasini manbalar asosida o‘rganish” deb nomlangan shoh asarida, sharq xalqlari hamda o‘zbek madaniyatiga tegishli 225 ta cholg‘ularning tavsifi va tasnifini hamda uning bugungi kunga qadar o‘zining ilmiy mohiyatini saqlab kelayotganligi aytib o‘tilgan[4.9].

Ibn Sino (980-1037) musiqaning ruh bilan birgalikda tanaga ham shifobaxsh ta'sir ko'rsatishi haqida aytib o'tgan. U musiqani ham fiziologik, ham psixologik nuqtai nazardan o'rgangan[5.5].

Pifagor musiqaning terapevtik ta'sirini kashf etdi. Uning ta'kidlashicha inson ertalab uyg'onganida qo'shiq atish bilan boshlashi va kunni yakunida ham qo'shiq aytish bilan yakunlashi inson ongini va miyyasini dam olishiga olib kelishini asoslaydi. O'z tajribasiga tayangan xolda Gomerning she'rlarini kuylash orqali ruhini tinchlantirish usulini o'zida isbotini ko'radi[6.6].

Buyuk mutafakkir musiqashunos olim Abu nasr Forobiyninig ta'limotida, komil insonni shakllantirish g'oyasi ustuvor bo'lib, tarbiya berishdan maqsad-insonda go'zal fazilatlarni rivojlantirish va san'at ahllariga aylantirishdan iborat bo'lgan, ushbu ta'limot bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan ahamiyatlidir[7.11].

A.Navoiy fikricha "Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir" shu asnoda musiqa ilmi va san'ati haqida buyuk mutafakkir shoirimizning "Majolis un – Nafois» asarida musiqa san'ati haqida atroflicha yoritilganini ko'rishimiz mumkin. Asarning 118 saxifasida Paxlavon Muxammad G'ushtig'ir haqida baxs ketganda, uni zamonasining shirinkamol va xushsuxbatlaridan biri ekanligi ta'kidlandi[8.750].

Musiqa san'ati ibtidoiy jamiyatda xalq turmushi va mexnat jarayoni bilan uzviy bog'langan marosimlar manbalarda qayd etilgan, bu marosim va bayramlarda cholg'ular keng qo'llanilganligi, shu bilan bir qatorda, "Navro'z" tantanalarida Tanbur, Dutor, Nay, Chang, Rubob, Doira (Daf, Childirma) singari cholg'ularida ajoyib kuy va qo'shiqlar ijro etishgani zikr etilgan.

Farobiynig (873-950) "Katta musiqa kitobi", Ibn Sino (980-1037) "Davolash kitobi"da "Musika haqida risola", Al-Xorazmiynig (X asr) "Bilimlar kaliti", Safiuddin Urmaviynig (1216-1294) "Oliyjanoblik haqida kitob", Jomiynig (1414-1492) "Musika haqida risola" kitoblarida musiqaning tarbiyaviy ahamiyatlari haqida batafsil yoritib o'tilgan.

Buyuk mutafakkir olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarini o'rganib chiqar ekanmiz, cholg'u ijrochiligi tarixi uning bugungi kundagi ahamiyati, inson ruhiyatiga ijobiy ta'siri kabi tushunchalarni mujassam etgan xolda, musiqaning inson kamolatida muhim ahamiyat kasb etishiga bir karra amin bo'lish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Navoiynig ta'kidlashicha "Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar ichida yoqimlirog'idir"-deydi. O'quvchilarda musiqiy ohanglar orqali tarbiya qilishda muhim omillardan biri, musiqani tinglash madaniyatini shakllantirishdir. Bu borada bir qator olib borilgan tadqiqot ishlarini taxlil qilib quyidagicha sharx berish mumkin.

D. B. Kabalevskiynig musiqiy ta'lim tizimiga ko'ra, musiqa san'atini o'rganish, musiqa ta'limida bastakorlik, ijrochilik va tinglash pozitsiyalari o'rtasidagi bog'liqliklarni bilish, musiqa va hayot o'rtasidagi tizimlilikni taxlil qilib borish metodlariga tayangan xolda ish olib borgan. Ishlab chiqqan dasturlarida xalqaro g'oyalardan foydalangan xolda taqdim etganligi tadqiqot nazariyalarini dunyo bo'ylab ommalashishida asosiy vazifalardan biri hisoblangan[9.7].

Romantik davrning nemis bastakori va musiqa o'qituvchisi, yekspressionizmning taniqli vakili Karl Orff (1895-1982) o'zining Shulverk deb nomlangan o'qituvchilar uchun qo'llanmasida, quyidagi g'oyani ilgari suradi, barcha bolalarning iste'dodi yoki musiqaga moyilligidan qat'i nazar, tabiiy musiqiy salohiyatini tushunib yetishlari kerak deb hisoblaydi. Uning musiqiy savodxonlik va ijodkorlikni o'rgatish uchun o'yin texnikasining asosiy omili ritmni xis qilish, ritmik aks-sado, ritm o'yinlari bilan o'ynash metodikasi, shu bilan bir qatorda instrumental musiqani yaratish, bolalar musiqa asboblari orkestrda ijro etish, asboblarni chalishni jamoaviy tashkil yetish usullarini ilgari surgan[10.1].

Venger milliy musiqasi tadqiqotchisi, bastakor, o'qituvchi va jamoat arbobi Zoltan Kodai konseptual g'oyalarida, musiqa hamma uchun zarur, folklor san'ati orqali "ona tili" o'rganish, xor qo'shiqlari orqali musiqa bilan tanishish, umumjahon musiqiy savodxonlik muammosini hal qilish hamda musiqiy eshitishni tarbiyalash asosiy g'oyalardan biri bo'lgan[11.288].

O'quvchilarda musiqiy qobiliyatni rivojlantirish uchun uning eshitish qobiliyatini sinab ko'rish, ritmik usullarni tinglay olish va javob qaytarish idrokini aniqlab olish talab etiladi. Musika

ijrochisi uchun xotira asosiy omil hisoblanadi, musiqiy matnlarni yodda saqlab ijro etish, mazkur musiqiy asarni omma ollida ijro etish arayonlari uchun mustahkam xotira talab etiladi.

O'quvchilarni qobiliyati yuzasidan oxirgi xulosani berishga o'qituvchi biroz shoshilmasligi talab etiladi, ba'zi o'quvchilarda ijro etish qobiliyati sekinroq rivojlanadi, uni ommaga taqdim qilish uchun esa, ya'ni sahnada biron musiqiy asarni ijro etishligi uchun eshitish qobiliyati, musiqiy asarni ijro etish qobiliyati, sahnada o'zini tutish kabi bir necha vazifalarni rivojlantirish talab etiladi. Ayrim o'quvchilarda bu jarayonlar sekinroq rivojlanadi, chunki har bir bolaning qabsl qilish qobiliyati har xil bo'lganligi uchun ham har bir o'quvchiga yakka xolda tashxis qo'yish va rivojlantiruvchi mashqlarni berish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Rus kompozitori N. A. Rimskiy-Korsakov "Musiqiy ta'lim haqida" maqolasida musiqiy qobiliyatni 2 ko'rinishini aytib o'tgan:

- 1) Texnik (cholg'uda ijro etish yoki qo'shiq aytish)
- 2) Eshitish (Musiqiy eshitish)

R.Korsakovni ta'kidlashicha eshitish qobiliyatlariga garmonik eshitish va ritmik eshitish kabi elementlar kirishini aytib o'tadi.

Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi ko'p qirrali va xilma-xildir, chunki u nafaqat musiqiylik, tuzilish va tashxisning tabiatiga ta'sir qiladi.

Kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda ularning musiqiy qobiliyatlarini o'rganish va to'g'ri tashxis qo'ygan xolda musiqiy did va qobiliyatini shakllantirib borish bosqichma-bosqich olib boriladi. Bugungi kunda bu muammo batamom o'z yechimiga ega bo'lgani yo'q. Bunnig uchun tadqiqotchi olimlarimizdan musiqiy qobiliyatni rivojlantirishda qaysi metodikalardan foydalanish talab eilishi bo'yicha metodiklarni ishlab chiqish talaba etiladi.

Musiqiy qobiliyatni rivojlantirish uchun quyidagi uslubdan foylanish ham o'z samarsini berib kelmoqda:

- pedagogik va psixologikga oid adabiyotlarni taxlil qilish;
- o'quvchilarni dars davomida kuzatish;
- o'quvchilar bilim doirasini to'g'ri baxolay olish;
- musiqiy qobiliyatlarini bilish doirasida turli viktorina savollarini tayyorlash;

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan uslublarning maqsadi o'quvchilarni ma'naviy dunyoqarishini go'zallashtirish, musiqiy ohanglarni eshitib dunyo manzaralarini go'zallik xolatida ko'rib anglashi asosiysi, atrof muhitga faqat ezgulikni ulashishi nazarda tutilgan.


### **Xulosa.**

Xalosa qilib shuni aytish joyizki, har bir o'qituvchining oldida turgan oliy maqsad, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiya qilish, bu borada olib borilayotgan tadqiqot ishlari, ulardagi samarali uslublar yosh avlodni to'g'ri tarbiya topishiga dasturul amal bo'lib xizmat qiladi. Bu boradi o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ulardagi sabr, iroda matonat kabi tuyg'ularni shakllanishiga yordam beradi. Musiqaning ilohiy mo'jiza ekanini insondagi tarbiyaviy olamini tashqi olamga ko'rinshida o'z isbotni topganini ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan har bir musiqa tinglovchisi va ijrochisining ichki olamini boy bo'lishida o'qituvchining to'g'ri shakllantira olgan musiqiy tarbiyasi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

### **REFERENCES**

1. 2019 yil 27 avgust Shavkat Mirziyoevning "Sharq taronalari" o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda nutqi.
2. Toshmatova A. "Ijrochilik san'ati tarixi" darslik. T., 2007. 8-b.
3. Fayziev O, Fayziev O. Musiqa va tarbiya. T., 2007. 4-b.
4. G'anieva I. Sharq xalqlari musiqa tarixi. Darslik, T., 2021. 9-b
5. <https://znanio.ru/media/azhdodlar-merosida-musia-va-ruiyat-talini-2845542>
6. <https://artgrand.by/encyclopedia/pifagor-i-muzyka/>
7. Baxtiyor Mustafoev. "Musiqa pedagogikasi" darslik. T., 2022. 11-b.

8. Matyakubov E.G. “Sharq mutafakkirlari musiqa merosining tarbiyaviy imkoniyatlari t o‘g‘risida” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021. pp-750.
9. Кабалевский Д.Б. Основные принципы и методы программы по музыке для общеобразовательной школы // Программы общеобразовательных учреждений. Музыка. – М., Просвещение, 2004. ст-7.
10. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Орф,\\_Карл](https://ru.wikipedia.org/wiki/Орф,_Карл)
11. Кодай, З. Избранные статьи / Ред. И.И. Мартынова. — М.: Сов. композитор, 1982. — 288 с.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Shuhrat Toxtasimov,**  
O'zbekiston davlat xoreografiya  
akademiyasi rektori, professor

## O'ZBEK BOLALAR FOLKLOR RAQSLARI ESTETIK – MA'RIFIY TARBIYA MEZONI SIFATIDA

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTASIYA

Ko'p asrlik tarixga ega milliy madaniyatimiz va san'atimizning asosi hisoblangan o'zbek bolalar folklor raqslari yosh avlodni vatanga sadoqat, betakror qadriyatlar va an'analarga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mavsumiy folklor raqslari teran mohiyati, milliy koloriti, sof xalqona ijro uslublari bilan jajji tomoshabinlarni hayratga soladi, ularni go'zallik va nafosat dunyosiga olib kiradi, rangin tuyg'ularga oshno qiladi. Folklor raqslarida ifodalangan ezgu g'oyalar ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib, ularda tabarruk zaminimiz, xalqimizning eng olijanob fazilatlari madh etiladi. Ularning ta'sirchanlik qudrati yaxshilik va hayotsevarlikka chorlashida, do'stlik va qardoshlikka undashida, kichkintoylar qalbida estetik zavq uyg'otishida yaqqol namoyon bo'ladi. O'sib kelayotgan yosh avlodni milliy san'atimizga muhabbat ruhida ulg'aytirish, raqs ta'limini yuqori bosqichga chiqarish davr talabiga aylandi. Madaniy an'analar va xalq ijodiyoti namunalari insonlarning milliy o'zligini shakllantiruvchi birlamchi omildir. Shuningdek, yillar o'tgani sayin, folklor raqslari va qo'shiqlari yanada sayqallanib, o'ziga xos axborot etkazish va axborot qabul qilish vositasiga aylanib boraveradi. Mazkur maqolada o'zbek bolalar folklor raqslarining estetik – ma'rifiy tarbiya mezoni sifatidagi jihatlari tadqiq qilinadi.

**Kalit so'zlar.** tomosha, o'yin, bola, estetik tarbiya, oila, mavsum, uslub, ifoda, folklor, lapar.

**Шухрат Тохтасимов,**  
Ректор Государственной академии  
хореография Узбекистана, профессор

## УЗБЕКСКИЕ ДЕТСКИЕ ФОЛЬКЛОРНЫЕ ТАНСИ КАК КРИТЕРИЙ ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ

### АННОТАЦИЯ

Узбекские детские народные танси, являющиеся основой нашей национальной культуры и искусства с многовековой историей, играют важную роль в воспитании подрастающего поколения в духе верности Родине, самобытных ценностей и любви к традициям. Сезонные фольклорные танси особенно поражают юных зрителей своей глубокой сущностью, национальным колоритом, чисто народной стилистикой исполнения, знакомят с миром красоты и элегантности, приобщают к красочным чувствам. Благородные идеи, выраженные в фольклорных танцах, являются наследием наших великих предков и воспевают

благороднейшие качества нашей благословенной земли и народа. Их сила влияния очевидна в их призыве к добру и жизнелюбию, в поощрении дружбы и братства, в пробуждении эстетического удовольствия в сердцах детей. Воспитание молодого поколения в духе любви к нашему национальному искусству, поднятие танцевального образования на более высокий уровень стало требованием времени. Культурные традиции и образы народного творчества являются важнейшим фактором формирования национальной идентичности народа. Также с годами фольклорные тансы и песни становятся все более изысканными и становятся уникальным средством передачи и приема информации. В данной статье рассматриваются аспекты узбекских детских народных танцев как критерий эстетического и воспитательного воспитания. **Ключевые слова.** спектакль, игра, ребенок, эстетическое воспитание, семья, время года, стиль, экспрессия, фольклор, лапар.

**Shuhrat Tokhtasimov,**  
Rector of the State Academy of Choreography  
of Uzbekistan, professor

## UZBEKI CHILDREN'S FOLKLORE DANCES AESTHETIC - AS A CRITERION OF EDUCATION

### ANNOTATION

Uzbek children's folk dances, which are the basis of our national culture and art with a centuries-old history, play an important role in educating the young generation in the spirit of loyalty to the motherland, unique values and love for traditions. Seasonal folklore dances in particular amaze young viewers with their deep essence, national color, pure folk performance styles, introduce them to the world of beauty and elegance, and familiarize them with colorful feelings. The noble ideas expressed in folklore dances are a legacy of our great ancestors, and they praise the noblest qualities of our blessed land and people. Their power of influence is evident in their appeal to goodness and love of life, in their encouragement to friendship and fraternity, and in their awakening of aesthetic pleasure in the hearts of children. Raising the young generation in the spirit of love for our national art, raising dance education to a higher level has become the demand of the times. Cultural traditions and examples of folk art are the primary factor in shaping the national identity of people. Also, over the years, folklore dances and songs become more refined and become a unique means of information transmission and reception. This article examines the aspects of Uzbek children's folk dances as a criterion of aesthetic and educational education.

**Key words.** spectacle, game, child, aesthetic education, family, season, style, expression, folklore, lapar.

Bolalarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash malakasi haqida gap ketganda ularda fikrlash, go‘zallikni his qilish, tabiatni sevish va ardoqlash, tasavvur qilish qobiliyatlarini kamol toptirishda folklor raqslari beqiyos ahamiyat kasb etadi. Kichkintoyning rivojlanishi qay darajada yuqori bo‘lsa. Uning dunyoqarashi, intiluvchanligi ham takomillashib boraveradi. Darhaqiqat, hamma narsa oddiydan murakkablik sari rivojlanib boradi. Eng oddiydek tuyulgan bolalar o‘yinlarida ham ulkan falsafa borligi aniq. Sharq ertaklari bolalarning qiziquvchanligi, topqirligi, hozirjavoblighi bilan butundunyoni hayratga soladi. Akademik N.I.Konradning fikricha, “Markaziy Osiyo eng qadimgi davrlardanoq insoniyat sivilizasiyalari yo‘llari tutashgan yoki kesishgan maskanda joylashgan, uning o‘zi ham ana shu sivilizasiyaning markazlaridan biri bo‘lgan. Ma’naviy taraqqiyot va axloqiy tamoyillar shunday asoslarga tayangan holda, asrlar chegarasidan hatlab o‘tib, keyingi rivojlanishni yuzaga keltirdi.” [5;82]

Aynan jozibador folklor asarlari axloqiy tamoyillarga asoslanganligi uchun ham o‘sib kelayotgan yosh avlodning badiiy – estetik didini, dunyoqarashi va tafakkurini shakllantiruvchi, ularning ma’naviy kamolotini ta’minlab beradigan asosiy manbalardan biri ekanligi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham dunyo tamaddunida o‘zini, o‘zligini tanigan har bir xalq, har bir millat,

avvalo, xalq ijodiyotining qadrini yuksaltirishga, folklor raqslari va musiqa ta'limi samaradorligini oshirishga harakat qiladi.

Azal – azaldan Buyuk ipak yo'li karvonlari ellarni bir - biriga bog'lab, savdo - sotiq bilan shug'ullanishdan tashqari hunarmandlikni, madaniy an'analar, urf - odat va qadriyatlarni ham targ'ib qilgan. Bu karvonlar Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi ma'naviyat va ezgulik ko'priklari hisoblanib, dunyoning azim ummonlariga turfa mahsulotlar bilan bir qatorda san'at va madaniyat namunalarini ham yoygan. O'zbek bolalar folklor raqslarining "Avesto" bilan tutash ko'hna ildizlari uning nihoyatda qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, professional uslubiyotida mavjud bo'lmagan biroq aynan bolalar bilan raqs saboqlarini o'zlashtirishda va samarali natijalarni beruvchi ma'lum qo'shimcha va uslubiy vositalar ham ishlab chiqildi. Xoreografiya bo'yicha bolalarga ta'lim berayotgan jamoalar rahbarlari nafaqat ularning raqsga bo'lgan muhabbatini uyg'otish, chiroyli va jozibali raqs ijro etish, balki bu san'at tilini tushunishni o'rgatishi lozim bo'ladi. Shubhasiz, go'zallikka shaydo bo'lib qolgan inson esa hech qachon nopok va didsiz bo'lmaydi.

Bolalar tomonidan ijro etilgan raqslar mazmundor, badiiy va shu bilan birga sodda va bolalar tomonidan sevib ijro etilishi kerak. Raqslarni sahnalashtirishdan avval, bevosita tanlangan raqs an'analari bilan nazariy jihatdan yaqindan tanishtirishi lozim bo'ladi. Shunda xoreograf ularga nafaqat mexanik tarzda harakatlarni o'zlashtirish balki o'ziga xos xarakteri, ijro uslubini topa olishni ham ko'rsatishi darkor. Bolalar raqslari uchun tanlab, saralab olingan musiqiy asarlar, plastik harakatlar va sahnaviy liboslar, ularda tartib-intizom, badiiy did, musiqaviylik, ijodiy moyilligini rivojlantirgan holda har tomonlama jismoniy tetik bo'lishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga raqs orqali har bir bola o'zining ichki individual qirrasini namoyon etishga qodir bo'ladi.

Raqs san'ati serqirra va bepoyon, raqsga tushishni oz bo'lsada ishtiyoqi bo'lgan har bir bolakay yoki qizaloq uddalay olishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra qobiliyatli, iste'dod egalarining soni, oddiy bolalarga nisbatan 1\1000 tashkil qilar ekan. Ammo ushbu fikrga javoban shuni unutmaslik lozimki, har bir bolada sirlangan iste'dod mavjud, uni faqat topib "olmos" kabi unga ishlov berib haqiqiy, noyob "gavharga" aylantirish darkor. Raqs deb atalmish ijod turida har kimga joy topiladi. Buning uchun pedagog (xoreograf, baletmeyster) har bir bolaning xarakterli tomonlarini avvalo kashf etib, aynan shu tomonlariga e'tiborni kuchaytirib, rivojlantirishi kerak. Ya'ni bolaning barcha imkoniyatlarini rivojlantirgan holda individual jihatlariga alohida urg'u berish ham o'ta muhimdir.

Xoreografiya bo'yicha ish beruvchi tomonidan tanlanayotgan xoreograf-pedagog yuqori malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan asosiysi bolalar psixologiyasini tushuna oladigan va ular bilar ijodiy faoliyatni samarali va sifatli olib boradigan mutaxassis bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Milliy chizgilarni saqlab kelayotgan o'zbek bolalar folklor raqs san'atida xalqning tarixi, qadim orzu- umidlari, betakror qadriyatlari, olijanob urf – odatlari, ma'naviy–axloqiy fazilatlar badiiy – estetik ifodalangan. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida milliy raqs san'ati haqida shunday deyiladi: "Har bir xalqning raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'sirida tarkib topib rivojlangan. Raqs xalq marosimlari, bayramlarining tarkibiy qismidir." [6;266]

Aslida, bolalar raqslari insoniyat tarixi kabi qadim o'tmishga ega. Ularda eng avvalo kichkintoylarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, ularda san'atga qiziqish uyg'otishi kerak. Ma'naviy-estetik tarbiyaning asosiy tamoyillaridan biri — ma'naviy immunitetni shakllantirishda raqslar va o'yinlardagi milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan umumbashariy g'oyalar va tushunchalarning qimmat bolalarni fikrlashga da'vat etishida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "O'zbekistonda raqs san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijodiy maktablarga xos an'analarni, mohir baletmeysterlar, balet artistlari merosini tiklash; milliy raqs san'atining mumtoz va zamonaviy ijro namunalari "oltin fondi"ni yaratish; xalqimiz, xususan, yosh avlodni milliy raqs san'ati haqidagi nazariy va amaliy

bilimlar bilan keng tanishtirish orqali ularning qalbi va ongida milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat tuyg'usini, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish" [1] belgilangan.

Bolalar raqslari folklor san'atining yorqin namunasi sifatida, mavzular xarakteridan kelib chiqib, o'zida bolalar o'yinlarini, muayyan ritmik izchillikka asoslangan xatti-harakatlarni, ramziy ma'no kasb etuvchi etnografik detallarni, ohang va tomoshaviylik bilan vobasta harakatli o'yinlar elementlarini yaxlit holda mujassamlashtirgan, o'ziga xos lingvodidaktikaga asoslangan sinkretik hodisadir. Olima Z.Ibrohimovaning fikricha, "Asrlar osha bizgacha etib kelgan oltin meros qo'shiqlar, alla, erkalamalar ona bilan bola o'rtasida mehr iplarini mahkam bog'lashga, go'dakning murg'ak qalbida ota-onaga, yaqinlariga, o'z uyiga samimiy muhabbatdek ezgu tuyg'ularning nish urishiga xizmat qilsa, "Boychechagim hillolik...", "Navro'z", "Qaldirg'och g'och-g'och...", "Laylak keldi, yoz bo'ldi..." kabi mavsum qo'shiqlari bola qalbida ota yurtga, ona tabiatga muhabbat hissini uyg'otadi. "Oq terakmi, ko'k terak", "Quvlashmachoq", "Bekinmachoq", "Qotirmachoq" kabi milliy o'yinlar, ularda aytiladigan qo'shiqlar har bir bolani cheksiz quvontiradi, uning jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishida, g'ayratli, irodali, intizomli bo'lib ulg'ayishida katta ahamiyatga ega" [7;196]

Juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan bolalar o'yinlari ajdodlarimiz dunyoqarashi va zakovatining eng ibtidoiy elementlaridan biri sifatida poetik folklor namunalarini ham qamrab olgan. Uning ildizlari kishilik jamiyatining ilk mehnat faoliyati va diniy marosimlari bilan tutashadi. Zero, "ibtidoiy tuzumda bolalarni tarbiyalashning xarakterli jihati ularni urug'ning urf-odatlarini, an'analari, tarixi bilan, shuningdek, xalq og'zaki ijodi: rivoyatlar, qo'shiqlar va raqslarni tanishtirishdan iborat bo'lgan. Ibtidoiy jamiyatda yoshlarni kattalar safiga qo'shish deb ataladigan bayram – diniy marosimlar keng tarqalgan. Bular o'ziga xos o'yin, musobaqalardan iborat bo'lib, ularning mazmunini mehnat faoliyati, qabilalarning urf-odatlarini, xalq og'zaki ijodi tashkil qilgan. Marosimlarda raqslar ham ijro qilinib, ularda ibtidoiy odamlar o'z hayotlari va muvaffaqiyatsizliklarini, shodliklari va qayg'ularini ifodalaganlar" [8;222]. Davrlar o'tishi, zamon o'zgarishi bilan ular ham takomillashdi, diniy marosimlar tarkibidagi xatti harakat va o'yinlar o'zining rituellik xususiyatini yo'qotib, oddiy tomoshaga aylanib bordi.

Raqs san'ati bolalarning estetik tuyg'ularini tarbiyalash, ularni go'zallik dunyosiga olib kirishda rangin tuyg'ularga oshno qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy san'atimizga muhabbat ruhida ulg'aytirish, raqs ta'limini yuqori bosqichga chiqarish talab etilmoqda. Ayniqsa, folklor raqslari teran mohiyati, sof xalqona ijro uslublari bilan tomoshabinni hayratga soladi. Olimlarning fikricha, "Inson faoliyati ma'lum milliy madaniyat, ijtimoiy muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilim jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit bo'lishi tabiiydir" [9;90].


O'zbek bolalar folklor raqslarining "Avesto" bilan tutash ko'hna ildizlari uning nihoyatda qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Xalqimizning orzu - istaklari va mifologik qarashlari, tabiat hodisalari bilan bog'liq bilim va ko'nikmalari asosida shakllangan mavsumiy marosimlar turkumida Navro'z bayrami eng yuksak maqomni egallagan. Folklor raqslarida ibtidoiy davrlardagi mehnat jarayonlari, milliy qadriyatlarimiz, o'zbek xalqining insonparvarligi, bag'rikengligi bolalarcha beg'ubor tuyg'ular uyg'unligida tarannum etiladi.

Har bir san'at turi u folklor yoki estrada yo'nalishi bo'ladimi, avvalo ma'naviy ta'sir ko'rsatish barobarida estetik zavq va kayfiyat ulashadi. Xorijda o'zbek bolalar folklor raqslariga qiziqish katta. Demak, uning hayotsevarlik, mehr – oqibat, yaxshilik va ezgulik kabi umuminsoniy tuyg'ularni hamda o'zbek xalqining mehmondo'stligini keng tarannum etishi turli xalqlar va millatlarning do'stligi, birdamligiga sabab bo'lmoqda. Zero, bolalik davri ijodiy salohiyatni rivojlantirishda katta imkoniyatlar ochib beradi. O'z navbatida bu imkoniyatlardan yoshlikda qay darajada foydalanilishi kelgusida odamning ijodiy salohiyatini belgilab beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bolalar folklor raqslari millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklarga hurmat va milliy iftixor tuyg'usini his qilishni o'rgatadi, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. O'zA, 04.02.2020.
2. Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. Prezident Sh.Mirziyoevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023 yil, 23 dekabr.
3. 3. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston" nashriyoti.,2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.O'zA, 2020y.,4 fevral.
5. Konrad N.I. Zapad i Vostok. M.: 1972.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 7- j. T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat nashriyoti., 2004.
7. Ibrohimova Z. Musaffo olam hayratlari. T.: "Yangi nashr", 2015.
8. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1994.
9. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax.: "Sangzor" nashriyoti, 2006.
10. Avdeeva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan. M.Turg'unboeva nomidagi "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi.T.: 2001.
11. G'afur H. Xalq o'yinlari, qo'shiqlar va an'analarga bir nazar.T.: "Kamalak", 1992.
12. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. M.:1948.
13. Jo'raev N. Vaqt va fazo. T.: "Ma'naviyat", 2020.
14. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. T.: "O'qituvchi", 1975.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Shuhrat Toxtasimov,**  
O'zbekiston davlat xoreografiya  
akademiyasi rektori, professor

## QASHQADARYO – SURXONDARYO BOLALAR PREDMETLI RAQSLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTASIYA

Xalq pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri bolalarni o'z tengqurlari muhitida tarbiyalashdir. Eng qadim zamonlardan boshlab ta'lim – tarbiyada turli o'yinlardan keng foydalanilgani ham bejiz emas. Donishmand bobolarimiz o'yinlar jarayonida bolalarda qat'iyat, tirishqoqlik, halollik, rostgo'ylik kabi fazilatlar tarkib topishini yaxshi bilganlar. Jonli ijroda saqlanib qolgan folklor qo'shiq – raqslarda musiqaning o'zni va ahamiyati beqiyosdir. O'sib kelayotgan yosh avlodga o'zbekona urf - odat, tafakkur, sof milliy xarakter va obraz haqida tushuncha berishda, ularning xalqning o'tmishi, milliy madaniyati va boqiy qadriyatlariga bo'lgan sobit munosabatini shakllantirishida musiqa va raqsning uyg'unligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Folklor qo'shiq – raqslarda milliy udumlar betakror badiiy – estetik vositalar orqali tasvirlanadi. Buyuk ipak yo'lidagi ko'hna Nasaf azaldan o'zining betakror tarixiy obidalari, urf – odat va an'analari bilan butun dunyodan sayohatchilarni jalb qilib kelgan. Buyuk ajdodlarimizdan meros madaniy – milliy boyliklarimizni yosh avlodga o'rgatish, tarixiy an'analarni davom ettirish orqali Uchinchi Renessans poydevori mustahkamlanadi. Surxon – Qashqa vohasining ichki va tashqi turistik imkoniyatlari yanada kengayadi. Mazkur maqolada Surxondaryo va Qashqadaryo bolalar predmetli raqslarining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinadi.

**Kalit so'zlar.** marosim, mavsum, tabiat, dunyoqarash, doira, bola, ruhiyat, harakat, qamchi, qoshiq, predmet.

**Шухрат Тохтасимов,**  
ректор государственной академии  
хореография Узбекистана, профессор

## НЕКОТОРИЕ СООБРАЖЕНИЯ О ДЕТСКИХ ТЕМАТИЧЕСКИХ ТАНЦАХ КАШКАДАРИ – СУРХАНДАРИ

**Аннотасия.** Одним из основных принципов народной педагогики является воспитание детей в среде сверстников. Недаром в воспитании и обучении широко используются различные игры. Наши мудрые дедушки прекрасно знали, что в процессе игр у детей формируются такие качества, как усидчивость, трудолюбие, честность, правдивость. Роль и значение музыки в фольклорных песнях и танцах, сохранившихся в живом исполнении, бесподобны. Гармония

музики и танца играют решающую роль в даче молодому поколению понимания узбекских традиций, мышления, чистого национального характера и образа, в формировании у них устойчивого отношения к прошлому, национальной культуре и вечным ценностям народа. Изображаются эстетическими средствами. Древний Насаф на Великом шелковом пути привлекал путешественников со всего мира своими уникальными историческими памятниками, обычаями и традициями. Основы Третьего Возрождения будут укреплены путем обучения молодого поколения культурным и национальным богатствам, унаследованным от наших великих предков, продолжения исторических традиций. Внутренние и внешние туристические возможности оазиса Сурхандарья-Кашкадарья расширятся еще больше. В данной статье изучаются особенности детских сюжетных танцев Сурхандарьи и Кашкадарьи.

**Ключевые слова.** ритуал, время года, природа, мировоззрение, круг, ребенок, психика, действие, кнут, ложка, предмет.

**Shuhrat Tokhtasimov,**  
Rector of the State Academy of Choreography  
of Uzbekistan, professor

## KASHKADARYA – SURKHANDARYA CHILDREN'S SUBJECT SOME CONSIDERATIONS ABOUT DANCES

### ANNOTATION

One of the main principles of folk pedagogy is to educate children in the environment of their peers. It is not for nothing that various games have been widely used in education and training since ancient times. Our wise grandfathers knew very well that in the process of games, qualities such as perseverance, diligence, honesty, and truthfulness are formed in children. The role and importance of music in folklore songs and dances preserved in live performance is incomparable. The harmony of music and dance plays a decisive role in giving the young generation an understanding of Uzbek traditions, thinking, pure national character and image, in forming their fixed attitude towards the past, national culture and eternal values of the people. - is depicted through aesthetic means. Ancient Nasaf on the Great Silk Road has attracted travelers from all over the world with its unique historical monuments, customs and traditions. The foundations of the Third Renaissance will be strengthened by teaching the younger generation the cultural and national wealth inherited from our great ancestors, and by continuing the historical traditions. The internal and external tourist opportunities of Surkhan-Kashka oasis will expand even more. In this article, the specific features of Surkhandarya and Kashkadarya children's subject dances are studied.

**Key words.** ritual, season, nature, outlook, circle, child, psyche, action, whip, spoon, object.

Raqs ta'limi – alohida harakatlar va ritmlar majmuasidangina iborat emas, balki qalb go'zalligi, ezigulik va yaxshiliklar, estetik tarbiya uyg'unligida umumlashtirilgan yaxlit tizimdir. Ta'lim jarayonida bolalarda o'ziga xos dunyoqarash, vatanparvarlik, milliy qadriyatlariga muhabbat tuyg'ulari shakllanadi. O'sib kelayotgan yosh avlod kamolotida u tug'ilgan yurt, ulug' ajdodlardan meros tabarruk tuproq, muhit bilan bir qatorda uning ota – ona va ustozlari ta'sirida shakllangan qiziqishlari, dunyoqarashi muhim ahamiyatga ega. Bu borada kitob mutolaasining, raqs va musiqa san'atining tarbiyaviy ta'siri beqiyosdir. Buyuk alloma Aflotun "Inson uchun birinchi baxt uning sog'ligi, ikkinchisi go'zallikdir", degan edi. Raqs san'ati bilan shug'ullanish orqali bolalar jismonan barkamol, sog'lom, qalban go'zal bo'lib ulg'ayadilar.

Qashqadaryo – Surxondaryo bolalar predmetli raqslarida mifologik – totemistik qarashlardan kelib chiqqan raqslar ham salmoqli o'rin egallaydi. Ularda obrazlar va harakatlar tizimini, predmetlarni tasavvur darajasi, real hayotga munosabati jihatidan kichik ko'rinishlarga guruhlash mumkin. Shuningdek, marosim shaklida yashayotgan an'analar va davrlar o'tishi barobarida marosim tizimidan uzilib, san'at ko'rinishini olgan bolalar predmetli raqslari namunalari ham o'z tadqiqini kutib turibdi.

Chiroqchi, Qamashi tumani bolalar predmetli raqslarida qadimiy an'analarga tayangan holda, zamonaviy dizayn orqali o'ziga xos dekorasiya, rang va tasvir yordamida tarixiy manzaralarga yangicha bezaklar uyg'unlashtirilmoqda.

Predmetli qo'shiq - raqslar bolalarning murg'ak ongu shuuriga vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ma'rifiy axloqiy tamoyillarni singdirish vazifasini bajaradi. Qo'shiq matnlarida naqarotga alohida e'tibor beriladi. Zero, "Ayrin xalq qo'shiq va yallalarida qarot asosiy kuyni butunligicha takrorlaydi, va bandlardan takroriy she'r matni tufayli ajratiladi" [6;292]. Naqarotning takrorlanishi tufayli so'zlar va harakatlar bolaning esida tezroq qoladi. Shahrisabz, Kitob tumanlarining tog'li qishloqlarida hali bahor kelmasidan boychechak ochiladi. Bolalarning "Boychechak" qo'shiq - raqsi matnida takror ko'p uchraydi:

Qattiq erdan tatalab chiqqan boychechak,  
Yumshoq erdan yumalab chiqqan boychechak -

satrlari raqs harakatlari davomida qayta - qayta takrorlanadi.

Qarshi, Koson tumanlarida bolalar folklor raqslarining unutilgan an'alarini tiklashga, sahnaviy kompozision talqinlarda tomoshabinlarga bevosita ta'sir etuvchi zamonaviy vositalardan keng foydalanishga e'tibor kuchaymoqda. Ularda milliy va umumbashariy qadriyatlar tarannum qilinadi. Dehqonobod tumanining tog'li qishloqlarida o'smir yoshidagi o'g'il bolalar ijro etadigan "Beshqarsak" raqsida barcha harakatlar qarsak ritmi ostida va "oh-ho", "ho-ho" tovushlari jo'rovozliligida ijro etiladi.

Qashqadaryo viloyatida "Sandiqcha", "Chanqovuz", "Urchuq yigirish", "Gilam to'qish", "Savacho'p", "Kuvi", "Sibizg'a", "Beshik", "Do'mbira", "Dupala - dup", "Yorg'ichoq", "Ro'molcha", "Boychechak" kabi bolalar predmetli raqslari nihoyatda mashhur. Ularda vo'ha xalqining ruhi, ma'naviy qadriyatlari, kichkintoylarning ichki olami, qiziqishlari, orzu - istaklari o'zining badiiy etuk va to'laqonli ifodasini topgan. Xususan, raqs harakatlarini ifodalashda turli vaziyat yoki mavsum bilan chegaralangan hamda erkin mavzuli qo'shiq - aytimlarga ham keng o'rin berilgan.

Keyingi yillarda tarixga, ma'naviy merosga, xalq ijodiyotiga e'tiborning kuchayishi o'z navbatida bolalar folklor raqslarining taraqqiyotiga ham turtki berdi. Qashqa vohasi bolalar folklorining o'ziga xos xususiyatlari ayniqsa predmetli raqslarda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Qoshiq, likobcha, igna, sandiqcha, kuvi, beshik kabi uy-ro'zg'or anjomlari, juvoldiz, ketmon, urchuq, yorg'ichoq, savacho'p singari mehnat qurollari, gilam, so'zana, ro'molcha singari moddiy madaniyat asarlari, sibizg'a, chanqovuz, do'mbira, doira kabi musiqa asboblari bilan ijro etiladigan raqs asriy an'analarga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

"ChAVANDOZLAR" raqs - kompozitsiyasi Qarshi ixtisoslashtirilgan boshlang'ich raqs san'ati maktab - internati direktori Sohibjamol Haydarova, Shahrisabz shahridagi 2 - sonli bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi Zulayxo Muhammadiyeva tomonidan sahnalashtirilgan. Unda 10 - 12 yoshli 3 nafar o'g'il bolalar ishtirok etadi. Bu raqsning 8 - 14 nafar bolalar o'ynaydigan va yakkaxon variantlari ham mavjud.

Uch bola o'ng qo'lida qamchini tutib, sahnaga kirib keladi. Ikkita bola oldiroqda, bittasi sal orqaroqda, ikki qo'llarini yuqoriga ko'tarib, "qanot" va "chaqirish" harakatlari bilan hammani ko'pkariga taklif qilishadi. Bolalar bir qatarga tizilib, o'ng qo'lida qamchini tutib, chap qo'lini musht qilib, oldinga uzatib, "uch tepish" harakati bilan boshlaydi. Qamchini pastga - yuqoriga silkitib, otda chopish harakatini ifodalaydilar. Bolalar gavdalarini biroz oldinga egib, o'ng - chap yonga siljib, ot chopish harakatini bajaradilar. Sahnaning o'rtasida turib, "cho' - cho'"lab, o'ng qo'lidagi qamchini chap tomonga siltaydi. Bolalar "uch tepish", "sakrama" harakatlarini bajarib, avval chap tomonga, so'ng o'ng tomonga qarab silkinadilar.

Ikki qo'li bilan yuganni silkitib, old tomonga uch marta, orqa tomonga uch marta "depsinish" bilan harakatlanadilar. Gavdalarini tik tutib, oyoqlarida "uch tepish" harakati bilan davra quradilar. Ikki qo'llari bilan qamchini boshlaridan yuqori ko'tarib, qo'llarini "qanot"dek silkitib, doira shaklida turadilar. Chap oyoqlarini ko'tarib, o'ng oyoqda "sakrama" harakati bilan raqs tushadilar. Qo'llari boshdan yuqorida, oyoqlarida "depsinish", "uch tepish" harakatlari bilan bir o'ng tomonga, bir chap

tomonga va yana o'ng tomonga o'tib, tizzalarini bukib, o'tiradilar. Ikki qo'llarining kaftini erga urib, "sakrama" harakati bilan turadilar. Qamchini boshlari uzra silkitib, avval chap tomonga, so'ng o'ng tomonga uradilar. Qo'llarini ikki tomonga ochib, "qamchi urish" harakati bilan yuqoriga ko'tarib, "charx" aylanadilar. Bu harakatlar 2 marta takrorlanadi. Qamchini pastdan olib, yuqoriga irg'itish harakatini bajaradi. Bolalar orqaga qo'llarini yoyganlaricha, "depsinish" harakatini bajaradilar. Qo'llarini boshdan yuqori ko'tarib, "depsinish" harakatini davom ettiradilar. Ikki qo'llarining kaftini erga 2 martadan urib, keyin boshlaridan yuqori ko'tarib, bir oyoqda "sakrama" harakatini bajaradilar. Bu harakat to'rt marta takrorlanadi. Bir o'ng tomonga, bir chap tomonga qamchi siltab, "depsinish" harakatini bajaradilar. Qamchini boshdan yuqorida havolatib, qo'llar "qanot" holatida, "sakrama" harakati bilan, bir oyoqda tiz cho'kadilar.

Bolalar chap qo'li bilan belidagi belbog'ni ushlab, qamchini boshlari uzra "aylantirish" harakatini bajaradilar. Bir qatorga tizilib, o'ng qo'llarida qamchi, chap qo'lida otning yugani, "qanot" va "charx" harakati bilan oldin o'ngga, keyin chapga aylanadilar. Bu harakatlar 2 marta takrorlanadi. Bolalardan biri tizzasida o'tirib, qo'lida "do'mbira chertish" harakatini ifodalaydi. Ikkitasi uning atrofida aylanib, bir oyoqlarida depsinib, qo'llari bilan "qanot" harakatini bajaradilar. Ishtirokchilar bir qatorga tizilib, ikki qo'llarini boshdan yuqori ko'tarib, pastga tushiradilar. Chap oyoqlarini ko'tarib, o'ng oyoqlarida "sakrama" harakatini bajaradilar. Bolalar ikki qo'llari bilan otning yuganini tortgandek, avval orqaga, keyin old tomonga harakatlanadilar. Ikki qo'llari bilan qamchining ikki tomonidan ushlab, oyoqlari bilan engil "depsinish" harakatini bajaradilar.

Bir qo'li bilan otni qamchilab, bir qo'lida "qattiq shamol" harakatini ifodalaydi. Bu harakat ikki marta takrorlanadi. O'ng oyoqda sakrab, qamchini havolatib, sahnaning markaziga to'planib, "charx" harakatida aylanadilar. Bolalar o'ng qo'llarida qamchini havolatib, bir oyoqda "depsinish" harakatini bajaradilar. Ikki qo'llari bilan otning yuganidan tortganday harakat qilib, ikki oyoqda "depsina"dilar. Qo'llarini "qanot" qilib, chap oyoqni tizzadan bukib, o'ng oyoqda "sakrama" harakatini bajaradilar. Bolalar qomatini oldinga yarim egib, pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga qamchini silkitib, "yo'rg'a" harakati bilan davrani aylanadilar. Qamchini boshlari uzra o'ynatib, otga minayotganday baland sakrab, tizzalari bilan erga qo'nadi. Bolalar sakrab turishadi, qo'lida qamchi, qo'llarini boshidan yuqori ko'tarib, "qarsak chalish" harakatini bajarishadi. Bir qo'llari otning yuganida, bir qo'llarida qamchini silkitib, raqsni yakunlashadi.

Tarixan boy merosga ega Qashqadaryo - Surxondaryo raqs - kompozitsiyalari odatda chanqovuz, doira, rubob, nay jo'rligida ijro etiladi. Ularni sahnalashtirishda xoreograf - pedagog bolalar matnni o'rganishi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi, ovoz imkoniyatlarini egallashi, ulardan to'liq foydalana bilishi uchun musiqa o'qituvchisi bilan hamkorlikda ishlaydi. Asosan, bolalarning yoshiga mos barmoq vaznidagi matnlar tanlanadi.

"QOSHIQ" raqsi Surxondaryo bolalar folklorining eng mashhur predmetli o'yinlaridan biri bo'lib, unda 10 - 12 yoshli to'rt nafar qiz bola, to'rt nafar o'g'il bola ishtirok etadi.

Raqs chanqovuz musiqasi bilan boshlanadi. Qizlar sahnaga yugurib chiqib, tizzalab o'tiradilar. Qo'llari elka balandligida, har bir qo'llarida ikkitadan yog'och qoshiq, "qo'ldasta" aylantiradilar. Qo'llarini boshlaridan yuqori ko'tarib, "chaqirish" holatini ifodalaydilar. Sahnaga "qanot" harakati bilan o'g'il bolalar chiqib, ularning orqasida tik turadi. Qizlar "qiyg'ir bo'yin" va "tebranma" harakatini bajaradilar. O'g'il bolalar qo'llarini og'izlariga olib borib, chanqovuz chalayotgandek harakat qiladilar.

Qizlarning ikki qo'li ikki yonda, pastda "qo'ldasta" harakati bilan qoshiqlarni bir - biriga uradilar. Qo'llarini boshi uzra yuqori ko'tarib, "iyak harakati" bilan tepada qoshiqlarni chaladilar. Bu harakatlar ikki martadan takrorlanadi. Qizlar bitta - bittadan o'rinlaridan turadilar. Turgan joylarida oldin o'ngga, keyin chap tomonga "charx" harakatini bajaradilar. Bu harakat 4 martadan takrorlanadi. Qizlar "shaxmat" shaklida saflanib, qo'llari yuqorida "shamol", "elka uchirish" va oyoqlarida "sakrama" harakati bilan sahnaning old tomoniga yuradilar. O'g'il bolalar boshdan yuqorida qo'llarini "qanot" qilib, oyoqlarini almashtirib, "uch tepish" harakatini bajaradilar. Qizlar qo'llarini yuqoriga ko'tarib, pastga tushirib, "qiyg'ir bo'yin" harakatini bajarib, "charx" aylanadilar. Qo'llari boshdan yuqorida, qoshiq bilan "qo'ldasta" va "uchirma" harakatini bajaradilar. Ikki qatorda

turgan qizlar “tarama” usulida bir – birlarining orasidan o‘tib, “tebranma” va “charx” harakatini ifodalaydilar. Harakat 2 martadan takrorlanadi. Chap oyoq o‘rnida, o‘ng oyoq o‘ng yonga uzatilib, yana joyiga qaytadi. Qo‘llar bosh balandligida, qoshiqlarni chalishda davom etadi. O‘ng oyoq o‘rnida, chap oyoq chap yonga uzatilib, yana joyiga qaytadi. Qo‘llar bosh ustiga ko‘tarilib, bilak bilan aylanma “qo‘ldasta” harakati bajariladi. Qizlar turgan joylarida avval o‘ng qo‘lini yonboshga uzatib, chap qo‘lini boshdan yuqori ko‘tarib, “charx” harakatini bajaradilar.

Qo‘llar almashadi, oyoqlar “soxta ufori” harakatini ifodalaydilar. Qizlar qoshiqda usul berib, qo‘llari bir yuqorida, bir pastda, tananing “to‘lg‘anma” harakati bilan ikki marta “charx” aylanadilar. O‘g‘il bolalar sahnaning orqa tomonida qo‘llari “qanot” qilib, oyoqlarini “uch tepki” harakati bilan almashtirib turadilar. Qizlar “charx” va “sakrama” harakati bilan sahnaning to‘riga o‘tadilar. “Elka uchirish” va “sakrama” harakati bilan sahnaning to‘rt tomoniga tarqaladilar. Qizlar to‘rt tomondan sahnaning markaziga kelib, “to‘lg‘anma” va “tebranma” harakatlari bilan “charx” harakatini bajaradilar. Qo‘llaridagi qoshiqni yuqoriga ko‘tarib, pastga tushirib, usul berishda davom etishadi. Qizlar “sakrama” harakati bilan “charx” aylanib, yana sahnaning to‘rt tomoniga tarqalishadi.

Bir qo‘llarini belning orqa tomoniga qo‘yib, ikkinchi qo‘llarini boshdan yuqori ko‘tarib, “muqom” qiladilar. Qizlar bir qatorga tizilib, “o‘tirib - turish” harakatini bajaradilar. Qo‘llarini o‘ng, chap yonga uzatib, boshlarida “qiyg‘ir bo‘yin” ifodalaydilar. Qoshiqlarni erga qo‘yib, qo‘llari bilan bir pastda, bir yuqorida “qarsak” harakatini bajaradilar. Ikkita o‘g‘il bola bir - biri bilan bahslashib, o‘yinga tushadi. Qizlar bir qo‘lini beliga qo‘yib, ikkinchi qo‘lini boshdan yuqori ko‘tarib, turgan joylarida “charx” harakati bilan aylanadilar. Ritm tezlashadi. Sahnaning orqa tomonidagi ikkita o‘g‘il bola erga o‘tirib, kaftlarini birlashtirib, ikki yonga va oldinga “tebranma” harakatini bajaradilar. Qizlar “sakrama” harakati bilan old tomonga o‘tib, erga o‘tiradilar. “Bosh aylantirish” harakatini bajaradilar. Qizlar o‘rinlaridan turib, “tebranma”, “elka uchirish” harakatini bajaradilar, “charx” harakatida aylanadilar. Qizlar o‘rin almashadilar. Ikkita qiz tizzalab o‘tiradi, ikkita qiz tik turgancha qoladi. Raqs yakunlanadi.

Raqsli qo‘shiqlar bola qalbida zohir bo‘lgan quvonch, shodlik va orzularning, mehmondo‘stlik, ota – onaga, oilaga, vatanga muhabbatning turli harakatlar, imo– ishoralar va musiqa uyg‘unligidagi jozibali ifodasidir. Qadim tarixga eltuvchi ohangdor raqslar mohiyati va badiiy- estetik jihatdan rang – barang. Liboslar va taqinchoqlar Qashqadaryo - Surxondaryo bolalar folklor raqsLARining tarkibiy qismidir. MutaxassisLARning fikricha, “An‘anaviy o‘zbek kiyim – kechagi asosan ustki ko‘ylak, ishton va chopondan, boshga do‘ppi, oyoqqa kalish – mahsi va etikdan iborat. Erkak – ayol va katta – kichiklar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi” [7;150].

Oilaga xos an‘analar, qadriyatlar va urf–odatlar bolaning didini, dunyoqarashini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, betakror qadriyatlarni e‘zozlashni o‘rganadi. Bolalar qo‘shiq– raqslari o‘sib kelayotgan navqiron avlodning axloqiy va estetik didini, hissiy tuyg‘ularini shakllantirishda, ularning iste‘dodini yuzaga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Biz yangi O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida ma‘naviy ruhiy poklanish, milliy uyg‘onish, milliy o‘zlik tuyg‘ularini yanada teranroq anglayapmiz. Olamshumul islohotlar amalga oshirilayotgan, buyuk madaniy meros va qadriyatlar qayta tiklanib, o‘z mavqeini egallayotgan tarixiy voqealarga guvoh bo‘lib turibmiz. Zero, “Yuksak ma‘naviyatli, zamonaviy bilim va kasb – hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir” [1;9].

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mujassam ma‘naviy etuklikka intilish - yosh avlodni yomon yo‘ldan qaytaradi, yot g‘oyalar va tahdidlardan asraydi hamda yaxshilik va ezgulikka da‘vat qiladi.

Xalqning sharaflari o‘tmishini, o‘zligi, ruhiyati va orzu-umidlari, ichki kechinmalarini o‘zida aks ettirgan noyob san‘at namunalaridan biri bolalar predmetli raqsLARidir. Uning shakllanish jarayonlarini tizimli o‘rganish millatning asrlar sinoviga bardosh berib, ming yillardan beri yashab kelayotgan urf -odatlarini va betakror an‘analarini, buguni va kelajagini tadqiq qilish demakdir. Viloyatlar kesimida raqsning madaniy-ma‘rifiy, ijtimoiy hayotimizdagi o‘rnini belgilashda yo‘qolib


borayotgan raqslarni tiklash, ularni badiiy – estetik, etnografik tamoyillar asosida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 4 fevralda qabul qilingan “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida to‘g‘ri ta’kidlanganidek, “Xalqimizning ma’naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan raqs san’atini har tomonlama rivojlantirish, yosh avlodni milliy va jahon raqs san’atining namunalaridan keng bahramand etishni zamonning o‘zi talab etmoqda” [2].

Yosh avlod dunyoqarashini kamol toptirish va ruhiy olamini boyitishga xizmat qiladigan badiiy qadriyatlar silsilasida Qashqadaryo bolalar folklari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda yuksak vatanparvarlik, oila qo‘rg‘oni va ona yurti ko‘z qorachig‘iday asrab - avaylash, ota makonning muqaddasligi, elu - yurtning hamjihatligini ulug‘lash kabi ezgu g‘oyalar tarannum etiladi. Shuning barobarida, xalqimizning eng go‘zal va olijanob qadriyatlarini butun dunyoga tanitishda ham ularning o‘rni va ahamiyati beqiyos.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Yoshlar - bizning kelajagimiz. Yoshlarga donolar o‘giti. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zA, 2020y., 4 fevral.
3. Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. Prezident Sh. Mirziyoevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2023 yil, 23 dekabr.
4. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston” nashriyoti., 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zA, 04.02.2020.
6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi 7- j. T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat nashriyoti., 2004.
7. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1994.
8. Avdeeva L. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. M. Turg‘unboeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi. T.: 2001.
9. G‘afur H. Xalq o‘yinlari, qo‘shiqlar va an’analarga bir nazar. T.: “Kamalak”, 1992.
10. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. M.: 1948.
11. Konrad N.I. Zapad i Vostok. M.: 1972.
12. Jo‘raev N. Vaqt va fazo. T.: “Ma’naviyat”, 2020.
13. Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklari. T.: “O‘qituvchi”, 1975.
14. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax.: “Sangzor” nashriyoti, 2006.
15. Ibrohimova Z. Musaffo olam hayratlari. T.: “Yangi nashr”, 2015.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Achilova Nurxon Normuhammedovna**

Samarqand davlat universiteti mumtoz adabiyot tarixi  
kafedrasining mustaqil ilmiy xodimi

## QADIMGI XITOIY MIFOLOGIYASIDA AJDARHOLAR VA ULARNING TURLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

Butun Ipak yo'li buylab joylashgan xalqlar madaniyatlarida ajdarho timsoli xitoylardachalik keng tanilmagan va yoyilmagan. Bu timsol Xitoy madaniyati, turmush tarzi va uysozligida keng qo'llanilgan. Shu sababli o'zbek mintalitetidagi ajdarho obrazini keng yoritish uchun xitoy Longlarini alohida va ancha chuqur, qiyosiy o'rganishga harakat qilindi. Ma'lum bo'lishicha, Longlar xitoy adabiyoti-madaniyatida asosan ijobiy ilohiy mahluq sifatida tushunilgan. Shu sababli xitoy halqi bu mahluqni totem darajasiga kutargan, ayrim holatlarda esa unga sig'inish darajasigacha borilgan. Ajdarho zamonaviy Xitoyning qudratli timsoliga aylanib borayotganligida ham shu faktorlarning muhim o'rni bor. Maqolada shu jarayon haqida muxtasar bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Qadimgi Xitoy, mifologiya, san'at, ajdarho, uning turlari.

**Ачилова Нурхан Нормухаммедовна**

Независимый научный сотрудник кафедры истории классической литературы  
Самаркандского государственного университета

## ДРАКОНЫ И ИХ РАЗНОВИДНОСТИ В ДРЕВНЕКИТАЙСКОЙ МИФОЛОГИИ

### АННОТАЦИЯ

В культурах народов Великого Шелкового пути, изображение Дракона не так широко распространено, как в китайской мифологии. Образ широко использовался в китайской культуре, образе жизни. В статье была предпринята попытка изучить китайские драконы (лонги) гораздо глубже, в сравнительном плане. Как оказалось, лонги понимались в китайской литературе в основном как положительные мифологические существа. Поэтому китайский народ возвел этот образ в ранг тотема, а в некоторых случаях возвел в ранг культа. Эти факторы также играют важную роль в том, что Дракон становится мощным символом современного Китая. В статье кратко описывается этот процесс.

**Ключевые слова:** древний Китай, мифология, искусство, Дракон, его разновидности.

**Achilova Nurkhan Normukhammedovna**

An independent researcher at the Department of the  
History of Classical Literature of Samarkand State University

## DRAGONS AND THEIR VARIETIES IN ANCIENT CHINESE MYTHOLOGY.

## ANNOTATION

In the cultures of the peoples of the Great Silk Road, the image of the Dragon is not as widespread as in Chinese mythology. The image was widely used in Chinese culture and lifestyle. The article attempted to study Chinese dragons (longs) much more deeply, in comparative terms. As it turned out, longs were understood in Chinese literature mainly as positive mythological creatures. Therefore, the Chinese people elevated this image to the rank of a totem, and in some cases elevated it to the rank of a cult. These factors also play an important role in making the Dragon a powerful symbol of modern China. The article briefly describes this process.

**Keywords:** ancient China, mythology, art, Dragon, its varieties.

Ajdarho obrazi boshqa xalqlar mifologiyasiga nisbatan Xitoy mifologiyasida alohida o'rin tutadi. Xitoyliklar turli fantastik maxluqlar, g'ayritabiiy mavjudotlar va haqiqatda mavjud jonivorlar haqida turli mifologik tushunchalarga ega bo'lganlar. Biroq aynan ajdarho obrazi Xitoy mifologiyasida yetakchi o'rinni egallaydi.

Xitoy mifologiyasidagi ajdarho boylik va qudrat ramzi hisoblanadi va xitoyliklar tushunchasiga ko'ra, Long (龍) daryo, ko'l va dengizlarda yashaydi va suv unsuri bilan bevosita bog'lanadi. Longlarning samo va yerda ham yashay oladigan turlari bor. Xitoy mifologiyasida Long Yevropa mifologiyasidagi yovuzlik maxluqi sifatida gavdalanishidan farqli o'laroq yaxshilik ilohi sifatida tushuniladi. Biroq Xitoy mifologiyasidagi ajdarholar har doim ham yaxshilik keltirmagan. O'ta qadimiy davrlarda xitoyliklar uchun ajdarholar yovuzlik ramzi bo'lgan.

Xitoy mifologiyasida ajdarholarning asosiy ikki turi mavjud: suv ajdarlari va olov ajdarlari. Tashqi ko'rinishidan ular bir-biridan ko'p farq qilmasa-da, biroq ular doimiy qarama-qarshilikda turib In (yovuzlik) va Yan (yaxshilik) muvozanatini ushlab turganlar.

Xitoy ajdarhosi Longning yaratilishi haqidagi mifda, odamlarni vahshiy hayvonlardan qutqarish uchun falakdan yerga tushgan qudratli avliyo Lyu Long yuborilganligi va u longni (ajdarhoni) yaratganligi haqida so'z boradi. Ushbu mif syujetiga e'tibor berilsa, unda bir turdagi vahshiy maxluqni yengish uchun xuddi shu turdagi maxluq – Long yaratiladi. Ya'ni dastlab xitoyliklarga odamxo'r maxluq aziyat yetkazadi va ular ham o'zlariga qudratli maxluq yaratadilar. Shu epizodda xitoy mifologiyasida "vahshiy maxluq"larga qarshi namoyon bo'lgan Longning (u ham maxluq) ijobiylashish jarayonini kuzatish mumkin. Ehtimol, Long obrazining evolyutsiyasi jarayonida xitoyliklarga, bosqinchilarning yovuz maxluq (ajdarho) bilan raqobatlasha oladigan, uni yengishga kuchi yetadigan, ularnikiga o'xshash mifologik jonivor zarur bo'lgan bo'lishi va shu sababli Xitoy mifologiyasida salbiy (dushmanlarniki) va ijobiy (xitoyliklarni ximoya qiluvchi) longlar paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, uzoq yillar davomida ajdarho obrazi xitoy imperatorlari ramzi bo'lgan. Odamlar yerdan samoga qadar ko'tariladigan ajdarho va barcha odamlardan ustun turuvchi Osmon o'g'li – imperator o'rtasidagi bog'lilikka ishonganlar. Xalqni qo'rqitish va ishontirish uchun imperatorlar o'zlaridagi ajdarho xususiyatlari haqida ma'lumotlar tarqatganlar. Imperator haqida odamlar shunday degan: "uning yuzi – ajdar yuzi, uning ko'zlari – ajdarning ko'zlari, uning qo'llari – ajdarning qo'llari, uning choponi – ajdarning choponi, uning bolalari – ajdar avlodlari, imperator saroyi – ajdar saroyi, uning taxti – ajdarning taxti"[1,246].

Ko'rinishini o'zgartiradigan, suzadigan, yuguradigan, uchadigan Long tarixiy-ijtimoiy jarayonlar natijasida yovuzlik timsolidan ijobiy obrazga, o'rta asrlarda esa xon ramziga o'zgarib, uning qiyofasi imperator saroyida, taxtda, xon kiyimlarida namoyon bo'lgan. An'anaviy tushunchalarga ko'ra, long baxt timsoliga, xalqni qurg'oqchilik va toshqinlardan asrovchi obrazga aylangan.

Qadimgi "Ijing"[2,70] (易經 – Evrilishlar kitobi) da keltirilishicha, xitoy ajdarhosi dastlab qorong'ulik yoki tuproq bilan bog'liq bo'lgan. Keyinchalik mifologik va kosmogonik tushunchalar rivojdanishi bilan long ko'k kuchi Yan timsoliga aylanib, In bilan aloqasi yo'qolgan. Xitoy ajdarhosining zamin bilan aloqasi haqidagi tasavvurlar qadimgi manbalarda saqlangan. Ularda long yashirin xazinalarni qo'riqlaydi, yerosti dunyosiga tushib qolgan qahramonga yorug' dunyoga

chiqish uchun yordam beradi, uxlashni yaxshi ko‘radi.

Xitoy ajdarhosi odatda qanotli mavjudot shaklida tasvirlanib, samoga qanot qoqib, bulut, yomg‘ir kabi tabiat hodisalariga hukmronlik qilgan. Uning qoni tusi esa qora-sariq («qora»- «syuan» osmon rangi) va xuan — «sariq» (yer rangi) bo‘lib, osmon va yer ramzlarini aks ettirgan.

Eramizgacha IV asrda olam yaratilishining besh o‘zagi haqidagi ta‘limot paydo bo‘lgach, unga ko‘ra besh rangli ajdarlar: sinlong — yashil, chilong — qizil, xuanlong — sariq, baylong — oq va syuanlong — qora ajdarlar paydo bo‘ldi. Manbalarda asosan sinlong (kunchiqar timsoli) va xuanlong (yer markazi ramzi) haqida ma‘lumotlar saqlanib qoling.

Xitoy ajdarholarining rangi ma‘lum bir maqsadda qo‘llanilganini bilish mumkin. Ajdarhodagi bunday rangli holat boshqa xalqlar adabiyotida, jumladan, ingliz tilli xalqlar orasida ham saqlanib qoling.

Xitoy ajdarhosi ko‘rinishi bilan ham farqlangan: tangacha tanli, qanotli, shoxli va shoxsiz bo‘lishgan. Eramizning boshlarida chizilgan suratlarda xitoy ajdarholari boshli, ilon quyruqli bo‘lishgan. Qadimgi xitoy manbalarida toshbaqaning qadim ajdodi ajdar bo‘lganligi haqida ma‘lumot berilgan: dengiz po‘rtanasidan birinchi ajdarho yaralgan, undan ulkan qora dengiz toshbaqasi tug‘ilgan. Bu toshbaqadan mo‘jizaviy, ilohiy toshbaqa dunyoga kelgan. Ilohiy toshbaqadan esa oddiy toshbaqalar tarqalgan.

Xitoy mifologiyasidagi ayrim ajdarholarning binokorlikdagi o‘rni va vazifasi:

Chix-ven – suvni xush ko‘ruvchi xususiyati sababli u ko‘priklarga o‘rnatilgan. Bundan tashqari, uni uy tomlarida ham uchratish mumkin, buning sababi u uyni yong‘indan himoya qiladi, deb hisoblangan. Chix-ven og‘zini katta ochgan holda o‘rnatilgan, ayrim hollarda bu ajdarho turini baliq shaklida ham uchrashi mumkin.

Pa-xsya ajdarhosi. Dachendyan ko‘shkining janubiy fasadida joylashgan ustunlarda ajdarhoning o‘ymakorlik bilan ishlangan suratlari aks ettirilgan. Ustunlar bilan bir qatorda binolar va ustunlarning pastki qismlarida ham Pa-xsya ajdarhosi joylashtirilgan, buning sababi ular ulkan og‘irliklarni ko‘tara oladi, deb hisoblangan.

Chaofen – yaqinlashib kelayotgan xavfni sezuvchi ajdarho. Shu sababli u yashash joylari, saroy va ibodatxonalarning tomlari ostida o‘z qo‘riqchilik qilgan.

Sziotu – yomon odam isini yoqtirmaydigan badjahl ajdarho, u uy ichkarisiga yomon odamlarni kiritmaydi. Odatda uning haykali yoki surati uy darvozasiga o‘rnatiladi.

Chiven – qorovul ajdarho. Atrofni diqqat bilan kuzatishni yaxshi ko‘radi, biroq bir joyda o‘tirishni yoqtirmaydi, bino tomlarida yashaydi. Qo‘riqlash joyini tashlab ketib qolmasligi uchun tomlarga yoki zinalarga qilich bilan qotiriladi.

Bixan – bir shoxli yo‘lbarsga o‘xshaydigan janjalni yaxshi ko‘ruvchi ajdarho, do‘zax qo‘riqchisi. Odatda qamoqxonalar darvozalariga o‘rnatiladi. Bixan ziddiyatli tortishuvlar va sudlarda ishtirok etishni xush ko‘radi, jahl otiga minganida o‘zining kuch-qudratini ko‘rsatgan.

Osmonostida ajdarholar nafaqat suv yoki yerosti hukmdori hisoblanishgan, balki samoga ham hukmron bo‘lishgan. Tashqi ko‘rinishi, yoshi, yashash joyi, faoliyati va rangiga qarab ajdarholarning aniq tasnifi tuzib chiqilgan. Yuqorida ko‘rsatilganlarni e‘tiborga olib, ajdarholarni to‘rt qismga bo‘lish mumkin:

- ilohlar makonini qo‘riqlovchi samo ajdarholari;
- shamol va yomg‘irlar yuboruvchi ilohiy ajdarholar;
- dengizlar chuqurligi va yo‘nalishini belgilovchi zamin ajdarholari;
- boyliklar qo‘riqchisi yerosti ajdarholari.

Ular ichida “Yer kindigi” himoyachilari bo‘lgan samo ajdarholari (sariq va oltin rangda) eng yuqori pog‘onada turadi. Ular eng yirik va rahm-shafqatli hisoblanadilar, oyoqlarida beshtadan panjasi bo‘ladi. Qolgan toifadagi ajdarholar to‘rt yoki uch panjali bo‘lgan.

Oltin rangdagi ajdarholar osmonni qo‘riqlagan va ma‘budlar saroylarining ishonchli himoyachilari bo‘lishgan. Ular Xitoy imperatorlarining yaqin qarindoshlari hisoblangan. Osmonosti imperatorlari o‘zlarini Buyuk Ajdarho deb ataganlar va tomirlarida ajdar qoni oqayotganiga ishonganlar [3,112].

Ikkinchi pog‘onani iqlim, dengiz va ummon kengliklari hukmdorlari - ko‘k ajdarholar band

etadi. Ular yer yuzidagi barcha shamol, yomg'ir, bulutlarni boshqaradilar va fasllar almashuvini amalga oshiradilar.

Keyingi darajadagi Zamin ajdarholari yashil rangli va timsohlarga o'xshash qiyofaga ega bo'lishgan. Ular yer yuzidagi barcha chuchuk suvlar va hosildorlik qo'riqchilari hisoblanishgan. Zamin ajdarholari daryolarda yashagan, ular oqim tezligi, suvning musaffoligi va suvning qirg'oqlardan chiqib ketmasligini nazorat qilgan. Shu bilan birga, ular daryolarning dengizlarga borib qo'yilishini ham nazorat qilgan. Bir so'z bilan aytganda, ular yerdagi suv tizimiga nazorat qilishadi.

Yer qa'rida badjahl qora va qizil ajdarholar yashagan. Ular oltin, nefrit, olmos, qadimgi imperatorlar xazinalari kabi yerosti xazinalarini qo'riqlagan. Bundan tashqari, qizil ajdarholar yetuk donishmand bo'lgan va ilm-fan himoyachisi hisoblangan. Qadimda ikki turdagi yerosti ajdarholari o'rtasida tez-tez kelishmovchiliklar bo'lib turishiga va o'shanday ziddiyatli vaziyatlarda zilzila va to'fonlar sodir bo'ladi deb tushunilgan.

Xitoy ajdarhosi Longning genezisi va Long so'zining etimologiyasi haqida turli fikr va qarashlar mavjud.

Xitoycha "Long" so'zining turkiycha "ulug (ulug')" so'zi bilan genetik aloqasi borligi to'g'risida turli qarashlar mavjud. Shu bilan birga ushbu nazariyaning isboti sifatida turkiycha "ulug'" leksemalasining evolyutsiyasi jarayonida saqlanib qolingan o'xshashliklari keltiriladi. Jumladan, ulug>uliy "buyuk; hukmdor" ~ uli "buyuk, ulkan" ~ uluw "timsoh (ulkan suv yirtqichi)" / mo'g'ulcha luw "ilon, ajdarho" (qozoqcha – uluw jili – "ilon yili"). Xitoycha "long" va turkiycha "ulug" (ulug') leksemalari solishtirilganda quyidagi parallelizmlarda aniqlanadi: turkiycha ulug>uliy "buyuk; hukmdor" - xitoycha long "imperator", turkiycha uluw "timsoh (ulkan suv yirtqichi)" va mo'g'ulcha luw "ilon, ajdarho" – xitoycha long (mifologik mavjudot – ajdarho) [4,165]. Yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shimcha tarzda barcha turkiy tillarda keng tarqalgan va ayrim fonologik jihatlari e'tiborga olinmasa, deyarli bir xil talaffuz qilinadigan "ilon" (turkcha – yilan, qozoqcha – jilan, o'zbekcha – ilon va h.) so'zining xitoycha "Long" so'ziga ham fonologik, ham leksikologik jihatdan juda o'xshashligini ko'rish mumkin. Fikrimizcha, aynan o'zbekcha "ilon" so'zi xitoycha "long" (ajdarho)ga asos bo'lgan.

Xitoy manbalarida qahramon Da Yuy tug'ilganda ajdarho bo'lganligi keltiriladi. Uning otasi yarim ma'bud bo'lgan Gun yer yuzini bosgan suv to'fonini bartaraf etish uchun ko'p harakatlar qiladi, biroq eplay olmaydi. Shunda u oliy xudo – osmon xonining sehrli tuproq xamirturushi bo'lgan Sijanni o'g'irlyadi. Buni bilib qolgan va g'azabga kelgan Osmon imperatori Gunni qatl qiladi.

Gun ma'budlar qavmidan bo'lganligi uchun uni to'la ma'noda o'ldirib bo'lmas edi. Qatldan uch yil o'tsa ham, vujud buzilmaydi. Buning karomatidan qo'rqqan va Gunning yovuz bir maxluqqa aylanib, unga qarshi kurash boshlashi mumkinligiga aqli yetgan oliy ma'bud, ilohlardan birini sehrli dao pichog'i bilan yerga tushirib, tanani tilka-pora qilishni buyuradi. Elchi yerga kela solib Gun qornini yoradi, biroq mo'jiza yuz beradi, vujudan ikki shoxli ajdarho sudralib chiqadi. Bu Gunning o'g'li – Yuy edi. U shiddat bilan osmonga ko'tarilib ketadi [5,17].

Xan davri tarixchisi Sima Syanning "Shiji" (史记, tarix esdaliklari) asariga asoslansak, mifologik qahramon Da Yuyga suv toshqiniga qarshi kurashda sariq ajdar (黄龙) va qora toshbaqa (玄龜) yordam bergan. Ajdarho Yuyning oldiga tushib dumi bilan ariqlar qazib borgan, toshbaqa esa Yuy kemasining ortidan sehrli Sijang (息壤) degan tuproq xamirturushini kosasiga yuklab suzib borgan. Yuy sijang yordamida tog' va tepaliklarni hosil qilib, xitoyning jo'g'rofiyasini yaratgan ekan [6,146].

Boshqa bir xitoy mifida yarim xudo Da Yuy chetki shimolda joylashgan - Chjunbey mamlakatiga borib qoladi. "Bu shaharda ikki kun mehmon bo'ldi, biroq suv toshqini odamlarni xalok etayotgan bir paytda Yuy bu yerda qolishi mumkinmide? Albatta yo'q. U jannatmakon Chjunbey mamlakatini tark etib, yana suv toshqiniga qarshi kurashga o'tlanadi. Tinimsiz zahmat evaziga suv chekinadi. Biroq yana boshqa ishlar o'z navbatini kutib turgan ekan. Yuy tomonidan quvg'inga uchragan suv ma'budi qora ajdarho - Gun - Gunning yaqini, to'qqiz boshli ajdarho Syanlyu odamlarga zug'um o'tkazar ekan. Eng yomoni bu maxluq qachon aksirsa, ulkan ko'l paydo bo'larkan.

Bu achchiq suvni ichgan odam va hayvonlar yarim o'lik holga kelarkan.


Da Yuy Sanlyuni o'ldiradi. Jonsiz maxluq tanasidan sassiq qon otilib chiqadi. Bu qonning tomchisi qayerga tushsa, o'sha yer o'lik yerga aylanar ekan. Atrof shu darajada badbo'y bo'lib ketibdi, u yerda yashashning hech iloji qolmabdi. Yuy buning asoratlarini ham yo'q qilibdi. Insonlar yana bir balodan qutilishibdi [5,31].

Adabiyotshunos E. Musurmanov Xitoy ajdarhosi – Long, xitoy mifologiyasida dastlab fors mifologiyasidagi singari o'zga yurt bosqinchi-maxluqi sifatida ham talqin qilinishi, bu obrazning yurti deb Qarshidagi “Qal'ai Zahoki Moron” yoki Xorazmdagi “Ajdar bobo” kabi qo'rg'on va manzillarning keltirilgani o'tmishdagi ma'lum bir migratsion hodisalar, imperiyalar orasidagi harbiy harakatlar sababli salbiy obrazda keyinchalik bosqinchi ellarning xitoy xalqi orasiga singishi natijasida ijobiy obrazda, o'rta asrlarga kelib imperator timsoliga aylanganini ma'lum qiladi [7,72].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xitoycha “Long” so'zining fonetik va leksik jihatlarini, shuningdek Xitoyning qadimiy mifologiyasidagi Long (“ajdar”) genezisi qadimiy turkiy xalqlar madaniyati va mifologiyasidagi shomonlar, suv otlari haqidagi tushunchalar bilan bevosita aloqador bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin. Xitoy mifologiyasida ajdarho obrazining dastlab zulmat (yomonlik) timsoli bo'lganligi, keyinchalik yorug'lik (yaxshilik) ramziga aylanganligi qadimgi Xitoy longi va prototurkiy ajdarho o'rtasidagi bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi. Ipak yo'li so'ngi manzili Yevropaga borib taqaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сидихменов В.Я. Китай: страницы прошлого. Смоленск, 2000,-464 с.— С. 246
2. И цзин. Китайская Книга Перемен. – Черновцы: – «Місто», 2018 – 70 с. Ил.
3. Арефьев, Б.А. Дракон «раскусит» звездочета? / Б.А. Арефьев // Знак вопроса. – 1999. – № 4. – С. 112.
4. Пляскина Е.А. Значение и смысл языкового знака «дракон» китайской лингвокультуры, Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. Филологические науки. Научный журнал. Том 6 (72). № 4. — С. 165–181.
5. Musurmanov E. R (叶尔肯, Ma Sui Ling (马翠玲 · 国家公派汉语教师). Xitoy folklori (afsona va ertaklar): o'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand: 2014.-166 b.- B.17
6. Юань Кэ. Глава VII. Гунь и Юй усмиряют потоп. Мифы Древнего Китая. М.,1987,- С. 161 va История всемирной литературы. В 9 томах.Том 1.- С.146.
7. Мусурманов Э. Р. Ўзбек–хитой халқлари адабий алоқалари генезиси: фольклор ва адабиётда муштараклик (Филология фанлари доктори диссертацияси). 2020 й. УДК: 891.709:809:398, 72 б.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Gulyamova Shahnoza Qahramonovna,**

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti dotsenti, f.f.d. (DSc)

**Xudoyberdiyeva Filura Ziyadinovna,**

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti magistranti

## NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA EVFEMIZMLARNING AHAMIYAT

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

Bugungi globallashgan jamiyatda nutq madaniyatini shakllantirishda evfemizmlarning oʻrni katta. Maqolada evfemizmlar oʻquvchilarning nutq madaniyatini shakllantiruvchi vositalardan biri ekanligi haqida fikr yuritilgan. Yoshlar nutqini evfemik birliklar bilan boyitish yoʻllari koʻrsatilgan. Shuningdek, evfemik va disefemik vositalarning lingvistik xususiyatlari tavsiflab berilgan. Badiiy, publitsistik va soʻzlashuv uslubiga xos ingliz va oʻzbek evfemizmlaridan misollar keltirilgan. Ona tili va ingliz tili darslarida oʻquvchilarga evfemizmlarni oʻz oʻrnida ishlatishni oʻrgatish va nutq madaniyatida tadbiq etish haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** til, nutq, madaniyat, evfemizm, disefemizm, maʼnodosh soʻzlar, nutq uslublari.

**Гулямова Шахноза Кахрамоновна**

Доцент, д.ф.н. Туркестанский новый инновационный университет

**Худойбердиева Филура Зиядиновна**

Магистр Туркестанский новый инновационный университет

## ЗНАЧЕНИЕ ЭВФЕМИЗМОВ В ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ

### АННОТАЦИЯ

В современном глобализированном обществе эвфемизмы играют важную роль в формировании речевой культуры. В статье рассматривается тот факт, что эвфемизмы являются одним из инструментов формирования речевой культуры учащихся. Показаны способы обогащения речи молодежи эвфемистическими единицами. Также описаны лингвистические особенности эвфемизмов и дисефемизмов. Приводятся примеры английских и узбекских эвфемизмов, характерных для художественного, публицистического и разговорного стиля. Есть идеи по обучению студентов использованию эвфемизмов на уроках родного и английского языка и применению их в культуре речи.

**Ключевые слова:** язык, речь, культура, эвфемизм, дисефемизм, синонимы, стили речи.

**Gulyamova Shahnoza Kahramonovna**

Associate Professor, PHD, (DSc) of Turkestan New Innovation University

**Khudoyberdiyeva Filura Ziyadinovna,**

Graduate student of Turkestan New Innovation University

## THE IMPORTANCE OF EUPHAMISMS IN THE FORMATION OF SPEECH CULTURE

### ANNOTATION

In today's globalized society, euphemisms play an important role in the formation of speech culture. The article discusses the fact that euphemisms are one of the tools that shape students' speech culture. Ways to enrich the speech of young people with euphemistic units are shown. Linguistic features of euphemism and dysphemism are also described. Examples of English and Uzbek euphemisms characteristic of artistic, journalistic and conversational style are given. There are ideas about teaching students to use euphemisms in their native language and English language classes and applying them in the culture of speech.

**Key words:** language, speech, culture, euphemism, dysphemism, synonyms, speech styles.

Til xalq va millatning ko'zgusi, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib qoluvchi ijtimoiy hodisadir. U har bir xalqning va millatning yashash tarzini, ijtimoiy munosabatlardagi o'rnini, turmushini, urf-odatlarini o'zida namoyon etadi.

Nutq madaniyati insonda yoshlikdan shakllanib borishi zarur. Til qonuniyatlaridan o'z o'rnida to'g'ri foydalana olish insondan bilim talab qiladi, albatta. Shunday ekan, o'zbek tili o'zbek xalqining ijtimoiy hayot tarzini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Nutqni ravon, izchil va grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish uchun bir qator qonuniyatlarga amal qilish zarur. So'zni to'g'ri tanlay olish, qo'shimchalardan o'z o'rnida foydalanish, sintaktik jihatdan gapni to'g'ri qurish shular jumlasidandir.

Ma'lumki, til taraqqiyoti xalq hayoti, madaniyati, turmush-tarzi bilan chambarchas bog'liqdir. Zotan, til va madaniyatning aloqadorligi asosida tilshunoslikda lingvokulturologiya degan yo'nalish rivojlandi. Nutq madaniyati tildan bimalol va maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan imkoniyat sifatida ardoqlab kelinadi. Nutq odobi, til madaniyati kabi fazilatlar o'zbek xalqining qadimiy ma'naviy tayanch ustunlaridan sanaladi. Ma'naviy kamolotga erishishda madaniy merosimiz bo'lmish tildan o'rinli foydalanish, uni chuqur o'rganish va undan bahramand bo'lishimiz zarurdir.

Olim A. Omonturdiyev kishilar o'rtasidagi aloqa vositalari voqelikni bayon etish – uni ifodalash usuli darajasiga ko'ra bir-biri bilan uzviy bog'langan uch qatlam: til, nutq, supernutqdan tashkil topganini o'rinli ta'kidlaydi [2]. Til xabar, aloqa vositasi bo'lsa, nutq munosabat, muloqot usuli, supernutq esa evfemik, ekspressiv-emotsional muomalani ifodalaydi.

Tilshunosligimizda til madaniyatiga erishish uchun qo'llaniladigan vositalar mavjudligi e'tiborga molikdir. Ayniqsa, ochiq aytilishi noo'rin, noqulay, madaniyatsizlik, axloqsizlik hisoblangan birliklarni nutqda yumshatish, madaniyroq tusga kiritishga asoslangan evfemizmlar nutq madaniyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, nutqimizda evfemizmlarni qo'llash madaniyatlilik, sharqona lutf qilish belgisidir. O'zbeklar nutqida evfemizmlarning ko'p qo'llanilishi xalqimizning madaniyatlilikidan, halimligidan dalolatdir. Evfemizmlar tilda allaqachon nomlangan tushunchalarni qayta atash uchun yaratilar ekan, ular shu tushunchalarni ifodalagan so'zlarning sinonimlari hisoblanadi va perifrazalarning bir turidir. Evfemizmlar haqida gapirganda, shuni ham aytib o'tish lozimki, tilimizda evfemizmlarning antonimi sifatida o'rganiladigan birliklar ham bor. Ular disfemizmlar bo'lib, kishilar izzat-nafsigaga tegadigan so'zlarni ochiqdan-ochiq aytish, muloqot jarayonida nutq nafisligidan foydalanmaslikdir.

**Evfemizm** (yunoncha euphemia – yumshoq ifodalash) – so'zlovchiga aytish noqulay, noo'rin yoki qo'pol tuyulgan so'z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo'lgan so'zlar. Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta'sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsigaga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy

me'yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to'g'ridan-to'g'ri aytish mumkin bo'lmagan maxfiy voqelikning salbiy ta'sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi.

Masalan: *o'ldi* deyish *o'rniga olamdan o'tdi, vafot etdi, ko'z yumdi; tug'di* deyish *o'rniga ko'zi yoridi, yengillashdi* kabi iboralardan foydalanish [1].

«Yaxshi gapirmoq», «silliq so'zlammoq» ma'nolarini beruvchi **evfemizm** atamasi muloqot jarayonida so'zlovchining nutqini qo'pol so'zlarni qo'llashdan yoki tinglovchining «ko'ngliga tegishi mumkin» bo'lgan noqulay so'zlarni ishlatishdan saqlash bilan bog'liq, ammo bu evfemizmlar qo'pol, noqulay ma'noni beruvchi so'z ifodalagan mantiqni bermaydi degani emas. Zero, evfemizm ifodaga ijobiy yondashuv orqali yuzaga keladi.

Darhaqiqat, evfemizmlar nutq madaniyatini oshirish manbalaridan, ko'rkam va jozibador nutq shakllantirish vositalaridan biridir.

O'quvchilar nutqini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish hamda madaniyat bilan so'zlashni chuqurroq o'rgatishni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yoshlar nutq madaniyatini shakllantirishda evfemizmlarning o'rni alohidadir. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonlarida har bir mavzuga bog'lagan holda turli metodlar orqali ularning lisonida evfemizmlarni shakllantirib borishi zarur. Masalan, 5-sinfda "Ma'nodosh so'zlar", 6-sinfda "Fe'l so'z turkumi" mavzularini o'tayotganda quyidagi so'zlarni doskaga yozib, uning sinonimlarini (ibora, tasviriy ifoda bilan ham) yozishni topshirish mumkin:

**O'lmoq** – *halok bo'lmoq, jon fido qilmoq, mangu uyquda yotmoq, qurbon bo'lmoq, o'tgan ajdodlar, o'tgan buyuk allomalar, shahid ketmoq, nobud bo'lmoq, uxlammoq*

O'zbek tilida "o'lmoq" so'zi bilan bog'liq bo'lgan evfemik lug'at A.Omonturdiyevning "O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati"da berilgan bo'lib, ulardan ham namunalar keltirib, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish mumkin:

*Abadiylikka bosh qo'ymoq, abadiy uyquga ketmoq, ayrilib qolmoq, bandachilik qilmoq, baxti qaro kiymoq, bevaqt ko'z yummoq, berib qo'ymoq, bir yaproq uzilmoq, dorul fanodan dorul baqog'a rihlat qilmoq, egasiga kerak bo'lmoq, egasiga topshirmoq, elchisi kelmoq, foni dunyodan ketmoq, fano olamini tark etmoq, gul uzmoq, hayot bilan vidolashmoq, hayotiga nuqta qo'ymoq, indamaslar olamiga ketmoq, joniga qasd qilmoq, kamaymoq, musulmonchilik qilmoq, omonatini topshirmoq, paymona to'lmoq...*

**Tug'moq** (tug'ilmoq)– *dunyoga keltirmoq, jonidan jon bunyod etmoq, ko'zi yorimoq, yengil bo'lmoq, o'g'il ko'rmoq, bunyodga kelish, yorug' dunyoga kelmoq*

**Kasal bo'lmoq** – *boshi yostiqa tegmoq*

**Xotin** – *ahliyamiz, ojizamiz, o'zlari, bekam*

**Er** – *begim, u kishi, o'zlari, o'zi, ular*

O'quvchilar yozib bo'lgandan so'ng o'qituvchi xatolarni tuzatib, to'ldirishi kerak.

Yoki 10-sinfda nutq uslublarini o'tganda ham evfemizmlarning nutqiy uslublarda xoslanishi nuqtayi nazaridan tasnif etish, o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Evfemizmlar birinchi galda badiiy uslub uchun xizmat qiladi. U badiiy uslubning oliy formasi. Nutqni ta'sirchan ifoda etishning asosiy vositalaridan biridir.

Evfemik va disfemik ma'noli birliklar, asosan, nutqiy hodisa bo'lganligi sababli, adiblar nutqida individual hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun so'z san'atkorlarining asarlarida qo'llangan bunday til hodisalarini individual nutq tarkibiy qismi sifatida maxsus tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega. X. Qodirova Abdulla Qodiriy asarlaridagi evfemik va disfemik vositalarning lingvistik xususiyatlari hamda adibning ulardan foydalanish mahoratini tavsiflab bergan. Abdulla Qodiriy evfemik ma'noli birliklarni qo'llash masalasida ulkan mahorat egasi sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Adibning o'z va uning qahramonlari tilida uchragan har bir so'z va gapda ularning ruhiy-ma'naviy kayfiyati, orzu-niyati, insonga, uning hayotiga, tabiat hodisalariga munosabati, dunyoqarashi va madaniy saviyasi, his-tuyg'u va xulq-atvori aks etib turadi. Buyuk adibning "O'tgan kunlar" romanida evfemizmlarning yuksak mahorat bilan qo'llanilganligini yaqqol ko'rish mumkin. X.Qodirova Abdulla Qodiriy asarlarida qo'llangan evfemizmlar, miqdor jihatidan rang-barang bo'lish bilan birga, mavzuviy jihatdan ham xilma-xil ekanligini ta'kidlaydi: 1) shaxsni anglatuvchi

evfemik vositalar: *valine'mat jannatmakon*, “*katta*”, *zinokor*, *halol emas*, *suyuq oyoq*, “*aynigan*” *majnun*, *layli*, *baba*, *barishnaxon*, *marja*, *o'ynash*, *tutash*, “*noz egasi*”, “*fir'avn qizi*”; 2) inson tana a'zolarini ifodalovchi evfemik ifodalar; 3) biomoddani anglatuvchi evfemik ifodalar: *axlat*, *tezak*, *xilt*; 4) insonning jismoniy nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar: *qulog'i og'ir*, *bir ko'zi mag'ribda*, *bir ko'zi mashriqda*; 5) insonning jismoniy holatini anglatuvchi evfemik ifodalar: *yuklik*, *homilalik*, *og'ir oyoq*, *ikkiqat*, *tumsa*, *pushtsiz*, *bezurriyot*, “*qizil kuyov*”; 6) insonning ma'naviy nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar: *aqling oqsaydir*, *aqlingiz bir oz yanglishibdir*, *boshi bo'sh*, *jo'n odam*, *po'stak aqlini moy bosgan*, *jahli basit*, *soddalavh*, *esi yarim*, *yarim madaniy xalq*, *xom kishi*; 7) insonning muomala va munosabatdagi nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar: *yelkasi qichimasin* (*ta'magirlik qilmasin*), *yovvoyi chiqim* (*pora*), *mullajiring* (*pul*; *pora*), “*qarz*” (*pora*), *cho'ntakparast* (*ta'magir*, *pulga o'ch odam*), *konvert orqali ulashilgan “badal”lar* (*pul*, *pora*); 8) spirtli ichimliklarni anglatuvchi evfemik ifodalar: *dori*, *zahar*, “*obi surx*”, *obirahmat*, *oqsoqol* [3]. Adib asarlaridagi evfemizmlar borasida adabiyot darslarida ham fikr yuritish o'rinli. Masalan, 5-sinfda “Uloqda” hikoyasini, 7-sinfda “Mehrobdan chayon” romanini, 9-10-sinfda “O'tkan kunlar” romanini o'qib, tahlil qilganda asarlarda qo'llangan evfemik birliklarni topib, izohlash hamda ularni nutq jarayonida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki badiiy asar o'qishdan maqsad faqat voqealar atrofida aylanish emas, balki so'z boylikni oshirish, so'zni o'rinli qo'llashni o'rganish va okkazional so'zlarni tushunish hamda eng asosiysi ulardan amalda foydalana olishdir. Biroq, evfemik vositalarning qo'llanish doirasini badiiy adabiyot bilan chegaralash xatodir. Chunki u publitsistik uslubning ham komponenti bo'lib, uning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Publitsistik uslub evfemizmlarini izohlash uchun matbuot materiallariga murojaat etamiz: *Olim 53 yoshida, ijodining gullagan davrida hayotdan o'tdi* (“Guliston”, 1992, № 6. 17-b.). *Hayot meni undan judo qildi* (“Yosh kuch”, 1996, №1.25-b.).

*Farzandlari otamiz bu dunyo tashvishlaridan charchab, narigi dunyoga ketib qoldilar, deb o'zlarini ovutardilar* (“Guliston”, 1997, № 2, 38-b.)

*La'nati ajal gulday qizni xazon qildi-ya?!* (“Saodat”, 1996, №4, 18-b.).

Keltirilgan misollarda *hayotdan o'tmoq*, *judo qilmoq*, *narigi dunyoga ketmoq*, *xazon qilmoq* kabi iboralar *o'lmoq* so'zining publitsistik uslubdagi evfemik variantlaridir. Demak, nutq madaniyatida evfemik vositalarning qo'llanilish doirasini nafaqt badiiy adabiyot bilan, balki publitsistik uslubdagi evfemik vositalardan keng foydalanish joizdir.

G'arb nutq madaniyatida evfemizmlar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, so'ngi paytlarda ommaviy axborot vositalari butun dunyoda, xususan Yevropa mamlakatlarida muhim kuchga aylandi. Ma'ruzachi esa tinglovchiga publitsistik uslubga xos evfemizmlardan foydalanib jamiyatga ta'sir ko'rsatadi.

Darhaqiqat, evfemizmlar ommaviy axborot vositalari uchun muhim so'z qurolidir.

“**Positive stories about war**”(propaganda) (Washington Post 12.2.2005)

In the Brooklyn cae, 24-years-old **Jewish man** told police he overheard group of **blackmen** talking about the knockout game before he was attacked (Christian Science Monitor, 2013)

“**Spending more time with the family**” Neil, Chessington, Surrey.

“**Speakin on the big white Telephone**” @BBCNewsMagazine Love.

“But then the **eclipse** happened five days later. Not that Trump created the **eclipse**. But maybe.” (A4. Pg11.P8)

“America is in the **game**, and America is going to win,” he said, to an audience that included cabinet members and military officers. (A2. Pg4.P4)

Shunday qilib, nutq madaniyatida evfemizmlar yoki o'ziga xos evfemistik atamalardan foydalanishning ahamiyati katta.

Evfemik vositalar so'zlashuv uslubi tarkibida ham faol qo'llaniladi. So'zlashuv nutqi nutq momentidagina mavjudligi, so'z tanlash va so'z qo'llashning yozma nutqqa nisbatan erkinligi, so'z iqtisod qilish qonuniyatining amal qilish jarayonlari evfemadan osonlik bilan foydalanish imkoniyatini beradi [4], shu sabab so'zlovchi ko'pincha “*o'lmoq*” o'rnida “*bo'lmabdi*”, “*turmadi*”, “*o'tmoq*”, “*ketib qolmoq*”, “*yo'qolmoq*”, “*chin joyiga ketmoq*”, “*qutilmoq*”, “*olmoq*”,

*“musulmonchilik qilmoq”, “jonini olmoq”, “elchisi kelmoq”, “bandachilik qilmoq”* kabi aytilishi o‘ng‘ay evfemalarni qo‘llaydi.

Shuningdek ingliz tilshunosligida ham evfemizmlar keng tadqiq qilingan. Masalan: died/ vafot etgan shaxs haqida gapirganda, uni “passed away”, “pass over”, “go to heaven”, “go to a better place”, “sleep away”, “pass into the next world”, “go under go to our rest”, “leave the land of the living” almashtirish yaxshiroqdir.

Xulosa qilib aytganda, evfemizmlar badiiy, publitsistik hamda so‘zlashuv uslublarda faol qo‘llanadi.

Demak, evfemizmlar – nutq ko‘rki. Ona tili va Ingliz tili darslarida qaysi sinfda qanday mavzu o‘tilishidan qat’i nazar evfemizmlarni o‘z o‘rnida ishlatishni o‘rgatish, nutqni ravon ifoda etishni ta’minlash har bir pedagog oldidagi asosiy vazifadir. Zero, ona tili va ingliz tili darslarini o‘tishdan asosiy maqsad quruq qoidalarni yodlatishdan iborat emas, balki o‘sha nazariyalarni amalda – nutqda tadbiq eta olishdir.

## Adabiyotlar

1. Gulyamova Sh. O‘zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari. – Buxoro, 2020. – 140 b.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B.126.
3. Omonturdiyev A. J. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 252 b.
4. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati. Avtoref.Fil.fan.nomzodi. – Toshkent, 2012. – 25 b.
5. Ўринбоев Б. Ўзбек тилининг сўзлашув нутқи масалалари. – Тошкент: Фан, 1975. – 176 б.
6. Burchfield R. An Outline History of Euphemisms in English. Oxford: Oxford University Press, 1985. P.13-31
7. <https://www.bbc.com/news/magazine>
8. Pearson/Longman, Harlow. Essex, England. 2009



**Башарова Лайла**

Доцент кафедры «Графика» Национального института  
художеств и дизайна имени Камолитдина Бехзода

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО КОНТЕКСТА В ИСКУССТВЕ ПЕТРОГЛИФОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### АННОТАЦИЯ

Эта статья представляет собой введение в вопрос о том, как наскальное искусство связано с историческим контекстом Центральной Азии. Самый ранний такой контекст связан с индоиранцами, жившими в этом регионе во 2-м тысячелетии до нашей эры, поэтому обсуждаются возможные связи петроглифов с арийской культурой и мифологией. Изображения животных, выполненные в скифском стиле, показывают, что создание наскальных изображений также было важной культурной практикой для ранних кочевников во всем регионе. Также отмечено современное социальное значение доисторических наскальных изображений.

**Ключевые слова:** петроглиф, наскальное искусство, символика, Центральная Азия.

**Basharova Layla**

Grafika kafedrası dotsenti Kamoliddin Behzod  
nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

## MARKAZIY OSIYO PETROGLIFLARI SAN'ATIDA TARIXIY KONTEKSTNING TALQINI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada petroglif san'atining O'rta Osiyo tarixiy kontekstiga qanday aloqasi borligi haqida kirish ma'lumot beradi. Bunday kontekstning eng qadimgi qismi eramizdan avvalgi 2-ming yillikda mintaqada yashagan hind-eronliklar bilan bog'liq, shuning uchun petrogliflarning oriy madaniyati va mifologiyasi bilan mumkin bo'lgan aloqalari muhokama qilinadi. Skif uslubidagi hayvonlar tasvirlari qoyatosh rasmlari ham butun mintaqadagi ilk ko'chmanchilar uchun muhim madaniy amaliyot bo'lganligini ko'rsatadi. Tarixdan oldingi petroglif tasvirlarining zamonaviy ijtimoiy ahamiyati ham qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** petroglif, qoyatosh tasviri, simbolizm, O'rta Osiyo.

**Basharova Layla**

Associate Professor of the Department of Graphics of the  
National Institute of Fine Arts and Design named after Kamoliddin Behzod

## INTERPRETATION OF HISTORICAL CONTEXT IN THE ART OF PETROGLYPHS OF CENTRAL ASIA

## ABSTRACT


This article provides an introduction to how rock art relates to the historical context of Central Asia. The earliest such context is associated with the Indo-Iranians who lived in the region in the 2nd millennium BC, so the petroglyphs' possible connections to Aryan culture and mythology are discussed. Animal depictions in the Scythian style show that rock art was also an important cultural practice for early nomads throughout the region. The contemporary social significance of prehistoric rock art is also noted.

**Key words:** petroglyph, rock art, symbolism, Central Asia.

Недавние открытия позволяют предположить, что история создания петроглифов на природных камнях в Центральной Азии может восходить к верхнему палеолиту, хотя это предположение пока основано исключительно на сходстве избранного числа алтайских петроглифов, родственные изображениям, известным из европейских палеолитических пещер. Несомненно, наскальные изображения создавались и в последующие периоды, а именно в неолите, бронзовом и железном веках, причем два последних века можно считать «золотым веком» в истории наскального искусства Центральной Азии.

Центральная Азия — это регион, где исторические данные предлагают важный интерпретационный контекст в исследовании наскального искусства. По оценкам историко-сравнительного языкознания, коррелирующим с археологическими находками, бронзовый век был временем миграции в Среднюю Азию древних ариев, так называемых индоиранцев. Это были народы, которые окончательно раскололись на индийских и иранских арийцев, создав основу исторического индуизма в Индии и зороастризма в Персии. Принимая во внимание, что многие петроглифы были созданы именно в это время в Средней Азии, вполне вероятно, что некоторые из них были созданы индоиранцами.

Вопрос о выявлении культурного содержания в изображениях наскального искусства требует методологического обсуждения. Такие вопросы, как почему было создано наскальное искусство и в какой степени наскальное искусство отражает реальность, являются вопросами, которые до сих пор обсуждаются. Является ли наскальное искусство графическим выражением убеждений? И если да, то является ли это иллюстрацией мифов? А может быть, наскальные изображения играли активную роль в символических действиях, например, ритуалах?



Петроглифы Тамгалы



Петроглифы Сармиш

Важным новым направлением интерпретации является семиотика. Рассматривая наскальное искусство как элемент культуры, можно установить семиотическую корреляцию

между индоиранскими мифами и наскальным искусством, предполагая, что они имеют структурные соответствия. Этот подход был применен в исследовании петроглифов Сармиш в Узбекистане и Тамгалы в Казахстане. Первоначальное наблюдение, повлиявшее на выбор этих мест для дальнейшего анализа, касалось повторения ассоциации «человек-бык» в наскальных рисунках, что также имеет решающее значение для индоиранского космогонического мифа, включающего мир, возникший в результате жертвоприношения первобытного существа – синтеза быка и человека.

В индоиранский период в наскальном искусстве Центральной Азии появился интригующий мотив – человеческая фигура, голова которой заменена кругом, окруженным расходящимися линиями или концентрическими точками. Некоторые исследователи считают, что это изображения солнечных богов, таких как Митра, и свидетельство солнечного культа, который был широко распространен среди древних индоевропейских народов. Другие исследования показали, что солнечные ауры — это не боги, а проявления древних «шаманов», поскольку излучающие нимбы могут быть изображениями визионерских ощущений, которые испытывают люди, находясь в измененных состояниях сознания. Однако если предположить, что это на самом деле изображения Солнца, то следует задаться вопросом: почему было изображено Солнце? Более внимательное изучение петроглифов Саймалы-таша, одного из крупнейших скоплений петроглифов с солярными символами в Центральной Азии, проясняет эту проблему.



Петроглифы Саймалы-таш

Саймалы-таш – уникальное место, расположенное высоко в горах Кыргызстана на высоте 3200 метров над уровнем моря. Путешествие в столь высокое место могло быть формой ритуального паломничества в самые высокие точки космоса. И, значит, символически его можно было рассматривать как место, где можно было встретить солнце в непосредственной близости. Петроглифы Саймалы-таш могли быть изобразительными метафорами союза с солнцем, своего рода мистического опыта, который практиковали арии.

Индоиранское наследие степей Центральной Азии продолжалось и в первые века первого тысячелетия до нашей эры в кочевых культурах. Этих так называемых ранних кочевников называют саками или скифами, которые упоминаются в надписях Ахеменидов и произведениях древнегреческих авторов. В стиле и тематике петроглифов этого периода преобладали животные (отсюда художественно-исторический термин так называемого «звериного стиля»), часто и тщательно изображались олени.

Известные образцы образов животных в искусстве кочевников известны из богато оборудованных гробниц - "царских курганов", обнаруженных широко в степях Передней Азии: от Казахстана (Иссык) до Алтая (Пазырык) и Тувы (Аржан) и на юг, до Монголии. В степях Монголии возникла впечатляющая монументальная традиция возведения каменных

стел, богато украшенных гравированными изображениями оленей, отсюда и название «оленьи камни».

Отнесение наскальных изображений к конкретным этническим группам среди ранних кочевников Центральной Азии является спорной и проблемной темой. Хотя индоевропейское наследие было важной составляющей этого культурного горизонта, это было время начала формирования тюрко-монгольской культуры.

Центральная Азия становится ключевой частью Шелкового пути в начале I тысячелетия нашей эры. Это было вызвано расширением Ханьского государства на западные регионы, такие как Синьцзян. По этому маршруту следовали торговцы, но помимо своей экономической роли, Шелковый путь вскоре стал путем распространения идей и религий, особенно буддизма, который зародился в Индии. Свидетельством этого процесса являются тысячи буддийских петроглифов, обнаруженных главным образом на севере Пакистана (например, в районе Чилас), с изображениями ступ, чортенов, свастики, просветленного Будды или Бодхисаттв, а также буддийские надписи в различных системах письменности. Возраст этих петроглифов оценивается примерно в I-X веках нашей эры.

Вместе с арабским завоеванием Средней Азии в VIII веке нашей эры и последующим распространением ислама традиция наскального искусства существенно прервалась. Однако доисламские верования и ритуалы не были полностью искоренены и синкретически продолжали формировать культурный ландшафт Центральной Азии, особенно в степной зоне, за пределами городских владений новой религии. Эти доисламские верования и практики обычно называют среднеазиатским шаманизмом, который на самом деле имеет общие черты с сибирским шаманизмом, хотя образ и атрибуты шаманов в обоих регионах не идентичны (например, анималистические наряды и барабаны, отсутствующие в Центральной Азии).

Однако древние народные обычаи создали уникальный синтез с новыми исламскими культурными традициями. Яркой иллюстрацией этого явления является распространенный в Центральной Азии культ священных мест, который часто проявляется в виде паломничества. Интересно, что некоторые из этих священных мест включают в себя древние наскальные рисунки, что указывает на то, что эти места были ритуальными центрами в доисламские времена. Таким образом, исламская культура продолжила новый комплекс практик уже установившейся древней священности ландшафта. Например, гора Сулейман в Кыргызстане является одним из наиболее ярких примеров такого «присвоения», но в других республиках Центральной Азии есть еще много подобных мест. Народные обычаи часто сопровождаются одеждой, привязанной к близлежащим деревьям, или подарками, оставленными на скалах, покрытых древними изображениями.




Наскальные рисунки Зараут-камар

В скальном убежище, известном как Зараут Камар, на юге Узбекистана, есть наскальные рисунки, которые предположительно связаны с доисламскими ритуалами, связанными с Наврузом, традиционным зороастрийским Новым годом, который празднуется в марте. Один из нарисованных там мотивов (круг, заполненный точками и разделенный по центру вертикальной линией), оказывается почти идентичен картине «Навруз», сфотографированной польским исследователем Леоном Барщевским в конце XIX века. Более того, практика нанесения изображений на внешние стены домов во время Навруза была документально подтверждена и в начале двадцатого века. Все эти примеры показывают, что наскальное искусство в Центральной Азии не является исключительно доисторическим явлением, что изображения на скалах выполнялись и в исторические времена, причем совсем недавно.

Ссылки на кочевое прошлое и на солярные символы (таким образом, на Небо) имеют и более широкое значение, поскольку это ключевые темы новой идеи тенгризма, появившейся после 1991 года. Тенгризм стал для некоторых групп основой построения нового тюркского мира, обусловленным исторически общей кочевой идентичностью. Таким образом, наскальное искусство стало неотъемлемой частью дискуссии о культурной идентичности народов Центральной Азии, поскольку археологические реконструкции прошлого обеспечивают основу для поиска корней собственной культуры.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Дэвлет Е.Г., Дэвлет М.А. Сокровища наскального искусства Северной и Центральной Азии. М.: ИА РАН, 2011.
2. Есин Ю.Н. Древняя история и традиционная культура. Древнейшие изображения повозок минусинской котловины. // Научное обозрение Саяно Алтая. 2012.
3. Рогожинский А.Е. Тамги Тамгалы // Древности Жетысу. Памятники археологии Жамбылского района. Алматы: Заповедник-музей «Танбалы», 2016.
4. Рябкова Т.В. Изображения ромбовидных знаков как свидетельство миграций в эпоху ранних кочевников // Маргулановские чтения-2011: матер. междунар. конф. (г. Астана, 20–22 апреля 2011 г.). Астана: ЕНУ им. Л.Н. Гумилева, 2011.
5. Сулайманова А.Т., Жолдошов Ч.М. Дуйшаналиева А.Т. Археологический ландшафт Саймалуу-Таш. Книга альбом. Бишкек: «Улуу Тоолор», 2016.
6. Хужаназаров М.М. Сармишсай (наскальные изображения, научные исследования). Ташкент: Nurfayz nashriyoti, 2018.
7. Швец И.Н. Ритуальные сюжеты в наскальном искусстве Центральной Азии // Известия МОН РК. Сер. обществ. наук. 1999. № 1.
8. Aali A. The Pictograms of Agh Dash. Zanjan North-Western Iran // Rock Art Research. 2017.
9. Augustinova A. Ibexes on black stones: new petroglyphs in Surkhandarya (South Uzbekistan) // Art of the Orient. Torun. 2018.
10. Rock Art in Central Asia. Thematic study. ICOMOS. (Ed. by Jean Clottes). Paris, ICOMOS publishers, 2011.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Mirodil Jo'rayevich Hakimov**

Andijon davlat universiteti

## CHOLG'U IJROCHILIGI VOSITASIDA ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqoladi o'quvchilarda musiqani idrok qilish va uni eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha mutafakkir olim va tadqiqotchilar nazariyalari taxlil qilib o'rganilgan. Shu bilan bir musiqani xotira va musiqiy qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar berib o'tilgan. Cholg'u ijrochiligi vositasida o'quvchilarni tarbiya qilishdan maqsad ularni ma'naviy tarbiya qilish, ma'nan yetuk shaxs bo'lib yetishishlarida musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini anglab, hayotda tadbqiq qilish kabi omillarni ochib berishda mutafakkir olimlar nazariyalari yoritib o'tilgan. Maqolaning ahamiyatli jihati ijrochilik san'ati ya'ni musiqa san'ati dunyo bo'ylab inson qalbini tushunishda vositachi bo'lib xizmat qilishi, insonlar qalbini musiqa birlashtirib turishini ham anglatadi.

**Kalit so'zlar:** tovush, tarbiya, cholg'u asbobi, idrok, kuy, qo'shiq, qobiliyat.

**Миродил Жураевич Хакимов**

Андижанский государственный университет

## РАЗВИТИЕ СЛУХА ПРИ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОМ ИСПОЛНЕНИИ

### АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу теорий ученых-мыслителей и исследователей по развитию у читателей способности воспринимать музыку и слышать ее. При этом даются методические рекомендации по развитию музыкальной памяти и музыкальных способностей. В раскрытии таких факторов, как цель воспитания учащихся средствами инструментального исполнительства, их духовное воспитание, осознание воспитательного значения музыки в их становлении духовно зрелыми людьми и ее применение в жизни, освещаются теории ученых-мыслителей. Важный аспект статьи исполнительское искусство то есть то, что музыкальное искусство может служить посредником в понимании человеческого сердца во всем мире, также подразумевая, что музыка объединяет сердца людей.

**Ключевые слова:** звук, воспитание, инструмент, восприятие, мелодия, песня, способности.

**Mirodil Jo'rayevich Hakimov**

Andijan State University

## DEVELOPMENT OF HEARING THROUGH INSTRUMENTAL PERFORMANCE

## ANNOTATION

In this article, the theories of the thinker scientist and researchers on the perception of music in readers and the development of its hearing have been studied. With this, one music was mentioned by giving methodological recommendations for the development of memory and musical abilities. Theories of thinker scientists have been highlighted in revealing factors such as the purpose of educating students through instrumental performance, spiritual education of them, awareness of the educational importance of music in their development as a spiritually mature person, and implementation in life. A notable aspect of the article is the performing arts-that is, the art of music serves as an intermediary in understanding the human heart around the world, and also means that the hearts of human beings are held together by music.

**Keywords:** sound, upbringing, instrument, perception, melody, song, ability.

**Kirish.** Musiqa olami cheksiz ummon kabi inson qalbini o'z qamroviga olish kuchiga ega ilohiy mo'jizadir, u insonlarni yig'latish va qalbiga shodlik olib kiruvchi vositadir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev musiqa san'atini rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan islohatlari buning yaqqol dalilidir. Haqiqiy san'atni, sof va boqiy musiqani faqat Parvardigori olamning marhamati bilan hazrati Inson yaratadi[1.1].

Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tamonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashhur tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" kitobida Amir Temur davrida o'tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to'xtalib "Yaxshi ovozi xonandalar kuylashni boshlab, g'azal-u naqsh aytur erdilar. Va turk-u mo'g'ul, xitoy-u arab va ajamdin har kim o'z rasmi bilan nag'ma aytur erdi", degan ma'lumotlarni keltiradi.

Mutafakkir olimlarimizdan Farobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi", Ibn Sino (980-1037) "Davolash kitobi"da "Musiqa haqida risola", Al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) "Oliyjanoblik haqida kitob", Jomiyning (1414-1492) "Musiqa haqida risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan.

Musiqa inson tarbiyasiga ta'siri uni o'zini tutish madaniyatiga qarab ham belgilanadi. Har bir inson ichki olamini go'zal qilishi uchun mumtoz musiqalarni tinglashi, tovushlarning tebranish ohanglarida ruhiy hordiq olishi tavsiyaya etiladi. Har bir oilada musiqa sozini ijro etuvchi shaxsni bo'lishi, uni musiqa ohanglarida ruxan va qalban pok qilib tarbiya qilish oldimizda turgan vazaflardan biri hisoblanadi. Shunday ekan mazkur ma'suliyatli vazifani bajarishda mutafakkir olimlarimiz ta'limotlarni ilgari surgan xolda ta'lim tarbiya berish samaralidir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O.Toshmatovanning "Ijrochilik san'ati tarixi" darsligida qadimiy cholg'ularning yaratilish tarixi arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to'liq cholg'u sifatida yetib kelmagan bo'lsa-da, ilmiy manbalarda tasviri tushirilgan bu cholg'ular paleolit davriga to'g'ri kelishi, shuningdek, ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat berishi haqida mu'lumotlar berib o'tilgan[2.8].

Musiqashunos olimlarning aniqlashicha Sharqning birinchi kasbiy musiqashunos, bastakor, hofiz va shoir Borbad ixtiro etgan barbat musiqa asbobi, «Zefarqand», «Nuhft», «Rost», «Navro'z», «Oromishi jon», «Darg'am», «Gulno'sh» kabi kuy va taronalari arab hamda usmoniy turk sozandalarining orkestr va ansambllari repertuaridan hamon mustahkam o'rin egallab kelmoqda. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarining natijasida Barbat o'rdak ko'ksiga o'xshagan kalta gardanli cholg'u asbobi bo'lib, bam, musallas, mussano, zer deb ataluvchi to'rt tordan iborat bo'lgan. Keyinchalik Zalzal Roziy, Is'hoq Mavsiliy (VIII-IX asrlar) Iso Barbatiy (XI asr) va boshqa sozanda, bastakor, musiqashunoslar barbatning tor va pardalarini, usul va shaklini takomillashtirganlar. Ustoz bastakor Borbadning arab mamlakatlarida Bahlbat, Pahlapaz va Fahlbaz, Borid taxalluslari bilan keng shuhrat qozonishi ham shundan dalolat beradi[3.4].

Iroda G'anievaning "Sharq xalqlari musiqa tarixi" darsligida ta'kidlanishicha R.G.Kizevetter "Arab musiqasini manbalar asosida o'rganish" deb nomlangan shoh asarida, sharq xalqlari hamda

o'zbek madaniyatiga tegishli 225 ta cholg'ularning tavsifi va tasnifi hamda uning bugungi kunga qadar o'zining ilmiy mohiyatini saqlab kelayotganligi aytib o'tilgan[4.9].

Ibn Sino (980-1037) musiqaning ruh bilan birgalikda tanaga ham shifobaxsh ta'sir ko'rsatishi haqida aytib o'tgan. U musiqani ham fiziologik, ham psixologik nuqtai nazardan o'rgangan[5.5].

Pifagor musiqaning terapevtik ta'sirini kashf etdi. Uning ta'kidlashicha inson ertalab uyg'onganida qo'shiq atish bilan boshlashi va kunni yakunida ham qo'shiq aytish bilan yakunlashi inson ongini va miyyasini dam olishiga olib kelishini asoslaydi. O'z tajribasiga tayangan xolda Gomerning she'rlarini kuylash orqali ruhini tinchlantirish usulini o'zida isbotini ko'radi[6.6].

Buyuk mutafakkir musiqashunos olim Abu nasr Forobiyning ta'limotida, komil insonni shakllantirish g'oyasi ustuvor bo'lib, tarbiya berishdan maqsad-insonda go'zal fazilatlarni rivojlantirish va san'at ahllariga aylantirishdan iborat bo'lgan, ushbu ta'limot bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan ahamiyatlidir[7.11].

A.Navoiy fikricha "Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir" shu asnoda musiqa ilmi va san'ati haqida buyuk mutafakkir shoirimizning "Majolis un – Nafois" asarida musiqa san'ati haqida atroflicha yoritilganini ko'rishimiz mumkin. Asarning 118 saxifasida Paxlavon Muxammad G'ushtig'ir haqida baxs ketganda, uni zamonasining shirinkamol va xushsuxbatlaridan biri ekanligi ta'kidlandi[8.750].

Musiqa san'ati ibtidoiy jamiyatda xalq turmushi va mehnat jarayoni bilan uzviy bog'langan marosimlar manbalarda qayd etilgan, bu marosim va bayramlarda cholg'ular keng qo'llanilganligi, shu bilan bir qatorda, "Navro'z" tantanalarida Tanbur, Dutor, Nay, Chang, Rubob, Doira (Daf, Childirma) singari cholg'ularida ajoyib kuy va qo'shiqlar ijro etishgani zikr etilgan.

Farobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi", Ibn Sino (980-1037) "Davolash kitobi"da "Musika haqida risola", Al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) "Oliyjanoblik haqida kitob", Jomiyning (1414-1492) "Musika haqida risola" kitoblarida musiqaning tarbiyaviy ahamiyatlari haqida batafsil yoritib o'tilgan.

Buyuk mutafakkir olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarini o'rganib chiqar ekanmiz, cholg'u ijrochiligi tarixi uning bugungi kundagi ahamiyati, inson ruhiyatiga ijobiy ta'siri kabi tushunchalarni mujassam etgan xolda, musiqaning inson kamolatida muhim ahamiyat kasb etishiga bir karra amin bo'lish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Navoiyning ta'kidlashicha "Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar ichida yoqimlirog'idir"-deydi. O'quvchilarda musiqiy ohanglar orqali tarbiya qilishda muhim omillardan biri, musiqani tinglash madaniyatini shakllantirishdir. Bu borada bir qator olib borilgan tadqiqot ishlarini taxlil qilib quyidagicha sharx berish mumkin.

D. B. Kabalevskiyning musiqiy ta'lim tizimiga ko'ra, musiqa san'atini o'rganish, musiqa ta'limida bastakorlik, ijrochilik va tinglash pozitsiyalari o'rtasidagi bog'liqliklarni bilish, musiqa va hayot o'rtasidagi tizimlilikni taxlil qilib borish metodlariga tayangan xolda ish olib borgan. Ishlab chiqqan dasturlarida xalqaro g'oyalardan foydalangan xolda taqdim etganligi tadqiqot nazariyalarini dunyo bo'ylab ommalashishida asosiy vazifalardan biri hisoblangan[9.7].

Romantik davrning nemis bastakori va musiqa o'qituvchisi, yekspressionizmning taniqli vakili Karl Orff (1895-1982) o'zining Shulverk deb nomlangan o'qituvchilar uchun qo'llanmasida, quyidagi g'oyani ilgari suradi, barcha bolalarning iste'dodi yoki musiqaga moyilligidan qat'i nazar, tabiiy musiqiy salohiyatini tushunib yetishlari kerak deb hisoblaydi. Uning musiqiy savodxonlik va ijodkorlikni o'rgatish uchun o'yin texnikasining asosiy omili ritmni xis qilish, ritmik aks-sado, ritm o'yinlari bilan o'ynash metodikasi, shu bilan bir qatorda instrumental musiqani yaratish, bolalar musiqa asboblari orkestrda ijro etish, asboblarni chalishni jamoaviy tashkil yetish usullarini ilgari surgan[10.1].

Venger milliy musiqasi tadqiqotchisi, bastakor, o'qituvchi va jamoat arbobi Zoltan Kodai konseptual g'oyalari, musiqa hamma uchun zarur, folklor san'ati orqali "ona tili" o'rganish, xor qo'shiqlari orqali musiqa bilan tanishish, umumjahon musiqiy savodxonlik muammosini hal qilish hamda musiqiy eshitishni tarbiyalash asosiy g'oyalardan biri bo'lgan[11.288].

O'quvchilarda musiqiy qobiliyatni rivojlantirish uchun uning eshitish qobiliyatini sinab ko'rish, ritmik usullarni tinglay olish va javob qaytarish idrokini aniqlab olish talab etiladi. Musiqa ijrochisi uchun xotira asosiy omil hisoblanadi, musiqiy matnlarni yodda saqlab ijro etish, mazkur musiqiy asarni omma ollida ijro etish arayonlari uchun mustahkam xotira talab etiladi.

O'quvchilarni qobiliyati yuzasidan oxirgi xulosani berishga o'qituvchi biroz shoshilmasligi talab etiladi, ba'zi o'quvchilarda ijro etish qobiliyati sekinroq rivojlanadi, uni ommaga taqdim qilish uchun esa, ya'ni sahnada biron musiqiy asarni ijro etishligi uchun eshitish qobiliyati, musiqiy asarni ijro etish qobiliyati, sahnada o'zini tutish kabi bir necha vazifalarni rivojlantirish talab etiladi. Ayrim o'quvchilarda bu jarayonlar sekinroq rivojlanadi, chunki har bir bolaning qabsl qilish qobiliyati har xil bo'lganligi uchun ham har bir o'quvchiga yakka xolda tashxis qo'yish va rivojlantiruvchi mashqlarni berish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Rus kompozitori N. A. Rimskiy-Korsakov "Musiqa ta'lim haqida" maqolasida musiqiy qobiliyatni 2 ko'rinishini aytib o'tgan:

- 1) Texnik (cholg'uda ijro etish yoki qo'shiq aytish)
- 2) Eshitish (Musiqa eshitish)

R.Korsakovni ta'kidlashicha eshitish qobiliyatlariga garmonik eshitish va ritmik eshitish kabi elementlar kirishini aytib o'tadi.

Musiqa qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi ko'p qirrali va xilma-xildir, chunki u nafaqat musiqiylik, tuzilish va tashxisning tabiatiga ta'sir qiladi.

Kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda ularning musiqiy qobiliyatlarini o'rganish va to'g'ri tashxis qo'ygan xolda musiqiy did va qobiliyatini shakllantirib borish bosqichma-bosqich olib boriladi. Bugungi kunda bu muammo batamom o'z yechimiga ega bo'lgani yo'q. Bunnig uchun tadqiqotchi olimlarimizdan musiqiy qobiliyatni rivojlantirishda qaysi metodikalardan foydalanish talab eilishi bo'yicha metodiklarni ishlab chiqish talaba etiladi.

Musiqa qobiliyatni rivojlantirish uchun quyidagi uslubdan foylanish ham o'z samarsini berib kelmoqda:

- pedagogik va psixologikga oid adabiyotlarni taxlil qilish;
- o'quvchilarni dars davomida kuzatish;
- o'quvchilar bilim doirasini to'g'ri baxolay olish;
- musiqiy qobiliyatlarini bilish doirasida turli viktorina savollarini tayyorlash;

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan uslublarning maqsadi o'quvchilarni ma'naviy dunyoqarishini go'zallashtirish, musiqiy ohanglarni eshitib dunyo manzaralarini go'zallik xolatida ko'rib anglashi asosiysi, atrof muhitga faqat ezgulikni ulashishi nazarda tutilgan.


### **Xulosa.**

Xalosa qilib shuni aytish joyizki, har bir o'qituvchining oldida turgan oliy maqsad, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiya qilish, bu borada olib borilayotgan tadqiqot ishlari, ulardagi samarali uslublar yosh avlodni to'g'ri tarbiya topishiga dasturul amal bo'lib xizmat qiladi. Bu boradi o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ulardagi sabr, iroda matonat kabi tuyg'ularni shakllanishiga yordam beradi. Musiqaning ilohiy mo'jiza ekanini insondagi tarbiyaviy olamini tashqi olamga ko'rinishida o'z isbotni topganini ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan har bir musiqa tinglovchisi va ijrochisining ichki olamini boy bo'lishida o'qituvchining to'g'ri shakllantira olgan musiqiy tarbiyasi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

### **REFERENCES**

- [1.] 2019 yil 27 avgust Shavkat Mirziyoevning "Sharq taronalari" o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda nutqi.
- [2.] Toshmatova A. "Ijrochilik san'ati tarixi" darslik. T., 2007. 8-b.
- [3.] Fayziev O, Fayziev O. Musiqa va tarbiya. T., 2007. 4-b.
- [4.] G'anieva I. Sharq xalqlari musiqa tarixi. Darslik, T., 2021. 9-b
- [5.] <https://znanio.ru/media/azhdodlar-merosida-musia-va-ruiyat-talini-2845542>
- [6.] <https://artgrand.by/encyclopedia/pifagor-i-muzyka/>

- [7.] Baxtiyor Mustafoev. “Musiq pedagogikasi” darslik. T., 2022. 11-b.
- [8.] Matyakubov E.G. “Sharq mutafakkirlari musiqa merosining tarbiyaviy imkoniyatlari to‘g‘risida” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021. pp-750.
- [9.] Кабалевский Д.Б. Основные принципы и методы программы по музыке для общеобразовательной школы // Программы общеобразовательных учреждений. Музыка. – М., Просвещение, 2004. ст-7.
- [10.] [https://ru.wikipedia.org/wiki/Орф,\\_Карл](https://ru.wikipedia.org/wiki/Орф,_Карл)
- [11.] Кодай, З. Избранные статьи / Ред. И.И. Мартынова. — М.: Сов. композитор, 1982. — 288 с.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Умида Хушвақтова,  
Шахрисабз давлат педагогика  
институтини рус тили ва адабиёти  
кафедраси ўқитувчиси

## ПЕРСОНАЖЛАР РУХИЙ ҲОЛАТИНИНГ ЛИНГВОКОГНИТИВ ТАДҚИҚИ (Зулфия Қуролбой қизининг “Машаққатлар гирдобини” романи мисолида)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### АННОТАЦИЯ

Бадиий асарда тил ёзувчининг ўқувчига фақат ғоявий эмас, балки эстетик таъсир этиш истаги билан махсус қўшимча вазифаларни бажариб, фавқуллодда кудратга, таъсир кучига эга бўлади. Демак, қўшимча вазифа ҳозирда лингвопоэтиканинг ўрганиш объекти бўлган тилнинг эстетик вазифасидир. Тилнинг эстетик вазифаси ҳақида гап кетганда, бу масала адабиётшунослик ва тилшунослик ўртасидаги баҳсларга сабаб бўлиб келган. Ўтган аср бошларида бир гуруҳ тилшунос ва адабиётшунос олимлар бу масалани илмий асосда ўрганадиган алоҳида фан тури шаклланиши кераклиги ҳақидаги мулоҳазаларни илгари сурганлар. Албатта, бадиий нутқни таҳлил қилиш учун, тегишли тажриба ва зарур воситаларга фақатгина тилшунослар эга бўлгани учун, уни фақат тилшунослар ўрганиш лозимлиги ҳақидаги бир ёқлама фикрни ҳам ўртага ташлаганлар. Лекин, бадиий матнни унинг эстетик ўзига хосликлари жиҳатидан ҳам таҳлил этилмаса, лингвистик таҳлилнинг ўзи етарли эмас. Бу ўринда бадиий матннинг филологик, яъни лингвопоэтик таҳлили муҳим аҳамият касб этади. Мазкур мақолада бадиий дискурснинг лингвопоэтик таҳлили доираси антропоцентрик тамойиллар асосида кенгайиб, тил бирликларининг лингвокогнитив хусусиятларини қамраб олиши ва бунда фанлараро интегратив ёндашувларнинг имконияти кенглиги хусусида фикр юритилади. Мақоладаги фактик материаллар Зулфия Қуролбой қизининг “Машаққатлар гирдобини” романидан олинган.

**Калит сўзлар:** лингвопоэтика, социопрагматика, антропоцентрик парадигма, лингвокогнитив хусусиятлар, интегратив ёндашув, руҳий-эмоционал ҳолатлар.

Умида Хушвақтова,  
Шахрисабзский государственный  
педагогический институт, преподаватель кафедры  
русского языка и литературы

## ЛИНГВОКОГНИТИВНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СТАТУСА ПЕРСОНАЖЕЙ

### АННОТАЦИЯ

Язык в художественном произведении приобретает необыкновенную силу и влияние, выполняя особые дополнительные задачи при стремлении писателя воздействовать на

читателя не только идейно, но и эстетически. Поэтому дополнительной задачей является эстетическая задача языка, которая в настоящее время является объектом изучения лингвопоэтики. Когда дело доходит до эстетической функции языка, этот вопрос стал причиной споров между литературоведением и лингвистикой. В начале прошлого века группа лингвистов и литературоведов предложила сформировать отдельную науку, которая бы изучала этот вопрос на научной основе. Конечно, поскольку только лингвисты обладают соответствующим опытом и необходимыми инструментами для анализа художественной речи, они также выдвигают одностороннее мнение, что изучать ее должны только лингвисты. Однако если художественный текст не анализируется с точки зрения его эстетических особенностей, одного лингвистического анализа недостаточно. В этом месте большое значение имеет филологический, то есть лингвопоэтический анализ художественного текста. В данной статье сфера лингвопоэтического анализа художественного дискурса расширяется на основе антропоцентрических принципов за счет включения лингвокогнитивных особенностей языковых единиц и возможности междисциплинарных интегративных подходов. Фактический материал в статье взят из романа Зульфии Курольбой «Омут трудностей».

**Ключевые слова:** лингвопоэтика, социопрагматика, антропоцентрическая парадигма, лингвокогнитивные особенности, интегративный подход, психоэмоциональные состояния.

**Umida Xushvaqтова,**  
Shahrisabz state pedagogy  
Institute of Russian language and literature  
teacher of the department

## CHARACTER MENTAL STATUS LINGUOCOGNITIVE RESEARCH

### ANNOTATION

Language in a work of art acquires extraordinary power and influence by performing special additional tasks with the writer's desire to influence the reader not only ideologically, but also aesthetically. Therefore, an additional task is the aesthetic task of language, which is currently the object of study of linguopoetics. When it comes to the aesthetic function of language, this issue has been the cause of debates between literary studies and linguistics. At the beginning of the last century, a group of linguists and literary scholars suggested that a separate science should be formed that would study this issue on a scientific basis. Of course, because only linguists have the relevant experience and necessary tools to analyze artistic speech, they also put forward a one-sided opinion that it should be studied only by linguists. However, if the artistic text is not analyzed in terms of its aesthetic features, the linguistic analysis alone is not enough. In this place, the philological, that is, linguopoetic analysis of the artistic text is of great importance. In this article, the scope of linguopoetic analysis of artistic discourse is expanded based on anthropocentric principles to include the linguocognitive features of language units and the possibility of interdisciplinary integrative approaches. The factual material in the article is taken from the novel "Whirlpool of Difficulties" by Zulfia Kurolboy.

**Key words:** linguopoetics, sociopragmatics, anthropocentric paradigm, linguocognitive features, integrative approach, mental-emotional states.

Кейинги йилларда қисқа вақт ичида лингвопоэтика йўналишининг кўлами кенгайиб, моҳиятан антропоцентрик тадқиқотларнинг марказий майдонларидан бирига айланди. Негаки, энди бадий матнлар таҳлили тилнинг фақат экспрессив-эстетик функцияси доирасидагина чегараланиб қолмай, тил бирликларида инсон омилининг ўрни ва роли нуктаи назаридан жуда кенг қамровли изланишлар олиб борилмоқда. Шунинг учун лингвопоэтиканинг интеграцион табияти шаклланиб, когнитив лингвистика, психолингвистика, социопрагматика, лингвокультурология, гендер тилшунослик каби қатор ёндош соҳалар билан ҳамкорлик қила

бошлади. Хусусан, ўзбек тилшунослигида ҳам ана шундай тадқиқотларнинг юзага келаётганлиги қувонарли ҳолдир.

Масалан, Д.Х.Ниязованинг “Бадиий матнда лисоний шахс типлари” тадқиқотида бадиий нутқ кўринишлари асосида *лисоний шахс* тушунчасининг моҳияти очиб берилиб, ўзбек тилида лисоний шахс типларини ажратишнинг ҳиссийлик ва тизимлилик тамойиллари ишлаб чиқилган ва шу билан бирга, адибларнинг лисоний қобиляти, персонажлар нутқини индивидуаллаштиришда тил воситалари (ноадабий қатламга хос бирликлар, ҳиссий бўёқдор сўзлар, касбий терминлар)дан фойдаланиш маҳорати ёритилган.[2;53] Муаллиф тилни ундан фойдаланувчи инсоннинг шахсий сифатлари – касб-кори, ёши, жинси, руҳияти, ижтимоий мақоми қабила билан боғлиқ ҳолда текшириш эҳтиёжи кучайганлигига эътибор қаратиб, нутқий фаолият таҳлилида лингвопоэтик тамойилларга таянади.

Д.С.Нарзуллаеванинг “Бадиий дискурса инсоннинг руҳий-эмоционал ҳолатини тасвирлашнинг лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) мавзусидаги диссертацияси ҳам долзарблиги билан эътиборга молик. Мазкур ишда бадиий матнларда асар муаллифи томонидан ҳиссиётларни бевосита ва билвосита тасвирлаш, персонажларнинг ўзларини гапиртириш ва инсоннинг эмоционал ҳолатини метафорик тарзда баён қилиш имконини берувчи табиат ҳодисаларини тасвирлаш воситасида инсоннинг салбий ва ижобий ҳиссиётларини акс эттирувчи функционал жиҳатлар ўрганилган. Бадиий дискурса инсон ички олами тасвирида лексик-стилистик (*экспрессив, ҳиссий-таъсирчан бўёқли сўз ва иборалар, ундовлар, рангли рамзлар, фразеологизмлар*) ва синтактик (*талаффуз, тиниш белгилари, гап тузилиши*) воситаларнинг ўзига хосликлари ўрганилган, инсон ҳиссиётларини тасвирлашда вербал ва новербал воситалар орқали инсоннинг психик ҳолати билан боғлиқ тарзда нутқий фаолиятнинг индивидуал стереотиплари аниқланган.[1;97]

Ў.Б.Шукуров эса бадиий дискурс тадқиқининг когнитив-прагматик аспекти таҳлилнинг самарали усулларини ўз ичига олиши хусусида фикр юритади: “Ҳар бир миллат миллий маданиятидан дарак берувчи бадиий матнлар мазмуни воқеланишининг дискурсив ва когнитив-прагматик жиҳатларини илмий ўрганишга эҳтиёж пайдо бўлди.... Матннинг антропоцентрик назарияси доирасида бадиий ифоданинг когнитив табиатини ёритиш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу йўналишда бажарилган ишлар қаторига, жумладан, концептуаллаштириш, категориялаштириш, концептлар назарияси, интертекстуаллик, когнитив семантика, когнитив стилистика йўналишларида олиб борилаётган тадқиқотларни киритиш мумкин”.[3;97]

Шу тариқа, лингвопоэтик тадқиқотларнинг усул ва методлари кенгайиб бормоқда. Таҳлилларимиз шуни кўрсатадики, бугунги кунда ўзбек ёзувчилари томонидан яратилаётган насрий асарларнинг бир-бирини такрорламайдиган ранг-баранг лисоний-услубий табиати чуқур лингвопоэтик таҳлил объекти бўла олади. Бу эса ўзбек тили ифода имкониятларининг нақадар чексиз эканлиги, инсон ҳаёти ва турфа кечинмаларининг ёрқин бўёқларда акс этишининг лисоний асосларини ўрганиш билан тавсифланади.

Зулфия Қуролбой кизининг “Машаққатлар гирдобини” романида энг замонавий долзарб мавзулардан бири - ҳужжатсиз ўзбек мигрантларининг машаққатли ҳаёти, оғир вазиятларга тушиб қолган ҳолатдаги инсоний муносабатлари, турфа тақдирлар, эркак ва аёлларнинг ҳаёт синовларига дош бера олишдаги ирода кучи бадиий талқин қилинган. Юқорида баён қилинган назарий тушунчаларга таяниб, адибанинг воқеликни тасвирлаш жараёнидаги персонажлар руҳий ҳолатини ифодалашдаги ўзига хосликларнинг лингвокогнитив хусусиятларини таҳлилга тортамыз.

Муайян ижтимоий шарт-шароит лисоний шахсларнинг руҳиятига таъсир қилар экан, муносабатлар таранглашади ва дискурсив вазиятга кўра персонажлар нутқида ҳам ўзгаришлар содир бўлади. Бундай вазиятда нутқ тозаллигига салбий таъсир кўрсатадиган тил бирликларидан бири *вульгаризмлар* ҳисобланади. Вульгаризмлар нутқнинг таъсир кучини пасайтириб, ўзаро коммуникатив зиддиятни кучайтиради.

**Вульгаризмлар** адабий тилда ишлатилмайдиган дағал, кўпол сўз ва иборалардир. Вульгаризмлар бадий адабиётда айрим персонажларнинг маданиятсизлиги, дағаллигини бўртириб кўрсатиш учун ишлатилади. Семантик структурасига кўра вульгаризмлар ҳақорат-сўқиш, қарғиш ва дўқ-пўписа билдирувчи группаларга ажратилади: *ҳароми, надарлаънат, муттаҳам, ер ютсин, гўрга киргур* каби.[4;62]

- *Сен жигимга тегиш учун атай шундай қилдинг! Шиппагимни олиб келиб оёғимга кийдириб қўясан!*
- *Атай қилганим йўқ, нега тушунмайсан?!*
- *Ўтган ой кўпроқ пул олганим учун менга тиш қайраб юрибсан! Кўролмайсан мени!*
- *Сенинг нимангни кўролмайман?! Бир сафар кўп пул олсанг олибсан-да!*
- *Алам қилгани йўқми?*
- *Қилгани йўқ, деяпман-ку сенга! Алам қилгани йўқ!*
- *Нега унда шиппагимни тепиб юбординг?! Атай жанжал чиқариш учун шундай қилдинг!*
- *Аҳмоқ! Мияси йўқ эшак!*
- *Ким эшак?!*
- *Сен! Сен! Сен...*

Шунчаки шиппакни тепиб юборгани учун шеригига нисбатан *эшак, аҳмоқ* каби вульгаризмлар, салбий семантик бўёқдорликка эга *жигига тегмоқ* ибораси, такрорнинг *Сен! Сен! Сен...* тарзида таҳдидли оҳангда қўлланишидан коммуникантларнинг руҳий ҳолати арзимаган кичик кўнгилсизликка ҳам дош беролмай қолганини англаш мумкин.

Эрталаб Пўлат Дамирович соқчилари кузатувида баракка қузғундай бостириб кирди. Биз одатдагидай сафда турардик.

**Бошвоқсиз тўнкалар!** - дея бақира кетди у кирган заҳоти қутурган итдай. - **Хом сун эмган, ипирикчилар!** Кимдан сўраб муштлашувга чиқдинглар?! А, сендан сўраяпман?!

Пўлат Дамирович ҳар бир ишчининг рўпарасида тўхтаб, пешонасига бармоғини бигиз қилиб ниқтарди. Навбат Хусанга келди.

- Сендан сўраяпман, **аҳмоқ!**

Пўлат Дамирович унинг ҳам пешонасига бармоғини бигиз қилиб ниқташига чоғланди, лекин Хусан чап берди, ўзини четга тортди.

Кейин нафрат билан:

- Қўлингни торт, **ифлос!** - деб бақирди у.

- **Вой аблах!** Кимни **ифлос** деяпсан?! - Пўлат Дамировичнинг кўзларидан ўт чақнади.

- Кимни бўларди, сени-да, **нодон!** - Хусан қутилмаганда хохлаб кулди. - **Нодон бўлмасанг, ўйлаб гапирардинг-да.**

Ушбу дискурсив вазиятда *адресант* (Пўлат Дамирович) ўзини ишчиларга нисбатан юқори поғонадаги шахс деб ҳисоблагани учун уларни менсимади, уларга қаратилган ҳақорат сўз ва ибораларни бемалол қўллайверади. Бундай муносабат ишчилар орасидан фақат Хусаннинггина нафсониятига тегиб, унга қарши ўзининг оҳангида гап айтишга, ҳақоратига ҳақорат билан жавоб қайтаришга ирода кучи етади. Бошқа ишчилар эса кўркув исканжасида, ўзини кучсиз ҳисоблаш эвазига индамай эшитиб тураверадилар.

Наргиза йиғлаб ўтирарди.

- Нима бўлди?

Наргиза баттар ҳўнгради. Унинг ўрнига Санобар жавоб берди:

- Э ўлсин! Анови **қирчанги хачирларингиздан** биттаси тегажожлик қилибди-да. Шунга хафа бўлиб йиғлаяпти. Йиғлаш ўрнига бошлаб таъзирини бериш керак эди!

- Ўша **қирчангининг** исми нима экан?

- Аслиддинми, нима эди? - Санобар Наргизага юзланди.

Наргиза ўпкасини тутолмай йиғларкан, йиғи аралаш ёзғирди:

- Аллақайқдаги... **қаланги-қасангидан** гап эшитдим... Нима ҳақи бор эди менга бундай дейишига?!

Мазкур нуткий вазиятда аёллар нуткида вульгаризмларнинг ишлатилиши бошқа бир ижтимоий ҳолат – оилада эрнинг масъулиятсизлиги сабаб аёлнинг олис ўлкаларга бориб ишлашга мажбур бўлганлиги ва ҳар хил одамларга дуч келганлиги билан изоҳланади. Демак, бадий асарда персонажлар нуткида вульгаризмларнинг қўлланиши турлича ижтимоий-коммуникатив вазиятлар билан боғлиқлиги аён бўлади.

Д.С.Нарзуллаеванинг бадий дискурса инсоннинг рухий-эмоционал ҳолатини тасвирлашнинг лингвокогнитив хусусиятлари тадқиқига бағишланган диссертация ишида бадий матнда **инсон чехрасининг ранги** персонажнинг ички психологик кайфиятини акс эттиришда муҳим рол ўйнайди, деб таъкидланади.[1;47]Бизнингча, атама бу **инсон юзининг ранг-туси** тарзида қўлланса, янада мақсадга мувофиқ бўларди. Чунки психофизиологик ҳолатларда юзга нисбатан **оқармоқ, кўкармоқ, қизармоқ, қизаринқирамоқ, қораймоқ** каби ранг билан боғлиқ феъллар билан бирга **бўғриқмоқ, сокин тортмоқ, буришмоқ, ёришмоқ** каби тус ҳолатини билдирувчи феъллар ҳам қўлланади. Шу нуқтаи назардан, Зулфия Куролбой кизининг “Машаққатлар гирдобы” романида инсон юзи ранг-тусининг ўзгариши куйидаги ҳолатларни ифодалаши кузатилди:

- 1) касаллик ва ўлим ҳолати билан боғлиқ ҳолда;
- 2) кўркув, ваҳимага тушиш билан боғлиқ ҳолда;
- 3) ғазаб, нафрат, норозилик каби психологик категориялар билан боғлиқ ҳолда.

1) *Каримбой ака қор устига чўк тушиб энгашиганча инқиллаб ётган ўғлига елкасини тутди. Юзи қордек оқарган Алишер бир-икки интилди, лекин нима учундир гавдасини ердан уза олмади. Шундан кейин уни кўплашиб кўтариб олишди...*

2) *Шу чоғ Хусан бир қадам олдинга чиқди. Олдинга чиқаркан, унинг юзи оппоқ оқариб кетганди:*

- Қанча керак?!

Жумлалардаги юзнинг оқлиги биринчи мисолда тепадан йиқилиб тушган Алишернинг физиологик ҳолати ифодаланган бўлса, иккинчи мисолда ишчилар жамоасининг ҳамиятига тегиб улар устидан кулган Пўлат Дамировичга нисбатан Хусаннинг юзи ғазаб ва нафратдан оқаргандаги психофизиологик ҳолат тасвирланган. Тилшунос М.Ҳакимов ўз ишларида сўзлашувчиларнинг руҳияти билан боғлиқ социал белгиларни нуткий актлар доирасида текширади. Олимнинг фикрига кўра, психологик контекст сўзловчининг рухий ҳолатини ифодалайди, сўзловчининг кайфияти, руҳияти, идроки, тасаввури, кўркиш ёки кўркмаслиги, рози ёки рози эмаслиги каби маъноларнинг матн мазмунида ифодаланиши назарда тутилади[21;112].

Ш.Алпанованинг “Нуткий фаолият жараёнидаги рухий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ бирликлари воситасида акс этиши” мавзусидаги ишида психолингвистика муаммолари монографик планда тадқиқ этилиб, сўзловчи ва тингловчи ўртасидаги, сўзловчи ва матн, тингловчи ва матн ўртасидаги муносабатнинг руҳият билан уйғунлиги, нуткнинг яратилиши ва идрок жараёни, объектив борлиққа субъектив - ҳиссий муносабат, коммуникантлар руҳиятининг нутқда акс этиши каби қатор масалалар ўзбек тили материаллари асосида таҳлил қилинган. Тадқиқотчи психолингвистика объектини куйидагича тавсифлайди: “Психолингвистика маълум бир шароитда маълум бир ахборотни нутқ бирликлари воситасида тингловчига етказишни, бу нутқ парчасида сўзловчи руҳиятидаги ўзгаришларнинг акс этишини, унинг тингловчига таъсири масалаларини ўрганади. Нутқда ахлоқ-одоб, сўзлашиш расм-русумлари, нуткнинг муайян эҳтиёжлари, сўзловчи ва тингловчининг ёши, савияси, маданийлик даражаси кабилар ўз аксини топади ва буларнинг барчаси психолингвистиканинг тадқиқ манбаи ҳисобланади.”[22;12]

1) - Нималар бўляпти бу ерда? Одамларнинг тинчини бузаётган тўполончи қани? - деди у хонага кўз югуртираркан. Ҳамма жим.

Каримбой ака гап нимадалигини фаҳмлади, шекилли, **ранги бўздай оқарган кўйи** аста ўрнидан турди. Турди-ю, ерга қараганча индамай тураверди.

2) - *Вой, Даврон, бормисиз? - деди **ранги қув ўчган аёл.***

- *Нима гап?*

- Хабарингиз йўқми? Бугун биттаси қочиб кетмоқчи бўлган экан, соқчилар шартта отиб ташилашибди!

3) - Қўлимда ҳеч қандай ҳужжатим йўқ, шундай экан, тўғри келган фамилияни айтаверсам ишонасизми?

Пўлат Дамировичнинг юзига қизил югурди, билмадим, жаҳли чиқдими ё уялиб кетдими, аммо ўзини йўқотиб қўймасдан дарров жавоб қайтарди:

- Гап бундай, ўртоқ Даврон, бу ер сизга цирк майдони эмас! Бу ернинг ўз қонун-қоидалари бор. Шу қонун-қоидаларга сўзсиз равишда амал қилсангиз келишиб кетамиз сиз билан, акс ҳолда...

4)- Эси жойидами бу боланинг?!

- Ўзининг эсинг жойидами? Ҳеч замонда муштирашувга бировдан рухсат сўраб чиқилдими, галварс?!


Пўлат Дамировичнинг юзи кўкариб кетди.

- Соқчи! - дея чинқирди у.

Таҳлилларимиз шуни кўрсатадики, бадий матнда инсонга хос хис-туйғулар, кечинмалар таъсиридаги психо-эмоционал ҳолатини тасвирлашнинг лингвокогнитив ўзига хосликлари белги билдирувчи, ҳолат билдирувчи сўз ва ибораларнинг когнитив-прагматик семантикаси орқали аниқланади.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Нарзуллаева Д.С. Бадий дискурда инсоннинг руҳий-эмоционал ҳолатини тасвирлашнинг лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): филол.фанлари бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс...автореф. Самарқанд, 2024.
2. Ниязова Д. Х. Бадий матнда лисоний шахс типлари: филол.фанлари бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс...автореф. Қарши, 2020.
3. Шукуров Ў.Б. Бадий дискурс когнитив-прагматик мундарижасини шакллантирувчи лисоний воситалар (инглиз ва ўзбек тиллари материалида): филол.фанлари бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс...автореф. Самарқанд, 2023.
4. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1985.
5. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. М.: Наука, 1959.
6. Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари”. – Самарқанд: 2011.
7. Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. Л.:, 1974.
8. Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. М.:1988.
9. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. Москва: 1988.
10. Рогалев А.Ф. Введение в антропонимику. – Брянск: 2009.
11. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: 1973.
12. Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. – М.: 1977.
13. Гумбольдт В.фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984.
14. Залевская А.А. Введение в психолингвистику. Москва: Рос.гос.гуман. ин-т, 2000.
15. Маҳмудов Н. Тил. Тошкент: Ёзувчи, 1998.
16. Насирова Г.М.Психолингвистик тадқиқотлар аҳамиятининг долзарблиги // Research Focus, Uzbekistan // www.ReFocus.uz
17. Нурмонов А. Тилшуносликнинг психология билан муносабати // Танланган асарлар. 3 жилдлик. – Тошкент: Академнашр, 2012. 1-жилд.
18. Психолингвистика: Учебник для вузов / Под ред.Т.Н.Ушаковой. - М.: ПЕР СЭ, 2006.
19. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Тошкент: Fan va texnologiya, 2007.
20. Хайруллаев М.М. Форобий ва унинг фалсафий рисоалари. Т.: Фан, 1963.
21. Ҳакимов М. Ўзбек прагматингвистикаси асослари. Тошкент: Akademnashr, 2013.
22. Алпанова Ш. Нутқий фаолият жараёнидаги руҳий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ бирликлари воситасида акс этиши.: филол. фанл. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Минҳожиддин Ҳожиматов,**  
филология фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

## ШУКРУЛЛО ШЕЪРИЯТИДА ПОЭТИК МАЗМУН ВА МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ТУЙҒУСИНИНГ УЙҒУНЛИГИ

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### АННОТАЦИЯ

Аслида, ҳар бир миллий адабиёт мудом ўсиш, ўзгариш ва янгиланишда ўзини ёрқинроқ намоен қилади. Миллий ўзликни англаш учун инсон аввало шахс сифатида шаклланиши зарур. Глобаллашаётган жамиятда одамлар орасидаги муносабатларни чуқур таҳлил қилиш, конфликтларни ҳолис ёритишга эътибор кучаймоқда. Бадиий асарда шоирнинг дунёқараши, эстетик идеали асарнинг бутун мазмунида, яъни ташбеҳлардан бошлаб, сюжет ва конфликтда, характерлар тизимида, образларида, янги топилмаларида тўлиқ намоен бўлади. Ҳар қандай миллий адабиёт руҳга, қалбга таъсир қилувчи ботиний кучга эга моҳиятдан бино бўлади. Озод руҳдан маҳрум адабиёт таназзулга юз тутгани сингари, миллий характер ва миллий руҳсиз комил миллат ҳам шаклланмайди. Комилликнинг асл илдиэлари ҳақиқатдан, ҳақ сўздан бошланади. Миллий ўзлик туйғуси қалбни уйғотиш, унга янги ҳаёт, маънавий камолот бахш этиш қудратига эга. Шоир одам ва олам, одам ва табиатнинг ўзаро муносабатлари, курашлари ва зиддиятларини бадиий таҳлил қилиш орқали замоннинг руҳини, моҳиятини очади. Мазкур мақолада Ўзбекистон халқ шоири Шукрулло шеъриятида миллий ўзлик туйғусининг бадиий талқини тадқиқ қилинади.

**Калит сўзлар:** миллий руҳ, бадиий тафаккур, шеър, қалб, қатағон, замон, жамият, инсон, ўзлик, эстетик идеал.

**Минҳоджиддин Ходжиматов,**  
доктор филологических наук по  
философии (PhD)

## ПОЭТИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ГАРМОНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ПОЭЗИИ ШУКРУЛЛО

### АННОТАЦИЯ

В действительности каждая национальная литература ярче проявляет себя в постоянном росте, изменении и обновлении. Для того чтобы реализовать национальную идентичность, человек должен сначала сформироваться как личность. В глобализирующемся обществе уделяется внимание глубокому анализу отношений между людьми, беспристрастному освещению конфликтов. В художественном произведении мировоззрение, эстетический идеал поэта полностью проявляется во всем содержании произведения, т. е. начиная с аллюзий, сюжета и конфликта, системы персонажей, образов и новых находок.

Любая национальная литература построена из сущности, обладающей внутренней силой, воздействующей на душу. Совершенная нация не может образоваться без национального характера и национального духа, как приходит в упадок литература без свободного духа. Истинные корни совершенства начинаются с истины, правильного слова. Чувство национальной идентичности способно пробудить душу, дать ей новую жизнь и духовное совершенство. Поэт раскрывает дух и сущность времени через художественный анализ взаимодействий, борьбы и конфликтов между человеком и миром, человеком и природой. В данной статье исследуется художественная интерпретация национальной идентичности в поэзии народного поэта Узбекистана Шукрулло.

**Ключевые слова:** национальный дух, художественное мышление, поэзия, душа, репрессии, время, общество, человек, личность, эстетический идеал.

**Minhojiddin Hojimatov,**  
in philology  
doctor of philosophy (PhD)

## HARMONY OF POETIC CONTENT AND SENSE OF NATIONAL IDENTITY IN SHUKRULLO'S POETRY

### ANNOTATION

In fact, every national literature shows itself more brightly in constant growth, change and renewal. In order to realize the national identity, a person must first be formed as an individual. In the globalizing society, attention is being paid to the in-depth analysis of relations between people, to impartial coverage of conflicts. In the artistic work, the poet's worldview, aesthetic ideal is fully manifested in the entire content of the work, i.e., starting with allusions, plot and conflict, system of characters, images, and new findings. Any national literature is built from an essence that has an inner power that affects the soul. A perfect nation cannot be formed without a national character and a national spirit, just as a literature without a free spirit declines. The true roots of perfection begin with the truth, the right word. The sense of national identity has the power to awaken the soul, to give it a new life and spiritual perfection. The poet reveals the spirit and essence of the times through the artistic analysis of interactions, struggles and conflicts between man and the world, man and nature. This article explores the artistic interpretation of national identity in the poetry of the national poet of Uzbekistan Shukrullo.

**Key words:** national spirit, artistic thinking, poetry, soul, repression, time, society, man, identity, aesthetic ideal.

Мухтарам Президентимизнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқида тўғри таъкидланганидек, “Ватанга муҳаббат ва садоқат туйғуларини, эзгу ғояларни тараннум этишда ўзбек адабиёти бошқа маданият соҳалари учун ҳамиша мустаҳкам замин бўлиб келган”[1].

Ҳар бир миллатнинг, комиллик сари интилаётган халқнинг маънавий юксалишида, маърифий тараққиётида миллий ўзликни англаш туйғуси ҳамиша прогрессив аҳамият касб этади. Инсон омили маънавиятдан, қалб озодлигидан узилган ҳолда бахтиёр ва фаровон яшаши мумкин эмас. Яқин ўтмишимизда собиқ шўро тузуми миллий ўзлгимизни, улуғ аجدодларимизни хотирамиздан ўчиришга мажбур қилди.

Ўтган асрдаги 70 йиллик сиёсий қарамлик ўзбек халқи маънавиятига болта урди. Кетма – кет қатағонлар миллат тафаккурига ҳам, адабиётига ҳам ўз таъсирини ўтказди. Миллатга яшовчанлик, эрк учун курашувчанлик руҳини сингдирувчи адабий шахслар, ҳақ сўз айтаётган ижод аҳли биринчилар қаторида қатағон қилинди. Қатағондан кейинги йилларда миллий ўзликни англаш жараёнида зиёлилар, ижодкорлар “сукут” сақлашга маҳкум этилди. Миллатчи сифатида 25 йиллик қамоқ жазосига ҳукм қилинган Ўзбекистон халқ шоири Шукрулло: “Давр туғдирган энг оғир фожиа шунда эдики, кишилар кўрган - билганини рўйи-

рост ёзишдан, наинки ёзишдан, хаёлан муҳокама қилишдан маҳрум бўлиб қолишган эди”[4;86], деб ёзади.

Бинобарин, ҳар қандай жамият, давлат, биринчи навбатда, ўз манфаатларини кўзлайди. Собиқ тузумнинг миллий тараққиётга ва миллий адабиётга салбий муносабати кучли, турли чекловлари, таъқиқлари кўп эди. “1956 йилда шахсга сиғиниш кескин танқид қилинганидан кейин, собиқ иттифок республикалари ҳаётида жиндай бўлса-да, ўзгариш бўлди. Мафкура иқлимида бироз илиқлик пайдо бўлди, – деб ёзади Ўзбекистон Қаҳрамони, атоқли адабиётшунос олим О.Шарафиддинов. – Шунда бирдан маълум бўлдики, бутун мамлакат бўйлаб қалблари занг босган, мудроқ ҳолга тушиб қолган одамлар уйғона бошлади, бу уйғониш ҳаётда, одамлар ўртасида ҳақиқатга, янги нафасга ва умуман руҳий янгиланишга эҳтиёж жуда катта эканини намойиш қилди. Одамлар, янги, ҳаққоний ва инсоний сўзда, янги адабиётда ўз ташналикларини қондирадиган асосий воситаларни кўрдилар”[5;114].

Таъкидланганидек, бу даврда собиқ иттифокнинг кўп миллатли адабиётида том маънода миллатларнинг ўзлигини англаш жараёни қайтадан аланга олди. Жадид маърифатпарварлари билан бирга кучли мафкуравий босим, қўрқув ва тазйиқ остида диллардан “сўндирилган” миллий ўзлик руҳи яна ижодкорлар юрагида куртак ёза бошлади. Миртемир, Шукрулло, Шухрат, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов каби шоирлар асарлари орқали адабиётга ўзлигига эга миллий образлар кириб келди. Бу ўлмас руҳ Ўзбекистон халқ шоири Шукрулло ижодида шундай жаранглади:

Менга олтин қаср берсалар,  
Бор неъматни қилиб мухайё,  
Лекин шунда бир шарт қўйсалар:  
“Одамларсиз яшайсан танҳо,  
Ўз нафсингни ўйласанг агар  
Олтинлардан қўямиз ҳайкал”  
Йўқ! Йўқ! Сендан ҳоли бўлганим -  
Бахтсизлигим, тирик ўлганим!

Шоир асл муддаосини сўзлар илдизига жо қилади, унда “менга олтин қаср қуриб бериб, бор неъматни мухайё қилиб, эвазига ўзлигингни унутиб, халқингдан тониб, нафсингни қондириб, жим яшасанг бўлди, сенга олтиндан ҳайкал қўямиз” деган ҳукмрон мафкурага қарши исён бўй кўрсатиб турибди. Таниқли адиб Мустай Карим “Литературная газета”да босилган мақоласида: “Унинг шеърлятида яшаб ўтилган йиллар, ҳис этилган давр туфайли эришилган ақл ва қалбнинг етуклиги бор; бу шеърлятда шоирнинг инсонни ўз қалбига тик боқишга чорловчи ташвишли соф виждон азоби бор”[18;5], дея Шукрулло ижодига юксак баҳо берган эди. Шоир шеърни эрк саодати ила ёнган юракдаги озод куш нидоси билан якунлайди: “Йўқ! Йўқ! Сендан ҳоли бўлганим - Бахтсизлигим, тирик ўлганим!”[7;71]

Аслида, ҳар бир миллий адабиёт мудом ўсиш, ўзгариш ва янгиланишда ўзини ёрқинроқ намоён қилади. Миллий ўзликни англаш учун инсон аввало шахс сифатида шаклланиши зарур. Фалсафага оид манбаларда шахснинг асосий хусусиятларига шундай таъриф берилади: “Шахс - алоҳида индивид, моҳиятан яхлит ижтимоий-ахлоқий олам. У ўзида инсон моҳиятини, унинг мавжудот сифатидаги қадриятини мужассам этади... Шахс феномени инсон оламининг бутун мураккабликларини ўзида мужассам этади. Уни ҳар томонлама ўрганиш мақсадида қатор тадқиқотлар олиб борилган. Айниқса, Шарқда у юксак ахлоқий-маънавий меъёрлар орқали тушунилган ва олий хилқат, бебаҳо қадрият деб ҳисобланган. Инсон шахс сифатида комилликка интилади, ҳаёт мазмунини бойитади, шу асосда кишилик жамиятининг гўзал ва фаровон бўлишига эҳтиёж сезади”[6;299].

Бу даврга келиб, ўзбек адабиётида ҳам халқ тарихининг таъқиқланган томонларини ёритиш, эрк ва озодлик истагидаги ҳаракатлар биринчи ўринга қўйилган, буюк шоирлар, алломаларнинг ҳаёт йўллари қаламга олинган бир қатор шеърӣй полотнолар яратилди. Зеро, адабий муҳитдаги янгиланишлар жамият ва шахс онгидаги кескин эврилишлар жараёнлари билан изоҳланади. Шоир бадий асар яратиш асносида воқеалар силсиласи ёки қаҳрамонлар тақдирини шунчаки тасвирлаб қўя қолмайди, балки уларнинг моҳиятига ўзининг ҳам унга

дахлдор дардларини кўшиб юборади. Яъни, “Санъаткор учун ижод - изтироб, бу восита орқали у юрагини янги изтироблар учун бўшатиб олади”[14;105]. Шукрулло “Умид” шеърисида ўз қалб изтиробларини шундай ифодалайди:

О дунё!.. О, шайтон, тухмат тошларин  
Бошимга ёғдирди гоҳо бешафқат.  
Ноумид томмади кўздан ёшларим,  
Суянчиғим бўлди, фақат ҳақиқат.  
Ҳасад қуюн каби тўсиб йўлимни,  
Орада илондек ўрлаган замон.  
Ноумид бўлмадим, халқим меҳрини,  
Фақат меҳнатимни этолдим қалқон.

“...илондек ўрлаган замон” инсоннинг бахтиёр турмуш кечиришига йўл қўймайди. Қалбини ҳам, онгу шуурини ҳам заҳарлайди. Шоир ҳасадни ҳамма нарсани аямасдан ўз гирдобига тортаётган қуюнга ўхшатади. Ҳасаднинг уюрмасидан қутулиш мумкин эмас. Тухмат тошлари бешафқат ёғилиб турганда ҳам, шоир ноумид бўлмайди. “Суянчиғим бўлди, фақат ҳақиқат”, дейди ишонч билан.

Адабиётшунос олим О. Шарафиддиновнинг фикрича, “Шукруллонинг нафрати ҳам конкрет ҳаётий мазмунга эга. Бунда ҳам шоир мавҳум умумий категориялар ҳақида фикр юритмай, ҳаётда ўзи кўрган турли – туман иллатлар ҳақида гапиради. Шоир учун инсонийлик биринчи навбатда виждонийлик билан боғланади”[10;59]. Олим ҳақ, шоирнинг нафрати ўзининг ҳаётий асосларига эга. Қутилмаганда адолатсизликка, тухмату ҳасадларга дуч келган шоир яшаб турган замонини илонга ўхшатиши бежиз эмас.

Ҳар қандай миллий адабиёт руҳга, қалбга таъсир қилгувчи ботиний кучга эга моҳиятдан бино бўлади. Озод руҳдан маҳрум адабиёт таназзулга юз тутгани сингари, миллий характерсиз комил миллат ҳам шаклланмайди. Комилликнинг асл илдизлари ҳақиқатдан, ҳақ сўздан бошланади. Миллий ўзлик туйғуси қалбни уйғотиш, унга янги ҳаёт, маънавий камолот бахш этиш қудратига эга. Маънавий камолот жуда кенг тушунча. Шукрулло шундай юксакликни тушунмайдиган ачиниш кўзи билан қарайди. “Мен ўлган эмишман” шеърисида одамларнинг ўзаро муносабатларидаги жумбоқ ҳақида эхтирос билан шундай дейди:

Қани айтинг, кимни ноҳақ қаматдим?  
Етим – есирларнинг ҳақин едимми?  
Қўрқманг, асло келмас ифвога тилим,  
Айтинг, ё ҳақорат сўзлар дедимми?  
Йўқ, йўқ! Нафратланманг. Менга беринг тил,  
Сабабларни айтиб, сўзлайми ўзим?  
Мен энди қўрқмайман! Уйғонгин, эй дил!  
Бир қарра ўлганман, қайта йўқ ўлим.

Замонасидан катта адолатсизлик кўргани, ноҳақдан – ноҳақ 25 йилга қамоққа ҳукм қилинганлиги унинг ҳаёти ва ижодида ўзининг изини қолдирди. Шу ўринда Ўзбекистон халқ ёзувчиси Ҳаким Назирнинг қуйидаги фикрларини эслашни жоиз деб билдик: “Ҳаёт асфальт йўлидай силлиқ бўлмасда, унинг ўнқир – чўнқирликлари, эгри – бугри сўкмоқлари бор. Дилозор фалакнинг зарбалари, беаёв бўронлари, шафқатсиз синовларига ҳам учраб турилади. Улардан йиқилмай – сурилмай, қадди букилмай, соғ – саломат ўтиб олиш осонмас. Каттақон қалб, букилмас ирода, бутун иймон, айниқса эътиқод керак бўлади. Хайриятки, сиз ана шундай сифатларга эга бўлиб чиқдингиз. Қатағон йиллари бошингизга тушган жабр – жафоларни енгиб ўтиш учун озмунча руҳий, маънавий бардош керак бўладими?”[15;93]

Шоир ҳаёт ҳақидаги лиро – фалсафий мушоҳадаларида давр – инсон – табиат – руҳият масалаларига ўзига хос тарзда маънавий – психологик йўсинда жавоб излайди. Унинг “Одам боши тошдан”, “Бошларимда не савдо”, “Зарралар”, “Виждон”, “Қабр тоши”, “Навоий”, “Буюклар”, “Куз” сингари шеърлари шу жиҳатдан характерлидир. Мазкур асарлар қалбларни ларзага солиб, замонлар, ижтимоий тузумлар ўзгарса-да, ўзининг миллий колорити ва қимматини йўқотмай, янгидан – янги маънолар касб этаётгани ҳеч кимга сир эмас. Бинобарин,

миллий характер миллий-психологик қиёфанинг таркибий қисми ҳисобланади. Миллий характер - маълум миллат ҳаёти, тарихи ва маданиятини ўзида намоён этади. XX аср этнопсихологик хусусиятларини ўрганган кўплаб муаллифлар миллий характер реал воқелик сифатида мавжудлигини эътироф этишади.

Шукрулло яшашнинг маъносини эътиқод бутунлиги, ватанган, адабиётга садоқатда деб билар, бу тамойилларга қатъий амалқиларди. У “Тақдир” шеърида “Қўрқиб яшашликнинг ўзи ҳам ўлим”, дейди. Яъни, қўрқув билан, эрксиз, инон-ихтиёрсиз яшаш ўлимдан ҳам оғирлигини, халқнинг улуғ аждодларидан мерос юксак эътиқод пойдеворини ўзлик руҳи, эрк нафаси, уйғоқ сўз билан тиклаш ижодкорнинг бурчи эканини таъкидлайди. “Тирик ўлмоқ” шеърида шоир шундай дейди:

Умиду эътиқод бўлса одамда,  
Бўлурму азобу ўлимдан қўрқмоқ?  
Тилаб олганимда мени Худодан,  
Ўлимдан каммиди сен тортган тўлғоқ?!  
Имон, эътиқоддан холи бўлганим,  
Онажон, бахт топмай, бебахт ўлганим!

Ўзбек халқи учун миллий ўзлик туйғусининг илдизлари имон ва эътиқоддан бошланади. Шунингдек, миллий ўзига хослик, миллий руҳ кўп жиҳатдан миллатнинг азалий қадриятлари, этник хусусиятлари ва миллий макон ва руҳий иқлим билан чамбарчас боғлиқ бўлади. Ҳамда миллий характер миллатнинг ўз-ўзини англаш даражаси ва динамикаси билан белгиланади. Бинобарин, “Ўзликни англаш, энг аввало, ўтмишни ўрганишдан, тарихни билишга эҳтиёж сезишдан бошланади. Дарҳақиқат, ўзини англаётган, ўзини тушунаётган ҳар бир одам қандай оилада дунёга келгани, ўз аждодлари кимлар бўлгани, ота – боболари нималар билан шуғулланишгани ва қандай умр кечиришганини билиб олишга интилади. Уларнинг фазилатлари ва мерослари билан фахрланиб яшайди” [8;476].

Шукрулло маҳоратининг ўзига хослиги шундаки, у кичик ҳаётий деталдан ижтимоий воқелик, одам ва олам, ўтмиш ва келажақ тўғрисида кенг қўламли поэтик хулосалар чиқаришда, турли воқеа – ҳодисалар манзарасини бир маконда нурлантириш истеъдодида янада ёркинроқ намоён бўлади. “Зарралар” шеърини кўздан кечирамиз:

Ким ҳам ўйламайди замон сирларин,  
Баъзан ўйлаб бўлар ҳафсалам ҳам пир.  
Не ҳам қила олур бу шеърларим,  
Атом бомбаларин олдида ахир.  
Нега керак менга дунё ташвиши,  
Нега керак менга, бу ёғоч қалам.  
Базан синиб кетар етмасдан кучи,  
Муштумдек қалб дардин кўтаролмай ҳам.

Зарралар - балки табиат хоссаларининг, балки ахлоқий хислатларнинг ёки руҳият манзараларининг парчаларидир. Балки отилмай қолган, кўринмас ўқдир. Қандай кўринишда бўлишидан қатъи назар, бу зарраларнинг инсон маънавий – интеллектуал ҳаётида ва жамиятда тутган ўрни шоир учун азалий жумбоқ бўлиб қолди. Ўзи айтганидек, замондан “ҳафсаласи пир” бўлган чокларда ҳам, у кичик зарраларнинг катта натижаларга қодир эканлигини унутмади. Шоирнинг фалсафий хулосаси китобхонни бефарқ қолдирмайди:


Йўқ, кичик қаламим, ўксима асти,  
Атомлар ҳам зарра, шундан ибрат ол!  
Оламни ўртамай атом бомбаси,  
Сен инсон қалбига шафқат ўтин сол!

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, XX аср ўрталарида адабиётда бошланган миллий ўзликни англаш истаги миллионлаб юракларда миллий руҳ, истиклол соғинчини уйғота бошлади. Бу даврда Ўзбекистон халқ шоири Шукрулло каби оловқалб шоирларимизнинг жамият ва адабий жараёнга фаол аралашуви, миллий ўзлик туйғусини, ватанга муҳаббат ва садоқатни тараннум этувчи шеърлари ўзбек адабиёти масалаларини

жаҳон адабиёти контекстида талқин ва тадқиқ этишга замин яратди. Демак, миллий ўзлик туйғуси инсоннинг маънавий камолотга эришувидаги мезонлардан энг муҳимидир.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Президент Ш.Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. ЎЗА, 2023 йил, 23 декабрь.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021.
3. Президент Ш.Мирзиёевнинг А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий боғида барпо этилган Адиблар хиёбонига ташрифи. ЎЗА, 2020 йил, 20 май.
4. Шукрулло. Қасосли дунё. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 1994.
5. Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти 2019.
6. Фалсафа. Қомусий луғат. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020.
7. Шукрулло. Қалб қўшиқлари.// Шарқ юлдузи. – Т.: 1971.
8. Жўраев Н. Вақт ва фазо. – Т.: “Маънавият” нашриёти, 2021.
9. Саидов А. Янги Ўзбекистоннинг сиёсий – ҳукукий фалсафаси. Т.: “Маънавият” нашриёти, 2023.
10. Шарафиддинов О. Инсонларга бўлиб ҳамнафас... // Ўзбекистон маданияти. – Т.: 1978 йил, 10 февраль
11. Ғафуров И. Мангу латофат. – Т.: “Шарқ” матбаа- нашриёт концерни, 2008.
12. Ёқубов О. Сўз. Тошкент.: “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2019.
13. Ботиров Б.М. Ўзбек миллий характери шаклланишида кадриятлар таъсирининг психологик хусусиятлари. Психол. фанл. номз. ... дисс. автореферати – Т., 2011.
14. Яноух Г. Кафка билан суҳбатлар // Жаҳон адабиёти. – Т.: 2006
15. Назир Ҳ. Шоирга қутлов хатим. // Ўзбекистон овози. – Т.: 1991 йил, 19 октябрь
16. Даниярова Ш.Х. Истиқлол даври романларида миллий руҳ ва қаҳрамон муаммоси. Филол. фанл. докт. ... дисс. автореферати–Т., 2012.
17. Жавбўриев М.М. Бадий таржимада миллий характер ва тарихий давр колоритини қайта яратиш. Филол. фанл. номз. ... дисс. – Т., 1991.
18. Шукрулло. Шафақ. – Т.: Arademnashr, 2021.
19. Сатторова Г.Ю. 90-йиллар ҳикоячилигида миллий характер муаммоси. Филол. фанл. номз. дисс. – Т., 2002.
20. Ташанов К.Ю. Таржимада миллий характерни қайта тиклаш. Филол. фанл. номз. ... дисс. – Т., 1991.
21. Эрназарова Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадий талқини (Чўлпон, Ғ.Ғулом, А.Орипов шеърияти мисолида). Филол. фанл. номз. ... дисс. – Т., 2005.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Abdullayeva Fotima Sagdullaevna**

K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti  
“Libos dizayni” kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi  
E-mail: fotima\_asadiy@mail.ru

## XXI ASR MODA SOHASI RIVOJINING ASOSIY TENDENSIYALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTASIYA

Maqolada O‘zbekistondagi moda sohasi rivojining XXI – asr mobaynidagi tendensiyalari tahlili yoritilgan. Shuningdek, tadqiqot mavzusini yoritishda muallifning mazkur davrlar davomida mamlakatimizda ijod qilgan dizayner mutaxassislari ijodi borasidagi tahliliy fikr mulohazalari o‘rin olgan.

**Kalit so‘zlar:** libos dizayni, kostyum kolleksiyalari, loyihalash va modellashtirish qonuniyatlari, moda sohasi, marketing strategiyalari, moda industriyasi

**Абдуллаева Фатима Сагдуллаевна**

Национальный институт живописи и дизайна имени К. Бехзода  
Преподаватель кафедры «Дизайн одежды», независимый исследователь  
Электронная почта: fatima\_asadiy@mail.ru

## ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ МОДЫ XXI ВЕКА

### АННОТАЦИЯ

В статье описан анализ тенденций развития индустрии моды в Узбекистане в XXI веке. Также в освещение темы исследования были включены аналитические мнения автора о творчестве дизайнеров, работавших в нашей стране в годы независимости.

**Ключевые слова:** дизайн одежды, коллекции костюмов, принципы дизайна и моделирования, индустрия моды, маркетинговые стратегии, индустрия моды.

**Abdullaeva Fatima Sagdullaevna**

National Institute of Painting and Design named after K. Bekhzod  
Lecturer at the Department of Fashion Design, independent researcher  
Email: fatima\_asadiy@mail.ru

## MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF FASHION IN THE XXI CENTURY

## ABSTRACT

The article describes an analysis of trends in the development of the fashion industry in Uzbekistan in the 21st century. Also included in the coverage of the research topic were the author's analytical opinions on the work of designers who worked in our country during the years of independence.

**Keywords:** clothing design, costume collections, principles of design and modeling, fashion industry, marketing strategies, fashion industry.

**Kirish.** Libos dizayni sohasi, hozirgi kunda jahon miqyosidagi – ijodiy, amaliy va innovasion jarayonlar doirasidagi san'at, sanoat va iqtisodiyot sohalarining global rivojlanish faktorlari darajasiga monand va hamkorlikda faoliyat yuritib kelayotgan aktual sohalar qatoriga kiradi. Bu jihat, sohaning kostyum kolleksiyalarini loyihalash va modellashtirish jarayonlari amaliyotida zarur bo'lgan konseptual tamoyillar doirasidagi – avvalo milliylik brendi, qolaversa zamonaviy ilm-fan yutuqlari, innovasion texnologiyalar hamda moda sohasiga kiritilayotgan yangiliklarni qamrab olishini ta'minlaydi.

Jahon san'atshunosligida moda sohasining konseptual asoslari negizidagi etno, retro liboslarining zamonaviy kostyum trendlari bilan o'zaro ta'sir doirasini o'rganish aktuallik kasb etmoqda. Jumladan, xorijiy davlatlarda mazkur yo'nalishlardagi libos loyihalash amaliyotiga moda marketingining samarali strategiyalarini jalb etish dolzarb muammolar qatorida tadqiq etilmoqda.

O'zbekiston modasida loyihalashning ilg'or mexanizmlarini moda sohasidagi marketing strategiyalari bilan o'zaro integratsiyasini aks ettirgan kommersiya kolleksiyalari yaratish metodlarining mavjud amaliy faoliyatlar bilan uyg'unlashtirish jarayoni boshlangan. "Bugun yurtimizda tarixan qisqa fursatda butunlay yangicha siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy muhit paydo bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor" [1.]. Shu bilan qatorda moda industriyasining ilmiy aspektlarini modernizatsiya qilish orqali mahalliy moda brendlari faoliyatini yanada takomillashtirish, soha doirasidagi ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlariga jahon tajribasini tadbiq etishning samarali tizimlarini joriy etish zaruriyati ko'zga tashlanmoqda.

"Moda industriyasi" - mahsulotlar ishlab chiqarishning ko'plab qatlamlari doirasida tadqiq etiladi. Tadqiq etish jarayonlarini birinchi navbatda, uning: "Ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan moda ob'ektlarini ishlab chiqarish tarmog'i sifatida belgilashdan boshlash maqsadga muvofiq. Sababi, moda industriyasi - modaga xos mahsulotlarni dizayn-loyihalash, ishlab chiqarish va targ'ibot qilish, shuningdek, ushbu mahsulotlarni sotish bilan shug'ullanuvchi xizmat ko'rsatish sohasidir" [2.]. Mazkur ta'rifga binoan, "Moda industriyasi" atamasi jamiyatdagi – san'at, sanoat va iqtisodiyot sohalarini qamrab olgan ekanligi bilan ushbu murakkab fenomenning o'ziga xosligini yaqqol namoyon etadi. Shu ma'noda "moda industriyasi" tarixini moda ob'ektlarini sanoat miqyosida, ommaviy ishlab chiqarish jarayonlari tarixi bilan bog'lash asosli ko'rinadi.

Jahon modasi, shu qatori yurtimizda ham: "1890 -yillardan to 1960 yillargacha modaga xos libos va aksessuarlarni ishlab chiqaruvchi kichik biznes sektorining bosqichma - bosqich ommaviy ishlab chiqarish tizimiga aylanishi natijasida – mahsulotlarni loyihalash, ishlab chiqarish, sotish va foydalanish va unga yondoshgan sektorlarni qamrab oluvchi soha vujudga kelishi ta'minlanadi. Mazkur jarayonlardagi e'tiborli voqe'lik - moda iqtisodiyotini "ot kutyur" va "pret-a-porte" mahsulotlari sifatida vujudga kelishi samarasi ekanligini qayd etish joiz" [3.] .

E'tiborlisi, O'zbekistonda XX - asrda rivoj topgan moda sohasining sobiq ittifoq davri mobaynidagi "dizayn" atamasining sinonimi - "texnika estetikasi" nuqtai nazaridan shakllangan amaliy jarayonlari va yutuqlari mahoratli konstruktor, libos va aksessuarlar bo'yicha rassomlar hamda texnologlar faoliyatlarining samarasi deyish mumkin. O'zbekistonda 1999 yildan "Libos dizayni" ixtisosligi bo'yicha ta'lim jarayonlarini yo'lga qo'yilishi yuqorida ta'kidlangan amaliy faoliyatlarning "Dizayn" sohasi o'ziga xosliklari asosida rivojlanishiga zamin yaratgan.

O'zbekistonda moda sohasining "dizayn" qonuniyatlari asosida shakllantirilgan yangi davri mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, mazkur davrlarda yurtimiz moda sohasi rivojiga keng imkoniyatlar ochildi deyish mumkin.

Bu davrda barcha sohalarida mamlakatimiz o'zining mustaqil siyosatini olib bora olish imkoniyatiga ega bo'lishi, turli jabhalarda jahon xalqlari bilan o'zaro siyosiy, iqtisodiy hamda

ma'naviy aloqalarni yo'lga qo'yilishi jarayonlari xalqimiz ongidan unutilayozgan milliy merosimizni tiklash doirasida boshlangan davlat siyosati bilan hamohang holda kechganligini qayd etish lozim. Tabiiyki, yuqorida ta'kidlab o'tilgan yutuqlar mustaqil yurtimiz moda sanoatining zamon talablariga mos holda qaytadan shakllantirilishi va yosh dizaynerlar ijodida asosiy tendensiya sifatida zamonaviy uslub va uslubiy yo'nalishlarga xos kostyum belgilarining o'zbek milliy kostyum an'analari asosidagi loyihalarini yaratish hisoblanganligini qayd etish lozim.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha tarzda, XXI asrda O'zbekistonda libos dizayni sohasi rivojida ahamiyatli bo'lgan voqe'liklar bir biridan farq qiluvchi o'ziga xos shakllanish bosqichlariga ega bo'lganligini alohida qayd etish lozim. Xususan:

Birinchi bosqich 2000-2010 yy. O'zbekistonda XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dizayn sohalariga ko'rsatilgan e'tibor doirasida 1999 yildan boshlab Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimlarida "Liboslar dizayni" sohasi ta'limining yo'lga qo'yilishi mamlakatimizdagi libos modellashtirish tizimini yangi davriga asos solganini ta'kidlash lozim.

1999-2005 yillarda yurtimizning libos dizayni sohasida o'ziga xos salmoqli yutuqlar qo'lga kiritila boshlandi. Bu jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazgan e'tiborli voqe'lik sifatida yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi negizida tashkil etilgan Kamoliddin Behzod nomli Milliy rassomlik va dizayn institutida professor X.X.Kamilova jonbozligida "Libos dizayni" yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonlarini yo'lga qo'yilishini ta'kidlash joiz. Aynan mazkur institut bitiruvchilari hozirgi kunda O'zbekiston moda sohasi rivojida muhim o'rin tutayotgan va yurtimiz hamda jahon miqyosida o'z muxlislariga ega bo'lgan dizaynerlar Z.Sulton, D.Qosimova, S.Amir, A.Agzamova, K.Rustamova singari mahoratli ijodkorlar etishib chiqishida muhim o'ringa ega bo'lgan.

2000 yillar O'zbekiston modasidagi amaliy jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz, mazkur yillarda Toshkent shaxrida tashkil etilgan "Osiyo ramzi - 2000" I – Xalqaro libos festivali ning bu jarayonlar rivojida nechog'lik katta ahamiyat kasb etganligini alohida qayd etish joiz.

Festivalda O'zbekiston va Qozog'istonlik ko'plab mutaxassislar - A.Varkova - O'zbekiston Badiiy Akademiyasi "Libos" estetik markazi dizayneri, N.Petrosova, O'zbekiston Tadbirkor ayollar uyushmasining "Zumrad" Madaniyat markazi libos bo'yicha rassomi L.Boboeva, Toshkent shahridagi "Navro'z" dizayn-studiyasi dizayneri T.Bulova, O.Dyatchina, L.Polvonova, M.Obidjonovalar etno libos elementlari asosidagi zamonga xos to'plamlari bilan ishtirok etganlar. Shuningdek, festival doirasida o'z libos to'plamlari bilan M.Qo'zieva, Zarafshon shahridagi "Agama" liboslar markazi dizayneri A.Sirbaeva, Zarafshon shahridagi "Agama – 104" trikotaj korxonasi mutaxassisi I.Saytxo'jinova, Olmota shahridagi "Andres" modalar saloni dizaynerlari A.Altibasarova, Sh.Berkelievalar faol ishtirok etganlar. E'tiborlisi, ushbu moda festivalining qatnashchilari orasida hozirgi kun mamlakatimiz moda sohasidagi amaliy jarayonlarda faol ishtirok etayotgan Lola Sayfi, Dina Sayfi hamda Xilola Tursunnazarovalarning biri birini takrorlamaydigan milliy an'analari va zamonaviy tendensiyalar uyg'unlashgan yuqori darajadagi libos to'plamlarini keltirib o'tish mumkin.

Mazkur yillarda yana ko'plab yosh hamda mahoratli dizaynerlar "Osiyo ramzi" dizaynerlar assosiasiyasi tomonidan tashkil etilgan "Milliy liboslar festivali", "Boysun bahori", "Xon-Atlas", "Bolajonlar va shirintoilar" va yana ko'plab moda naoyishlari doirasida o'z libos kolleksiyalarini ixlosmandlar e'tiboriga havola qilib kelganlar.

Moda sohasi doirasida yurtimizda olib borilgan amaliy jarayonlar 2005 yilda mamlakatimizda ilk bor tashkil etilgan "Moda haftaligi" doirasida o'zining yurtimizda mazkur sohadagi yutuq va kamchiliklarini tahlil qila olishiga imkon yaratib berdi. Xususan, ushbu yillar davomida o'tkazilgan moda xaftaliklarida Avstriya, Germaniya, Hindiston, Italiya, Xitoy, Latviya, Rossiya, Fransiya, Shveysariya, Yaponiya va boshqa ko'plab mamlakatlardan moda sohasida faoliyat olib borayotgan taniqli dizaynerlar, mashhur zargarlik va zamonaviy moda uylari rahbarlari, moda jurnallari muharrirlari tashrif buyurganlar. V.Yudashkin, Yu.Zaysev, A.Axmadulina, Yu.Dalakyan, I.Chapurin, N.Surikabe, S.Varma kabi jahon moda sanoatida ko'zga ko'ringan dizaynerlar va "Max Mara", "Balenciaga", "Armani", "SiSi Wasabi", "Wolford", "DSQUARED2", "Revillon", "Guy Laroche" taniqli moda uylari liboslar kolleksiyalari bilan taqdimot va namoyishlarda qatnashganlar.

2000-2009 yillar mamlakatimiz moda sohasidagi amaliy jarayonlarda erishilgan yutuqlarni ta'kidlar ekanmiz, 2008 yilda Toshkent To'qimachilik va engil sanoat institutida professor X.Komilova jonbozligida "Kostyum dizayni" kafedrasini tashkil etilishini ushbu yutuqlar qatoriga kiritish mumkin. Tashkil etilgan davrdan hozirgi kunda qadar kafedrada t.f.d., prof. X.Komilova, t.f.d., prof. U.Mo'minova, t.f.d., prof. S.Toshpo'latov, t.f.f.d. Phd U.Vohidova, f.f.n., prof. U.Raxmatullaeva, t.f.f.d. Phd, prof. A.Kasimova, t.f.f.d. Phd, dos. X.Yunusxodjaeva singari ilmiy salohiyati yuksak, tajribali professor o'qituvchilar faoliyat yuritib kelmoqdar.

**Ikkinchi bosqich 2010 yillar.** 2010 – yillarda mamlakatimizda o'z yo'nalishi va uslubiga ega bo'lgan har bir yangi mavsum uchun o'zining shaxsiy libos kolleksiyalarini taqdim etuvchi mahoratli dizaynerlar avlodi shakllandi. S.Amir, D.Tomilin, D.Otaboev, M.Umarova, D.Qosimova, Z.Sulton, M.Asqarova, M.Maxmudova, A.Drobishev, Klara va Ruxshona Umarovalarning Klara&Rukha brendi, E.Milberger, F.Xaydarova, Ya.Vaxitova, Z.Karimova singari dizaynerlar mazkur yillar davomida nafaqat yurtimiz balki, jahon miqyosida o'tkazilgan libos namoyishlarida o'z kolleksiyalari bilan ishtirok etganlar.

Mazkur davrlarda faoliyat olib borgan "Uslublar uyi"ning liboslar namoyishlari doirasida yosh dizaynerlar o'zlarining turli uslub va texnikalar asosida yaratilgan kreativ libos to'plamlarini namoyish etganlar.

Munisa Askarova ushbu davrlar mamlakatimiz moda sohasining yosh va umidli dizaynerlari qatorida - tabiiy matolardan, bosiq ranglarda yaratilgan "pert-a-porte" liboslar to'plamlarini ixlosmandlar e'tiboriga havola etgan. M.Askarovaning libos to'plamlarining o'ziga xos jihati ularning libos, aksessuar va bosh kiyimlarning yaxlit konseptual g'oya asosida shakllantira olinganligida ko'zga tashlanadi.

Artem Drobishev nomi mazkur yillarda yurtimizda "muvaqqiyatli moda brendi" sifatida e'tirof etilgan. Dizaynerning san'at maktabida olgan bilimlari, keyinchalik uning K.Behzod nomlagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "Libos dizayni" kafedrasidagi talabalik yillarida o'ziga xos ijodiy-kreativ dastxatiga ega bo'lishiga zamin yaratgan. Ushbu yillar davomida A.Drobishev "Uslublar uyi" tomonidan tashkil etilgan moda namoyishlarida muntazam ishtirok etgan. Ahamiyatlisi, dizayner moda namoyishlarida nafaqat liboslar dizayneri balki, liboslarga mos "make-up" va soch turmaklarini professional darajada bajaruvchi fashion stilist sifatida ham tanilgan. Uning moda namoyishlari uchun tayyorlagan libos to'plamlari eklektika, istorizm, retro uslublarining qorishmasini aks ettiradi. Asosiysi, ushbu liboslar uchun tanlangan matolarning keng assortimenti va liboslardagi konstruktiv bichimlarning murakkab va xilma – xilligi A.Drobishev to'plamlarining DNKsi sifatida e'tirof etish mumkin.

Qayd etish lozimki, ushbu yillar davomida Toshkent shahrida tashkil etilgan libos namoyishlariga mamlakatimizning turli viloyatlaridan yosh va maxoratli dizaynerlar jalb etilgan. Xususan, Buxoro viloyatida faoliyat olib borgan dizayner Muxarram Maxmudova o'zining ikat va beqasam nusxadagi atlas matosidan tayyorlangan libos to'plami bilan 2012 yilda "Uslublar uyi"ning bahor-yoz mavsumi uchun tashkil etilgan namoyishida ishtirok etgan.

2010 yillar O'zbekiston modasida mahoratli dizayner Elena Milberger libos to'plamlari o'ziga xos o'ringa ega. Ushbu mutaxassis ijodining DNKsi batik texnikasiga asoslangan. Batik texnikasi E.Milberger talqinida liboslarda aks etgan o'zbek milliy so'zanalarning naqshinkor bezagi, milliy me'morchilik obidalarida mavjud bo'lgan islmiy naqshlarining kompozitsiyasi, ikat matolari nusxalarining nafis ranglarda yaratilgan namunalarida o'z ifodasini topgan. Ushbu texnika asosida yaratilgan matolarimiz etno elementlarini namoyon etishiga qaramasdan, liboslarning umumiy shakl ifodaliligi zamonaviy moda uslublarini yaqqol aks ettiradi. Mazkur jihatlar dizaynerning gazlamalarning individual namunalarini yaratish, noodatiy-murakkab konstruktiv bichimlar hosil qilish, zamonaviy moda uslublarini libos to'plamlarida qo'llash va nihoyat ta'kidlab o'tilgan jarayonlar asosida yaxlit libos to'plamini shakllantirish malakasiga ega bo'lgan tajribali mutaxassis sifatida ta'riflashimizga asos bo'ladi.

Klara va Ruxshona Umarovalarning "Klara&Rukha" brendiga asrimizning avvalgi 10 yilliklarida asos solingan bo'lsada, ularning faoliyati bugungi kunga qadar muvaqqiyatli davom etib kelmoqda. Ushbu moda brendi faoliyatining ilk davrlarida opa singil Umarovalar tomonidan

milliy libos elementlaridan xoli bo'lgan zamonaviy tendensiyalardagi libos to'plamlari yaratilgan. Keyinchalik ushbu brend ijodining DNKsida ular tug'ilib o'sgan zamin - Samarqand liboslarining elementlari asosiy o'ringa ega bo'la boshlagan. Hozirgi kunda ushbu brendning liboslari nafaqat milliy an'analar asosida yaratilgan tugallangan ansambllar, balki, zamonaviy trendlarga xos bo'lgan klassik va romantik uslubdagi liboslardan tashkil topishini kuzatish mumkin.

Mahoratli dizayner Yasmin Voxitova ham 2010 - yillarda "Uslublar uyi"ning e'tiborli mutaxassislaridan bir bo'lgan. Ya. Voxitova ijodida oqshom liboslarining mini va maksi uzunlikdagi, murakkab dekorativ bezak berilgan namunalarini kuzatish mumkin. Xususan, ushbu liboslarda foydalanilgan ekselsior matosiga texnologik ishlov berish murakkab ekanligiga qaramasdan, liboslarda ularga yuqori darajada texnologik ishlov berilgan. Bu jihat dizaynerning nafaqat tajribali libos dizayneri balki, malakali texnolog bo'lganligini qayd etishimizga asos bo'ladi.

Mazkur yillarda dizaynerlar "Osiyo ramzi" dizaynerlar assosiasiyasi tomonidan muntazam ravishda o'tkaziladigan "Milliy liboslar festivali", "Boysun bahori", "Atlas bayrami", "Bolajonlar va shirintoylar" va "Uslublar uyi"ning "Uslublar uyi defilesi", "Undeground" singari moda namoyishlari doirasida kolleksiyalar taqdim etganlar.

Uchinchi bosqich 2020 yillar. Ushbu yillar davomida yurtimiz dizaynerlari o'zlarining brendlari ostida kolleksiyalar yaratib shaxsiy libos namoyishlarini tashkil etishga katta ahamiyat qarata boshladilar. "Lali", "Anor", "Gigu", "Moel Bosh", "Z.Sulton", "Tais&I", "Lisa Manner", "Kanishka", "Black quail", "N.Grigoryan" brendlari 2020 - yillar davomida mamlakatimizda etakchi bo'lgan brendlar sifatida e'tirof etilganlar. E'tiborlisi, ular tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali ixlosmandlar auditoriyasini kengaytirish faoliyatlari yuqori darajada bo'lgan. Bu jarayonda shaxsiy brend sifatida tanlangan no'anaviy firma belgisi, turli xil uslublarda bezatilgan intererlarga ega shaxsiy "show room"larni tashkil etilishi, shaxsiy moda namoyishlari va global tarmoq orqali olib borilgan tashviqot va targ'ibot faoliyatlari shular jumlasiga kiradi.

Yurtimizda 2020 yil modasidagi ahamiyatli voqe'liklardan biri sifatida "O'zbekistonda moda: kecha va bugun" nomli ko'rgazmasini tashkil etilganligini e'tirof etish mumkin. Ushbu ko'rgazmada o'zbek modasi tarixidagi jarayonlarning bugungi kunimizdagi davomiyligini aks ettiruvchi foto materiallar, liboslar to'plamlari namoyish etilgan. E'tiborlisi, libos namunalari ham ko'rgazmada ekspozitsiyalar ko'rinishida ixlosmandlar e'tiboriga havola etilgan. Ekspozitsiya ikki blokdan tashkil topgan: birinchisi 1960-2000 yillar tarixiga bag'ishlangan. Unda moda jurnallari, eskizlar, oq-qora foto lavhalar aks etgan. Ikkinchi blokda zamonaviy dizaynerlar kostyum to'plamlari manekenlarda ekspozitsiyalar sifatida namoyish etilgan. Ular S.Amir, T.Chursinova, "Lali" Modalar uyi, "Moel Bosh" brendi (Zuxra Inat), M.Umarova va X.Sher kabi dizaynerlarning turli shakl, uslub va texnikalar asosida yaratilgan libos to'plamlari asosida shakllantirilgan.

2020 yillar O'zbekiston modasida qo'lga kiritilgan yutuqlar miqyosining kengayishi soha doirasida nodavlat ta'lim tizimlaridagi moda kurslari va oliygohlarni tashkil etilishi bilan bog'liq. Xususan, Singapur menejmentni rivojlantirish institutining "Fashion product and promotion" fakulteti, Toshkentdagi Kimyo universitetining "Libos dizayni" kafedralarining tashkil etilishini shular jumlasiga kiritish mumkin.

To'rtinchi bosqich 2020 yildan hozirgi kunga qadar. 2020-22 yillar ham yurtimiz modasiga bir qancha yosh mahoratli dizaynerlarni kirib kelishi bilan ahamiyatli hisoblandi. Xususan, Aygul Agzamova, Istoraxon, Elmira Batirova singari dizaynerlarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

So'nggi yillar davomida O'zbek modasida maqsadli yo'naltirilgan xaridorlar auditoriyasi, mavsumga va trendga mos libos to'plamlari, hamda samarali marketing tizimlari muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan brendlar shakllanib kelayotganini qayd etish joiz. "Chiroyli", "Bjeans", "Pink Island" va yana bir qator mahalliy moda brendlari chet davlatlar maxsulotlari bilan to'yingan yurtimiz bozorida o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda.

2023 yildan e'tiboran Toshkent shahrida "Visa Fashion Week Tashkent" nomi ostida bahor va qish mavsumlari uchun Moda xaftaliklari tashkil etib kelinmoqda. "Nigora Hashimova", "Saadi", "Dee Usmanova", "Dildora Kasimova", "Lali", "Zulfiya Sulton", "Mursak", "Dilnoz", "Zardozi",

“Zhanna Ahmatova”, “Koma” singari moda uylari milliy an'analar va zamonaviy tendensiyalar uyg'unlashgan libos to'plamlarini moda ixlosmandlari e'tiboriga xavola qildilar.

Yurtimizda moda haftaliklari o'tkazib kelinayotganiga qariyb 15 yildan ortiq vaqt bo'lgan va mazkur haftalik yurtimizda libos dizayni sohasining ommalashuviga o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsada, uning mamlakatimiz moda industriyasi doirasida liboslarni sanoat miqyosida ishlab chiqarishga mo'ljallangan va hozirgi kunda “mass market” iborasi bilan yuritilayogan yo'nalish doirasidagi amaliy jarayonlar rivojiga aniqroq aytganda, tekstil korxonalarining mustaqil moda brendlari sifatida shakllanishiga keng miqyosda o'z ta'sirini ko'rsata oldi deyish mushkul.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, MDH davlatlari moda industriyasi darajasini tahlil etish mobaynida, ularning kostyum modellashtirishdagi faoliyatlari bo'yicha quyidagi xulosalar shakllatirildi: Latviya, Ukraina, Qirg'iziston, Rossiya, Belarus kabi davlatlar moda sanoatining mass market tizimida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan moda brendlari tomonidan yuqori sifatda ishlab chiqarilayotgan liboslar mazkur mamlakatlar libos dizayni sohasining yuqori darajadagi salohiyatini belgilab bermoqda. Xususan, bu jarayonda mazkur brendlari mahsulotlarining chet davlatlarda ham ommalashuviga xizmat qilayotgan faktorlar quyidagilardan iborat:

- kostyum modellaridagi dizayn echimlarining so'nggi urfdagi zamonaviy moda tendensiyalarga mos kelishi;

- liboslar konstruktiv xususiyatlarining mukammal darajada tayyorlangan andozalar asosida shakllantirilishi;

- texnologik jihatdan yuqori sifatga ega ekanligi;

- liboslarning gazlamasi va ularga dekorativ bezak berish jarayonlarida noodatiy furnitura hamda turli xil zamonaviy bezak berish vositalaridan samarali foydalanilganligi singari yutuqlarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarga qo'shimcha tarzda qayd etish lozimki, dunyo miqyosidagi moda sanoatining “mass market” yo'nalishida mahsulot ishlab chiqaruvchi rivojlangan mamlakatlarda marketing va savdo sotiq tizimlarining ham yuqori darajada shakllantirilganligi hamda mijozlarga onlayn tarzda xizmat ko'rsatuvchi internet do'konlarining mavjudligi kabi bir qator aktual faktorlar yurtimiz moda sanoatining mass marketi doirasida ham amalga tadbir etilishi zarur bo'lgan vazifalarni qamrab oladi.


Bu jarayonda birinchi navbatda echimini kutayotgan vazifalardan biri soha doirasida ilmiy jarayonlarni jadallashtirish, sohaga yuksak bilimli magistr va ilmiy xodimlarni etishtirib berish kabi muhim masala ko'ndalang qo'yilmoqda. Sababi, biron bir sohaning rivojini uning ilmiy asoslarini rivojlantirmay turib amalga oshirish mumkin emas.

Hulosa o'rnida ta'kidlash joiki, yurtimizda moda sohasi doirasida ham ilmiy tadqiqot ishlarining jadallashuvi birinchi navbatda, amalga oshirilayotgan amaliy jarayonlarni tahlil qilish orqali uning istiqbolida kutilayotgan yutuq va kamchiliklarini aniq faktlar orqali izohlab bera oladigan va bu borada dizaynerlarga o'zining amaliy takliflarini beradigan moda tanqidchilari va tahlilchilarini shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida sohaning yurtimiz moda industriyasi rivojiga qaratilgan aniq bir yo'nalish bo'yicha rivojlantirish imkonini beradi.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 30 йиллик байрамга бағишланган маросимдаги нутқи//2021 йил 31 август. <https://review.uz/uz/post/vstuplenie-prezidenta-shavkata-mirziyoyeva-na-ceremonii-posvyashennoy-30-letiyu-nezavisimosti-uzbekistana>.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/moda-kak-sotsialno-kulturnyy-fenomen>
3. <https://cyberleninka.ru>. Т.Демина. Индустрия моды как самостоятельный сектор экономики. с-1.
4. С.Амир. Sweet Fashion Show. Показ Дом стиля весна-лето 2012// Bella Terra/ – Т.: “Zamin press”, с-35.
5. “Osiyo ramzi – 2000” I – Халқаро либос фестивали тўплами.

6. Чурсина В.А. Мода Узбекистана: вчера и сегодня. Т.: San'at. 2020, с-10
7. Шинкарук М. Мода и модельеры. –М.: Астрель, 2011. -146-
8. Эстетика. Словарь. Беляева А.А. и др. М.: Политиздат, 1989, с-209



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Shomahmud Shorahmetov**

Yunus Rajabiy nomidagi

o'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom

cholg'u ijrochiligi" kafedrasida dotsenti

## SHASHMAQOM NASR BO'LIMI RUBOB CHOLG'U IJROCHILIGIDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o'zbek milliy musiqa san'atining poydevori hisoblangan Shashmaqom xususida bo'lib, Shashmaqomning Nasr bo'limi rubob cholg'u sozi ijrochiligidagi masalalar ko'rib chiqiladi. Maqolada rubob ijrochiligidagi zarblar, nola-qochirimlarning maqom ashula yo'llariga moslab ijro etish malakalari bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** Sharq, Shashmaqom, Mushkilot, Nasr Mo'g'ulcha, Savt, rubob, tanbur, dutor, maqom, kuy, usul, namud, nola,

**Шомахмуд Шорахметов**

Институт узбекского национального

музыкального искусства имени Ю.Раджаби

Доцент кафедры "Инструментальное исполнительство Макома"

## РАЗДЕЛ НАСР ШАШМАКОМА ИСПОЛНЕНИЕ НА ИНСТРУМЕНТЕ РУБАБ

### АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена Шашмакому, который считается основой национального музыкального искусства Узбекистана. В статье описаны навыки исполнения на инструменте рубаб и исполнение часть Шашмакома, который называется Наср.

**Ключевые слова:** Шарк, Шашмаком, Мушкилот, Наср Мугулча, Савт, рубаб, танбур, дутор, маком, мелодия, усул, намуд, нола.

**Shomakhmud Shorahmetov**

Uzbek National Institute of Music Art

name after Yunus Rajabi "Maqom cholg'u ijrochiligi"

associate professor of the department

## NASR SECTION OF SHASHMAQOM IS PERFORMED BY RUBOB INSTRUMENT

### ABSTRACT

This article is about Shashmaqom, which is considered the foundation of Uzbek national music art, and it is considered in the performance of rubob sozi of prose section. The article describes

the skills of performing percussions, laments, and laments in the performance of the rubab in accordance with the ways of maqam singing.

**Keyword:** Sharq, Shashmaqom, Mushkilot, Nasr Mo'g'ulcha, Savt, rubob, tanbur, dutor, maqom, melody, usul, namud, nola

O'zbek milliy musiqa san'ati o'zining qadimiyligi, o'tmish an'analarini o'zida mujassamlashtirganligi hamda aynan milliy ruh va millatning o'zligini bugungi kungacha sharqona ohanglar asosida saqlagan holda rivojlanib keldi. Qo'shiq, yalla, lapar, terma, doston, katta ashula, maqom kabi milliy musiqa janrlari so'zimizning isbotidir. Zero yuqorida nomlari ta'kidlangan janrlar xalq hayotining yorqin misoli sifatida shakllangan hamda rivoj topgan.

O'zbek musiqa merosining muhim qatlami va ajralmas bo'lagi bo'lgan janr maqom hisoblanadi. Maqomlar ko'pchilik Sharq xalqlari musiqa me'rosida mavjud. Ular shu xalqlar milliy musiqasining asosini tashkil etadi. Maqomlar juda qadim zamonlardan beri rivojlanib kelayotgan xalq professional musiqa san'ati hisoblanadi. Maqomlar xalq musiqasining boshqa janrlari bilan birgalikda shakllangan hamda rivojlanish mobaynida mazmunan va shaklan o'zgargan.

Shashmaqom - olti maqom turkumi bo'lib, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan, jami 250 dan ortiq turli shakldagi cholg'u va ashula yo'llaridan iborat. Shashmaqomning tashkil etgan maqomlarning har biri ikki - cholg'u (Mushkilot) va ashula (Nasr) yirik bo'limlaridan iborat bo'lib, cholg'u va ashula yo'llari turkumlarini tashkil etadi. Shashmaqom yetuk sozanda va xonandalar tomonidan o'zbek va tojik tillarida ijro etilgan. Ashula yo'llarida mumtoz sharq shoirlari – Rudakiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz, Amiriy, Nodira, Zebunniso, Ogahiy va boshqalarning ishqiylirik, falsafiy, nasihatombuz, diniy mazmundagi she'rlari, shuningdek, xalq she'riyati qo'llanilgan. Yetakchi cholg'u - tanbur bo'lib, maqomlar ushbu cholg'u orqali sozlangan.

Ma'lumki, har bir cholg'u sozida maqomlar yoki yirik shakldagi an'anaviy musiqa asarlarini ijro etish imkoniyatlari turlichadir. Ustozlarimiz har bir maqomning asosiy pardalariga e'tibor bergan holda notaga olganlar. Bunda tanbur sozining yetakchi bo'lganligini yuqorida aytib o'tdik. Hozircha maqom cholg'u va ashula yo'llarini o'rganishda biz asosan ustozlarimiz tomonidan yozilgan kitoblarga murojaat qilamiz. Endilikda har bir cholg'u sozining imkoniyat darajasiga ahamiyat bergan holda alohida sozlarga (rubob, ud, dutor, qo'shnay, nay, chang va boshqa) moslashtirilgan kuy to'plamlarini, o'quv qo'llanmalarni, darsliklarni nashr qildirish mutaxassis ijrochilar zimmasiga yuklatilgan.

Bu borada xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan maqomlar, maqom yo'llariga mansub mumtoz musiqa asarlari hozirgacha o'zining badiiy va estetik imkoniyatlarini yuqori darajada saqlab kelayotganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ularni o'rganish, tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish zamonamizning talab va ehtiyojida bo'lgan dolzarb masalalardan biri.

Bugungi kunda yurtimizda maqom va milliy musiqa ijrochiligini targ'ib qilish, rivojlantirish va yosh avlodga o'rgatish borasida qator ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Joylarda ixtisoslashtirilgan maqom maktablari, kollej va litseylar tashkil etildi. Eng quvonarlisi shuki, yurtboshimiz tashabbuslari bilan 2020 yilda Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etildi. Ushbu dargoxda hozirgi kungacha professor-o'qituvchilar tomonidan bir qancha darsliklar va o'quv-qo'llanmalar chop etilib, ular dars jarayonlarida foydalanib kelinmoqda.

Shu o'rinda cholg'u ijrochiligiga ozroq to'xtalib o'tsak. Milliy musiqiy meros, jumladan milliy cholg'u ijrochiligidan tarixi ham eramizdan bir necha asr oldingi davrlarga borib taqaladi. O'zbek xalqi va millatining barcha rivojlanish davrlarida qo'shiq bilan bir qatorda dutor, tanbur, doyra, ud, g'ijjak, qonun, rubob kabi milliy cholg'u sozlari qalb qo'riyu — ko'ngil davosi sifatida bebaho ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qilgan.

Milliy cholg'ular ichida rubob cholg'u sozi alohida o'rin tutadi. Rubob sozi o'zining jarangi, yurak qitiqlar nolayu qochirimlari, rang-barang ijro bezaklari va nihoyat, o'rganish va ijro etish jihatidan qulayligi bilan xalqimiz orasida keng ommaviylashgan va sevimli sozga aylangan.

Rubob cholg'usi Markaziy Osiyo xalqlari o'zbeklar, tojiklar, uyg'urlar orasida qadimiy va ommalashgan cholg'ulardan biri hisoblanadi. Qashqar rubobi asosan qachon va qacda paydo

bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Shunga qaramay tarixiy manbaalarda "rabob", "rebab", "rebek" cholg'usi haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi.

O'zbekistonga bu asbobning qanday qilib kelib qolganligini aniqlash qiyin. U Farg'ona vodiysida ma'lum bo'lgan va juda kam edi. Buxoro va Samarqandda esa chertib chalinadigan asboblardan "afg'on rubobi" keng qo'llanilgan

M.Belyaev qashqar rubobining O'zbekistonda ancha kam yuritilganligi haqida shunday yozadi: "Qashqar rubobi O'zbekistonda kam uchraydi. Bizga bu asbobning oltitasigina ma'lum. Yaqin vaqtda ochilgan qashqar rubobi – bu asbobning ya'ni fors klassik musiqa asbobining ajdodini ochilishi demakdir".

Tadqiqotchi Mironov asarlarida ham shunday yoziladi: "Rubob – juda qadimiy afg'on asbobi". U Hindistonda ham uchrab turadi. Qashqarda uni Rabob deb atashadi. Professor Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi tarixi" asarida bu cholg'u asbobining Xorazm amiri Xorazmshox davrida (XV asr) Balx shahrida noma'lum shaxs tomonidan yasalganligi haqida ma'lumot keltiradi.

Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha 1936 yilda Farg'ona vodiysining so'lim Shohimardon qishlog'ida bo'lib o'tgan xalq saylida mashhur rubobchi Muxammadjon Mirzaev qashqarlik bir sozandadan rubob cholg'usini harid qiladi va toshkentlik usta Usmon Zufarov bilan birga takomillashtiradilar. Natijada bu rubobning menzurasini uzaytiriladi, dastasi esa lotin qalamchalar bilan pardalarga teng bo'linib, hozirgi ko'rinishdagi rubobni yaratadilar. Shuning uchun xam ushbu soz qashqar rubobi nomini olgan.


Bizga ma'lumki, maqomlar ikki yirik bo'limlarga bo'linadi. Bular Cholg'u (Mushkilot) va ashula (Nasr) bo'limlaridir. Nasr bo'limi ancha murakkab shakldagi ashula yo'llaridan tashkil topgan va ular ikki turkum ya'ni ikkita shu'ba guruhidan iborat: birinchisiga – "Saraxbor", "Talqin", "Nasr" va "Ufar" qismlari va ularni bog'lovchi "Taronalar" yetakchi hofiz va xonandalar ansambli tomonidan ijro etilgan. Ikkinchisiga esa "Mo'g'ulcha" va "Savt" kabi besh qismli turkumlar kirgan

Bugungi kunda cholg'u ijrochiligida tahsil olayotgan talabalar bastakorlik ijodiyoti, xalq kuylari, Mushkilot bo'limidagi kuylar bilan bir qatorda Nasr bo'limidagi maqom sho'balari ham turkum qilib cholg'ularda ijro qilishmoqda. Bu albatta murakkablik bilan bir qatorda quvonarli holdir. Chunki maqom ijrochiligida azaldan maqomdon ustozlar Mushkilot va Nasr bo'limlarini puxta bilimdoni bo'lishgan.

Mazkur maqolada rubob sozida Shashmaqom Nasr bo'limining ijrochilik mezonlari hamda ijrochilik uslublariga kengroq to'xtalib o'tsak.

An'anaviy ijrochilikda rubob sozida Shashmaqom ashula yo'llarini ijro etish o'ta maxorat talab qiladi. Albatta bunda ornamental bezaklar va zarblar muxim o'rin tutadi. Ijrochidan katta maxorat, tajriba va bilim talab etiladi. Rubob sozida ilgari ko'proq bastakorlar asarlari, xalq kuylari ijro etilgan bo'lsa keyinchalik Shashmaqom cholg'u qismlari bilan bir qatorda nasr qismi ham ijro etilmoqda.


Albatta Shashmaqomning ashula yo'llarini rubobda ijro qilganda doyra usuli bilan hamohang bo'lish talab etiladi. Chunki maqomlarda doyra jo'rliги muximdir. Ayniqsa Saraxbor va uning taronalarida usullar almashinuvida va ketma ketligida, o'ng qo'l zarblari ham doyra usuliga mos ravishda berilishi zarur omillardandir. Maqom ijrochiligida rubob sozining ahamiyati katta. U o'zining jarangdar tovushi bilan ajralib turadi. Ashula yo'llarini rubob cholg'usida ijro qilganda albatta o'ng va chap qo'l xarakatlari ashula so'zlarini ifodasiga qarab tanlanishi kerak. Milliy bezaklar, nola va qochirimlar g'azal bo'g'inlariga qarab ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek usul maqom ijrochiligining asosi sanaladi. Usulni his qilgan holda, ritm hissalarini sezgan holda ijro qilingan asar me'yoriga yetadi. Yana bir jihat shundaki, ko'p hollarda aynan usul ijro etilayotgan asarning ijrodagi uslubini ham belgilab qo'yadi.



Masalan zarbul qadim usulidagi Saraxborlar ijro etilganda ko'proq rez (tremolo) zarblaridan keng foydalanamiz. Chunki Saraxborlardagi vazminlik, qolaversa hanglar ijrosida bizga uzmasdan ijro etiladigan rez zarbi qo'l keladi. Taronalarda esa ko'proq qo'sh zarb va pirranglar, har xil shtrixlardan keng foydalaniladi. Asarning jozibasiga, usuliga qarab zarblar va ornamental bezaklar

o'zgarib boradi. Chap qo'l xarakatlarida milliy bezaklarga ko'proq e'tiborni qaratish zarur. Shashmaqomning Nasr qismida g'azalning bo'g'iniga qarab *nolish*, *kashish*, *molish* kabi bezaklar, qolaversa ornamental bezaklarni har xil turlaridan foydalanilsa ijro yanada mukammal va jozibali bo'ladi. Bundan tashqari an'anaviy ijrochilikda bidratma, to'lqinlatish kabi ornamental bezaklarni ham o'z o'rnida ishlatish mumkin.

Yuqorida ijro amaliyoti uchu usul masalasi bekorga asos qilib olinmadi. Ijroda o'ng va chap qo'llarning o'zaro hamohang bo'lishi hamda zarblarning ishlatilishi usul hissalar bilan bir xil va teng bo'lishi kerak. Ayniqsa rubob cholg'usida ortiqcha zarb va qochirimlarning ishlatilishi eshituvchi tomonidan zerikib qolishga olib kelishi mumkin, qolaversa professionallika ham to'g'ri kelmaydi. Misol uchun 3/8, 3/4 o'lchovdagi



Talqin usuli murakkab usullardan biri bo'lib, asarlarni ijro etganda usulga tayangan holda ritmik hissalaridan chiqmagan holda ijro etish talab etiladi. Talqin usulida ham asarning xarakteriga qarab ba'zi joylarida uzmasdan mayin rezlardan foydalanish mumkin. Talqinlarda ko'proq donador zarblardan, *kalta rez pirranglardan*, *qo'sh zarblardan* joy-joyida foydalaniladi. Yana shuni ham ayib o'tish kerakki, ko'p hollarda Talqin, Talqincha, Chapandoz usullarida 3/8 hissasi keladigan ikkita bak-bak usulining birinchi bakiga noxun urilishi, ikkinchisiga urilmasligi yoki mayin rez orqali ijro etilishi maqsadga muvofiqdir.

An'anaviy rubob ijrochiligida chap qo'l barmoqlarning joylashuvi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, rubobda akademik va an'anaviy ijrochilik uslublari mavjud. An'anaviy uslubda esa barmoqlar erkin harakat qiladi. Chunki bu uslub ijrosida *nola*, *qochirim*, melizim qilish uchun oson bo'lishi hamda milliy ohanglarni chiqarib berishda, pardalarni topib chalish uchun ham erkin harakat qiladi. An'anaviy ijrochilikda birinchi va ikkinchi barmoqlar asosiy o'rinda turadi. Albatta, uchunchi va to'rtinchi barmoqlar bilan ham ijro qilinadi, lekin milliy ohang hamda maqom pardalarini mungli chiqarib berish uchun birinchi va ikkinchi barmoqlar asos bo'lib xizmat qiladi. Nim parda, *nolish*, *molish*, *kashish*, *bidratma* kabi bezaklarni ifoda etish uchun birinchi, ikkinchi barmoqlar asos hisoblanadi.

Shashmaqom ashula yo'llarini rubobda ijro qilganda, albatta ashulaning so'zlarini yod olish zarur. Bu birinchidan asarni puxta o'zlashtirishda yordam bersa, ikkinchidan zarblar va bezaklarni o'z o'rnida ishlatish uchun ko'mak bo'ladi. Xozirda Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi kafedrası"da talabalarga Shashmaqom ashula yo'llarini rubobda ijro etishni o'rgatish uchun juda ko'p uslublari qo'llanilmoqda. Ustozlar yozuvidan, nota matnlaridan va qolaversa chalib ko'rsatib berish usulidan keng foydalanilmoqda. Ustozlar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmalarda Shashmaqom ashula yo'llarini rubob cholg'usida ijro etish uslublari nota yozuvi orqali ko'rsatib berilgan. Talabalar bundan keng foydalanishmoqda.

Rubob ijrochiligining rivoji va an'anaviy ijrochilikning muhim mezonlarini yaratgan ustozlar sirasiga Muxammadjon Mirzaev, Ergash Shukurullaev, Ariel Boboxonov, Sulaymon Taxalov, *Adham Xudoyqulov*, *Shavkat Mirzaev*, *Toxir Rajabiy*, Rifatilla Qosimov kabi mohir rubobchi ustozlarni kiritish mumkin.

Sozanda, hozirda Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası professori Rifatilla Qosimov 1983 yili bo'lib o'tgan 1 Respublika maqom ijrochilari tanlovida, rubobda Shashmaqomning murakkab Nasr bo'limining turkum asarlarini ijro qildi. Bu bilan u rubob sozida shashmaqomdek yirik asarlarni to'htovsiz taronalari bilan jozibador qilib ijro etish mumkinligini isbotlab berdi.


Yuqorida nomi tilga olingan ustozlar an'anaviy rubob ijrochiligiga ulkan xissa qo'shish bilan birga o'zlarining maktablarini va uslublarni yaratdilar. Xozirgi vaqtda ular yaratgan uslublardan, darslik va o'quv qo'llanmalardan talabalarimiz tomonidan keng foydalanib kelinmoqda.

O'ylaymanki maqom cholg'u ijrochiligida, ayniqsa rubob cholg'u sozi ijrochiligida xali qilinadigan ishlar va muammolar ko'p. Biz xozirgi yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalangan xolda, bor bilim va ko'nikmalarimizni yosh avlodga o'rgatishda tinmay mexnat qilishimiz zarur.

Bizga qoldirilgan buyuk Shashmaqomdek merosimizni avaylab asrab, kelajak avlodga bexato, benuqson yetkazishimiz biz professor-o‘qituvchilarning muqaddas vazifamiz bo‘lishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., 1963
2. Taxalov S. Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi asosolari. T.,1983.
3. Umarov A. Tanbur navolari. T., 1995.
4. Qosimov R. Rubob navolari. T., 1993.
5. Qosimov R. An‘anaviy rubob ijrochiligi. T., 1999.
6. Shoraxmetov.Sh.Sh.”Maqom yo‘llaridagi mashqlar va kuylar to‘plami.”Toshkent.2005 yil.
7. Belyaev V. «Музыкальные инструменты Узбекистана» Москва 1933.
8. Karomatov F. «Узбекская инструментальная музыка» Ташкент 1972.
9. Matyoqubov O. “Og‘zaki an‘anadagi professional muzqkasi asoslariga kirish” T. 1983.
10. Mironov N. «Музыка узбеков» Самарканд. 1929.
11. Taxalov S.M. «О систематизации орнамента традиционной музыки». В книге: «Вопросы музыковедение Узбекистана» T., 1982.
12. Taxalov S.M. «Проблемы записи Узбекской народной инструментальной музыки. «Исследование. «Традиционные навыки игры на трубе и на кашкарском рубабе и опыт их фиксации. Глава II.
13. S.M. Taxalov «O‘zbek xalq kuylari” Tanbur, qashqar va afg‘on ruboblari uchun. Qo‘lyozma.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Хулкар Ҳамроева,**

Ўзбекистон давлат хореография

академияси доценти,

филология фанлари доктори (DSc)

**Нокисбай Абдираманов,**

Ўзбекистон давлат хореография

академияси Урганч филиали ўқитувчиси

## ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚ РАҚСЛАРИДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЭСТЕТИК ТАЛҚИНИ (“АЙҚУЛАШ” РАҚСИ МИСОЛИДА)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### АННОТАЦИЯ

Илк илдизлари асрий анъаналарга туташган қорақалпоқ рақс санъатининг тарихи ва шаклланиш босқичлари монографик планда ўрганилмаганлиги, қорақалпоқ рақслари тахлили тасвирий характерда эканлиги уларни замонавий илм-фан ютуқлари асосида алоҳида тадқиқ этишни тақозо этади. Зеро, қорақалпоқ миллий рақс санъатининг этнографик - маърифий, бадий – эстетик тамойилларини ўрганиш зарурати бугунги куннинг долзарб муаммоларидан биридир. “Айқулаш” қорақалпоқ миллий рақси анча йиллардан бери кўпчилик балетмейстерлар томонидан сахналаштирилиб келинган. Шу боис “Айқулаш” рақси юзасидан олиб борилаётган илмий изланишларимизни бир нечта тажрибали, профессионал балетмейстерлар ижоди мисолида қиёсий ўрганиш жоиз, деб билдик. Е.Петросова ўзининг “Қаракалпакский танец” китобида “Айқулаш” рақсининг ҳаракатлари, либослар, мусиқаси, рақс тасвири, ҳаттоки ундаги ашула сўзлари ҳақида ҳам аниқ маълумотлар келтириб ўтган. Бу рақс композицияси халқ мусиқаси асосида В. Шафранников томонидан қайта ишланган. Мазкур мақолада қорақалпоқ халқ рақсларида миллий қадриятларнинг эстетик талқини “Айқулаш” рақси мисолида тадқиқ қилинади.

**Калит сўзлар:** миллат, қадрият, тарих, овул, қалъа, рақс, лапар, айтишув, айқулаш, нақш, эстетик тафаккур, нафосат, миллий руҳ.

**Хулкар Ҳамроева,**

доктор филологических наук,

доцент Государственной академии

хореографии Узбекистана (DSc)

**Нокисбай Абдираманов,**

преподаватель Ургенчского филиала

Государственной Академии

хореографии Узбекистана

## ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В КАРАКАЛПАКСКОМ НАРОДНОМ ТАНЦЕ (НА ПРИМЕРЕ ТАНЦА «АЙКУЛАШ»)

### АННОТАЦИЯ

Тот факт, что история и этапы становления каракалпакского танцевального искусства, уходящего своими корнями в многовековые традиции, не изучены в монографическом плане, а анализ каракалпакских танцев носит описательный характер, требует их отдельного исследования. на основе достижений современной науки. Ведь необходимость изучения этнографо-просветительских, художественно-эстетических основ каракалпакского национального танцевального искусства является одной из актуальных проблем современности. Каракалпакский национальный танец «Айкулаш» уже много лет ставится многими балетмейстерами. Поэтому мы посчитали допустимым провести сравнительное исследование наших научных исследований по танцу «Айкулаш» на примере произведений нескольких опытных, профессиональных балетмейстеров. Е.Петросова в своей книге «Каракалпакский танец» дала конкретные сведения о движениях, костюмах, музыке, танцевальном образе, даже текстах танца «Айкулаш». Эта танцевальная композиция создана на основе народной музыки В. Под редакцией Шафранникова. В данной статье эстетическая интерпретация национальных ценностей в каракалпакских народных танцах исследуется на примере танца Айкулаш.

**Ключевые слова:** нация, ценность, история, деревня, замок, танец, лапар, речь, крик, узор, эстетическое мышление, изысканность, национальный дух.

**Hulkar Hamroeva,**

State choreography of Uzbekistan  
associate professor of the academy,  
doctor of philological sciences (DSc)

**Nokisbay Abdiramanov,**

State choreography of Uzbekistan  
Academy Urganch branch teacher

## AESTHETIC INTERPRETATION OF NATIONAL VALUES IN KORAKALPOK FOLK DANCE (EXAMPLE DANCE "AYKULASH")

### ANNOTATION

The fact that the history and stages of formation of Karakalpak dance art, which has its roots in centuries-old traditions, has not been studied in a monographic plan, and the analysis of Karakalpak dances is descriptive in nature, requires them to be researched separately based on the achievements of modern science. After all, the need to study the ethnographic-educational, artistic-aesthetic principles of Karakalpak national dance art is one of the urgent problems of today. Karakalpak national dance "Aykulash" has been staged by many ballet masters for many years. Therefore, we considered that it is permissible to conduct a comparative study of our scientific research on the "Aykulash" dance on the example of the works of several experienced, professional ballet masters. E.Petrosova in her book "Karakalpaksky tanets" gave specific information about the movements, costumes, music, dance image, even the lyrics of the "Aykulash" dance. This dance composition is based on folk music by V. Edited by Shafrannikov. In this article, the aesthetic interpretation of national values in Karakalpak folk dances is studied using the example of the Aykulash dance.

**Key words:** nation, value, history, village, castle, dance, lapar, speech, shout, pattern, aesthetic thinking, sophistication, national spirit.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 4 февралдаги “Миллий рақс санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорида “шаклланган ижодий мактабларга хос анъаналарни, моҳир балетмейстерлар, балет артистлари меросини тиклаш; миллий рақс санъатининг мумтоз ва замонавий ижро намуналари “олтин фонди”ни

яратиш; халқимиз, хусусан, ёш авлодни миллий рақс санъати ҳақидаги назарий ва амалий билимлар билан кенг таништириш орқали уларнинг қалби ва онгида миллий ўзликни англаш, аждодлар меросига ҳурмат туйғусини, юксак бадиий-эстетик дид ва тафаккурни камол топтириш”[1] белгиланган.

Қорақалпоқ рақс санъатининг тарихий илдизлари монографик планда ўрганилмаганлиги, қорақалпоқ рақслари таҳлили тасвирий характерда эканлиги уларни замонавий илм-фан ютуқлари асосида алоҳида тадқиқ этишни тақозо этади. Зеро, қорақалпоқ миллий рақс санъатининг тарихи, шаклланиш босқичлари, бадиий – эстетик тамойилларини ўрганиш зарурати бугунги куннинг долзарб муаммоларидан биридир.

Лапар-фольклор лирик куйига ашула ва рақснинг бирлашуви натижасини ҳосил қилиб, ундаги йигит - қизлар алоҳида гуруҳ бўлиб ҳазиломуз сўзлар билан мулоқот қилиши бўлади, бу жараёни “Айқулаш” қорақалпоқ миллий рақсидаги йигит қизларнинг савол-жавоб айтишувларига ўхшатиш мумкин. Умумий рақс композициясининг кўшиқ сўзи Н. Дауқараев томонидан қуйидагича ёзилган.

Журин қизлар суў бойина барайиқ,  
Ўткен кеткен жигитлерди кўрейиқ,  
Жақсиларын сайлап, сайлап алайиқ,  
Жаманларын суўға ийтерип салайиқ.  
Қиз-жигитке ойын керек, наз керек,  
Қия шелде журиў ушын нар керек,  
Бағиў-бақша алма-анар ишинде,  
Қиз-жигитке ойнап кўлер яр керек.  
Жай кулашты шиксин патинг аспанға  
Кеўил йошип қиял алип қашқанда  
Бук дизеңди иркилместен ийилип  
Кеўил паърўаз етер баълент шикқанда

Нақорат: Йигитлар: Айқулаш, айқулаш,

Айға қарап қулаш аш.

Қизлар: Айдан басқа не керек?

Йигитлар: Айдан артиқ қиз керек.

Аъткўншекти тепсем патли тербентип,

Желбирейди самал менен кўйлегим,

Тазарып қайғидан кеўлим йош урип,

Паърўаз етер яр жолинда журегим.

Нақорат: Йигитлар: Айқулаш, айқулаш,

Айға қарап қулаш аш.

Қизлар: Айдан басқа не керек?

Йигитлар: Айдан артық қиз керек.

Асарнинг 2-қисми бир кўринишли 18 тактдан иборат йигитлар чиқиши бўлиб, мусика ўлчами 2/4. Бунда йигитлар ва қизлар бирга ижро этишади.

Ашуланинг нақорат қисмида бир-бирига савол-жавоб ашула сўзларига жўр бўлишиб, шунга мос рақс ҳаракатларини бажаришади. Рақснинг охирги босқичларида йигит ва қизлар узунасига икки қатор бўлишиб туришлари ва якуний қисмида эса “ҳар хил йўналишда ҳаракатланинг, ҳар бир тактнинг 1-чорагида енгил бир сакраш билан 8-сонли ҳаракат билан сахнадан чиқиб кетишади”[18;73] ва шу билан рақс ўз ниҳоясига етади. Лизахоним Петросова томонидан яратилган “Айқулаш” рақси ансамбль репертуаридан чуқур ўрин эгаллаб, ташриф қоғози бўлган десак муболаға бўлмайди.

“1956-йил Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат театри қошида Лизахоним Петросова томонидан ташкил этилган давлат филармонияси 1957-йил алоҳида давлат филармониясига айлантирилади[19]”.

“1957-йил Тошкент шаҳрида ўтказилган қорақалпоқ адабиёти ва санъатининг ўн кунлигида “Айқулаш” ансамбли жамоаси ўз чиқишлари билан фаол иштирок этади”[20]. Ундаги архив видео ёзувида “Айқулаш” рақси ҳам тасвирланган.

Рақс чизмалари: Оддий ва мураккаб, статик, динамик, Ёнига 1 чизик, 2 қатор, китобча, доира, қўш доира, диагональ, симметрик ва бошқа жами 18 хил рақс шакллари ишлатилган.

Миллий либослари: Қизлар бошига қуён терисидан тикилган айлана шаклдаги пўпакли бош кийим, эғнига енг ва ёқаси тўқ сариқ рангли енгил матодан тикилган кўйлак, устидан қизил рангли узун камзул, белига шойидан тикилган белбоғ, кўк бархитдан лозим, қора рангли этик, лозим учлари этик ичига солинган. Йигитлар бошига қорақўл терири бош кийим, эғнига оқ шойидан кўйлак, устидан биллурдан тикилган нимча, белига жигар ранг ипакдан чўнтакли белбоғ, оёғига кўк биллурдан тикилган иштон ва қора рангли этик кийишган. Миллий либосларнинг енг, ёқа ва четлари рангли иплардан турли нақшлар билан безатилган.

Рақс ижросида “Аякти алма гезек алмастрип қапталға шўғип журиў”, “Аўмаспали айланиу”, “Тенселмей дизе бугиўлер”, “Айағин аўистирип басыў”, “Сирғанба адимлар”, “Қизлар тажими”, “Желип жўриу”, “Табанди сиртқа силкип журиў”, “Чак-чак”, “Қус қанат” каби кўплаб, оёқ, қўл ҳолат ҳамда ҳаракатлар фойдаланилган. Юқорида айтиб ўтилган ҳаракатнинг барчаси ҳақида алоҳида тушунча бериб ўтилган.

Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ артисти Полат Мадреймов билан “Айқулаш” рақси борасида ўтказилган суҳбат жараёнида қуйидагича маълумотга эга бўлдик. 1965-йил охирида рақсни қайта ишлаб чиқиш керак деган фикрга келади. Бу борада халқнинг миллий урф-одат, феъл-атвори билан яқиндан танишиб, ўз билим ва тажрибаси асосида илк бор “1966-67 йиллари Нукус хореография мактабига, кейинчалик филармониянинг рақс жамоаларига саҳналаштирганлигини”[6] айтиб ўтди.

“Айқулаш” Қорақалпоқ миллий рақсини таниқли балетмейстер Полат Мадреймов ижоди мисолида тадқиқ қилишда шу рақснинг видео ёзувини кузатдик. Унга кўра иштирокчилар сони 12 қиз ва 12 йигит, жами 24 нафарни ташкил этиб, рақс композицияси икки қисмдан иборат.

1-қисм қизлар ижросида лирик рақс саҳна кўринишида бўлса, 2-қисмда эса мусиқа тезлашиб, йигитлар чиқади ва ҳамма биргаликда рақс ижро этади.

Рақс чизмалари: Оддий ва мураккаб, Ёнига 1 чизик, 2 қатор, китобча, доира, қўш доира, диагональ, симметрик ва бошқа рақс шаклларида фойдаланилган.

Миллий либослари: Қизлар бошига атрофи жигарранг жўндан тикилган айлана шаклдаги пўпакли бош кийим, эғнига қизил рангли кўйлак ва қора рангли нимча, оёғига қизил рангли лозим ва пойабзал кийишган. Йигитлар бошига қорақўл терири бош кийим, эғнига оқ кўйлак, қора нимча, оёғига қора иштон ва этик кийишган.

Рақс ҳаракатлари: “Оддий юришлар”, “Тез юришлар”, “Ёнга сакраш ва тепмали қадамлар”, “Сирғанба адимлар”, “Оддий ва мураккаб айланишлар”, “Қўл чайқаш”, “Қошқар



мўйез”, “Қуў мойин”, “Дарўаза”, “Атқўншек” ва бошқа кўплаб рақс ҳолат ва ҳаракатларидан фойдаланилган.

“Айқулаш” рақси нафақат қорақалпоқ рақс жамоалари балки, Ўзбекистондаги таниқли ансамбль репертуаридан ҳам мустаҳкам ўрин эгаллаб келган. Бунга мисол сифатида “Шодлик” ансамблини айтишимиз мумкин. “Шодлик” ансамбли репертуаридаги “Айқулаш” рақси, Ўзбекистон халқ артисти Қодир Мўминов томонидан сахналаштирилган. Бу сахна кўринишида ўзим ҳам бош ролда иштирок этганлигим сабабли, рақс сценарийси ҳақида маълумот киритиш сезиларли даражада енгилроқ кечди.

1982 йили Африканинг жанубий қисмидаги Мозамбик давлатида Ўзбекистон маданият кунлари муносабати билан Ўзбекистондаги таниқли санъат арбоблари ва санъат жамоалари жалб қилинади. Улар орасида “Шодлик” ашула ва рақс ансамбли ҳам жалб қилиниб, ансамблга Қодир Мўминов бадиий раҳбарлик қилган. Ўшанда репертуарга Қорақалпоқ миллий рақсини кўшиш таклифи тушади. Қодир Мўминовга бу таклиф маъқул келиб, “Айқулаш” куйи ва ашуласини эшитади ва илҳомланади. Қорақалпоқ миллий рақс ҳаракатларини ўрганиб, рақс сахналаштиришни бошлайди ҳамда либослар бўйича рассом давлат мукофоти совриндори Зинаида Куришга миллий либослар ҳақида тушунча бериб ўтади. Қодир Мўминов ижодида ўйин, ашула ва рақс куйга бирлашиб, шу тариқа “Айқулаш” рақс композицияси яратилади.

Рақс композициясида иштирокчилар сони 12 қиз ва 12 йигит, жами 24 нафар иштирокчини ташкил этиб, уч қисмдан иборат. 1-қисм йигитлар ижросида ўйин, 2-қисм қизлар ижросида лирик рақс сахна кўриниши, 3-қисм йигит ва қизлар ижросида тезлашган рақс сахна кўринишидан иборат.

1-қисм: Йигитлар ижросидаги “Кўз байламақ” ўйини билан бошланади. Бунда ўн саноғидан кейин чиққан йигитнинг кўзи боғланган ҳолда жойида бироз айлантирилиб, сўнг атрофидаги шу ҳолатда ушлаши керак бўлади.

Қолган иштирокчилар ундан тахминан 3,4 метр масофада қочиб юришиб ҳар томондан қарсак билан чалғитишади. Қўлга тушган йигитнинг кўзи боғланиб, ўйин шу тариқа давом этади. Кейинчалик ўйиннинг бош қисмига бироз сайқалланиб, бошидаги санок ўрнига “Аўелемен-дуелемен” ўйини қўйилади.

Аўелемен дуўелемен

Салқан ийттин сани менен

Аўез молла қайға кетти?

Аўез молла дузға кетти

Аўез молла қашан келер?

Аўез молла жаз келер

Жаз келмесе гуз келер

Паллам пўш сен тур, сен шық деб бир йигитни чиқаради ва юқоридаги “Кўз байламақ” ўйинига уланиб кетади.

Рақсда кўзи боғланган йигит қарсак чалинган томон гоҳида ўнг, гоҳида эса чап томонга югуриб ушлашга ҳаракат қилади. Орадан кўп ўтмай кўзи боғланган йигит бирдан тўхтаб қолади, сўнг кўзбоғчини аста ечиб ён томонга югуриб кетади. Бу пайт атрофидаги ўртоқлари нима бўлганига ҳайрон бўлишиб, уни кузатишиб туради. Орадан кўп вақт ўтмасдан йигит қайтиб келади ва ўртоқларига чиройли қизлар улар томонга келаётганини айтади. Йигитлар қизларни кузатишиб, улар манзилга келганида чиқишиб биргаликда “Айқулаш” ўйинини ўйнашларини айтишиб беркинишга кетишади.



2-қисм: Қизлар чиқиши Жури қизлар суў бойина барайиқ,  
Ўткен кеткен жигитлерди кўрейиқ,  
Жақсиларын сайлап, сайлап алайиқ,

Жаманларын суўға ийтерип салайиқ, деган ашула билан бирга рақс ижро этиб чиқишади. Рақсинг якуний қисмида қизлар катта доира ҳосил қилишади ва беркинган йигитлар доира ичига кириб олишади. Бу пайт қизлар тезлик билан қочиб икки ён томонга тўғри чизик бўлишиб жойлашишади.

3-қисм: мусиқа темпи тезлашади, йигитлар ва қизлар биргаликда рақсга тушишади. Ашуланинг нақорат қисмида раққос ва раққосалар ҳам жўр бўлишиб савол-жавоб тарзида Айқулаш рақси давом этади.

Нақорати: Ҳамма: Айқулаш, айқулаш,  
Ҳамма: Айға қарап қулаш аш.  
Қизлар: Айдан басқа не керек?  
Йигитлар: Айдан артық қыз керек.

Рақсинг якуний қисмида ҳамма иштирокчи қиз ва йигит жуфт бўлишиб, сахна марказида икки тўғри қаторли тепаси ёпиқ йўлак ҳосил қилишади. Барча жуфтликлар навбати билан йўлак остидан чиқиб, ўнг ва чап томонларга чиқиб кетишиб асар ўз ниҳоясига етади.

Рақс чизмалари: Ёнига 1 чизик, 2 қатор, 4 китобча, доира, қўш доира, диагональ, симметрик ва бошқа рақс шаклларида фойдаланилган.

Миллий либослари: Қизлар бошларига қизил рангли “Бас орау” бош кийим, эғнига оч қизил рангли кўйлак, устидан кўк рангли узун энгли камзул, оёғига оч қизил рангли лозим ва қизил рангли пойабзал кийишган. Йигитлар бошига оч кўк рангли жунли бош кийим, эғнига оқ кўйлак, устидан кўк рангли калта камзул, оёғига кўк иштон ва қизил этик кийишган.

Рақс ижросида “Оддий қадам”, “Аўмаспали қадам” “Тез юришлар”, “Ёнга сакраш ва тепмали қадамлар”, “Сырғанба адымлар”, “Оддий ва мураккаб айланишлар” “Қўл чайқаш” “Қошқар мўйез”, “Қуў мойин” “Дарўаза”, “Атқўншек” ва бошқа кўплаб рақс ҳолат ва ҳаракатларидан фойдаланилган. Мазкур маълумотлар Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон телевидениеси архив видео ёзувларини кузатув, бакалавр битирув малакавий ишлари, магистрлик диссертацияси ҳамда миллий рақс адабиётлари билан яқиндан танишув, “Айқулаш” рақси муаллифлари билан ижодий суҳбатлар ўтказиш натижасида ҳосил бўлиб, ундаги ўхшаш ва фарқли томонлар атрофлича ўрганилди.

Ҳозирги кундаги “Айқулаш” қорақалпоқ миллий рақси Лизахоним Перосовадан олдин ҳам халқ орасида мавжуд бўлиб, унга қадар бир неча санъат усталари томонидан турли театр сахна кўринишларида сахналаштириб, халқ ўйини асосида яратилган халқ рақси сифатида қаралиб келинган. Лизахоним Перосова “Айқулаш” рақсини 1959-йили яратган бўлса, 1941-йил Тамара Иброҳимова томонидан сахналаштирилган.

“Айқулаш” рақсини 1957-йил Тошкент шаҳрида ўтказилган Қорақалпоқ адабиёти ва санъати кунларида сахна юзини кўрганлигининг гувоҳи бўлдик. Булардан келиб чиқиб Лизахоним Петросова уни сахнавий кўринишга тайёрлаб қайта ишлаган ва илк бора алоҳида рақс композиция қилиб яратган, дейиш мумкин. Лизахоним Перосовадан сўнг “Айқулаш” рақсини таниқли рақс усталари, халқ артистлари Полат Мадреймов 1966-67 йиллари ҳамда Қодир Мўминов 1982-йиллари ўз услубларидан келиб чиқиб, қайта сахналаштиришган.



В. Шафранниковнинг халқ куйи асосида қайта ишланган мусикасидан ва Н. Дауқараев сўзидан фойдаланилгани, ўхшаш жиҳати деб оладиган бўлсак, асар мусикаси ва ашуланинг кўп ёки кам ижро этилиши билан бир-биридан фарқланади, дейишимиз мумкин. Масалан, Петросова 156 мусиқа такт ва 24 қатор сўз ишлатиб, Мадреймов 4/4, мусиқа ўлчамга 36 такт,

2/4 га 162, жами 198 мусиқа такт, 26 қатор сўзга рақс саҳналаштирган. Мўминов 4/4 мусиқа ўлчамига 6 такт хиргойи, 30 такт, 2/4 га 78 жами 114 тактга рақс саҳналаштириб, унда 16 қатор сўздан фойдаланган.

Рақс тасвирлари: учта асарда ҳам оддий ва мураккаб, ёнига 1 чизик, 2 қатор, китобча тасвири, доира, қўш доира, диагональ, симметрик, асимметрик ва бошқа рақс шакллари кизатиш мумкин. Аммо Петросованинг қизлар чиқиши жараёни, бир вақтда 2 очик ва 1 ёпик ярим ой шакли, саҳнанинг 4 тарафида 4 та доирага йиғилишидаги динамик рақс шаклларида фойдаланиши, бошқа балетмейстер асарларидан фарқли тамони ҳисобланади.

Рақс ҳаракатлари: “Қошқар муйез”, “Қуё мойин”, “Салма”, “Қўл чайқаш”, “Оддий қадам”, “Аўмаспали қадам”, “Тез юришлар”, “Ёнга сакраш ва тепмали қадамлар”, “Атқўншек” ҳаракат ва ҳолатларидан учта балетмейстер ижодида ҳам кенг фойдаланилган бўлса, Л.Петросованинг “Табанди сиртқа силкип журиў”, “Сирғанба адимлар” ва бошқа шунга ўхшаш рақс ҳаракатлари билан бошқаларидан кўпроқ фарқланган.

Аёллар миллий либослари Петросова билан Мадреймов рақсларида бошига атрофи жунли айлана шаклдаги бир хил бош кийимдан фойдаланган бўлса, Мўминовда эса қизил рангли “Бас орау” бош кийишган. Петросова билан Мўминов рақсларида эғнига қўйлак устидан узун камзул кийишиб, улар ранг жиҳатдан фарқланган. Мадреймов ижодида қизил қўйлак устидан қора нимча кийишган. Мадреймов билан Мўминовда оёғига қизил рангли лозим ва пойабзал, Петросовада кўк бархитдан лозим, қора рангли этик кийишган.

Йигитлар миллий либослари учта балетмейстер ижодида ҳам деярли бир хил бўлиб, улар фақат ранги билан фарқланган. Петросова билан Мўминовда шим (иштон) нимча кўк рангда, Мадреймов рақсида қора рангда. Қоракўл терисидан бош кийим қора рангда, Мўминовда кулранг. Ҳаммада оқ қўйлак, оёқларида қора этик, Мўминовда қизил этик кийишган.

Барчалари асосан бир хил безаклардан фойдаланишган. Кўкрак тақинчоғи “Ҳайкел” бўлиб, бармоғига “Чак-чак” тақишган.

“Айқулаш” қорақалпоқ миллий рақс композицияси юзасидан олиб борилган илмий изланишлар шуни кўрсатадики, асар куй-қўшиқ, воқеа ғояси жиҳатидан барча балетмейстерлар ижодида бир хиллик касб этган. Бундай ўхшашлик рақс ҳаракатлари, миллий либослар ва рақс тасвирларида кузатилиб, айнан шу таркибий қисмида фарқли томонлари ҳам мавжуд бўлган. Рақснинг умумий тузилиш жиҳатдан кўпроқ ўхшашлик Лизахоним Петросовага нисбатан Полат Мадреймов билан Қодир Мўминовларнинг ижодида кузатилган бўлса, Қодир Мўминовнинг экспозиция қисмига киритган театрлашган ўйин саҳнаси асарнинг ўзига хос сайқал топишига замин яратган.

Илмий изланиш ва таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, Тошкент вилояти ва Қозоғистон ўзбеклари орасида кенг тарқалган “лапар” қорақалпоқча “айтишув”га мос келади. Масалан: қорақалпоқларда “Айтишув”, бир даврада йигит ва қизлар тарафма-тараф бўлиб, алоҳида икки қарама-қарши гуруҳ бўлишиб диалог шаклида ижро этилади. Бунда асосан сўз усталиги қўл келиб, йигит ва қизнинг муҳаббат кечинмалари, орзу-умидлари акс этади, шунингдек, енгил ҳажв ва юмор ҳам қўшилиб кетади. Худди шу нарса лапарнинг 1-тури “Тўй маросими, халқ сайли, ҳашар ва йиғинлар лапар”га тўлиқ мос келади.

Бундан ташқари Хоразм халфалари, Бухоро созандалари орасида кенг тарқалган лапарнинг 2-тури “Ўйин лапар”даги “Билакузук”, қорақалпоқ фольклорида келтирилган “Билакузук” номли айтишув ашуласига тўлиқ мос келади. Лапар-фольклор лирик куйига ашула ва рақснинг бирлашуви натижасини ҳосил қилиб, ундаги йигит - қизлар алоҳида гуруҳ бўлиб ҳазиломуз сўзлар билан мулоқот қилиши бўлади, бу жараёни “Айқулаш” қорақалпоқ миллий рақсидаги йигит - қизларнинг савол-жавоб айтишувларига ўхшатиш мумкин.

“Айқулаш” қорақалпоқ миллий рақси анча йиллардан бери кўпчилик балетмейстерлар томонидан саҳналаштирилиб келинган. Шу боис “Айқулаш” рақси юзасидан олиб борилаётган илмий изланишларимизни бир нечта тажрибали, профессионал балетмейстерлар ижоди мисолида таҳлил қиламиз. Қорақалпоқ миллий рақс мактабининг илк асосчиларидан бири Лизахоним Петросова ўз китобида “Айқулаш” қорақалпоқ хоровод рақсини 1959- йили яратиб, ундаги мавзунини тўлиқ ой пайти ўйналадиган қорақалпоқ йигит-қизлар ижросидаги

Руҳий ҳолат ифодаловчи феъллар ижобий ва салбий эмоционал жараёнлар ва улар билан боғлиқ ҳолда инсоннинг кайфиятида, руҳиятида рўй берадиган турлича ўзгаришларни ифодалайди. Ўзбек тилида уларнинг кўлами анча кенг бўлиб, нутқимизда ҳам фаол қўлланади. Одатда, руҳий ҳолат билдирувчи сифат ҳолат билдирувчи сифатларнинг ички тури сифатида белгиланади. Таниқли ёзувчи Ш.Исахонованинг “Бибиҳоним”, “Гавҳаршодбегим” каби тарихий романларида руҳий ҳолат феъллари ва унинг равишдош, сифатдош шакллари шунингдек, сифатлар ва иборалар муаллиф нутқида, яъни персонажлар характери ва руҳий ҳолатини тавсифловчи ёки бир персонажнинг бошқа бир персонаж тавсифини келтирган ўринларда нисбатан кўпроқ қўлланади. Маълумки, жисмоний ҳолат феъллари билан ифодаланадиган инсоннинг ташқи кўринишидаги ҳолатлар ва хатти-ҳаракатлар ҳам, кўпинча, ички руҳий ҳолат билан боғлиқ равишда кечади ва китобхонда катта таассурот уюлдиради. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари объектив асосига кўра табиат ва жамиятдаги, ўсимликлар ва ҳайвонот оламидаги, инсон биологияси, физиологияси ва психикаси билан боғлиқ муайян жараёнларни ўз ичига олади. Мазкур мақолада таниқли ўзбек ёзувчиси Шаҳодат Исахонованинг тарихий романларида инсон психологик ҳолатини ифодаловчи тил бирликлари тадқиқ қилинган.

**Калит сўзлар:** инсон, руҳият, ҳолат, ибора, бирикма, феъл, муносабат, эмоция, тасниф, жараён, кайфият.

**Шоирахон Умарова,**

Независимый исследователь

Ферганского государственного университета

## ЯЗЫКОВЫЕ ЕДИНИЦЫ, КОТОРЫЕ ОБОЗНАЧАЮТ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЯ ЧЕЛОВЕКА (на примере романов Ш. Исахановой)

### АННОТАЦИЯ

Глаголы, выражающие психическое состояние, выражают положительные и отрицательные эмоциональные процессы и различные изменения, происходящие в настроении и психике человека в связи с ними. В узбекском языке их сфера применения достаточно широка, и они активно используются в нашей речи. Обычно прилагательное психического состояния определяют как внутренний тип прилагательных состояния. В исторических романах

известной писательницы Ш.Исахановой, таких как «Бибиханим», «Гавхаршодбегим», в авторской речи относительно чаще встречаются глаголы психических состояний и их относительные, прилагательные формы, а также прилагательные и выражения, что е., в тех местах, где описываются характер и душевное состояние персонажей или где один персонаж описывает другого персонажа. Условные глаголы в узбекском языке включают в себя по своей предметной основе определенные процессы, связанные с природой и обществом, флорой и фауной, биологией, физиологией и психологией человека. В данной статье исследуются языковые единицы, репрезентирующие психологическое состояние человека в исторических романах известной узбекской писательницы Шаходат Исахановой.

**Ключевые слова:** человек, психика, ситуация, словосочетание, соединение, глагол, отношение, эмоция, классификация, процесс, настроение.

**Shoirakhan Umarova,**

Independent researcher at Fergana State University

## REPRESENTATIVE OF THE PSYCHOLOGICAL STATE OF A HUMAN LANGUAGE UNITS (using the example of novels by Sh. Isakhanova)

### ANNOTATION

Verbs expressing mental state express positive and negative emotional processes and various changes that occur in a person's mood and psyche in connection with them. In the Uzbek language, their scope of application is quite wide, and they are actively used in our speech. Typically, a mental state adjective is defined as an internal type of state adjective. In the historical novels of the famous writer Sh. Isakhanova, such as "Bibihanim", "Gavharshodbegim", in the author's speech verbs of mental states and their relative, adjective forms are relatively more common, as well as adjectives and expressions, that is, in those places where describes the character and state of mind of the characters or where one character describes another character. Conditional verbs in the Uzbek language include, in their subject matter, certain processes related to nature and society, flora and fauna, biology, physiology and human psychology. This article examines linguistic units that represent the psychological state of a person in the historical novels of the famous Uzbek writer Shakhodat Isakhanova.

**Key words:** person, psyche, situation, phrase, connection, verb, attitude, emotion, classification, process, mood.

Инсоннинг психологик ҳолати ҳолат ифодаловчи феъллар, иборалар, кенгайган бирикмалар, ундов сўзлар ва бошқа тил бириклари орқали ифодаланиши мумкин. Таникли ёзувчи Шаходат Исаханова асарларида ана шундай куюқ бўёқдор тасвирий ифодалар самарали қўлланган. Таҳлилларимиз шуни кўрсатадики, Ш.Исаханованинг тарихий романларида рухий ҳолат феъллари ва унинг равишдош, сифатдош шакллари шунингдек, сифатлар ва иборалар муаллиф нутқида, яъни персонажлар характери ва рухий ҳолатини тавсифловчи ёки бир персонажнинг бошқа бир персонаж тавсифини келтирган ўринларда нисбатан кўпроқ қўлланади.

Маълумки, ўзбек тилида ҳолат феъллари 4 турга ажратилади:

- а) ички ҳолат (рухий кечинмалар билан боғлиқ): элаш, унутиш, ёдлаш, тубанлашмоқ;
- б) ташқи ҳолат (ички ҳолатнинг намоён бўлиши билан боғлиқ): хафа бўлмоқ, шодланмоқ, эсанкирамоқ, довдирамоқ, ғазабланмоқ;
- в) жисмоний ҳолат (инсон танаси билан боғлиқ): ҳолсизланмоқ, куймоқ, кучланмоқ, заифлашмоқ;
- г) ижтимоий ҳолат (жамият билан боғлиқ): бойимоқ, камбағаллашмоқ, кўтарилмоқ, урилмоқ, қувғин бўлмоқ [6;178]

Бу ўринда шуни ҳам айтиб ўтиш жоизки, жисмоний ҳолатни ифодаловчи айрим феъллар кўчма маънода рухий ҳолатни ифодаловчи феълга айланади.

1. Аямнинг қўли **куйиб** уйда касал ётибди, ишга боролмаяпти", - дедим...(Сўзлашув нуткидан)

2. Операция ва дори-дармонлар Зумрад Содиқовнани анча **заифлаштириб қўйган экан**. Зинапоядан тўртинчи қаватга кўтарилгунча нафаси тикилиб, уч-тўрт марта тўхтаб олди. (П.Қодилов, "Олмос камар")

3. Ёлғиз кизидан бир умр айрилганига **куйиб**, адойи тамом бўлаёзган аёл худди сувсизликдан қовжираб, сўлий бошлаган ниҳол беҳос ёққан ёмғирдан тирилгани каби қоксуяк танасига жон эниб, ғам-андудан бемаврид ажин тушган юзи ёришганича, унга тикилиб-тикилиб қарар, ўзини қўйрага жой тополмай, жилмаярди. (Ш.Исахонова, "Бибиҳоним")

4. Бибиҳоним гапираркан, кўксини аччиқ бир нарса **куйдириб ўтганини** ҳис қилди. (Ш.Исахонова, "Бибиҳоним")

5. Гавҳаршод бегим зиналардан пастга қандай энди, ўзи ҳам билмади. **Бўғзини куйдираётган** хўрлик, бағрини эзаётган андух шу қадар кучли ва аламли эдики, бундай аччиқ изтиробни у ҳаёти давомида иккинчи маротиба туймоқда эди... (Ш.Исахонова, "Гавҳаршодбегим")

6. Бибиҳоним Кўксаройга элтадиган мармар йўлаклардан юриб бораркан, кечадан бери ҳаёлини таъқиб этаётган ички бир ваҳимани қувишга ҳаракат қилар, ўзини чалғитиш учун ҳаётидаги ширин ва қувончли дамларни эслар, лекин негадир тобора **заифлашиб**, сўниб **бораётган руҳи** ихтиёрига бўйсунмаётган эди. (Ш.Исахонова, "Гавҳаршодбегим")

1-, 2-жумлалардаги куймоқ, заифлашмоқ феъллари ўз маъносида жисмоний ҳолатни ифодаласа, 3-, 4-, 5-, 6-жумлалардаги шу феъллар кўчма маънода руҳий ҳолатларни ифодалаган.

Ҳолат феъллари Р.Расулов томонидан монографик планда тадқиқ қилинган. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари объектив асосига кўра табиат ва жамиятдаги, ўсимликлар ва ҳайвонот оламидаги, инсон биологияси, физиологияси ва психикаси билан боғлиқ муайян жараёнларни ўз ичига олади. Демак, ҳолат феъллари моддий асосига (объектига) кўра кенглиги ва мураккаблиги, материяга ҳос турлича ҳолатларни ўзига "жойлаштириши" билан бошқа семантик майдонга кирувчи феъл лексемалардан ажралиб туради. [4;18]

Шу билан бирга, "Фарқловчи семалар ўзбек тилидаги ҳолат феълларининг мустақиллигини кўрсатувчи семантик белги сифатида хизмат қилади. Уларда сўз маъносининг ўзига ҳосликлари, ҳиссий-таъсирчан бўёғи, нутқий ҳосланиши акс этади" [5;6].

Р.Расулов ҳолат феълларининг ички турларидан бири сифатида "психик ҳолат феъллари"ни атрофлича тадқиқ қилар экан, инсоннинг ҳолат феъллари таъсирчанлик (коннотация) даражаси ортиқлиги, кучлилигига кўра алоҳида аҳамиятли эканлигини таъкидлайди, ва ўз навбатида, уларни икки гуруҳга ажратади:

а) ижобий муносабат ифодаловчи ҳолат феъллари;

б) салбий муносабат ифодаловчи ҳолат феъллари.

Мазкур монографияда ижобий ва салбий муносабат ифодаловчи психик ҳолат феъллари ҳамда бу гуруҳларга киритилмаган бир қатор руҳий ҳолат феълларининг ички семантик гуруҳлари таснифланган.

1. Ижобий муносабат ифодаловчи ҳолат феъллари:

а) хурсандлик: қувонмоқ, суюнмоқ, севинмоқ, яйрамоқ, шодланмоқ;

б) қониқмоқ (қаноат ҳосил қилмоқ): қонмоқ, туймоқ, мириқмоқ, қониқмоқ, қаноатланмоқ, лаззатланмоқ, ҳузурланмоқ, роҳатланмоқ;

в) "завқ-шавқ": завқланмоқ, шавқланмоқ, мароқланмоқ;

г) кўтаринкилик: руҳланмоқ, дадилланмоқ, дадиллашмоқ, умидланмоқ, тетикланмоқ;

д) "ҳис-ҳаяжон": ҳаяжонланмоқ, таъсирланмоқ, тўлқинланмоқ;

е) "кибр-ҳаво": кеккаймоқ, керилмоқ, гердаймоқ, серраймоқ, ғўдаймоқ, чиранмоқ, шишинмоқ, мағрурланмоқ, ғурурланмоқ, фахрланмоқ, кибрланмоқ, ҳаволанмоқ;

ё) "диққат-эътибор қилмоқ": қизиқмоқ, ҳавасланмоқ, суқланмоқ;

ж) "рози бўлмоқ": кўнмоқ, унамоқ, юрмоқ;

з) "интилмоқ": кўмсамоқ, орзиқмоқ, зориқмоқ.

- и) “ҳовуридан тушмоқ”: юмшамоқ, бўшашмоқ, мулойимлашмоқ, яхшиланмоқ;
- к) “тинчланмоқ”: овунмоқ, юпанмоқ, тинчимоқ, тинчланмоқ, хотиржамланмоқ.

Бизнингча, “кибр-ҳаво” семали руҳий ҳолат феълларининг “ижобий” гуруҳга киритилиши ўринли эмас, чунки кибр-ҳаво, манманлик салбий ҳислат ҳисобланади.

## 2. Салбий муносабат ифодаловчи ҳолат феъллари:

- а) “жаҳли чиқмоқ”: ғижинмоқ, ижирғанмоқ, қизишмоқ, ёнмоқ, ҳўмраймоқ, шумшаймоқ, олаймоқ, ўқраймоқ, ғазабланмоқ, қаҳрланмоқ, аччиқланмоқ, шиддатланмоқ, асабийлашмоқ;
- б) “ҳазар қилмоқ”: безмоқ, ирганмоқ, йирганмоқ, жирканмоқ, нафратланмоқ;
- в) “қўркув”: қўркмоқ, ҳайиқмоқ, чўчимоқ, сесканмоқ, ҳадиксирамоқ, хавфсирамоқ, хавотирланмоқ, хавфланмоқ, босинқирамоқ, зирилламоқ;
- г) “қийналмоқ”: эзмоқ, эзилмоқ, бўғмоқ, бўғилмоқ, сиқилмоқ, қийналмоқ, қовурмоқ, қовурилмоқ, қисилмоқ, ўртамоқ, ёнмоқ, куймоқ, азобланмоқ, хомушланмоқ, хасталанмоқ, сарғаймоқ;
- д) “хафа бўлмоқ”: ранжимоқ, қайғурмоқ, қайғуланмоқ, ташвишланмоқ, ўпкаламоқ;
- е) “кўнгли қолмоқ”: совимоқ, музламоқ
- ё) “қайғурмоқ (хайрихоҳлик)”: ачинмоқ, қойимоқ, куймоқ, қойинмоқ, куйинмоқ, ўксимоқ, ўкинмоқ, қайғурмоқ, ёнмоқ, зорланмоқ;
- ж) “нотинч”: ҳаприқмоқ, хавотирланмоқ, безовталанмоқ, бетинчланмоқ, тинчсизланмоқ, бетоқатланмоқ, тоқатсизланмоқ.

Р.Расулов “ижобий” ва “салбий” муносабат ифодаловчи турларидан ташқари яна алоҳида қуйидаги руҳий ҳолат феълларини ҳам ажратиб кўрсатади:

- а) “ишонмаслик”: шубҳаланмоқ, гумонланмоқ, гумонсирамоқ;
- б) “хайронлик”: ажабланмоқ, таажжубланмоқ, ҳайратланмоқ;
- в) “ноқулай сезмоқ”: уялмоқ, ийманмоқ, тортинмоқ, орланмоқ, ўнғайсизланмоқ, қизармоқ, қимтинмоқ;
- г) “ўзини йўқотмоқ”: гангимоқ, ганграмоқ, эсанкирамоқ, обдирамоқ, довдирамоқ, қаловла(н)моқ, гарангламоқ, гарангси(ра)моқ, талмовсирамоқ, менгровсирамоқ;
- д) “қатъиятсизлик”: тараддудланмоқ, иккиланмоқ;
- е) “хушёрлиги ортмоқ”: сергакланмоқ, жиддийлашмоқ.

Таснифлаш тамойилига кўра учинчи гуруҳ ҳам номланишни талаб қилади, шу нуқтаи назардан, бу гуруҳни “муносабат ифодаланмайдиган ҳолат феъллари” деб номлашни таклиф қиламиз.

М.О.Абдуллаева “Салбий муносабат ифодаловчи руҳий жараён феъллари” мақоласида Абдулла Қодирий романларида бундай феъллар хабар (дарак) мазмуни билан бирга таъсирчанлик ифодалаши, баъзи ҳолларда эса таъсирчанлик хабар (дарак) мантикий ифодасига нисбатан устунлиги, ортиқлиги билан фарқланиши хусусида фикр юритилади.

Демак, китобхоннинг эътиборини тортадиган тасвирлар, яъни руҳий ҳолат ифодаловчи феъллар ижобий ва салбий эмоционал жараёнлар ва улар билан боғлиқ ҳолда инсоннинг кайфиятида, руҳиятида рўй берадиган турлича ўзгаришларни ифодалайди. Ўзбек тилида уларнинг кўлами анча кенг бўлиб, нутқимизда фаол қўлланади.

Руҳий ҳолат билдирувчи сифат ҳолат билдирувчи сифатларнинг ички тури сифатида белгиланади: хафа, ғамгин, маъюс, хурсанд, шод. [6;224]

Хонлар бегимнинг **мамнунлигини** ҳам, **хафалигини** ҳам билиб бўлмасди. (Ш.Исахонова, “Бибиҳоним”)

– Мавлоно ҳазратлари, сизни кўрганимдин **хурсандмен...** – деди Шохрух мирзо жилмайишга ўхшаш кинояли табассум билан. – Лек қулоқларим туйган хабардин дилим қанчалик озор чекканини сўйлашга тилим бормайдур! Ёш, тажрибасиз шахзодамизга сиздай ёши улуғ, кўпни кўрган, донишманд, энг асосийси, ота қадрдонимиз суянч, таянч бўладур деган маънода ўзим ҳузурига йўллаганимдин афеусдамен. Чунки бул қадар шаккокона байтлар бирлан анинг кўнглини бузмоқни ҳар касдин кутган бўлсам ҳам, сиздин бекламаган эрдим! (Ш.Исахонова, “Гавҳаршодбегим”)

Мазкур парчада эса хурсанд сифати кесим вазифасида келиб, киноя усули билан тескари маъно англатиб, сўзловчининг хурсанд эмас, аксинча, ҳамсухбатидан хафа эканлиги ифодаланмоқда. Кейинги жумлаларда эса ана шу хафалик сабаблари изоҳланган.

Хафа, хурсанд лексемалари, кўпинча, хафа бўлмоқ, хурсанд бўлмоқ каби кўшма феъллар таркибида учрайди.

- Менинг кўнглимга эрса, негадур ғалати бир совуқлик кирмиш, - деди **хафа бўлган** Бибихоним ва кўзларига қалққан ёшни кўрсатмаслик учун юзини ўгирди-да, тез-тез юрганича, бориб манқалнинг кул босган чўғларини пуфлай бошлади. (Ш.Исахонова, “Бибихоним”)

- Махди улё малика бибимиз менинг тирик эрканлигимни билдиларму? – деди эшик оғасининг ортидан ичкарига кирган Турконшоҳга. – Камон ўқининг оғриғига қандай чидаганимни ҳам айтдингизму?

- Айтдим, ҳаммасини айтдим, олампаҳо! Неки деган бўлсангиз ҳеч бирини қолдирмадим! Махди улё бибингиз роса **хурсанд бўлдилар!** – қўлидаги тугунни бир четга кўйганича, таъзим қилди Турконшоҳ ва Алишербекка кўзи тушиб, салом берди. – Сизларга маликамининг бир дунё саломларини келтирдим! (Ш.Исахонова, “Гавҳаршодбегим”)

Одатда, жисмоний ҳолат феъллари билан ифодаланадиган инсоннинг ташқи кўринишидаги ҳолатлар ва хатти-ҳаракатлар ҳам, кўпинча, ички рухий ҳолат билан боғлиқ равишда кечади. Хусусан, Ш.Исахонова асарларида ана шундай вазиятлар **сифатдош оборот + кўйи кўмакчиси + феъл (ёки ибора)** шаклида ифодаланиши кузатилди.

- Шод Мулк... – устанинг оғзидан ҳайрат тўла мана шу сўздан бошқа жўяли гап чиқмади. Шошиб қолганидан **ақли-хуши бошидан учган кўйи** сўз ахтариб, ёнидаги жиянига ўтирилди. – Уни танидингму?! Ўзимизнинг Шод Мулк эркан! (Ш.Исахонова, “Бибихоним”)

Матндаги ақли-хуши бошидан учган кўйи ифодаси персонажнинг ҳаяжонланганини, ички руҳиятида зўриқиш, хурсандлик кучлилигини англатади.

Амир Худойдод Ҳусайнийнинг кўзлари тубига яширинган ҳадикни, кўркув аралаш қахрли шумликни биргина эшик оғаси илғади. Лекин кўнглига келган гумонни Шод Мулкка билдиришнинг имконини тополмади, томоқ кирганича, атрофида айланган бўлса-да, шубҳасини ичига ютди. Юраги ёмонликни ҳис этиб, тахтиравонли шоҳона арава кўздан йўқолганича, **мум тишлаган кўйи** нуқтага айланаётган суворийларга термулиб қолди. (Ш.Исахонова, “Бибихоним”)

Айтилиши керак бўлган гапни айта олмайдиган вазиятда инсон ботинида ички зиддият кучаяди, ўзи билан ўзи курашиб, индамасликка мажбур бўлади. Эшик оғасининг мана шундай ҳолатини “мум тишламоқ” ибораси ўринли ифодалай олган.

Ю.Д.Апресян ҳис-туйғу, рухий кечинмаларни ифодаловчи сўзларни эмоционал тизим доирасида уч турга ажратади.

**Эмоция** – [французча emotion < лотинча emovere – ҳаяжонга солмоқ, тўлқинлантирмоқ]. Ташқи ва ички қўзғатувчилар таъсири натижасида одам ва ҳайвонларда пайдо бўладиган рухий кечинма; ҳис-туйғу; ҳис-ҳаяжон; қўзғалиш. (ЎТИЛ, 5-жилд, 37-б.)

1. Эмоцияни ифодаловчи асосий лексемалар сифатида кўркмоқ, жаҳли чиқмоқ, хайрон бўлмоқ каби феъллар, шодлик, қувонч, бесаранжомлик каби отлар, хурсанд, хафа, безовта каби сифат ва равишларни ажратиб кўрсатади.

2. Ушбу асосий луғатга қўшимча равишда, ҳис-туйғуларни тўғри маънода англатмаган ҳолда, уларнинг маъносида субъектнинг бирон бир ҳаракатни амалга ошириш ёки мавжуд бўлиш пайтидаги турли хил ҳиссий ҳолатларини кўрсатадиган сўзларни ҳисобга олиш кераклигини таъкидлайди - ҳайратланмоқ, эътибор бермоқ, кузатмоқ, тўлқинланмоқ каби.

3. Эмоциянинг физиологик белгиларини ифодаловчи метафорик маънодаги тил бирликлари: кўзлари чакнамоқ, чарақламоқ, ёнмоқ, тутамок каби. [1;37-65]

Шунингдек, олима эмоцияни ифодаловчи тил бирликларини субъектнинг воқеликка муносабати натижасида пайдо бўлган ҳолатларни (ваҳимага тушмоқ, ҳовлиқмоқ, ғазабланмоқ) ҳамда ички ҳис-туйғулардан келиб чиқадиган рухий ҳолатларни (ўзини яхши ҳис қилмоқ) ифодаловчи сўз ва ибораларга ажратади. [1;37-65]

Ю.Д.Апресяннинг фикрларига таянган ҳолда ўзбек тилидаги руҳий ҳолат ва унинг физиологик кўринишларини ифодаловчи кўчма маъноли сўзлар ва фразеологизмларни таҳлилга тортамыз.

Л.Долиева француз тили материаллари асосида эмотив фразеологизмларни ўрганар экан, Л.М.Васильевнинг рус тили феъллари семантик таснифига таснифига таяниб, уларнинг уч турини белгилайди:

эмоционал ҳолат

руҳий ички кечинма

эмоционал муносабат. [3;22-30]

Дарҳақиқат, Л.М.Васильевнинг ақлий-психологик фаолиятга доир феълларни семантик гуруҳларга ажратиш тамойили Психоллингвистикага оид тил бирликларини чегаралашда назарий асос бўла олади. Чунки ушбу таснифда инсон онгида кечадиган эмоционал-руҳий ва психологик жараёнлар кенг қамровда олинган:

ҳис-туйғу феъллари,

истак феъллари,

идрок феъллари,

диққат феъллари,

руҳий ҳолат феъллари,

эмоционал кечинма феъллари,

эмоционал муносабат феъллари,

тафаккур феъллари,

билиш феъллари,

хотира феъллари. [2;]

Л.М.Васильевнинг ўзи таъкидлаганидек, таснифдаги биринчи етти тур ҳис-туйғулар билан, охирги уч тур эса фикрлаш, тафаккур қилиш жараёнлари билан боғлиқлигини назарда тутиб, психоллингвистик тил бирликларини қуйидаги семантик гуруҳлар доирасида белгилаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз: ҳис-туйғу, истак, идрок этиш, диққат, руҳий ҳолат, эмоционал кечинма, эмоционал муносабат ва буларга қўшимча равишда психо-физиологик ҳолат.

Ю.Д.Апресян ва Л.М.Васильевларнинг фикрларига таянган ҳолда ўзбек тилидаги руҳий ҳолат ва унинг физиологик кўринишларини ифодаловчи кўчма маъноли сўзлар ва фразеологизмларни таҳлилга тортамыз.

Ирискулибий “ҳеч нарсадан хабарим йўқ” дегандай бош чайқади. Ер остида илон кимирласа биладиган Жумабий қайтоқи ҳам елка қисгач, шайхулисломнинг **патагига қурт тушди**. (Ш.Исахонова, “Нодираи даврон”)

**Патак** — оёқ кийими ичига қалин ва юмшоқ матодан қирқиб солинадиган тўшама. **Патагига қурт тушди** айн. **пайтавасига қурт тушди** иборалари безовта бўлиб, ташвишланиб, елиб-югуриб қолди (ЎТИЛ, 3-жилд, 204-, 236-б.) деган маънони англатади.

Абусайд мирзо ялт этиб волидасига қаради. Қовоқларини уйганича, нимадир дейишга чоғланди-ю, лекин индамади. У чиндан ҳам Робия Султонни ёқтириб қолган, лекин бу ҳақда ҳатто волидасига ҳам оғиз очишга **юраги бетламасди**. (Ш.Исахонова, “Гавҳаршодбегим”)

— Ўлим ҳақ... — Шохрух мирзонинг кўзларидаги нур сўнггандай бўлди. Гавҳаршод бегимнинг қўлларини тутиб турган бармоқлари ҳам бўшашди. — Лек менсиз, ёлғиз сизга кийин бўладур, Гавҳарим...

Гавҳаршод бегимнинг **юраги бир қалқиб тушди**. (Ш.Исахонова, “Гавҳаршодбегим”)

Контекстдаги **юраги бир қалқиб тушди** ибораси Шохрух мирзо фақат илк келинлик даврида шундай чақирганлиги ёдига тушиб, маликанинг қалбидаги ширин хотиралар уни ҳаяжонга солганлигини қисқа ва лўнда, образли тарзда ифодалашга хизмат қилган.

— Маҳди улё маликам... — **нафаси ичига тушиб кетган** меъмор Шерозий елкаларини қисди.

— Э, э, э... ас... салому алай...кум! — қиз кириб кетган хонақоҳдан чикқан Бойсунғур мирзонинг афт-ангорига кўзи тушган маликанинг **юраги орқасига тортиб кетди**. Шаҳзода


оёқда базўр турар, сўзларни қийналиб гапираётганлигидан лаблари қийшайиб кетарди. (Ш.Исахонова, “Гавҳаршодбегим”)

Бойсунғур мирзонинг қурилиш майдонида канизак билан қувалашиб юргани устига маҳди улё Гавҳаршодбегимнинг келиб қолиши меъморни ҳам нокулай аҳволга солиб қўяди, бундан ўта хижолат бўлган ва ҳаяжонланган ҳолати **нафаси ичига тушиб кетган** ибораси орқали ифодаланган. Шаҳзоданинг ўзини бу тахлит тутиши эса Гавҳаршодбегимга ҳам қаттиқ таъсир қилади, унинг ҳолатидан чуқур изтиробга тушади. Маликанинг воқеликка нисбатан ички рухий муносабати **юраги орқасига тортиб кетди** иборасида образли тасвирланиб, экрессивликни таъминлаган.

Хулоса қилиб айтганда, турли психологик-эмоционал ҳолатларнинг бадий ифодасида ҳолат феъллари, сифат, равиш, кенгайган бирикма ва иборалар фаол қўлланилиб, ҳар бирининг ўзига хос функционал жиҳатлари намоён бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания // Вопросы языкознания. 1995. № 1.
2. Васильев Л.М. Семантика русского глагола. Москва: Высшая школа, 1981.
3. Долиева Л. Эмотив фразеологизмлар – ҳиссиётлар инъикоси (француз тили материалида) // Хорижий лингвистика ва лингводидактика.. 2023, № 2.
4. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент: Фан, 1989.
5. Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. Монография 2-. нашри. – Т: 2008.
6. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Бокиева Г.Х., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. Т.: 2006.
7. Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари: филол.фанлари доктори (DSc) дисс...автореф. Тошкент, 2020.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-жилд, Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2007.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4-жилд, Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2007.
10. Ёкубов О. Сўз. Тошкент.: “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2019.
11. Дадабоев Ҳ. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. Тошкент.: “Фан”, 2007.
12. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. Москва.: “Наука”, 1981.
13. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. Тошкент.: “Қомус” нашриёти, 1992.
14. Карим Б. Руҳият алифбоси. Адабий-танқидий мақолалар. "ЭСПИ" нашриёти, Қозоғистон Республикаси, Алматы, 2021.
15. Йўлдош Қ. Сўз ёлкини. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент-2018.
16. Саттор М. Ўзбекнинг гапи қизиқ. Т.: “ФАН”, 1994.
17. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2014.
18. Исахонова Ш. Гавҳаршод Бегим Т.: “Маърифат битиклари” нашриёти, 2023.
19. Исахонова Ш. Нодираи даврон. Т.: “Маърифат битиклари” нашриёти, 2022.
20. Исахонова Ш. Султон Жалолиддин Мангуберди. Т.: “Маърифат битиклари” нашриёти, 2017.
21. Исахонова Ш. Бибихоним. Т.: “Маърифат битиклари” нашриёти, 2019.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Ikhbol Shamsudinova**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

shamsudinovai@tersu.uz

## YORDAMCHI SO'ZLAR BAZASINING KORPUS TUZISHDAGI AHAMIYATI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek tilida yordamchi so'zlarning korpus tuzishdagi ahamiyati yoritilgan. ML (machine learning) da barcha bilimlar statistik algoritmlar bilan berilishi uchun sun'iy aqlga kiritilgan modellarda ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning ma'no tashuvchanlik xususiyati va boshqa grammatik vazifalari xalqaro teglarda modellashtirilishi haqida nazariy xulosalar berilgan. Korpus katta hajmli matnlar to'plami ekanligi uchun turkiy tillarda yordamchi so'zlar leksemaning matndagi kontekstual ma'nosini ochib berishi hamda jonli va erkin birikuvlarni ta'minlashda grammatik vazifa bajarishi tahlilga tortilgan

**Kalit so'zlar:** Yordamchi so'zlar, korpus, statistik algoritmlar va modellashtirish, xalqaro teglar, sun'iy aql, mashina tarjimasi, ma'lumotlar bazasi, yordamchilarning ma'no tashish xususiyati.

**Ikhbol Shamsudinova**

Teacher of Termiz State University

shamsudinovai@tersu.uz

## THE IMPORTANCE OF THE BASE OF AUXILIARY WORDS IN BUILDING A CORPUS

### ABSTRACT

The article describes the importance of auxiliary words in the Uzbek language in building a corpus. In ML (machine learning), in order to provide all the knowledge with statistical algorithms, theoretical conclusions are given about the modeling of auxiliary, connecting and predicates and other grammatical functions in international tags in the models included in the artificial intelligence. Since the corpus is a large collection of texts, it is analyzed that auxiliary words in Turkish languages reveal the contextual meaning of the lexeme in the text and perform a grammatical function in providing lively and free connections.

**Keywords:** Auxiliary words, corpus, statistical algorithms and modeling, international tags, artificial intelligence, machine translation, database, semantic feature of auxiliary words.

**Ихбол Шамсудинова**

Преподаватель Термезского государственного университета

shamsudinovai@tersu.uz

## ЗНАЧЕНИЕ БАЗЫ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ ПРИ ПОСТРОЕНИИ КОРПУСА

## АННОТАЦИЯ

В статье описано значение вспомогательных слов узбекского языка при построении корпуса. В ML (машинный перевод) для обеспечения всех знаний статистическими алгоритмами даются теоретические выводы о моделировании вспомогательных, связующих и предикатов и других грамматических функций в международных тегах в моделях, входящих в состав искусственного интеллекта. Поскольку корпус представляет собой большую совокупность текстов, анализируется, что вспомогательные слова в тюркских языках раскрывают контекстуальное значение лексемы в тексте и выполняют грамматическую функцию по обеспечению свободных связей.

**Ключевые слова:** вспомогательные слова, корпус, статистические алгоритмы и моделирование, международные теги, искусственный интеллект, машинный перевод, база данных, смысловая особенность вспомогательных слов.

### Kirish

Barcha tillarda yordamchi soʻzlarning vazifasi nutq jarayonida soʻzlarning oʻzaro munosabatini taʼminlashdir. Oʻzbek tilida grammatik munosabat koʻmakchi va bogʻlovchi orqali, kontekstga maʼno yuklash yuklama bilan ifodalanadi. Korpus katta hajmli matnlar toʻplami ekanligini hisobga olsak, turkiy tillardagi yordamchi soʻzlar leksemaning matndagi kontekstual maʼnosini ochib berishda hamda jonli va erkin birikuvlarni taʼminlashda grammatik vazifa bajaradi. Yordamchilarning korpusdagi ahamiyatini aniqlash uchun ularning grammatikadagi lingvistik vazifasiga aniqlik kiritish lozim. Chunki yordamchi soʻzlar tavsifi va talqini masalasida hali tadqiqotini kutayotgan muammolar ham mavjud.

### Asosiy qism

Tadqiqotchi Azamat Pardayev yordamchi soʻz turkumlarining lisoniy tizimdagi oʻrni va lingvopragmatikasi haqidagi tadqiqot ishida bu turkum soʻzlar yuzasidan muammolarga toʻxtalib oʻtadi ularni quyidagicha umumlashtiradi:

- 1) yordamchi soʻzlarning mustaqil soʻzlar bilan doimiy va uzluksiz aloqadorligi;
- 2) ularning leksika va grammatika orasida turgan oraliq birliklar sifatida tasnif etilishi;
- 3) yordamchi soʻzlar turkumlarining funksional maʼnosi gap strukturasidagi orni va roli bilan bogʻliqligi;
- 4) substansial tahlilda bu guruh birliklarining maxsus tadqiq manbai boʻlmaganligi va yordamchi soʻzlarning qoʻllanilishi diskursiv metodlar orqali yetarlicha tahlil etilmaganligi.

Yordamchi soʻzlar fikrning tinglovchiga taʼsir tomonlarini oydinlashtirishga yordam beradi. Shu sababdan nutqiy ifoda, predikativ boʻlmagan soʻzlar, kontekst, nutqiy vaziyat, soʻzlovchi shaxsi kabi lingvistik pragmatikaning markaziy tushunchalari matn tarkibidagi yordamchi soʻzlar pragmatikasi tadqiqi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yordamchi soʻzlar leksema va gaplarni bogʻlash jarayonida turli mazmuniy munosabat ifodalaydi va diskurs talabiga koʻra matnga xilma-xil pragmatik, hosila maʼnolar bera oladi. Korpus esa lingvistik bazani yaratishda obyekt sifatida matnga tayanadi. Shuning uchun yordamchilarning matndagi funksiyasi KL (kompyuter lingvistikasi) uchun juda muhim. A.Pardayev deskriptiv boʻlmagan soʻzlar sirasiga, birinchi navbatda, yordamchi soʻzlarni kiritadi.

Til oʻrganuvchi yoki umuman korpus bilan ishlovchi matn mazmun-mohiyatini anglash yoki tushuntirish uchun albatta kolokatsiyalardan foydalanadi. Mashina tahririning sintaktik tahlil bosqichi – matn tahririning eng qiyin bosqichidir. Aynan shu bosqichda yordamchi soʻzlarning muhimlik darajasi aniqlanadi. Chunki sintaktik tahlil bosqichining asosiy vazifasi soʻzlarning oʻrnini va ularning oʻzaro birikishini aniqlash hisoblanadi. Shu bois ushbu bosqichni tahrir bosqichi deb emas, balki lingvistik tahlil bosqichi, deyish mumkin. Sintaktik tahlilda asosiy maqsad soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish meʼyorlarini eʼtiborga olishdir.

ML (machine learning) inson tomonidan oʻrganilgan barcha bilimlarni statistik algoritmlar bilan berishini hisobga olsak, sunʼiy aqlga kiritilgan modellarning toʻgʻriligi muhim hisoblanadi. Matnlarning grammatik tahlilida (grammar checking) kompyuterga kiritilayotgan matndagi gap strukturasining grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilganligi tekshiriladi. Buning uchun gaplarning

kombinatsiyalarini kiritish talab etiladi. Shunda dastur gapni kiritilgan me'yoriy kombinatsiyalar doirasida tekshiradi. Kombinatsiyalar esa yordamchi birliklarsiz bog'lanishda bo'la olmaydi. Sintaktik qurshovda gapning va so'z birikmalarining bog'lanish modellarini ko'makchi va bog'lovchilarsiz ifodalash imkonsiz.

Matndagi gap va so'zlar grammatik jihatdan ko'makchi orqali ham, bog'lovchi orqali ham bog'lanishi mumkin. Ammo ularning bog'lanishlar orasida ifodalayotgan ma'nolari turlichadir. Bu ularning semantik ma'lumotlar bazasini shakllantirishdagi asosiy xususiyatidir. Yordamchi so'zni kontekstga solmasak, ya'ni korpusda ifodalanish modelini yaratmasak uning **ma'no tashuvchilik** xususiyati yuzaga chiqmaydi. Shuning uchun korpus uchun yordamchi so'zlarning **ma'no tashish modellarini** tuzish muhim. Bu konkordanslarni aniqlash orqali yuzaga chiqadi. Yordamchi so'zning matnga kiritayotgan mazmunini kompyuter ham (machine learning) o'qiy olishida modellar juda ham muhim. Chunki mashinani o'rganish ma'lumotlar to'plamini modelga aylantiradigan algoritmlardir. Tilning butun mohiyatini mashina o'qishida keltirilgan algoritm-modellarning aniq va to'g'riligi ta'minlaydi. Demak, yordamchi so'zlarning ma'no tashuvchilik vazifasini mashinaga o'rgatish har qanday matnning asl mohiyatini ochishda birlamchi xususiyatdir. O'zbek tilida mavjud yordamchi so'zlarning ma'no tashish xususiyatlarini mashina uchun tanlangan xalqaro belgilardan foydalanib quyidagicha modellashtirishimiz mumkin:

### **Ko'makchi – POST**

1. <bilan> ko'makchisi POST<sub>1</sub>.

POST<sub>1</sub> (1) = <vosita>, POST<sub>1</sub> (2) = <holat>, POST<sub>1</sub> (3) = <birgalik>: hasa bilan ochdi, zavq bilan o'qidi, onasi bilan shahar aylandi. Shu o'rinda <bilan> ko'makchisining otlar o'rtasida kelganda <va> bog'lovchisi vazifasida kelishi haqidagi qoida kiritiladi. Ya'ni, model NOUN+POST+VERB bo'lsa <bilan> ko'makchi, NOUN+POST+NOUN bo'lsa <va> bog'lovchisi vazifasini bajaradi.

2. <uchun> ko'makchisi POST<sub>2</sub>.

POST<sub>2</sub> (1) = <maqsad>, POST<sub>2</sub> (2) = <sabab>, POST<sub>2</sub> (3) = <atalganlik>: o'qish uchun keldim, chaqirgani uchun keldi, onam uchun sotib oldim. Bu o'rinda ko'makchi va kelishik omonimligi modeli ham kiritiladi. Masalan, <onam uchun sotib oldim> yoki <onamga sotib oldim> kombinatsiyaning ikki xil modeli kiritiladi: <NOUN + POST<sub>2</sub> (3) + VERB>, <NOUN<sub>dat</sub> + VERB> (DAT, ya'ni <dative> - jo'nalish kelishigining xalqaro belgisi). Qolgan ko'makchilar ham shunday modellashtirilishi mumkin.

Yordamchi so'zlarning matnga kiritayotgan mazmuniy munosabatini aniq belgilash uchun bazaga modellar to'g'ri kiritilishi lozim. Bunda grammatik qo'shimchalarning qo'shilish imkoniyatiga ko'ra so'zlarning <o'zgaruvchi> va <o'zgarmas> guruhlarga ajralishini inobatga olish muhim. Mustaqil so'zlarda <so'z +lug'aviy shakl> formulasi kiritiladi. Yordamchi so'zlar esa lug'aviy shaklsiz holatda beriladi.

Morfologik modellarni yaratishda har bir lingvist va dasturchi o'zi maxsus belgi tanlashi yoki xalqaro teglardan foydalanishi mumkin. Biz bog'lovchilarni quyidagicha modellashtirdik:

### **Bog'lovchi – CONJ.**

#### **Teng bog'lovchilar.**


1. <va>, <hamda> CONJ (1) teng mazmunli biriktirish: men va sen PRON + CONJ (1)+ PRON yoki <kitob va daftar> bo'lganda NOUN+ CONJ (1)+NOUN. Bu bog'lanish qo'shma gap shaklida bo'lganda o'zbek tilidagi sodda gapning eng minimal modeli [WPm] kiritiladi (W-atov birlik, P-predikat, m-marker) Masalan, <O'qituvchi keldi va dars boshlandi> tipidagi teng bog'lanish WPm + CONJ (1) + WPm shaklida modellashtiriladi.

2.<ammo>, <lekin>, <biroq> CONJ (2) zidlik mazmunli bog'lanish: WPm + CONJ (2) + WPm <Quyosh chiqdi, ammo havo sovuq>

3.<goh>, <dam>, <xoh>, <yo>, <yoki> CONJ (3) ayiruv munosabatli ketma-ketlik: CONJ (3) + VERB + CONJ (3) + VERB <xoh ishon, xoh ishonma>

4.<na> CONJ (4) inkor munosabatli bo'g'lanish: CONJ (4) + NOUN + CONJ (4) + NOUN <na yorug'lik, na zulmat>. Ergashtiruvchi bog'lovchilar va yuklamalar ham shu tartibda modellashtirilishi mumkin.

Matnning avtomatik tarjima qilish dasturlarida yordamchi soʻzlarning aniq kiritilgan modellari konkordans lugʻatlarni tuzishda ham yordam beradi. Bunda soʻzning chap va oʻng tomon bogʻlanishlari oydinlashadi. Bunday bogʻlanishlar ngram (soʻzlarning ketma-ketlikda kelishi), 2-gram (soʻzlarning ikki tarkibli ketma-ketligi), 3-gram (soʻzlarning uch tarkibli ketma-ketligi) va 4-gram (soʻzlarning toʻrt tarkibli ketma-ketligi) deb nomlanadi. Quyida **Antconc** dasturida <bilan> koʻmakchisining 3-gram bogʻlanishi koʻrsatilgan:



| File                  | Left Context                                                            | Hit   | Right Context                                                               |
|-----------------------|-------------------------------------------------------------------------|-------|-----------------------------------------------------------------------------|
| 1 1000 soʻz Hikoy...  | Idi, oʻldirib ketishdi, — deb yirik gavdasiga yarashmagan bir piqillash | bilan | bosh iringʻadi Davron. — Ablah, yovuz... Lekin, — uning koʻ                 |
| 2 1000 soʻz Hikoy...  | Davronning koʻzlari doʻlayib ketdi. Yoshligidan menga tanish hayajon    | bilan | duduqlanib: — Ey, Qoʻqon muxtoriyati aslida Turkiston muxtoriyati boʻ       |
| 3 1000 soʻz Hikoy...  | Aslida bu gʻor emas, oʻz nomi oʻzi                                      | bilan | Goʻrdara, uning usti yassilik boʻlib, pastda qandaydir                      |
| 4 1000 soʻz Hikoy...  | javob berdi: — Yoʻq edi hech kimi... Shukur, siz u                      | bilan | hamgap boʻlmaganisiz: a? — Yoʻq. Oʻzining bu                                |
| 5 1000 soʻz Hikoy...  | joyda, suv boʻyidagi xarsang toshlarda oʻtiradik. Haykaltarosh Azamat   | bilan | ikkimiz yonma-yan, doʻstimiz Davron esa roʻparamizda,                       |
| 6 1000 soʻz Hikoy...  | rdim. Kulibgina qoʻyardi... Choyxonadan chiqqan qotgan-qutgan nonlar    | bilan | kunini oʻtkazardi-da. — Davron ittifoq qulib qoʻydi, —                      |
| 7 1000 soʻz Hikoy...  | ularidan chetda esa xumdonsimon bir tandircha oʻchoq, qiyshiq dekcha    | bilan | qora qumgʻon ham turardi. Tagʻin bir-ikki                                   |
| 8 1000 soʻz Hikoy...  | askarcha shinel bilan quloqsimon bosh kiyim yotar, bir juft kalish      | bilan | qoʻnji kesib tashlangan kirza etik ham bor edi.                             |
| 9 1000 soʻz Hikoy...  | paxtasi chiqib qolgan koʻrpa-koʻrpacha va askarcha shinel               | bilan | quloqsimon bosh kiyim yotar, bir juft kalish bilan qoʻ                      |
| 10 1000 soʻz Hikoy... | xalqlariga murojaatnomasi» chiqqan edi. Unda oʻtning kallasidek harlar  | bilan | sobiq mustamlakalar Rusiya tarkibidan ajralib, suveren davlat tuzishga ha   |
| 11 1000 soʻz Hikoy... | mumkin edi, xolos. Dara dafʻatan nimqorongʻi koʻringani                 | bilan | sohillarida sangtoklar oʻsib, oʻz boshiga pishib, turli                     |
| 12 1000 soʻz Hikoy... | narsa ochilib qoldi-kul! — Ha, oz-moz bilaman, — dedim. — Lenin         | bilan | Stalin, umuman, bolshevik liderlari Turkiston xalqini aldaganlar... Azamat, |
| 13 1000 soʻz Hikoy... | lib, firma ochib, oshxona sotib olib, ancha-muncha kishini ish          | bilan | taʼminladim. Ular kursand. Lekin... Uf-f... Balki tashqarida                |
| 14 1000 soʻz Hikoy... | odam yashamadi. Yetmishga kirdi-yu, kun koʻrmadi, menimcha... — U       | bilan | yaqinmidingiz? — E, ota-boladek edik. Bozorga qachon yoʻlim                 |

Yordamchi soʻzlarning uchinchi turi boʻlgan yuklamalar kolokatsiyalarda ishtirok etmaydi. Lekin yuklamalar ham turli munosabatlarni koʻrsatib berishda grammatik maʼno bajaradi. Sh.Shohobiddinova tadqiqot ishida “Grammatik maʼnolar hech qachon, hatto vaqtincha ham fikrlashning maqsadi boʻla olmaydilar. Ular roʻyobga chiqayotgan lugʻaviy birliklarni ayni nutqiy sharoitga moslashtirish, **matniy qurilmalarga** “yopishtirish”, ifodalangan lugʻaviy maʼnolarga qoʻshilmalar qilish kabi vazifalar bajaradi”, deb yozgan edi. Shuning uchun barcha ilmiy adabiyotlarda yuklamalar soʻz va gapga qoʻshimcha maʼno berish uchun xizmat qiluvchi vositalar sifatida taʼriflanadi. Yuklamalarning mazkur xususiyatlarining ifodalanishida birinchi navbatda matn muhim rol oʻynaydi. Chunki matnsiz yuklamalarning ushbu xususiyati yuzaga chiqmaydi. Demak, yuklamalarning nutqiy-pragmatik xususiyatlarini aniqlashda matn yoki uning kichik birligi boʻlgan jumla ahamiyatlidir. Ular sintaktik sathda jumlaning mazmuniy tuzilishini murakkablashtirib, oʻta faollik bilan presuppozitsiyaga ishora qila oladi. Yuklamalar xilma-xil nutqiy jarayonlarda turli-tuman presuppozitsiyalarni yuzaga keltiruvchi vositalar hisoblanadi. Yuklamalar jumla yoki gap ichida lingvistik presuppozitsiyaga ishora qiluvchi va uni reallashtiruvchi eng faol birlik boʻlib, ularning maʼnolari pragmatik vaziyatlarga koʻra anglashiladi.

Demak, yuklamalarda bogʻlash tabiatining mavjud emasligi sababli biz korpusda tadqiqotchi Sh.Shahobiddinova aytganidek, yuklamalarning matnga qanday mazmuniy munosabatni “yopishtirish”ini, yaʼni kompyuter hissiyotlarni qanday oʻqishini KL fanidagi nisbatan yangi dasturiy tizim - sentiment analizda aniqlash yaxshi natija beradi degan xulosaga keldik. SA (sentiment analiz) va undan foydalanishning yuklamalardagi ahamiyati haqidagi ilmiy qarashlarimizni “Sentimental analysis in computer linguistics” (Kompyuter lingvistikasida sentiment analiz) nomli ishimizda tadqiq etdik.

**Xulosa.** Oʻzbek tili korpusida yordamchi soʻzlarning grammatik xususiyati va ahamiyati ularning toʻgʻri va aniq modellashtirilishiga bogʻliq. Bu turkum soʻzlarning matn tarkibidagi mazmuniy munosabatni shakllantirishdagi va gapga turli emotsionallik yuklashini aniq algoritimli modellar bera oladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси. - Филол. фан. докт. (DSc) дисс. автореф. Тошкент – 2017 йил. 16 с.

2. Shamsudinova I. SENTIMENTAL ANALYSIS IN COMPUTER LINGUISTICS //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. С6. – С. 81-84.
3. Пардаев А.Б. Ёрдамчи туркумларнинг субстанциал ва прагматик хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2013. - 199 б.101 с.
4. Holmonova Z. T. Kompyuter lingvistikasi.O'quv qo'llanma. Toshkent -2019. 246 b. 172-b.
5. Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол.фан.номз. дис. - Самарқанд, 1992. -Б.9
6. Shamsudinova I. O 'ZBEK MILLIY KORPUSIDA KO 'MAKCHI VA KELISHIKLARNING LEKSIK-GRAMMATIK VALENTLIK ASPEKTI //«УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ" Международная научно-практическая конференция. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
7. Bahavadinovna S. I. O'ZBEK TILI MILLIY KORPUSIDA YORDAMCHI SO'ZLAR BAZASI (SO'ROQ-TAAJJUB YUKLAMALARI MISOLIDA) //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 312-320.
8. Шахло Ҳамроева. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Монография. Тошкент – 2020. 108 с
9. Ҳамраева Ш Корпус лингвистикаси атамаларининг қисқача изоҳли луғати. Терминологик луғат. Бухоро:2018.
10. Zaharov V.P., Bogdanova S.Yu. Korpusnaya lingvistika.– Irkutsk: IGLU, 2011.
11. <https://core.ac.uk/download/pdf/235150382.pdf>
12. <https://petsu.ru/persons/11859/bogoyavlenskaya>



**Kultayeva Fazilat Baxtiyarovna**

Termiz davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

## ERGONIMLAR HOSIL BO'LISHINING LEKSIK-SEMANTIK USULI (METONIMIK ONIMIZATSIYA)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

Shahar ergonimik manzarasini tadqiq etish, etnomadaniy ergonimlar qatlamini aniqlash, ergonimlar shakllanishining leksik-semantik usullarini tahlil qilish ushbu maqolaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi kelib chiqishi va tuzilishi jihatidan geterogen bo'lgan ergonimlarning yangi qatlamini tahlil qilish va yangi paydo bo'lgan urbanonimlarni etnik-madaniy o'ziga xosliklarini aniqlash, ergonimlarning manipulyativ va reklama funksiyasining salmog'iga doir xulosalar berishdan iborat.

Ushbu maqolada ergonimlar hosil bo'lishining leksik-semantik usullaridan biri bo'lgan metonimik onimizatsiya hodisasi tahlilga tortilgan. Metonimik ko'chirish asosida yaratilgan nom, pragmatik nuqtai nazardan samarali bo'lish bilan birga obyekt va uning nomi o'rtasidagi aloqani yaxshiroq ifodalab berishi ko'rsatib berilgan. Adresatga oid ergonimlar bevosita salohiyatga ega mijoza qaratilganligi ta'kidlangan va ular tematik guruhlarga ajratilgan. Ergonimlar orasidagi metonimik munosabat mahsulotlar va ularni taklif qiladigan obyektlarning semantik evolyutsiyani boshdan kechirishi natijasida vujudga kelishi hamda nominatsiyalar ergonim bo'lgunga qadar metonimik tarzda shakllanishiga doir mulohazalar o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** ergonim, onimizatsiya, tranonimizatsiya, uzual, okkazional yasali.

**Kultayeva Fazilat Bakhtiyarovna**

Termiz State University

Teacher of the Department of Uzbek Linguistics

## LEXICO-SEMANTIC METHOD OF FORMATION OF ERGONYMS (METONYMIC ONIMIZATION)

### ANNOTATION

Researching the ergonomic landscape of the city, identifying the layer of ethnocultural ergonyms, analyzing the lexical-semantic methods of ergonim formation are the main tasks of this article. The scientific novelty of this article is to analyze a new layer of ergonyms, which are heterogeneous in terms of origin and structure, to determine the ethno-cultural characteristics of newly emerging urbanonyms, to give conclusions about the importance of manipulative and advertising functions of ergonyms.

In this article, the phenomenon of metonymic onimization, which is one of the lexical-semantic methods of formation of ergonyms, is analyzed. A name created on the basis of metonymic transfer has been shown to better express the relationship between an object and its name, while being

effective from a pragmatic point of view. It is emphasized that the ergonisms related to the addressee are aimed directly at the potential customer and they are divided into thematic groups. The metonymic relationship between ergonisms is formed as a result of the semantic evolution of products and the objects that offer them, and the considerations on the metonymic formation of denominations before becoming ergonisms have been expressed.

**Key words:** ergonim, onimizatsiya, transonimizatsiya, uzual, occasional making.

**Култаева Фазилат Бахтияровна**

Термезский государственный университет  
преподаватель кафедры Узбекского языкознания

## ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ СПОСОБ ОБРАЗОВАНИЯ ЭРГОНИМОВ (МЕТОНИМИЧЕСКАЯ ОНИМИЗАЦИЯ)

### АННОТАЦИЯ

Исследование эргономического ландшафта города, выявление слоя этнокультурных эргонимов, анализ лексико-семантических способов образования эргонимов являются основными задачами данной статьи. Научная новизна статьи заключается в том, чтобы проанализировать новый пласт эргонимов, разнородных по происхождению и структуре, определить этнокультурные особенности вновь возникающих урбанонимов, сделать выводы о значении манипулятивной и рекламной функций эргонимов.

В данной статье анализируется явление метонимической онимизации, которое является одним из лексико-семантических способов образования эргонимов. Показано, что имя, созданное на основе метонимического переноса, лучше выражает связь между предметом и его названием, будучи при этом эффективным с прагматической точки зрения. Подчеркивается, что эргонимы, относящиеся к адресату, направлены непосредственно на потенциального покупателя и разделены на тематические группы. Метонимические отношения между эргонимами формируются в результате семантической эволюции продуктов и предметов, их предлагающих, а также высказываются соображения о метонимическом образовании наименований до того, как они станут эргонимами.

**Ключевые слова:** эргоним, онимизация, трансонимизация, узуальное, окказиональное формирование.

**KIRISH.** Ergonimlar hosil bo'lishining leksik-semantik usuli, asosan, so'zning ko'chma ma'nosiga asoslanadi[1,2,3]. Ularning metaforik onimizatsiya, metonimik onimizatsiya, transonimizatsiya hamda xorij so'zlari bilan ifodalanish orqali hosil bo'lishi aniqlandi. Tilshunos S.Ibrohimov Farg'ona shevalarida ipakchilik atamalarining hosil bo'lishi quyidagi tamoyillarga asoslanishini tadqiq etgan:

- 1) o'xshatish tamoyili;
- 2) xoslash tamoyili;
- 3) nisbat berish tamoyili;
- 4) materialiga ko'ra nomlash tamoyili;
- 5) vazifasiga ko'ra nomlash tamoyili;
- 6) o'rniga ko'ra nomlash tamoyili;
- 7) tashqi shakl va ko'rinishga ko'ra nomlash tamoyili;
- 8) ovozigga ko'ra nomlash tamoyili;
- 9) o'lvoviga
- 10) jarayon, harakat e'tibori bilan
- 11) kishilarning jinsi va jinsiy belgilariga bog'lab
- 12) yoshga
- 13) tartib-sirasiga
- 14) urf-odat bilan bog'lab nom berish tamoyili;
- 15) mifik tushunchalar va afsonalar bilan bog'lab nomlash tamoyili;

16) tarixiy voqeaga bog'lab nom berish tamoyili [4].

**ASOSIY QISM.** Leksik-semantik onimizatsiya ergonimikada eng ko'p qo'llaniladigan usullaridan biri hisoblanadi. Biz ham F.F. Alistanova yo'lini tutib ergonimlar onimizatsiyasini quyidagi guruhlariga ajratdik:

- oddiy;
- ma'no ko'chirish asosida shakllangan (metonimik, metaforik);
- tranzonimizatsiya.

Oddiy onimizatsiyada nomlangan obyekt to'g'ridan-to'g'ri idrok etiladi: «Sovg'alar» sovg'alar do'koni, «Gullar» gullar do'koni. Bu har qanday davlat organi nomi uchun ko'proq mos keladi.

Tildagi nominativ birlilarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihati tushunchasiga alohida e'tibor qilinadi. V.N. Teliya ta'rificha, «konnotatsiya til birlilari semantikasiga uzual yoki okkazonal ravishda kiradigan, nutq subyekting borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv ahamiyat kasb etadigan mazmunli mohiyatdir» [5]. Konnotatsiya semantikaning ekspressiv qiymatga ega bo'lgan uzvi sifatida nomlash jarayonlaridagi borliqni baholagan holda idrok etish va aks ettirish mahsuli hisoblanadi. M.A. Mamadaliyeva ham konnotatsiyaning asosiy vazifasi so'zlovchining ifodalanayotgan predmetga subyektiv munosabatini aks ettirish asosida ta'sir etish, ta'sirchanlikni ta'minlash ekanligini alohida ta'kidlaydi [6].

Metonimik onimizatsiya ergonimlarni yaratishda eng ko'p qo'llaniladigan usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Metonimiya yunoncha metonymia qayta nomlash so'zidan olingan bo'lib, ma'no ko'chirishning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Metonimiyani tegishli obyektlar o'rtasidagi fazoviy, situatsion hodisaga asoslangan, konseptual, semantik, sintagmatik va mantiqiy munosabatlar, so'zlarning ma'nolari bilan aniqlangan voqelik kategoriyalari va uning inson ongida aks etishi: obyektlar, shaxslar, harakatlar, jarayonlar, hodisalar, ijtimoiy institutlar va hodisalar, joy, vaqt, shakl va boshqalar tashkil etadi. Metonimiya nutqni ixchamlashtirishga xizmat qiladi. Unda kognitiv-fikriy (assotsiativ) va lingvistik (so'z yasash, sintaktik) mexanizmlar o'zaro ta'sir o'tkazadi [7].

Metonimiya nom ko'chishi bilan yangi ma'no hosil bo'lishiga olib keluvchi hodisalarning asosiylaridan biri hisoblanadi. Shu sababli bu hodisa ham nom ko'chishi yo'li bilan yangi ma'no hosil bo'lishi haqida gap borgan ishlarning hammasida qayd etiladi. Obyektiv borliqdagi ayrim narsa-predmetlar, belgilar, shuningdek, harakatlar o'rtasida ma'lum umumiylik, aloqa (bog'lanish) bo'ladi. Ana shuning ta'sirida biror narsa, belgi yoki harakatning nomi u bilan aloqasi (umumiyligi) bo'lgan boshqa narsa, belgi, harakatni ifodalash uchun ham qo'llanadi, unga ham nom bo'lib ko'chadi. Metonimiya nom ko'chishi bilan yangi ma'no hosil bo'lishiga olib keluvchi hodisalarning asosiylaridan biri hisoblanadi. Shu sababli bu hodisa ham nom ko'chishi yo'li bilan yangi ma'no hosil bo'lishi haqida gap borgan ishlarning hammasida qayd etiladi. Metonimiya — narsa-predmetlar, belgilar, harakatlar o'rtasidagi aloqadorlikka (bog'liqlikka) ko'ra nom ko'chishidir. Obyektiv borliqdagi ayrim narsa-predmetlar, belgilar, shuningdek, harakatlar o'rtasida ma'lum umumiylik, aloqa (bog'lanish) bo'ladi. Ana shuning ta'sirida biror narsa, belgi yoki harakatning nomi u bilan aloqasi (umumiyligi) bo'lgan boshqa narsa, belgi, harakatni ifodalash uchun ham qo'llanadi, unga ham nom bo'lib ko'chadi [8].

Metonimik ko'chirish asosida yaratilgan nom, pragmatik nuqtai nazardan samarali bo'lish bilan birga obyekt va uning nomi o'rtasidagi aloqani yaxshiroq ifodalab beradi: «Orxideya» gullar do'koni, «Чудо дети» bolalar kiyimlari do'koni, «Chanel» kosmetika va parfyumeriya do'koni, «Fashion» kiyim-kechak do'koni, «Happy kids» bolalar kiyimlari do'koni, «Tabletka» dorixonasi, «Clean cut» sartaroshxonasi, «Pharm plus» dorixonasi, «Diamond» zargarlik do'koni, «Safir» zargarlik do'koni, «Techno goods» elektronika do'koni, «Samsung» elektronika do'koni, «Prime» elektronika do'koni, «Vip brend» kelin liboslari saloni, «Apteka vitamin», «Xadija art collection» tikuvchilik sexi, «100 gramm» ichimlik do'koni, «Ravon» avto ehtiyot qismlari do'koni, «Doridarmon» dorixonasi, «Istanbul» kiyim do'koni, «Diet» kafe.

Metonimik ko'chirish yordamida yaratilgan ergonimlar informativ, ya'ni ma'lumot beruvchi hisoblanadi («Barkamol avlod» bolalar markazi, «Emu express» Surxondaryo filiali pochta va

kuryerlik xizmatlari, «Nazar» koʻz klinikasi ), chunki bu kabi ergonimlar ishlab chiqaruvchini («Begzod denta» plus stomatologik klinikasi, «Oʻzsuvtaminot» aksiyadorlik jamiyati) yoki isteʼmolchilarni («Чудо дети» bolalar kiyimlari doʻkoni, «Stroitelnyy mir» qurilish mollari doʻkoni, «Ona-bola» supermarketi.) sotuv obyektlari nomida aks ettirishi mumkin. Biz ham V.N. Nosenkoga yondashib, oʻzbek til ergonimlarini motivatsiyalangan nominatsiyasiga asoslanib adresantga oid va adresatga oid kabi ikki guruhga ajratdik [9].

Adresantga oid ergonimlar korxonaning faoliyat sohasini, taqdim etiladigan xizmatlar shaklini bildiradi. Koʻchirish uchun asos - qism va butunning uzviyligidir (synekdohe), masalan, kompaniya va uning xodimlari (Ekologiya va atrof- muhitni muhofaza qilish Surxondryo viloyati boshqarmasi, «Doktor A» klinikasi, «BTS express cargo servis» Termiz filiali kuryerlik xizmati, «Emu express» Surxondaryo filiali kuryerlik xizmati). Adresatga oid ergonimlar bevosita salohiyatga ega mijozga qaratilgan va quyidagi tematik guruhlarga boʻlinadi:

- kishining kasbiga koʻra nomlanishi: «Muslima Med» klinikasi, «Madina farm» dorixonasi, «Doktor A» klinikasi, «Строительный мир» doʻkoni, «Med house» klinikasi, «Baliqchi orzusi» doʻkoni;

- shaxsning ijtimoiy mavqeiga koʻra nom berish: «Diplomat» restorani, «Aslzoda» goʻzallik saloni, «Erkatoy kids» xususiy bolalar bogʻchasi, «Barkamol avlod» bolalar markazi;

- shaxsiy fazilatlariga koʻra nomlash: «Glamour» goʻzallik saloni, «Gentelman» sartaroshxona, «Sevimli» market, «Boginya» goʻzallik saloni;

Mavhum otlar orqali ifodalangan ergonimik nomlar ham shartli munosabatlarning asosida metonimik koʻchirishga asoslanadi: «Baraka» market, «Orzu» restorani, «Bilim» axborot-kutubxonasi, «Doʻstlik» kafesi.

Nominatsiya jarayonining metonimik usuli eng ommaboplaridan biri hisoblanadi, chunki u nomlangan obyektning tabiati haqidagi maʼlumotlarni yetkazishga imkon beradi [10]. Baʼzan ergonimlar orasidagi metonimik munosabat mahsulotlar va ularni taklif qiladigan obyektlarning semantik evolyutsiyani boshdan kechirishi natijasida vujudga keladi, nominatsiyalar ergonim boʻlgunga qadar metonimik tarzda shakllangan, jumladan, avtomobillarga yoqilgʻi quyadigan «Mustang» yoqilgʻi shaxobchasining nomi xorijiy avtomobillar semantik evolyutsiyaning mahsuli hisoblanadi. Bunda mustang - yovvoyi ot. Hayvon obrazi, shuningdek quvvat oʻlchovi ot kuchida mashhur avtomobil markasi «Mustang» uchun timsol boʻlib xizmat qildi. Keyinchalik ergonim brend nomi sifatida ishlatilgan. Bundan tashqari «Volto» elektrotexnika doʻkonining nomi ham xuddi shunday semantik metamorfoz yoʻlidan oʻtgan. Dastavval Volta oʻz kashfiyotlari bilan elektr hodisalari aniqlagan italyan fizigining familiyasidir. Keyinchalik bu antroponim volt atamasiga aylantirildi, yaʼni elektr kuchlanish oʻlchov birligining nomidir. Doʻkonning nomi esa elektrotexnika bilan assotsiativ ravishda bogʻliq boʻlgan keyingi maʼnoni aniq aks ettiradi.

«Briliant» kelin liboslari saloni ergonimida goʻyoki siz baxt kechangizda oppoq kelin libosida qimmatbaho toshlarning sarasi yaʼni brilliant kabi boʻlasiz degan maʼno ifodalagan.

«Xan Sultan» restorani ergonimi orqali «Bu yerda sizni shohona taomlar kutmoqda» maʼnosi ifodalangan.

«Diet kafe» ergonimiga nazar tashlanganda, shubhasiz, adresat koʻz oldida inson sogʻligi uchun bezarar hamda goʻzal qaddi-qomatni buzmaydigan taomlar tasviri gavdalanadi. Bu ergonim nomida qoʻpol xatolik koʻzga tashlanadi, yaʼni imloviy xatolik. Bu soʻz yunon tilidan rus tiliga kirib kelgan soʻz boʻlib diet emas dieta yozilishi kerak. Nominatorlar yuqoridagi jihatni eʼtiborga olishi kerak edi.

«Nazar» koʻz klinikasi ergonimi nomidan adresat koʻz bilan aloqador boʻlgan maʼlumotni anglaydi.

«Чудо дети» bolalar kiyimlari doʻkoni ergonimi orqali bolalar uchun moʻljallangan buyumlar yohud oʻyin maydonchalarini oson fahmlab olish mumkin. Shuni aytish mumkinki, bu ergonim nomi xizmat turiga mos tarzda tanlangan.


«Diamond» hamda «Sapfir» zargarlik doʻkoni ergonimi xizmat turiga nihoyatda muvofiq kelganligini koʻrish mumkin. Qimmatbaho toshlar nomi xaridorlarga maʼlumot beribgina qolmasdan, ularni oʻziga tortishi shubhasiz.

Yuqorida aytib o'tganimizga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, ergonimiyada metonimik onimizatsiya nominatorlar orasidagi juda keng tarqalgan hodisadir, chunki bu usulda hosil qilingan ergonimlar bir vaqtni o'zida ham axborot berishni, ham pragmatiklikni o'zida mujassamlay oladi. Ya'ni, bu turdagi ergonimlar oddiy onimizatsiyadan farqli ravishda, idrok etish uchun qulay bo'lgan tarzda obyektning faoliyati haqida ma'lumot beradi. Bunday nomlarda ergonimlarning reklama funksiyasi birlashmalarga asoslanib amalga oshiriladi, natijada ular adresatga ta'sir qilish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ladi.

**XULOSA.** Shunday qilib, metonimik onimizatsiya ergonimiyada juda tez-tez uchraydigan hodisa hisoblanib, bu tarzda shakllangan ergonimlar bir vaqtning o'zida nafaqat axborot berishni, balki individuallikni ham o'z ichiga olishi mumkin. Bunday nomlar bilan ergonimlarning manipulyativ va reklama funksiyasining salmog'i ortganligi sababli ular ma'lum bir tushuncha bilan bog'liq assotsiatsiyalar tizimini aktuallashtirishni hisobga olgan holda adresatga ta'sir qilish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1978. 198 с.
2. Арутюнова Н. Д. Номинация, референция, значение // Языковая номинация. Общие вопросы / отв. ред. Б. А. Серебренников. М.: Наука, 1977. С. 188-206.
3. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. М.: Наука, 1973. 360 с.
4. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. – Тошкент: ЎзФА, 1959. – Б. 157-168;
5. Теля В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М., Наука, 1986 г. С.- 5
6. Мамадалиева М.А. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. ном. диссер. автореферати. -Тошкент, 1998. – 320 б.
7. Hozirgi o'zbek tili. (leksikologiya) O'quv qo'llanma/ Sh.T. Maxmaraimova. – T: . "Firdavs-Shox nashriyoti", 2021. – 194-bet.
8. Ўзбек тили лексикологияси. –Т., 1981, 223-бет.
9. Носенко, Н.В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: [Электронный ресурс]: / Автореферат дисс. ... кандидата филологических наук / – Новосибирск, 2007.
10. Алистанова, Ф.Ф. Эргонимы современного русского языка как микросистема: Дис. ...к. филол. наук: 10.02.01. – Махачкала, 2011.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Botirova Maxliyo,**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

mbotirova@tersu.uz

## REKLAMADA NUTQIY AKTLAR IFODASI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek reklama matnlarida nutqiy aktlar ifodasi tahlilga tortildi. «Nutqiy akt» tushunchasining pragmatik tahlilning asosiy tayanch tushunchalaridan biri ekanligi yuqorida aytilgan edi, lekin ushbu tushunchani turli mualliflar turlicha talqin etmoqdalar. Nutqiy akt hodisasining mohiyati haqidagi fikrlarning turli-tumanligi taklif qilinayotgan tasnif tamoyillarida ham o'z aksini topmoqda. Hozirgi paytgacha tilshunolar nutqiy aktlar guruhlarining soni va hatto ularni nomlash borasida bir to'xtamga kelishganicha yo'q. Reklamada har bir so'z mahsulotni sotish uchun xizmat qiladi, shunday ekan, ular ustida badiiy, iqtisodiy tomondan yuksak talablar asosida ish olib borish zarur bo'ladi. Til birliklarini tanlash nutq jarayonida ularning o'ziga xos uslubiy chegaralanishini ham taqozo qiladi. Reklamada pragmatik nuqtai nazardan, maqsadli nutq aktining muvaffaqiyatli bajarilishi ma'lum bir mahsulotga adresat e'tiborini jalb qilishni, qabul qiluvchida sotib olish istagining paydo bo'lishini talab qiladi. Muayyan muloqot strategiyalarini amalga oshirish asosida reklama diskursini pragmatik diskurs turiga kiritish mumkin. Har qanday reklama matnining pragmatik yo'nalishi reklama beruvchining qabul qiluvchini javob berishga undash niyati bilan bog'liq. Reklama yordamida kommunikativ ta'sirning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ushbu ta'sir qanchalik muvaffaqiyatli bo'lganligi bilan belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** lingvistika, reklama, matn, diskurs, axborot, nutqiy aktlar, illokutiv akt, perllokutiv akt.

**Ботирова Махлиё**

преподаватель Термезского государственного университета

mbotirova@tersu.uz

## ВЫРАЖЕНИЕ РЕЧЕВЫХ ДЕЙСТВИЙ В РЕКЛАМЕ

### АННОТАЦИЯ

В статье проанализирована экспрессия речевых актов в узбекских рекламных текстах. Выше говорилось, что понятие «речевой акт» является одним из основных понятий прагматического анализа, однако разные авторы трактуют это понятие по-разному. Разнообразие мнений о природе феномена речевого акта отражено и в принципах предлагаемой классификации. До сих пор лингвисты не пришли к единому мнению о количестве групп речевых актов и даже об их названиях. В рекламе каждое слово служит продаже продукта, поэтому работать над ним необходимо, исходя из высоких художественных и экономических требований. Выбор языковых единиц также требует их

специфической стилистической ограниченности в речевом процессе. С прагматической точки зрения в рекламе успешное выполнение целевого речевого акта требует привлечения внимания адресата к определенному товару, создания у реципиента желания совершить покупку. На основании реализации определенных коммуникативных стратегий рекламный дискурс можно отнести к прагматическому типу дискурса. Прагматическая направленность любого рекламного текста связана с намерением рекламодателя побудить реципиента к ответной реакции. Успех коммуникативного воздействия с помощью рекламы во многом определяется тем, насколько успешным было это воздействие.

**Ключевые слова:** лингвистика, реклама, текст, дискурс, информация, речевые акты, иллокутивный акт, перлокутивный акт.

**Botirova Makhliyo**  
teacher of Termiz State University  
mbotirova@tersu.uz

## EXPRESSION OF SPEECH ACTS IN ADVERTISING

### ABSTRACT

The article analyzed the expression of speech acts in Uzbek advertising texts. It was mentioned above that the concept of "speech act" is one of the basic concepts of pragmatic analysis, but different authors interpret this concept differently. The diversity of opinions about the nature of the speech act phenomenon is also reflected in the principles of the proposed classification. Until now, linguists have not agreed on the number of groups of speech acts and even their names. In advertising, every word serves to sell the product, so it is necessary to work on them based on high artistic and economic requirements. The choice of language units also requires their specific stylistic limitation in the speech process. From a pragmatic point of view in advertising, the successful performance of a targeted speech act requires attracting the addressee's attention to a certain product, creating a desire to buy in the recipient. Based on the implementation of certain communication strategies, advertising discourse can be included in the pragmatic discourse type. The pragmatic direction of any advertising text is related to the advertiser's intention to encourage the recipient to respond. The success of the communicative effect with the help of advertising is largely determined by how successful this effect was.

**Key words:** linguistics, advertising, text, discourse, information, speech acts, illocutionary act, perlocutionary act.

### KIRISH

Nutqiy akt lisoniy va nolisoniy xususiyatlardan tashkil topib, uch bosqichli nutqiy faoliyat sifatida namoyon bo'ladi: lokutiv, illokutiv va perlokutiv. Lokutiv harakat ba'zi xatti-harakatlar, voqea-hodisalar haqida ma'lumot berishga qaratilgan bo'ladi. Agar muloqot jarayonida asosiy mazmunni o'zida tashigan so'zlar faqat yozuvlardagina qolib ketsa, lokutiv harakat sodir bo'lmaydi. Masalan: Sochlarga yorqin jilo baxsh etadi, sochlar xuddi salondan keyingi ko'rinishda, Syoss. Bu misolda shampun haqida axborotning oddiy ma'lumot shaklida berilishi lokutiv nutq aktidir. Illokutiv akt lokutiv nutqdan farqli ravishda tasvirlangan obyektning taxminiy aniq maqsadi borligini ko'rsatadi, adresantga ma'lum bu maqsad tinglovchiga yetkaziladi: Syoss – shampun tanlashda adashmang. Mahsulotni sotib olishga undash maqsadi o'z ifodasini topgan mazkur matnda illokutiv nutqiy faoliyat ifoda etilgan. Tilshunos olim J.R.Searlning fikriga ko'ra, illokutiv nutq akti yoki ko'rsatmalari adresant tomonidan adresatning biron bir narsani qilishiga undashidir. Illokusiya (lot.ichida) shaxslararo (muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi) maqsadli munosabatlarning ifodalanishidir. Reklamada pragmatik nuqtai nazardan, maqsadli nutq aktining muvaffaqiyatli bajarilishi ma'lum bir mahsulotga adresat e'tiborini jalb qilishni, qabul qiluvchida sotib olish istagining paydo bo'lishini talab qiladi. Bu maqsadlar illokusiyaning asosiy xususiyati sanaladi.

### ASOSIY QISM

Reklama matnlari uchun maqsadli nutq aktlarini quyidagicha ajratib olish mumkin: adresat tomonidan bajariladigan harakatning majburiyligi; adresatning ijtimoiy mavqei; adresat ehtiyoji. «Fursatni tanlang, Yakobsni tanlang. Yakobs aromagiya!», «Nazaferon – yaqinlaringizni himoya qiling!» kabi reklamalar bir tomondan qabul qiluvchining istak va ehtiyojlariga javob beradigandek tuyiladi, boshqa tomondan, chaqiruv imperativ shaklida amalga oshiriladi. Ammo undash holatida adresant va adresatning pozitsiyalari assimetriyasi yotadi.

Reklama matnida undash va buyurishdan tashqari taklif-maslahat, ogohlantirish ma'nolari ham bo'lishi mumkin.

**Taklif** – Ehtimol, siz shu qadar charchaganingizdan kechalari uxlolmaysizmi? Bel va mushaklardagi og'riqlar, oyoqlaringizni holi yo'qmi? Agar sizning uyingizda sizning shaxsiy masajistingiz paydo bo'lsa, nima bo'lar edi? E'tiboringizga universal relaks massajyor ini taqdim qilamiz. Ushbu ixcham qurilma 2500 aylanma harakatlarni amalga oshirishga qodir. Bu hatto ish ustalarining qo'lidan ham kelmaydi. U stressni qoldiradi, mushaklarni tonus holiga keltirib, kuchingizni tiklaydi. Faqat qurilmani elektr manbaiga ulang. To'rt turdagi xizmatdan birini tanlang va zavqlaning.

**Ogohlantirish** – Agar yo'tal vaqtida davolanmasa, tasavvur qilib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Gerbion – yo'tal va uning oqibatlarini hal qiladi. Gerbion – yo'talni zabt etadi.

Aslida takliflar uni qabul qiluvchi nuqtai nazaridan harakat qilishga undaydi va adresantning ham, adresatning ham manfaatlariga mos keladigan nutq harakatlariga ishora qiladi. «Bu munosabat so'zlovchi nutqiga xos buyruq, iltimos, va'da, ogohlantirish, minnatdorlik kabi mazmunli shakllar bilan to'ldiriladi. Bularning barchasi nutqiy akt nazariyasiga taalluqli masalalar ekanligi bilan xarakterlanadi». Pragmatikada nutqiy ta'sir etish vositalariga pragmatik mazmunni aniqlashtiruvchi fe'llar kiradi. Reklama matnlarida qo'llanuvchi quyidagi illokutiv fe'llar undash, taklif, buyruq singari pragmatik mazmunni ro'yobga chiqaradi: Keling! Tanlang! Taqqoslang! Sotib oling!

Reklama berishda yuqorida aytganimizdek, illokutiv nutq akti ma'lum bir sinf vakillarining ehtiyojlaridan tashqari fasllarning almashinuviga ham qaratiladi. Fasllar almashinuviga qarab ko'pincha dori mahsulotlari reklamalari o'zgarib boradi. Masalan, kuzning oxirgi va qishning barcha oylarida shamollashga qarshi dori reklamalari faol bo'lsa, bahor oyida ko'proq allergiya bilan bog'liq reklamalar ustunlik qiladi.

1. Ratsional rag'batlantiruvchi nutq aktlari doimiy bo'lishi mumkin bo'lgan xaridorning fikriga asoslanib ma'lumot beradi, dalillar keltiradi. Masalan: Rossiyalik ayollarning 98 foizi natijadan mamnun. Harakat qilib ko'ring! – Dunyo bo'ylab stomatologlar tomonidan tavsiya etilgan tish cho'tkasiga ishonib. Sizga kerak bo'lgan narsani topa olmayapsizmi? Adabiyotlarni tanlash xizmatidan foydalaning. – Roumingda hech bo'lmaganda ob-havo haqida gapiring va behuda pul sarflamang! Illokutiv maqsadda qo'llangan fe'llarda nutqiy harakat kuchini namoyon qilish qanchalik muhim bo'lmasin, lekin bu maqsad kuchning faqatgina bir qismi, bo'lagidir. Zero, nutqiy harakatda kommunikativ mazmunning to'liq hosil bo'lishi uchun maqsaddan tashqari, unga erishishni ta'minlovchi vosita va shart-sharoit ham mavjud bo'lishi talab qilinadi. Ayni paytda, kommunikativlik tushunchasi faqat so'zlovchi bilan bog'liq bo'lmasdan, tinglovchini ham e'tiborga oladi, zero, muloqotda so'zlovchi va tinglovchining ishtiroki muhimdir. Bu esa, o'z navbatida, illokutiv va perlokutiv aktlarning o'zaro munosabatini taqozo etadi. Yuqoridagi nutqiy aktlarning uchala qismi birlashgandagina adresatni jalb qila oladigan reklama matnini yaratish mumkin bo'ladi.

Nutqiy aktning yana bir bosqichi perlokutiv nutq aktidir. Perlokusiya – bu nutq harakatlarining adresatga ta'siri, boshqacha aytganda, aniq bir maqsadda bayon qilish orqali erishilgan ta'sir. Demak, perlokusiya tasvirlangan obyekt harakati aniq bir yo'nalishda bayon etilib, maqsadli natijani aks ettiradi. Masalan, reklamada Tomog'ingiz og'riyaptimi? Optiprim iching jumlasini orqali adresatning aytmoqchi bo'lgan fikrini adresant o'zi istagan maqsadda anglaydi. Masalan, adresat uning g'amxo'rlikini eshitib, u taklif qilgan dorini ichishga rozi bo'ladi. Psixologik nuqtai nazardan undash – bu boshqa odamlarda his-tuyg'ularni yoki istaklarni qo'zg'atishga qaratilgan har qanday harakat, xabarda yoki harakatdagi turtkidir. Reklama jarayonida undash

harakati hissiyot bilan birga tavsiflanadi. Masalan, reklama sohasida hissiy muhit yaratadigan jozibadorlik shiorni eslab qolishga va mahsulot brendini xotirada mustahkamlashga yordam beradi. Reklama jozibas, bir tomondan, qabul qiluvchining foydasiga qaratilgan, chunki u biror bir narsani taklif qiladi. Hissiy nutq aktlari, doimiyalaridan farqli o'laroq, yorqin, ixchamdir va ular ko'pincha unutilmas reklama shiorlariga aylanadi. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan maqsadli reklamalardagi hissiy murojaatlar (gazlangan ichimliklar, shokolad, saqichlar reklamasi) boshqalariga nisbatan yuqori motivatsiyaga ega. Aynan shunday reklamalar hissiyotga boyligi bilan yosh auditoriyani o'ziga jalb qiladi – O'zingizni chanqog'ingizdan ozod qiling! Doim bo'ling! – Ta'mni sinab ko'ring! – Hushyorlikni uyg'oting! kabi:


Adresatning qiziqishini oshirish uchun mahsulotlar ko'pincha jamiyatdagi mashhur insonlar tomonidan reklama qilinadi: Menga yoqdi. Yangi format mahsulotning tabiiyligi va ekologik ekanini yanada ko'proq tasdiqlaydi. O'zbekiston mevalaridan tayyorlangan. Foydali va mazali degan yozuvlar diqqatimni tortdi.

### XULOSA

Reklama matnlaridagi har uchala nutq akti namunalari ijtimoiy ta'sir etish doirasiga ko'ra adresatni zudlik bilan fikrlashga majbur etadi, ma'lum choralar ko'rishga undaydi, uning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi va tezkor natijalarga erishish uchun ko'proq xaridor yig'a oladi. Demak, reklama matnlaridagi nutq aktlari uning dizayni, sifati va umuman, turli xususiyatlarini yetkazib berishda yetakchi o'rinni egallaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Chiniqulov N.J. Peshlavhalarining lisoniy xususiyatlari. Monografiya. –Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot matbaa uyi, 2019. –B. 120
2. Mamirova D.Sh. O'zbek reklama matnlarining sotsiolingvistik xususiyatlari Filologiya fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD) avtoreferati Samarqand 2022. B – 48.
3. Omonov Sh.I. O'zbekistonda reklama qabul qiluvchilar shaxsining etnopsixologik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD) avtoreferati Toshkent 2022. B – 45.
4. Xolboyeva A.Sh. Turizmga oid reklamalarda ritorik aspektning chog'ishtirma tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD) avtoreferati Toshkent 2022. B – 61.
5. Muminova A.A. Reklama matnida undash kategoriyasining verballashuvi. Filologiya fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD) avtoreferati Toshkent 2022. B – 77.
6. Axtyamov A.E. Reklama matnlarining o'zbek, rus va nemis tillari misolidagi pragmalingsvistik tahlili. Filologiya fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD) avtoreferati Toshkent 2022. B – 60.
7. Baxodirovna B. M. reklama nutqi tilshunoslikning tadqiqot ob'ekti sifatida / / O'rta Osiyo adabiyot, falsafa va Madaniyat jurnali. – 2023. – T. 4. – №. 4. – S. 233-237.
8. Ботирова М. О 'ЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА РЕКЛАМА МАТНЛАРИ ТАДҚИҚИГА ДОИР ИШЛАР ТАҲЛИЛИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2023. – Т. 6. – №. 3.
9. Собирова Д.Р. Тиббий рекламаларнинг социопрагматик хусусиятлари. Филол.фан. фалсафа д-ри (PhD) автореф. – Қарши 2022. Б – 49
10. Худойбердиева С.Х. Ўзбек маркетинг терминологияси. Филол.фан. фалсафа д-ри (PhD) автореф. – Тошкент 2022. Б – 46
11. Репьев А.П. Язык рекламы. – Москва: МГУ, 2008. – 165 с.
12. Ривз Р. Слова в рекламе. – Москва, 1973. – 110 с.



# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Zakirova Madina Damirovna**

Teacher of Uzbek State World Languages University

## MAIN TASKS OF COGNITIVE - PRAGMATIC STYLISTICS

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### Abstract

This article investigates the interaction of cognitive and pragmatic approaches within the realm of stylistics, exploring the way these two cross-disciplinary approaches advancing the comprehension of reading and decoding processes connected with literary analysis. Cognitive and pragmatic analysis collectively manifest integrated approach to literary text analysis, merging the methods linguistic analysis along with fundamental principles of cognitive and pragmatic linguistics for gaining a more profound insight into text perception and interpretation processes. The interdisciplinary approach investigates the interplay of textual characteristics, cognitive processes and contextual factors, introducing more universal perspective of literary work interpretation. Cognitive-pragmatic stylistics elucidates the way the literary text operates as an intricate communicative act. The novel approach shifts the focus from traditional models that are geared towards a writer, to reader-oriented approach, underscoring the way text is processes, interpreted and comprehended by a reader. In the long run, this cross-disciplinary extends the understanding of stylistics, bridging the gap between linguistic analysis and cognitive science allowing for more in-depth insight into the interconnection between the literary text and a reader.

**Key words:** cognitive stylistics, pragmatic stylistics, pragmatic principles, cognitive mechanisms.

**Zakirova Madina Damirovna**

O'zbek davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

## KOGNITIV-PRAGMATIC STILISTIKANING ASOSIY VAZIFALARI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola stilistik sohasida kognitiv va pragmatik yondashuvlar o'rtasidagi munosabatni tadqiq qiladi, bu ikkala muxofiq so'raladigan eng bosqichli o'qish va tahlil jarayonlarining tushunchalarini oshirishda o'z ta'siri va tarqalgan yo'l haqida. Kognitiv va pragmatik tahlil birlashmasi stilistikning integratsion yo'nalishini namoyish etadi, lingvistik tahlil usullarini kognitiv va pragmatik linvistikaning asosiy prinsiplari bilan biriktirib, matnni o'qish va tarjima jarayonlarini tushunishga oid chuqur nazariya olish uchun. O'zlashtirilgan yo'nalish, matnni o'qish, tarjima qilish va tarjima qilish jarayonlarini tadqiq qiladi. Kognitiv-pragmatik stilistika adabiy matnni murakkab kommunikatsiya amali sifatida qanday ishlayotganini tushuntiradi. Yangi yak approach modelni yozuvchiga yo'naltirilgan qadriy modellardan o'quvchi yo'naltirilgan modelga aylantiradi, matnni o'qish, tushuntirish va anglash jarayonlari to'g'risida zor yo'nalishlar ko'rsatadi. Uzun muddatda, bu muzokaralar stilistikani tushuntirishni kengaytiradi, lingvistik tahlil va kognitiv ilmning o'rtasida

bo'lgan o'rnini ko'rsatadi, adabiy matn va o'quvchi o'rtasidagi bog'lanishni tushuntirish uchun ko'proq chuqur tushuncha beradi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv stilistika, pragmatik stilistika, pragmatik printsiplar, kognitiv mexanizmlar.

**Закирова Мадина Дамировна**

Преподаватель Узбекского Государственного Университета Мировых Языков

## ОСНОВНЫЙ ЗАДАЧИ КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКОЙ СТИЛИСТИКИ

### АННОТАЦИЯ

В этой статье исследуется взаимодействие когнитивного и прагматического подходов в сфере стилистики, исследуя, как эти два междисциплинарных подхода способствуют пониманию процессов чтения и декодирования, связанных с литературным анализом. Когнитивный и прагматический анализ в совокупности представляют собой комплексный подход к анализу художественного текста, объединяя методы лингвистического анализа с фундаментальными принципами когнитивной и прагматической лингвистики для более глубокого понимания процессов восприятия и интерпретации текста. Междисциплинарный подход исследует взаимодействие текстовых характеристик, когнитивных процессов и контекстуальных факторов, представляя более универсальный взгляд на интерпретацию литературного произведения. Когнитивно-прагматическая стилистика раскрывает механизм функционирования художественного текста как сложного коммуникативного акта. Новый подход смещает акцент с традиционных моделей, ориентированных на писателя, на подход, ориентированный на читателя, подчеркивая, как текст обрабатывается, интерпретируется и понимается читателем. В конечном итоге этот междисциплинарный подход расширяет понимание стилистики, устраняя разрыв между лингвистическим анализом и когнитивной наукой, позволяя более глубоко понять взаимосвязь между художественным текстом и читателем.

**Ключевые слова:** когнитивная стилистика, прагматическая стилистика, прагматические принципы, когнитивные механизмы.

Stylistics predominantly focuses on a detailed linguistic analysis and the methods of compositional techniques as a basis for the decoding of literary texts which made this discipline “writerly”-oriented. However, stylistics falls short of accounting for the cognitive structures and mental processes that inform a reader, and which a reader utilizes when reading and decoding literary texts. In other words, “Readerly” dimension was missing in stylistics. Cognitive stylistics is a novel discipline that utilizes insights from cognitive linguistics and artificial intelligence so as to amplify the existing methods of analysis. The new discipline shifts the focus from exploring text and composition to those models that investigate the human cognition during a reading process. This new shift that centers on the models that sets forth how knowledge is stored which readers put into action and on how knowledge that is stored in a human being’s mind is modified and expanded during a reading process. Cognitive stylistics predominantly explores cognitive processes activated during a reading process and how a reader processes meaning of a text rather than investigates the way a writer creates a text. Investigating this way of reading calls for a meticulous reconsideration of the existing models of stylistic analysis (Simpson, 2004:39).

Luzina reckons that cognitive direction of stylistics merges two types of investigations 1) investigations that elaborate mutual theoretical principles of stylistics on the basis of cognitive linguistics; 2) investigations that introduce cognitive grounding of stylistic devices, expressive language means that traditionally belong to stylistics (Лузина, 2000:208). Luzina also emphasizes that fundamental stylistic notions are substantiated by means of problems that play a part in cognitive linguistics such as comprehension, text interpretation, intention, an addressor/writer’s goal, language means choice, coding and decoding process of stylistic information (Лузина, 2000:208).

Semino and Culpeper distinguish traditional stylistics from cognitive stylistics. According to the scholars, cognitive stylistics elucidates the way text is decoded and why the interpretations which readers arrive at normally vary. Cognitive stylistic approach connects language elements with cognitive processes and mechanisms that affect the language input and output (Semino and Culpeper, 2002).

Scarcity of the analysis of stylistic devices by means of a traditional approach does not allow for getting a profound insight into the structure of stylistic device which represent the set of mental and cognitive processes of comprehending knowledge structures and generating conceptual world pictures (Ашурова, 2005:8). Ashurova underscores that there is a need for generating integral concepts of stylistic devices as a special representation of knowledge structures (Ашурова, 2005:8).

According to Dolezel (Dolezel, 1990:6), “on the one hand, being the stage of development of mereological model of poetics, represented as the system of views on literature, literary semantics as a structure, cognitive poetics like its ancestral disciplines such as Aristotle’s poetics, universalist poetics up to semiotic poetics endeavors to provide answer to the questions concerning the ways of representing the world in the literary work, the nature of creativity and correlation of literary language and everyday language” (Dolezel, 1990:6-7). On the flip side, according to Freeman, “deriving from contemporary paradigm, cognitive poetics or cognitive theory of literature serves as an instrument that decodes and accounts for cognitive processes and strategies, underlying the formation and interpretation of literary text as product that cognizes mind in the context of physical and socio-cultural worlds, text and perception” (Freeman, 2002: 253-254).

Arlauskayte analyzing Peter Stockwell’s book “Cognitive Poetics. An Introduction” highlights that cognitive poetics primarily puts the analysis of reading process or what we do during a reading process into spotlight rather than text analysis. Reading boils down to a wide range of contexts and cognitive poetics primarily deals with the analysis of relevant contexts – stylistics, stylistic devices, knowledge, figurative features of literary and colloquial language. Cognitive poetics predominantly deals with identifying and analyzing the relevant parameters that enable to comprehend what occurs concerning text comprehension during a reading process which is immersed in a big diversity of knowledge contexts which range from individual, collective to cultural (Арлаускайте, 2004:2).

The foundations of cognitive poetics form the basis of cognitive linguistics and cognitive psychology. Cognitive poetics highlights that a human being’s mental process is profoundly intertwined with the way a language is used and meaning is generated. Cognitive poetics holds that language and cognition go hand in hand as well as a human being mind’s embodiment affects all the language facets, from the way an individual deciphers the text to the way an individual generates a text and comprehends a literary text (Stockwell, 2005:4-5).

Tsur states that cognitive poetics proposes cognitive hypotheses to systematically relate “the specific effects of poetry” to “the certain regularities that take place in literary texts”. According to the scholar, cognitive poetics utilizes cognitive processes for aesthetic purposes that were initially developed for non-aesthetic purposes. It is possible to distinguish three types of cognitive correlates of poetic processes which are the normal cognitive process; some kind of alteration or disturbance of these processes and their adjustment for purposes for which they were not originally intended for, and, lastly, their reorganization in accordance with different principles. In particular, extreme but central cases, this modification may become “organized violence against cognitive processes”. Poetic effects result from some significant inference with, or at least delay of, the regular course of cognitive processes, and making use of its effects for aesthetic purposes (Tsur, 2011).

Cognitive poetics goes hand in hand with the field of literary criticism. Cognitive poetics is also geared towards the scheme of “author-text-reader” without being limited to one of other of the points. Primarily addressing a reading process of a literary text, with psychological and linguistic dimensions, this discipline elucidates whether it is an author’s conceptual world picture or a reader’s standpoint, and how those interpretations are made manifest in textuality. Therefore, cognitive poetics is not merely a shift in emphasis, but is a drastic re-consideration of the whole process of literary activity (Stockwell, 2005:5). Arlauskayte states that the triangle of “author-text-reader” is reconsidered in

terms of literary analysis and takes into account the generation and understanding of the text where individual, collective and cultural variants can be tracked (Арлаускайте, 2004:2).

As it was mentioned earlier, cognitive stylistics centers on the correspondence between linguistic choices and effects, stylistics explores both texts and readers' interpretation of texts. It is noteworthy to say that foregrounding deals with the cognitive effects of particular linguistic choices and patterns (Mukarovsky, 1970).

According to Djusupov, cognitive stylistics is geared towards investigating the selection of information, information organization, the way a reader perceives, processes and interprets stylistic devices and stylistic categories as well as cognitive research methods that are utilized when a cognitive stylistic analysis is conducted. Cognitive stylistics predominantly makes use of a series of theories and principles such as foregrounding theory, cognitive metaphor theory and conceptual blending (Джусупов, 2011:70).

Pragmatics investigates language in use, the correlation between signs and their users, how language users converse and decode linguistic behavior. No need to say that utilizing language, people not only talk or write, but they perform actions, language is deployed in situations which encompass both a linguistic and a nonlinguistic context and addressers intend to modify the knowledge, attitudes, beliefs or behavior of others through the language. Pragmatics predominantly explores what language users imply, what actions they make, and how they do it in real situations, what they articulate or write to be heard or read, whom they have intention to make an impact on (Hickey, 2014:7-8). In the meantime, stylistics primarily explores how close attention to language use can elucidate how texts are comprehended and evaluated. The primary goal of stylistics is to set forth how different readers arrive at certain understandings rather than create readings. Work in stylistics targets at elucidating ways in which readers respond to literary text whether or not they know certain literary interpretive or linguistic frameworks.

Pragmatic stylistic plays a pivotal part in accounting for how certain sets of contextual assumptions interact with linguistically encoded meanings to generate interpretations (Chapman&Clark, 2014:7). Pragmatic stylistics is a study of language-in-use which extensively investigates the word choices made from among the wide range of grammatically correct ways of expressing one and the same thing, which is semantically or truth-conditionally equivalent. In addition, it describes how such word choices relate to the overall situation in which the language is employed, including what the interlocutors are already aware of and are not aware of, and what the addresser aims at attaining by means of language-use. Pragmatic stylistics endeavors to display how the different possible ways of saying "the same" thing (style) hinge on the factors which compose the situation (pragmatic factors). To put it in another way, the linguistic surface will be seen as determined by "fit" or correlation between stylistic choices and the nonlinguistic situation. Thus, statements with identical or virtually identical meaning (in the sense of relationship with truth conditions, semiotic content or semantic value) may differentiate in their linguistic form and situational appropriateness, and these differences may have pragmatic explanations (Hickey, 2014:8).

According to Ashurova, pragmatic stylistics is geared towards investigating linguistic sign system of all the levels, the way they are selected and arranged to accomplish the addresser's communicative and pragmatic intentions, how linguistic factors have to do with extra-linguistic factors such as communicative, sociocultural contexts and background knowledge structures, how stylistic function of language means allow for conveying meaning effectively. What is more, pragmatic stylistics explores linguistic personality of the speaker, his/her personal characteristics, psychological state of mind and individual conceptual world picture (Ashurova, 2017).

Stylistic with a pragmatic component incorporates the study of all the conditions, linguistic and extralinguistic, which allow the rules and potential of a language to combine with the concrete factors of a situation so as to generate a text that aims at bringing about particular internal changes in the addressee (Hickey, 2014:8).

The ultimate objective of pragmatic stylistics is not to suggest new readings or propose interpretations or evaluations that have not been identified by other readers, but the primary goal is to comprehend and set forth how such readings, interpretations and evolutions emerge, evolve and

spread. The main feature of pragmatic stylistics is how pragmatic theory can elucidate and substantiate intuitive interpretations (Chapman&Clark, 2014:6).

Ashurova contends that one of the ultimate objectives of pragmatic stylistics is pragmatic effectiveness of interaction that hinges on both linguistic and extra-linguistic factors. The scholar highlights that stylistic devices target at exerting a pragmatic effect such as capturing a reader's attention, piquing his/her interest, making an emotional impact and stimulating addressee's creativity (Ashurova, 2017).

### Conclusion:

It is possible to draw a conclusion that intersection of pragmatic and cognitive stylistics combines cognitive mechanisms and pragmatic principles in an attempt to investigate stylistic devices. In other words, this interdisciplinary approach elucidates how an addressee decodes and derives a meaning from literary and media texts. To be more specific, pragmatic cognitive stylistics investigates how stylistic devices such as metaphor, metonymy and irony is perceived by a reader, how a reader resorts to cognitive mechanisms, make an inference about the communicative intention and addresser's attitude on the basis of linguistic and extra-linguistic factors and calls forth emotional responses. Another objective of pragmatic cognitive stylistics is to explore a reader's response and what role context plays in interpretation process. It delves into how a reader's knowledge structures, cultural background and personal experience affects a comprehension and decoding process.

### References

1. Ashurova, D.U. Main tasks of Pragmatic Stylistics// Issues on Philology. Scientific methodological journal. - Tashkent, 2017, №2, -P.28-33.
2. Chapman, S. & Clark, B. (2014). Introduction: Pragmatic Literary Stylistics // Pragmatic Literary Stylistics. / Ed. by Chapman, S., Clark, B. London: Palgrave Macmillan UK.
3. Dolezel, L. (1990). Occidental Poetics: Tradition and Progress. Lincoln; London: University of Nebraska Press.
4. Freeman, M. Poetry and the scope of metaphor: Toward a cognitive theory of literature // Metaphor and Metonymy at the Crossroads: A Cognitive Perspective / Ed. by Antonio Barcelona. Berlin; N. Y.: Mouton de Gruyter, 2002. P. 253–281.
5. Semino, E. & Culpeper, J. (2002). Foreword // Cognitive Stylistics: Language and Cognition in Text Analysis. Amsterdam: John Benjamins.
6. Simpson, P. (2004). Stylistics: A resource book for students. London: Routledge.
7. Stockwell, P. (2002). Cognitive Poetics: An Introduction. London: Routledge.
8. Tsur, R. (2011). Aspect of Cognitive Poetics. Cognitive Stylistics: Language and Cognition in Text Analysis, 1, 279–318.
9. Арлаускайте, Н. Проект когнитивной поэтики: дисциплинарные границы // Literature (Literatūra), Issue: 46 (2) / 2004. P. 1–9. URL: <http://www.cceol.com>.
10. Ашурова, Д.У. Новые тенденции в развитии стилистики // Til va nutq system-sath talqinida: materialy nauch.-teor. konf. Samarqand: SamGIYIA, 2005. С. 7–8.
11. Джусупов, Н.М. Когнитивная стилистика: Современное состояние и актуальные вопросы исследования // Когнитивная стилистика: современное состояние и актуальные вопросы исследования, (3) / 2011. P. 65-76.
12. Лузина, Л.Г. Основные направления развития современной стилистики // Лингвистические исследования в конце XX в.: сб. обзоров. М.: ИНИОН РАН, 2000. С. 205–214.
13. Мукаржовский З. Литературный язык и поэтический язык // Пражский лингвистический кружок. М.: Прогресс, 1967. С. 406–431.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

1 МАХСУС СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

SPECIAL ISSUE 1

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000